

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

OBIDJON KARIMOV

YANGI O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI

**OLIV O'QUV YURTLARI TALABALARI, AKADEMIK
LITSEY O'QUVCHILARI ABITURIYENTLAR UCHUN
QO'LLANMA**

(uslubiy qo'llanma)

NAMANGAN - 2016

UO'K: 821.512.133-9

KBK: 84 (5O'zb) 7

K – 35

Karimov, Obidjon

**Yangi o'zbek adabiyoti tarixi: savol-javoblar :o'quv-uslubiy
qo'llanma / O. Karimov.- Namangan: "Namangan"2016**

500 dan ortiq savol-javobdan tashkil topgan ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma filologiya fakulteti talabalari uchun Yangi o'zbek adabiyoti tarixi fanidan tuzildi. Darslik va qo'llanmalarning kamligini hisobga olib, savollarga kengroq javob berishga harakat qilindi. Bu qo'llanma talabalarning mazkur fanni chuqur o'zlashtirishlariga yaqindan yordam beradi, deb ayta olamiz.

Savollarni tuzishda XX asr o'zbek adabiyoti namoyandalari ijodi keng qamrab olindi.

Mazkur qo'llanma filolog-talabalarga va akademik litsey o'quvchilariga mo'ljallangan bo'lib, undan magistrantlar, kasb-hunar kolleji o'quvchilari hamda o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir:

K. ABDULLAYEV – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

M. SULAYMONOV – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M. HAMIDOVA – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Mazkur uslubiy qo'llanma Namangan davlat universiteti ilmiy kengashi
tomonidan nashrga tavsiya etilgan**

ISBN – 978-9943-989-35-1

MUALLIFDAN

Ma'lumki, Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatida ma'naviyatga eng muhim masala sifatida katta ahamiyat berib kelinmoqda. Davlatimiz rahbarining deyarli barcha asarlarida mazkur masalaga jiddiy e'tibor qaratilib, uning asosini tashkil etadigan adabiyotimiz ma'naviyatimizni yuksaltirishda alohida ahamiyat kasb etishi ko'p marta ta'kidlanadi. "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor"¹ risolasi fikrimizga dalil bo'la oladi. Prezidentimiz bu asarda ma'naviyatni, uning ajralmas qismi bo'lgan badiiy adabiyotni yuksak baholab, azaliy qadriyatlarimizni kelgusi avlodlarga yetkazishda uning o'rne va ahamiyati katta ekaniga alohida urg'u beradi.

*"Biz shoir deganda, avvalo, Alisher Navoiydek benazir zotlarni, yozuvchi deganda Abdulla Qodiriy, Oybek singari o'z xalqi uchun nafaqat noyob iste'dodini, ayni paytda butun hayotini bag'ishlagan buyuk va mo'tabar insonlarni tasavvur etamiz... Xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug' bir dargoh deb biladi..."*² deya ta'kidlaydi. Bu hikmatomuz fikrlarda mubolag'a yo'q. Zero, inson o'zligini bilishi kerak, yurti, xalqi tarixini, adabiy merosini tinmay o'rganmog'i lozim. Shundagina kishilarimiz Vatan qadrini yana ham yaxshi tushunadilar. Bu fikrlarimiz Yurtboshimiz tomonidan aytilgan quyidagi fikrlarda o'z tajassumini topgan: *"Bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkin"*³.

Milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy meros deganda talay ma'nolarni anglash mumkin. Shulardan eng muhimi, shubhasiz, o'zbek adabiyoti bo'lib chiqadi. Zero, har bir xalqning adabiyoti dastlab o'z milliy tarixi, an'analari, madaniyati va milliy ma'naviyatini ifodalash bilan qimmatlidir. Chunki adabiyot – ma'naviyat sarchashmasi. U yosh avlodni tarbiyalashda, ular ongiga milliy qadriyatlarimizni singdirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu haqda ham Yurtboshimizning

¹ **Каримов И. А.** Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор.-Т.:Ўзбекистон, 2009.40 б.

² **Каримов И. А.** Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор.-Т.:Ўзбекистон, 2009.6-7- б.

³ **Каримов И. А.** Юксак маънавият – энгилмас куч.-Т.:Маънавият.2008.16-бет.

quyidagi fikrlarini eslatib o'tish joiz bo'lardi: *"Shaxsan men shoir va adiblarni doimo jamiyatning oldingi saflarida yuradigan, hayotni kuzatib, odamlarning yuragida, dunyoqarashida bo'layotgan o'zgarishlarni hammadan avval sezib, ularni ta'sirchan obrazlar, yorqin badiiy bo'yoqlar orqali mahorat bilan yoritib bera oladigan, el-yurt uchun kuyinib yashaydigan fidoyi insonlar, deb bilaman"*⁴.

Bunday purma'no fikrlarni ko'p keltirish mumkin. Qisqasi, millatning yashashi adabiyotga bog'liq (Cho'lpon). Yozuvchi va adabiyotshunoslarimiz o'z iste'dodi bilan odamlarning ongi va dunyoqarashi, madaniy saviyasini yuksaltirish, xalq qalbining kuychisi bolishdek o'g'ir va murakkab, ulug' bir vazifani zimmasiga olgan ekan, iste'dod mas'uliyatini chuqur sezishi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini Yurtboshimiz ko'p bora ta'kidlagan. "Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" asarida fikrini davom ettirib, shunday deydilar: *"Mening fikrimcha, yozuvchilik – bu oddiy kasb emas, xudo bergan iste'doddir. Bu – qismat, peshonaga yozilgan taqdir. Bu kasbga hech qayerda o'qitib, o'rgatib bo'lmaydi. Yozuvchilikning maktabi ham, dorilfununi ham bitta. U ham bo'lsa, bir umr hayotning ichida bo'lish, o'z xalqi bilan hamdardu hamnafas bo'lib yashash, haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishdir"*⁵.

XX asr o'zbek adabiyoti ko'p asrlik milliy adabiyotimiz tarixida alohida o'rin egallaydi. Garchand bu davr adabiyotining aksar namoyandalari sobiq sovet davrida yashab ijod etgan va ularning asarlari shu davr mafkurasi ta'siridan xoli bo'lmagan bo'lsa-da, milliy adabiyotimiz shu davrda jahon adabiyotining badiiy yutuqlaridan, mumtoz va zamonaviy ijodkorlarning tajribalaridan bahramand bo'ldi. Bu hol o'zbek adabiyotining badiiy imkoniyatlarini kengaytirib yubordi. XX asr o'zbek adabiyoti jahon adabiyotining tarkibiy qismi sifatida rivojlana boshladi.

⁴ **Каримов И. А.** Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор.-Т.:Ўзбекистон, 2009.8- б.

⁵ **Каримов И. А.** Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор.-Т.:Ўзбекистон, 2009.17-18- бетлар.

Bugungi kunda ta'limning barcha sohaları singari Yangi o'zbek adabiyoti fanining o'qitilishi tubdan yaxshilanib bormoqda. Yangi o'quv reja va dasturlar, ko'plab o'quv-uslubiy qo'llanma va elektron darsliklar yaratildi, yaratilmoqda.

Ma'lumki, Yangi o'zbek adabiyoti fani o'zbek tili yo'nalishining 4-kurs 7-8-semestrlari davomida o'qitiladi. Ma'lumotlar nihoyatda ko'p. Fanni o'zlashtirishda yuqorida aytib o'tilgan ilg'or usullardan, gazeta, radio, televideniye materiallaridan hamda badiiy asarlardan foydalaniladi. Bu esa Yangi o'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari va taraqqiyot bosqichlari, istiqlol davri o'zbek adabiyoti, XX asr boshlaridan hozirgi adabiy jarayongacha bo'lgan davrdagi yozuvchi va shoirlar ijodini yanada chuqurroq o'rganishga, badiiy asarni tahlil qilishga yordam beradi.

Shularni hisobga olgan holda ushbu uslubiy ko'rsatma o'ziga xos, noan'anaviy tarzda yaratildi. To'plangan tajribalarga tayanib yozilgan bu qo'llanmada o'quv dasturida hayoti va ijodi o'rganilishi ko'zda tutilgan ijodkorlarimiz qamrab olindi. Bunda mavzular ketma-ketligiga amal qilindi. Yozuvchi hayoti va ijodi bilan bog'liq asosiy tayanch tushunchalar atroflicha qamrab olinib, ularni savol-javob shaklida berishga harakat qilindi. Bu esa talabaga yozuvchi ijodini, asarlari tahlilini har tomonlama chuqur o'zlashtirishga, olgan nazariy bilimlarini amalda sinab ko'rishga imkon yaratadi, deb o'ylaymiz. Savollarni tuzishda iloji boricha asosiy darsliklardan⁶ unumli foydalanildi.

Shuningdek, akademik litseylarning 3-bosqichlarida o'zbek adabiyotining XX asr boshlaridan hozirgi kunga qadar bo'lgan davri namunalari keng o'rganiladi⁷. Mazkur majmua asosan shoir-yozuvchilarning asarlaridan parchalar berish bilan cheklangan. Qo'llanmani tayyorlash jarayonida buni ham diqqat-e'tiborimizda tutgan holda ko'proq yozuvchi-shoirlarning hayoti, ijodi va o'rganiladigan asarlaridagi obrazlar tahlili bilan bog'liq ma'lumotlarni berishga harakat qildik. Muallif mazkur qo'llanma yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalarni kutib qoladi.

⁶ Н.Каримов, С. Мамажонов, Б. Назаров, У. Норматов, О. Шарафиддинов. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Университетлар ва педагогика институтлари бакалавр ихтисосини олувчилар учун дарслик. Тошкент “Ўқитувчи” 1999. **Saydulla Mirzayev**. XX asr o'zbek adabiyoti. Darslik. Toshkent “Yangi asr avlodi” 2005. **Sanjar Sodiq**. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. Toshkent “Universitet”, 2005.

⁷ Adabiyot. Majmua. Akademik litseylarning uchinchi bosqich o'quvchilari uchun. Tuzuvchilar: **Boqijon To'xliyev, Tohir Shermurodov, Shoira Isayeva**. Toshkent, 2007.

Mavzu: KIRISH. XX ASR O'ZBEK ADABIYOTI TARAQQIYOTINING ASOSIY BOSQICHLARI

1. XX asr o'zbek adabiyotini yaxlit holda qanday atash mumkin?

XX asr o'zbek adabiyoti yaxlit holda har jihatdan *yangi o'zbek adabiyoti* deb atalishga loyiqdir. Atoqli munaqqid Ozod Sharafiddinov: *“XX asrda bizda jahonning har qanday yuksak talablariga javob bera oladigan yuksak adabiyot yaratildi, deb baralla aytishimiz mumkin. Hikoyachilik, romannavislikda ham, she'riyatda ham, dramaturgiyada ham buning isbotini o'nlab uchratish mumkin”*⁸, - deb yozgan edi. Bu adabiyotning rivojiga xos bosh xususiyat tinimsiz yangilanib borishi va shu yo'ldagi qiyinchiliklar, kurashlar, bahs-munozaralar, kashfiyot va yo'qotishlar tarixidan iborat. Yangi o'zbek adabiyotining tug'ilishi, shakllanishi, rivoji bir asr davomida uch xil ijtimoiy tuzum – rus chorizmi istibdodi, sho'ro hokimiyati va istiqloq davrida xilma-xil siyosiy, mafkuraviy oqimlar – jadidchilik, bolshevizm va milliy istiqloq mafkurasi ta'sirida taraqqiy etdi.

2. Yangi o'zbek adabiyoti rivojiga xos muhim xususiyatlar qaysilar?

Yangi o'zbek adabiyoti mamlakat, xalq hayoti, davrning ijtimoiy-siyosiy voqealari bilan mustahkam aloqadorlikda tug'ildi, shakllandi, rivojlandi. Ko'p asrlik tariximizda so'z san'ati hech qachon yurt qayg'usi, xalq turmushi bilan bu qadar yaqin aloqada bo'lgan emas. Bu haqda professor Naim Karimov quyidagilarni yozgan edi: *“XX asr – insoniyat tarixidagi eng ulug' asrlardan biri. Bu asrda qanchalik ko'p qon to'kilgan, qanchalik nohaqliklar va adolatsizliklar ro'y bergan bo'lmasin, insoniyat xuddi shu asrda kelajak sari qadam tashladi... XX asr o'zbek adabiyoti xalq va jamiyat hayoti bilan mustahkam aloqa o'rnatdi. Bu adabiyot xalq va jamiyatni o'z ortidan yetaklab, ularni hurriyat va milliy taraqqiyot manzillariga olib borishga intildi va bu intilishda muayyan yutuqlarga erishdi”*⁹. Bu bosqich adabiyotining kuchli tomonlari ham, ojiz jihatlari ham shu xususiyatlar bilan izohlanadi. Xalq hayotiga, kundalik turmush hodisalariga yaqinlik, bir tomondan, asarlarning hayotiyiligini, haqqoniyiligini oshirgan, realizmning qaror topishini ta'min etishda muhim o'rin tutgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, adabiyotning vazifasini soddalashtirish, Abdulla Qahhor so'zlari bilan aytganda, adabiyotning atomga teng qudratini o'tin yorishga sarflashdek hollar ham yuz berdi. Eng muhimi, XX asr o'zbek adabiyotida realizm uzil-kesil qaror topdi, bizda ham zamonaviy jahon realistik adabiyotining durdonalari bilan tenglasha oladigan hikoya, qissa, roman, drama va she'riy asarlar paydo bo'ldi.

3. Yangi o'zbek adabiyotining tashkil topishi va rivojida qaysi holat alohida tahsinga sazovor voqea sifatida baholandi?

Bu matbuot va nashr ishlarining keng tus olishi bo'ldi. XIX asrning oxirlarida chiqa boshlagan “Turkiston viloyatining gazetasi” dastlabki tajriba

⁸ **Шарафиддинов Озод.** Уч чўққининг бири. – “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 2001 йил, 23.ХІ.

⁹ XX аср менинг тақдиримда. – “Жаҳон адабиёти” журнали, 2001 йил, январ сони, 24-бет.

maydoni bo'ldi. XX asr boshlariga kelib "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat", "Samarqand", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona", "Hurriyat" gazetalari, "Oyna", "Al-isloh" jurnallari qalam ahlining bosh minbariga aylandi. "Ishtirokiyun", "Qizil O'zbekiston", "Qizil bayroq", "Turkiston", "Yangi Farg'ona", "Yangi Sharq", "Inqilob", "Mushtum", "Bilim o'chog'i", "Maorif va o'qituvchi", "Yer yuzi", "Alanga" kabi gazeta-jurnallar o'sha davr adabiyotining ko'zgusi edi. Adiblarning asarlari ham qo'lda ko'chirilmay, zamonaviy bosma usulida yuzlab, minglab nusxalarda alohida kitob holida chiqa boshladi. Umuman, yangi o'zbek adabiyoti ilk qadamlaridanoq ommaviy adabiyot sifatida qad rostlay boshladi. 70-80-yillari "Sharq yulduzi", "Guliston", "Yoshlik" kabi jurnallar "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" haftaligi nusxasi bir necha yuz mingga yetdi.

4. Qaysi holatlar Yangi o'zbek adabiyoti rivojiga, ifoda tarziga yangi xususiyatlar olib kirdi?

Yangi o'zbek adabiyoti rivoji ayni paytda axborot vositalari, san'atning ko'plab yangi turlari – teatr, kino, radio, televideniyaning tashkil topishi jarayonida ular bilan o'zaro hamkorlik va raqobatda kechdi. Bu hol ham so'z san'ati uslubi, ifoda tarziga yangi xususiyatlar olib kirdi. 30-yillardayoq jahon adabiyotining "Hamlet", "Otello", "Boris Godunov", "Yevgeniy Onegin", "Demon" kabi nodir namunalarning badiiy go'zalligini o'zbek tilida ifoda etish imkoniyati tug'ildi. Keyinroq "Shoh Edip", "Ilohiy komediya", "Faust", "Urush va tinchlik", "Jinoyat va jazo"dan XX asr adabiyotining g'oyat xilma-xil yo'nalishlariga mansub "Usta va Margarita", "It yurak", "Oshkora qotillik qissasi", "Judolikdagi yillar", "Qumdagi xotin", "Qiyomat" gacha, F. Kafka, J. Joys, A. Kamyu, H. Heyne kabi modernizm¹⁰, postmodernizm¹¹, absurd¹² adabiyoti namoyandalarining o'ta murakkab asarlari ham o'zbek tilida chop etildi.

5. XX asr adabiyotimizda qaysi janrlar paydo bo'ldi?

Yangi o'zbek adabiyotining tug'ilishi, shakllanishi, rivoji bir asr davomida uch xil ijtimoiy tuzum – rus chorizmi istibdodi, sho'ro hokimiyati va istiqloq davrida, xilma-xil siyosiy, mafkuraviy oqimlar – jadidchilik, bolshevizm va milliy istiqloq mafkurasi ta'sirida taraqqiy etdi. Asr boshida adabiyotimizda roman, qissa, drama, komediya, sochma, erkin she'r, sonet¹³ kabi bir qator janrlar paydo bo'ldi.

6. XX asr adabiyoti qanday davrlashtiriladi?

Yangi o'zbek adabiyoti xalq va jamiyat hayotining o'ziga xos badiiy tarixidir. Uning asosiy tasvir ob'yekti borliq hayot – yangi voqelikdir. Bu adabiyotning mavzu va mundarijasi yangidir, u bevosita yangi hayotni aks ettiradi. Yangi o'zbek adabiyoti hayotdagi barcha muhim voqealarga faol aralashadi va

¹⁰Modernizm (fr. moderne – eng yangi, zamonaviy) – san'at va adabiyotdagi realizmga zid yo'nalish.

¹¹Postmodernizm (fr. postmodernisme - modernizmdan keyingi) – o'tgan asrning ikkinchi yarmidan adabiyot va san'atda, umuman, ijtimoiy-gumanitar sohalarida kuzatila boshlagan oqim, ijodiy metod.

¹²Absurd – bema'ni, mantiqsiz.

¹³Sonet (ital. sonetto, provanscha sonnet-qo'shiq so'zidan) – qat'iy she'r shakllaridan biri, shakl xususiyatlariga ko'ra tasnif etiluvchi lirik janr. Sonet o'n to'rt misradan iborat bo'ladi, ya'ni 4+4+3+3 shaklida

ular haqida o'z fikrini obrazli qilib aytadi. Bu adabiyotni quyidagicha davrlashtirish mumkin:

1. Asr boshida o'zbek adabiyoti.
2. 20-yillar adabiyoti.
3. 30-40-yillar adabiyoti.
4. 60-90-yillar adabiyoti
5. Hozirgi adabiy jarayon (90-yillardan boshlab).

7. XX asr adabiyotining ilk davri tarixda qanday nom bilan kirdi?

XX asr boshlariga kelib milliy uyg'onishga chorlovchi jadidchilik harakati yuzaga keldi va tobora rivojlana bordi. Bu harakatning asosiy maqsadi – xalq ommasini ma'rifatli qilish orqali mamlakat rivojiga, mehnatkashlar hayotini yaxshilashga ko'maklashishdan iborat edi. Shu tarzda adabiyot ham "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" nomi bilan tarixga kirdi.

Jadidlar milliy uyg'onish davri g'oyalarini hayotga tatbiq etishda matbuot, maktab-maorif hamda adabiyot va san'at imkoniyatlaridan unumli foydalandilar. Turli xil to'siqlarga qaramay, "Taraqqiy", "Xurshid", "Vaqt", "Samarqand", "Oyna", "Shuhrat", "Turon", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona" kabi gazetalarni tashkil etib, o'sha davrning muhim g'oyalarini, ma'rifatparvarlik, millatparvarlik, vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qildilar.

Jadid matbuotida bo'lganidek, jadid adabiyotida ham ma'rifat, maktab-maorif va hurriyat mavzulari davr sadosi sifatida yangradi. Mehnatkash ommani jaholatga qarshi ilmi-bilimli bo'lishga, ma'rifatga chaqirish jadid yozuvchilari ijodining asosini tashkil etdi. Bu xususiyat Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Tavallo, Muhammadsharif So'fizoda kabi shoir va yozuvchilar ijodida yaqqol ko'rinadi.

8. 20-yillar o'zbek adabiyotining asosiy yutug'i nimalardan iborat?

20-yillar o'zbek adabiyotining asosiy yutug'i yetuk realistik hikoya, qissa, roman, drama namunalari va yangicha she'riy shakllarning paydo bo'lishi bilan belgilanadi. Cho'lponning "Oydin kechalarda", "Qor qo'ynida lola", "Novvoy qiz", Abdulla Qodiriyning "Uloqda" va "Jinlar bazmi", Abdulla Qahhorning "Boshsiz odam" hikoyalarida jahon novellachiligiga xos realistik fazilatlar namoyon bo'ldi. Sadridin Ayniyning "Buxoro jallodlari" va "Qulbobo" qissalari; Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" va "Mehrobdan chayon", Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanlari; Fitratning "Abulfayzxon", Cho'lponning "Yorqinoy", Hamzaning "Burungi saylovlar", G'ulom Zafariyning "Halima" va Abdulla Avloniyning bir qator dramalari shu davrning ulkan hodisalari bo'ldi.

9. 30-50-yillar adabiyotining asosiy yutug'i nimalardan iborat?

XX asrning 30-yillarida maktab-maorif, ilm-fan, adabiyot va san'at sohasida muayyan yangiliklar paydo bo'ldi. Lekin bu davrda mudhish shaxsga sig'inish illati tomir ota boshladi. Minglab sof vijdonli kishilar stalinizm o'qiga uchrab, behuda qurbom bo'ldilar. A. Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir, So'fizoda,

Botu, Elbek singari noyob iste'dod sohiblari "Xalq dushmani" sifatida yo'q qilindi. Bu voqea xalq hayotiga katta ziyon yetkazdi, adabiyot va san'at rivojiga jiddiy halaqit berdi. Bu haqda akademik Izzat Sulton shunday yozgan edi: "XX asr tajribasidan kelib chiqadigan ikki muhim saboq bor: Birinchi saboq – har qanday sharoitda, davrlar fojialarga qanchalik to'la bo'lmasin, baribir, taraqqiyot to'xtamaydi, davom eta beradi.

Ikkinchi xulosa shuki, insoniyat taraqqiyotining asosiy shakli tadrijiy rivojlanish bo'lib qoladi"¹⁴.

30-yillar adabiyotining o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri shundaki, bu davrda milliy uyg'onish davri adabiyotining buyuk vakillari Abdulla Qodiriy, Fitrat va Cho'lpon o'z ijodlarining so'nggi namunalari bilan adabiy jarayonda qatnashdilar.

30-yillar adabiyoti erishgan eng katta yutuq uning xalq ommasi bilan yaqin aloqa o'rnatilganida edi. Xalq bu davrda badiiy so'zga, yozuvchining so'ziga ishonadi. Shu bilan birga qo'pol xatolarga ham yo'l qo'yildi. Partiya adabiyotga rahbarlik qilarkan, yozuvchilarni o'z childirmasiga o'ynatib, hayot haqiqatiga zid asarlar yozishga rag'batlantirdi va shunday asarlarga, ularning muallifiga yuksak mukofotlar berdi.

Urush davrida she'riyat, nasr va dramaturgiya turlarida yaratilgan ko'plab asarlar safarbarlik ruhiga ega bo'ldi. 30-50-yillar adabiyoti Oybek va G'afur G'ulom, Hamid Olimjon va Maqsud Shayxzoda, Mirtemir va Sobir Abdulla, Usmon Nosir va Zulfiya singari iste'dodli yozuvchilarni yetishtirib berdi. Agar partiya va sho'ro hukumatining adabiy siyosati to'g'ri yo'ldan borganida, bu ijod ahli ko'plab o'lmas asarlarni yaratgan bo'lardilar.

30-50-yillar adabiyoti, XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyoti tarixining boshqa davrlari singari, o'zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega. Bu har ikkala jihatni xolis tahlil etish va baholash faqat adabiyotimiz tarixchilarininggina emas, balki ijod ahlining ham vazifasidir. Zero, Abdulla Qodiriy va Cho'lpon, Oybek va G'afur G'ulom singari ulkan yozuvchilarning ijodiy yo'li xalqlar uchun hamisha buyuk saboq va dorilfunun bo'lib xizmat qiladi.

10. XX asrning 30-yillar she'riyatida Jordano Bruno obrazini kim yaratdi?

XX asrning 30-yillarida ijodkorlarimiz zamonaviylik bilan bir qatorda tarixiy o'tmishni ham unutmadilar. Shoir Sulton Jo'ra she'riyatimiz mundarijasini kengaytirib, Jordano Bruno obrazini yorituvchi she'riy asar yaratdi.

11. XX asr 30-yillar o'zbek she'riyatida Alisher Navoiy siymosiga ilk bor qaysi shoirlar murojaat qilishdi?

30-yillar she'riyatida shoirlarimiz tarixiy o'tmishni ko'p esga oldilar. Oybek va Shayxzoda Alisher Navoiy siymosiga ilk bor murojaat etib, o'zbek xalqining ulug' farzandi haqida ballada va dostonlar yaratish mumkin ekanligini namoyish qildilar. Oybekning "Navoiy" (Oybek shu nom bilan tarixiy-biografik roman ham

¹⁴ **Иzzат Султон.** Аср сабоқлари. – "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси, 2001 йил, 1 январ.

yozgan), “Navoiy va Guli” dostonlari, Shayxzodaning “O’rtoq Navoiy” asari fikrimizning dalili bo’la oladi.

12. 30-40-yillarda xalq ertaklari asosida yaratilgan “Tohir va Zuhra” dramasi kimniki?

30-40-yillarda o’zbek xalq og’zaki ijodi ta’sirida yozilgan “Tohir va Zuhra” dramasi shoir va dramaturg Sobir Abdulla qalamiga mansub. “Tohir va Zuhra” asari xalq ertaklari syujeti asosida o’zbek yozuvchilari tomonidan yozilgan eng yaxshi asarlardan biri sifatida adabiyotimiz xazinasida bir umrga qoldi.

13. 2-jahon urushi davrida safarbarlik ruhida yozilgan she’rlar qaysilar?

Ikkinchi jahon urushi davrida she’riyat, nasr va dramaturgiya turlarida yaratilgan aksar asarlar safarbarlik ruhiga ega. Oybekning “O’lim yovga”, Hamid Olimjonning “Qo’lingga qurol ol”, “Yigitlarni frontga jo’natish”, G’afur G’ulomning “Sen yetim emassan”, “Sog’inish”, “Kuzatish”, Shayxzodaning “Kurash nechun?”, “Kapitan Gastello”, Uyg’unning “Vatan haqida qo’shiq”, Mirtemirning “Oleg va o’rtoqlari”, Zulfiyaning “Uni Farhod der edilar“ singari she’rlari shu davrda e’lon qilingan publisistik maqolalar, front qahramonlari haqidagi ocherklar bilan birga, xalqni qahramonona kurash va mehnatga safarbar etdi. Uyg’unning “Vatan haqida qo’shiq” she’rida Vatan onaga qiyoslanadi. Shoir Vatan uchun jonini ham kechishga tayyor qahramonlar nomidan shunday deydi:

*Vatan - ona so’zi naqadar laziz,
Sensan har narsadan mo’tabar, aziz,
Hurmatini saqlar ha bir o’g’il-qiz,
Muqaddas, mo’tabar ulug’ Vatanim,
Sharaflar, shonlarga to’lig’ Vatanim,
O’lsam ayrilmasman quchoqlaringdan.*

14. 60-90-yillar adabiyotining o’ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Bu davrda mamlakat hayotida, moddiy va ma’naviy turmushda jiddiy o’zgarishlar va yangiliklar bo’ldi. Bular stalinizmning qulashi bilan bevosita bog’liqdir. Eng muhimi shuki, bu davrda mamlakat ma’naviy hayotining barcha sohalarida keskin burilish yuz bera boshladi. 1956-yilda istibdod qurbonlari: Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho’lpon, Usmon Nosir, Botu singari yozuvchilar oqlandi. Bu davrda she’riyat, proza, dramaturgiya tez sur’atda rivojlandi. She’riyatning asosiy e’tibori hayot va kishilar ongidagi o’zgarishlarni tasvirlashga qaratildi. Jahonda tinchlik uchun kurash, xalqlar do’stligi, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi abadiy mavzular milliy she’riyatimizning asosiy markazida turdi. G’.G’ulom, Oybek, Mirtemir, Shayxzoda, Zulfiya, A. Muxtor, Shuhrat, Shukurullo, E. Vohidov, A. Oripov, Rauf Parfi, O. Hojiyeva, O. Matjon kabi shoirlar barakali ijod qildilar. Nasrda Oybek, G’. G’ulom, A. Qahhor, M. Ismoiliy, Said Ahmad, A. Muxtor, P. Qodirov, Odil Yoqubov, Shuhrat, S. Zunnunova, M. Qoriyev, Mirmuhsin, O’. Umarbekov, O’. Usmonov, O’. Hoshimov, Sh. Xolmirzayev, Murod Muhammad Do’st, Tog’ay Murod, Xayriddin Sultonov; dramaturgiyada Komil

Yashin, Uyg'un, Shayxzoda, Izzat Sulton, Hamid G'ulom, Turob To'la, Said Ahmad, Shukrullo, O'. Umarbekov, E. Vohidov, Sh. Boshbekov, A. Ibrohimov, H. Muhammad kabi ijodkorlar badiiy jihatdan yuksak asarlar yaratib, adabiyotimiz dovrug'ini yuqori pog'onaga ko'tardilar.

15. Hozirgi adabiy jarayon haqida nimalar deya olasiz?

Hozirgi adabiy jarayon, ya'ni istiqlol davri o'zbek adabiyoti bir qator o'ziga xos jihatlarga ega bo'lgan alohida badiiy-estetik hodisadir. Bu davr adabiyoti hukmron mafkura tazyiqidan qutulgan, olam va odam ruhiyatiga mansub hodisalarga xilma-xil qarashlarning mahsuli bo'lgan adabiyotdir. Adabiyot ijodkorning ko'ngil ishiga aylandi va aylanmoqda.

Mustaqillik davrida milliy adabiyot millat ahlining ko'nglini, ruhiyatini tasvirlashga e'tibor qaratmoqda. Natijada, inson asosiy badiiy qadriyatga aylanib bormoqda. Bu davr she'riyatida o'tkir gap aytish, o'quvchiga aql o'rgatish emas, balki *inson ruhining murakkab manzaralarini aks ettirishga e'tibor* kuchaydi. Zamonaviy nasr va dramaturgiya ham bugungi o'zbek adabiyoti mavqeini yuqori pog'onaga ko'tarishda yetakchilik qildi. She'riyatda Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Ikrom Otamurod, Muhammad Yusuf, Faxriyor, Sirojiddin Sayyid, Salim Ashur, Iqbol Mirzo; nasrda Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov, Omon Muxtor, Tohir Malik, Murod Muhammad Do'st, Xayriddin Sultonov, Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Ulug'bek Abdulvahob; dramaturgiyada Odil Yoqubov, Erkin Samandar, Usmon Azimov asarlari yutuqlarga boy bo'ldi.

MAVZU: YANGI O'ZBEK ADABIYOTI NAMOYANDALARI. MAHMUDXO'JA BEHBUDIY

16. “Oyina” jurnali asoschisi kim? Uni qaysi tillarda chiqarmoqchi bo'lgan?

“Oyina” jurnali 1913-yilda Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan nashr etilgan (Behbudiy shu yili “Samarqand” gazetasini ham chiqargan). Jurnal Turkistonda ijtimoiy fikrning taraqqiyotida juda katta ahamiyatga molik bo'ldi. Jurnalning birinchi sonida Behbudiyning o'zi “Oyina” shunday bir narsaki, odam unga o'zini ko'rish, yuzining qandayligini bilish uchun qaraydi. Yuzi turli fizik va psixik omillar ta'sirida qizil, sariq, qora yoki oq bo'lishi mumkin. Kishi oyinaga nogahoniy payqab qolishi mumkin bo'lgan dardlarini davolash uchun qaraydi”, - deydi.

Behbudiyning o'zi arab, fors tillarini yaxshi bilgan, rus tilini tushungan, gaplasha olgan. “Oyina”ni to'rt tilda – turkiy, forsiy, arab va rus tillarida chiqarmoqchi bo'lgan.

17. Behbudiy 1908 –yilda qanday qo'llanma yaratdi?

Behbudiy 1908-yilda “Kitobat ul – atfol“(“Bolalar uchun yozuv kitobi”) qo'llanmasini yaratib, nashr etadi. Bunda ish yuritish qoidalari, har xil rasmiy va xususiy xatlar yozish yo'l-usullari, tinish belgilar xususida fikr yuritiladi, namunalar beriladi. Respublikamiz mustaqillikka erishgachgina bizda shunday ish

yuritishga doir qo'llanma paydo bo'ldi. Behbudiy esa, o'sha vaqtlardayoq bu muhim masala mohiyatini tushunib yetgan edi. Behbudiy o'n sakkiz moddada "*xat yozmoq shartlarini*" tushuntiradi; maqsad-niyatni aniq, qisqa, serma'no, tushunarli so'z va iboralar bilan, odob va hurmat ruhida yozmoq kerakligini ta'kidlaydi. Behbudiy "*har til va lug'at so'zini o'z qoida va imlosi ila yozmoq lozim*", "*turkiycha yozilur ekan va bir iboraning turkiysi bo'lib turib oni o'rniga rusiy va yo ajnabiy ismini yozmoqni ahli donish man' qiladurlar*", deydi, bu talab hozir ham o'z qimmatini to'la saqlab qolgan.

18. "Arabiy til din uchun ne darajada lozim bo'lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdir. Arabiy bilmasang din, ruscha bilmasang, dunyo qo'ldan ketar". Ushbu fikrlarni kim qaysi asarida aytgan?

Mahmudxo'ja Behbudiy yuqoridagi fikrlarni "Ikki emas, to'rt til lozim" (1913) nomli maqolasida aytgan. Allomaning o'zi arab va fors tillarini yaxshi bilgan, rus tilini tushungan, gaplasha olgan. Behbudiyning qiziqish va bilim doirasi shu qadar keng ediki, u Turkistonning hamma jihatiga – siyosiy va ijtimoiy ahvoli, iqtisodiy va madaniy holati, buguni va ertasiga g'oyat qiziqib qaradi, o'zini shu xalq, shu yurtning taqdiriga javobgar shaxslardan biri deb his qildi.

19. Jadid dramaturgiyasi va teatrining boshlovchisi kim?

Mahmudxo'ja Behbudiy 1911-yilda "Padarkush" (yoki "O'qimagan bolaning holi") dramasi yozish bilan adabiyotda o'ziga xos yangilik yaratdi. Shuni aytish kerakki, "Padarkush" dramasi inqilobiy g'oyalar emas, ma'rifatchilik, komillik qarashlari olg'a surilgan. Pyesada chorizm mustamlakachilik siyosatini fosh etuvchi va qoralovchi fikr-mulohazalar yo'q bo'lishiga qaramay, 1913-yilgacha asarni sahnalashtirish yoki nashr etishga ruxsat berilmadi.

"Padarkush" 1913-yilda o'zbek va tojik tilida chop etildi. Ko'p o'tmay, Samarqand, Toshkent, Buxoro, Andijon, Namangan, Qarshi, Qo'qon shaharlaridagi teatrlarda sahnalashtirildi. Hamma joyda tomoshabinlar pyesani olqishlar bilan kutib oldilar. Buning ikkita sababi bor: birinchidan, o'sha vaqtlarda xalq millat ahli uchun tamomila yangilik bo'lmish teatr san'atiga g'oyat tashna edi. Ikkinchidan, asarda o'sha davr hayoti uchun xos voqea ko'rsatilib, ko'pchilikni qiziqtiradigan ezgu g'oyalar, ibratli fikrlar aks ettirilgan edi.

20. O'zbek dramaturgiyasining shakllanishiga va unda ma'rifatchilik an'alarining qaror topishiga samarali ta'sir etgan asar qaysi?

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asari o'zbek dramaturgiyasining shakllanishiga, unda ma'rifatchilik an'alarining qaror topishiga samarali ta'sir etdi. Natijada, Abdulla Avloniy, Hamza, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Hoji Muin Shukrullo, Badriy, Tavallo kabi ijodkorlarning ma'rifatparvarlik ruhida yozilgan asarlari birin-ketin yuzaga kela boshladi. Behbudiy ta'sirida Hamza "Yangi saodat", Abdulla Qodiriy "Baxtsiz kuyov" Hoji Muin Shukrullo "To'y", "Mazluma xotin", "Eski maktab - yangi maktab" kabi sahna asarlarini yaratishdi.

21. Mahmudxo'ja Behbudiyning maktab-maorif sohasidagi xizmatlari nimalardan iborat?

Mahmudxo'ja Behbudiyning maktab-maorif sohasidagi xizmatlari benihoya katta bo'lgan. Ko'p joylarda safarda bo'lishi yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Allomaning tashabbusi bilan ko'plab qishloqlarda yangi usuldagi maktablar tashkil qilinadi. Adib ana shu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Behbudiyning ketma-ket *“Risolai asbobi savod”*, *“Muxtasar jug'rofiyai Rusiy”* (*“Rusiyaning qisqacha geografiyasi”*), *“Madxali jug'rofiyai umroniy”* (*“Aholi geografiyasiga kirish”*), *“Kitobat-ul atfol”*, *“Muntaxabi jug'rofiyai umumiy”* (*“Qisqacha umumiy geografiya”*), *“Muxtasari tarixi islom”* (*“Islomning qisqacha tarixi”*) kabi kitoblari chop ettiriladi.

Bolalarni millat ehtiyojlariga moslab o'qitishni orzu qilgan Behbudiy Samarqandda bir qator yangi usuldagi maktablar ochadi. Xalqning dunyoqarashi, milliy ongini yuksaltirishda matbuotning o'rni nihoyatda muhim ekanini anglab, *“Samarqand”* gazetasi va *“Oina”* jurnalini nashr etishda bosh-qosh bo'ladi.

Behbudiy haqli ravishda o'zbek matbuoti, yangi pedagogikasiga asos solganlardan. Zero, *“Zarafshon”* gazetasi 1922-yilda Behbudiyning nashri maorif sohasida *“Vatanimizning birinchi qahramoni”* deyishi bejiz emas.

22. Mahmudxo'ja Behbudiy kelajak avlodga qanday vasiyat qilgan?

Mahmudxo'ja Behbudiy 1918-yil o'rtalarida *“Musulmon ishchi va dehqon sho'rosi”*ga maorif xalq komissari etib tayinlanadi. Turkistonning davlat tili to'g'risidagi dekret loyihasini tayyorlashda jonbozlik ko'rsatdi. Biroq bu ezgu maqsad ham o'z vaqtida amalga oshmay qoldi.

Behbudiy qarashlarida jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilib kelayotgan eski urf-odatlarini, aqidalarni isloh qilish takliflari islom axloqini mustahkamlash g'oyasi bilan chirmashib ketadi.

Xalqi, Vatani uchun fidoyilarcha yashagan, mehnat qilgan Behbudiyning umri, hayoti ham mohiyat e'tibori bilan shu xalq, shu Vatan uchun fido bo'ldi. U 1919-yilning bahorida Buxoro amirining Shahrisabzdagi kishilari tomonidan hibsga olinadi va sho'ro ayg'oqchisi, jadid degan ayblar bilan Qarshi shahrida qatl etiladi. Bu ishni sho'rolar uyushtirgan, degan qarashlar ham bor.

Mahmudxo'ja Behbudiy kelajak avlodga qarata shunday vasiyat qilgan edi: *“Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalq baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz”*.

23. Qaysi shahar Behbudiy nomi bilan atalgan (vafotidan so'ng)?

Behbudiy 1919-yilning bahorida – 25-martda Shahrisabzda qo'lga olinib, sirli bir tusda Qarshi shahrida qatl qilinadi. Qarshi shahri (Qashqadaryo viloyati markazi) 1926-1937-yillarda 11 yil Behbudiy nomi bilan yuritiladi. Biroq uning asl qiyofasi xalqdan sir saqlanadi. Adib nomining abadiylashtirilishi shunchaki bir niqob edi. Qarshi shahriga uning nomi qo'yilgan o'sha 1926-yildayoq u mansub bo'lgan jadidchilikni aksilinqilobiy, aksilsho'roviy harakat sifatida qoralash kampaniyasi boshlab yuborilgan edi.

24. Behbudiy vafotiga bag'ishlab kimlar marsiya yozishdi?

O'z davrining Fitrat, Cho'lpon, Sadridin Ayniy singari buyuk shoirlari Behbudiy o'limiga bag'ishlab marsiyalar yozishdi. Sadridin Ayniy o'z marsiyasida yozadi:

*Seni bundan buyon, Turon, ko'rolurmi, ko'rolmasmu?
Sening masnaviying Turkiston topolurmu, topolmasmu?
Sening tarixiy davroning, sening osoriy urfoning,
Sening noming, sening joning jahon qoldiqcha qolmasmu?
Vatan avlodi yod etdi, sani hurmatda shod etdi,
Va lekin intiqomingni ololurmi? Ololmasmu?*

Ayrim she'riy marsiyalardan tashqari, Behbudiyga bag'ishlangan katta janrdagi asarlar ham paydo bo'ldi. Masalan, dramaturg Hojimurod bu alloma qatl etilishi voqearasini markazga qo'ygan holda "Maorif qurbonlari" nomli sahna asarini yozdi. Biroq, ko'p o'tmay, mudhish davrlar boshlandi. Behbudiyga chin millatchi, xalq dushmani tamg'asi yopishtirildi, uzoq yillar davomida uning nomi faqat salbiy ma'nolardagina tilga olindi.

Mustaqillik davriga kelib, Behbudiyga adolatli, haqqoniy munosabat paydo bo'la boshladi. Allomaning o'zbek xalqi tarixidagi o'rni, nomi tiklandi. Badiiy asarlari, publisistik maqolalari chop tiladigan, ilmiy tadqiqotlarda hayoti va ijodi xolis tadqiq etiladigan bo'ldi. Bir qator olimlar Behbudiy ijodini o'rgandilar...

25. Behbudiyning publisistik ijodi haqida nimalar bilasiz?

Mahmudxo'ja Behbudiy publisistik sifatida ham mashhur bo'lgan. U ijodi davomida 300 dan ortiq publisistik maqolalar yozgan. Ijtimoiy-siyosiy mavzudagi bu maqolalarning aksariyati o'zbek xalqining yangi yo'nalishdagi milliy tafakkuri shakllanishida, hayotga, turmushga yangicha qarashlari, talablari tug'ilishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. "Turkiston idorasi", "Turkistonda maktab jarida", "Buxoro xonligiga sayohat", "Buxoroda usuli jadid", "Yoshlarga murojaat", "Ehtiyoji millat" "Ikki emas, to'rt til kerak" singari publisistik maqolalari ana shunday qimmatga ega.

26. Behbudiy maqolalarining asosiy g'oyasi nimalardan iborat edi?

Behbudiy maqolalarida tezda xalq ko'zini ochish, el-yurt kamolotini o'ylash, madrasalarda ta'limning zamon talablaridan orqada qolayotganligini tanqid qilib, bu sohani xalq turmushini yuksaltirishga xizmat qiladigan darajaga ko'tarish uchun da'vat; millat ravnaqi; ishlab chiqarish va bevosita jamiyatning iqtisodiy ahvoriga faol ta'sir ko'rsatadigan ilmiy bilimlarni o'qitishga e'tiborni kuchaytirish hamda ayni vaqtda, halollik va pokizalikka undovchi diniy ilmlardan ham voz kechmaslik, dinni mustahkamlash; turkiy tillardan tashqari, arab va fors tillari qatori rus tilini ham bilish zaruriyati singari davrning muhim muammolari ko'tariladi.

Yoshlarni Rusiya, Yevropaning markaziy shaharlariga va Arabistonning mashhur oily o'quv yurtlariga yuborib o'qitish kerak, deydi Behbudiy. Shundagina Turkiston qoloqlikdan qutula oladi. Behbudiy fikrlari bugungi kunga hamohangdir.

27. Abdulla Avloniy 1907-yilda qanday gazeta chiqardi?

Abdulla Avloniy 1907-yildan boshlab, o'zida matbuot ishlariga rag'bat sezib, "Shuhrat" gazetasini chiqardi. Bu gazetaning 10-soni chiqqach, chor hukumati ma'murlari Avloniyning uyi va idorasida tintuv o'tkazib, gazetani chiqarmaslikka tilxat oldilar. Buning boisi Avloniyning temiryo'l ishchilari yashirin inqilobiy qo'mitasi bilan yaqin aloqadiligida edi.

28. Abdulla Avloniyning dramaturglik faoliyati haqida nimalar bilasiz?

Abdulla Avloniy 1913-yili teatr to'garagi tashkil etib, unga "Turon" deb nom berdi. To'garakda ko'plab ijodkorlarning pyesalarini sahnalashtirdi. O'zi ham bir qator sahna asarlarini yaratdi. "Advokatlik osonmi?", "Pinak", "Ikki sevgi", "Portugaliya inqilobi", "Biz va Siz" kabi dramalari o'zbek dramaturgiyasining shakllanishida munosib o'rin tutadi.

29. Abdulla Avloniy maktablar uchun qanday darsliklar yozdi?

Abdulla Avloniy maktab-maorif ishlariga alohida e'tibor berdi. 1904-yili Mirobodda "usuli savtiya" maktabini ochadi. 1912-1917-yillar mobaynida shu tipdagi maktablar uchun "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy Guliston yoxud axloq", "Maktab gulistoni" singari darsliklarini bir necha marta qayta nashr etadi.

30. Avloniy darsliklarining tuzilishi qanday tartibda bo'lgan?

Avloniyning "Birinchi muallim" asari 1-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan. Yozuvchi uni yozishda Saidrasul Aziziyning "Ustozi avval" nomli birinchi o'zbek alifbe darsligiga suyangan. Darslik ikki qismdan iborat. Yozuvchi birinchi qismda harflar va ularning yozilishi bilan tanishtirsa, ikkinchi qismda yaxshilik bilan yomonlikni farqlashga o'rgatuvchi didaktik hikoyatlar beradi. Keyingi darsliklari ham shu tartibda ketgan. Darslikdagi hikoya va she'rlar soni 40 ga yaqin bo'lgan, uni xalq og'zaki ijodi, Sa'diy, Alisher Navoiy, Poshshaxo'ja, L. Tolstoy, I. Krilov asarlaridan olingan she'r va hikoyalar bilan to'ldirib borgan.

31. Avloniyning qaysi sahna asari ko'p jihatdan Hamzaning "Zaharli hayot" pyesasini eslatadi?

Abdulla Avloniyning "Biz va Siz" nomli sahna asari ko'p jihatdan Hamzaning "Zaharli hayot" pyesasini eslatadi. Fojia ildizi ham, qahramonlarining hayot yo'li va taqdiri ham, hatto ayol qahramonning ismi ham bir xil. Chamasi, asar yozilgan 1923-yili Hamzaning bu asari teatr ahli yodidan ko'tarilgan, lekin hayotda ro'y berayotgan voqealar Avloniyning bu mavzuga yana bir bor qaytishga majbur etgan.

32. Qaysi alloma 1919-1920-yillarda Afg'onistondagi sovet elchixonasida bosh konsul lavozimida xizmat qilgan?

1919-yilning aprel oyida Avloniy Turkiston Markaziy Ijroiya Komitetiga saylanadi. "Ishtirokiyun" gazetasini yuzaga chiqaruvchi hammuharriri bo'lib

ishlaydi. 1919-yilning iyunida Abdulla Avloniy RSFSR hukumatining topshirig'i bilan Afg'onistonga boradi. 1919-yilning 28-sentabridan 1920-yilning 20-iyuligacha Hirotda (Afg'oniston) bosh konsul bo'lib turadi.

33. Olti qismdan iborat “ Adabiyot yoxud Milliy she’rlar” to’plami kimniki?

Avloniyning 1917-yilga qadar yozgan she’rlari “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” nomli olti qismdan iborat to’plamlaridan o’rin olgan. Bu to’plamlar 1909-1917-yillarda alohida kitobchalar shaklida bosilgan. Abdulla Avloniy she’rlarida davrning muhim ijtimoiy masalalarini ko’targan, xalq ommasi o’rtasida tarqalgan giyohvandlik, qimorbozlik kabi illatlarni fosh etib, uni jaholat botqog’idan olib chiqish va ma’rifat chamanlaridan bahramand etishni orzu qilgan.

34. Quyidagi misralar kimning qaysi she’ridan olingan?

*Umrini sarf etmish ota –bobolar,
Chekmishlar ilm uchun jabru jafolar,
Bizlar ham bo’lmayluk baxti qarolar,
Bitsun, yo’q o’lsun bu kayfu safolar.
Ey millat, uxlama, ilm olur chog’i,
Har millat ilm oldi-yondi chirog’i.*

Yuqoridagi misralar Abdulla Avloniyning “Maishatimizdan bir manzara” nomli she’ridan olingan. Shoir xalq ommasini ilmga da’vat etibgina qolmay, ota-bobolarimizning o’tmishda fan va madaniyat ravnaqiga katta hissa qo’shib, maktab va madrasalar bunyod qilganlari, ilmiy, badiiy va didaktik adabiyot yaratganlariga ham jamiyat e’tiborini qaratishni lozim deb topdi.

35. O’zbek xalqining Sir va Amuga qiyos qilingan ikki buyuk ijodkori kimlar?

XX asr o’zbek adabiyoti, ikki daryo – Sir va Amudan bahra olib, kamol topgan o’zbek diyorida, ikki buyuk yozuvchi ijodidan munavvar bo’lgan hodisadir. Agar bu ikki yozuvchining biri nosir Abdulla Qodiriy bo’lsa, ikkinchisi – shoir Cho’lpon. O’zbekiston dastlab chor, keyin esa sovet davlatining mustamlakasi bo’lgan davrlarda bu ikki yozuvchi millatchi deb e’lon qilindi, quvg’inga uchradi. Hatto fojiali ravishda qatl etilganlaridan keyin ham ular merosini o’rganishga imkon berilmadi. Buning bosh va asosiy sababi – har ikkala ulug’ iste’dod sohibining o’z-bek xalqiga ko’rsatgan ulkan ta’sirida, uning ongi va dunyoqarashini o’stirish kuchiga ega bo’lganida, ya’ni uni mutelikdan uyg’otib, erkin nafas olishga chorlashida edi.

36. Bosh qahramoni Davronbek bo’lgan “Advokatlik osonmi” pyesasi kimniki?

“Advokatlik osonmi” pyesasi 1914-yilda Abdulla Avloniy tomonidan yozilgan. Asarning bosh qahramini – advokat Davronbekdir. Uning oldiga najot so’rab keluvchilar – kambag’al, ezilgan, xo’rlangan xalq vakillari. Advokat hech narsa qilolmaydi.

Uyini garovga qo'yib, qarz hisobiga uylangan qashshoq Egamberdining boshiga ham shu ahvol tushadi. Qarzini vaqtida berolmagan Egamberdi uyidan mahrum bo'lib, ko'chada qoladi. Abdulla Avloniy bu asarida inson hech bo'lmaganda o'z haq-huquqini himoya qilishi uchun bilimli, ma'rifatli bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tgan.

37. "Tog'lardan bir manzara", "Yalqov shogird tilidan", "Vatan" she'rlari muallifi kim?

Abdulla Avloniy ko'plab she'rlar, she'riy to'plamlar muallifidir. Uning she'rlarida vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik va milliy ozodlik taronalari alohida o'rin tutadi. "Tog'lardan bir manzara", "Yalqov shogird tilidan", "Vatan", "Maktab bolasi" kabi she'rlarida ma'rifatli va ilmi bo'lish har bir xalqning taqdiri va taraqqiyotini belgilaydigan omildir deydi. *"Har millatning taraqqiysi ilm ila. Nodon xalqning ko'z yoshi marjon emish"* ("Tog'lardan bir manzara" she'ri) der ekan, shoir bu va boshqa ko'plab she'rlarida el ichida ba'zan hukm surib kelayotgan ilm-ma'rifatga e'tiborsizlikni qattiq qoralaydi. Shoir "Tog'lardan bir manzara" (1916) she'rida:

*Kecha-kunduz bizlar dardu mehnatda,
Ilm ila ovrupolik xandon emish.
Nonimizni teva qilib berurlar,
Bizlar xo'p befarosat, nodon emish –*

der ekan, she'r yozilgan vaqtga kelib ham hamon el nonini tuya qilishda davom etayotgan Rusiya hokimiyatiga zaharxanda ishora qiladi.

Mavzu: HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY

38. Hamzaning o'qish yillari va ijodining boshlanishi haqida nimalar bilasiz?

Hamza 1899-1906-yillarda madrasada o'qiydi, 1908-yilda esa Namanganga borib, 7-8 oy davomida tahsil ko'radi. O'sha davrda Orenburg va Ufada chiqib tirgan gazeta va jurnallar bilan tanisha boradi.

Hamzaning adabiyotga bo'lgan havasi 1897-1898-yillarda boshlandi. Hamza Hofiz, Bedil, "Yusuf va Ahmad" risolalarini ota-onasiga o'qib berar ekan, ular yordamida bu asarlar mazmunini ham o'zlashtirib boradi. Shu tariqa unda badiiy ijoda qiziqish paydo bo'ladi, 10 yoshidan boshlab she'r yoza boshlaydi.

39. Hamzaning qanday darsliklarini bilasiz?

Hamza maktab ochib, o'zi unda dars beribgina qolmay, ayni chog'da, "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi" (1914-1915) kabi darsliklarni ham yozdi. Hatto o'z maktablarida "Pervaya kniga"ni ham o'qitadi, mehnatkash bolalarni bepul o'qitadi. Shoirning maorif-o'qitish ishlaridagi yutug'i shunda bo'ldiki, u xalqni ilmga, maorifga, madaniyatga targ'ib qila bildi. Biroq Hamzaning bunday xalqparvarlik, ma'rifatparvarlik harakatlari mustamlakachi va

mahalliy amaldorlar tomonidan qarshilikka uchraydi. Bundan norozi bo'lgan shoir yozadi:

*Yo 'q ekan hissi milliyat kalonlarda
Hammasining da'vosi bil, ekan zabolarda.*

40. Hamza ilm-ma'rifatni ulug'lovchi qanday she'rlar yozdi?

Hamza 1914-1915-yillarda "O'qi!", "Ilm ista", "Olim bo'laylik", "Kitob", "Qalam", "Maktab", "Hikoya", "To'g'ri so'z bola", "Toshbaqa bilan chayon", "Bolaning yomon bo'lmog'iga sabab bo'lgan onaning jazosi" kabi pedagogik ruhdagi she'rlarini yozdi. Bu she'rlarida ilm-ma'rifat, axloq-odob, to'g'rilik, halollik, chin do'stlikni targ'ib qildi. "Ilm ista" she'rida shoir mehtatkash ommaga qarata shunday deydi:

*Har muroding, maqsadingga yetmoq istarsan murod,
Ko'z ochib bedor bo'l: darkor ilm, darkor ilm!..
Ul haqiqat oynasiga sayqal istarsan, Nihon,
Ilm ista, ilm ista, istag'il zinhor ilm!*

41. Hamza ijodining bosh yo'nalishini tashkil etuvchi g'oyalar qaysilar?

Mehnatkash ommani bilim olishga, ma'rifatga chaqirish, milliy uyg'onishga da'vat, ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik, millatparvarlik, yurtsevarlik g'oyalari Hamza ijodining bosh yo'nalishini tashkil etadi.

Hamza o'z davrining jarchisi sifatida "Yig'la, Turkiston", "Yaxshi holin yo'qotgan oqibatsiz Turkiston", "Dardiga darmon istamas" kabi she'rlarida chor mustamlakachilari va mahalliy zolimlar zulmi ostida ezilib, qoloqlikka va jaholatga mahkum etilgan Turkiston o'lkasini uyg'onishga, ma'rifatga, taraqqiyotga chaqiradi. "Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida", "Uyg'on Turkiston, uyg'onish vaqti keldi", - deb xitob qiladi:

*Turg'il, darddan jismingni sog'la, Turkiston,
Donish o'tiga bag'ring dog'la, Turkiston.
Belga himmat kamarin bog'la, Turkiston,
Ma'rifatga yetmoqni chog'la, Turkiston.*

42. Hamza asarlarida milliy uyg'onish mavzusi qaytarzda ko'rsatilgan?

Hamza asarlarida milliy uyg'onish mavzusi "o'lkani uyg'otish", "xalqning ko'zini ochish" g'oyalari xalqlar do'stligi tamoyillariga zid ravishda ifodalanmaydi. Hamza xalqlar va millatlar do'stligi tamoyillariga sodiq qolgan holda chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatiga salbiy munosabatda bo'lgan. Hamzaning 1915-1916-yillarda nashr etilgan "Oq gul, "Qizil gul", "Sariq gul", "Yashil gul", "Pushti gul", "Safsar gul" nomli she'riy to'plamlarida, "Ilm hidoyati", "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" kabi pyesalari va "Yangi saodat" nasriy asarida mustamlakachilik siyosatiga qarshi ma'rifatparvarlik, xalqparvarlik g'oyalari yorqin ko'rinib turadi.

43. Hamzaning dramaturglik sohasidagi yutuqlari nimalardan iborat?

Hamza dramaturgiya sohasida ham samarali ijod qildi va o'zbek dramaturgiyasiga asos soluvchilardan biri sifatida tanildi. "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari", "Boy ila xizmatchi", "Maysaraning ishi", "Paranji sirlaridan bir lavha yoki yallachilar ishi", "Jahon sarmoyasining so'nggi kunlari", "Tuhmatchilar jazosi", "Kim to'g'ri", "Farg'ona fojiasi", "Loshmon fojiasi", "Saylov oldidan", "Mulla Normuhammad domlaning kufr xatosi", "Burungi saylovlar" kabi qirqa yaqin katta-kichik sahna asarlari muallifidir. Bu asarlarda o'sha davr uchun muhim bo'lgan xarakterli voqealar qalamga olingan.

44. Hamza birinchi marta qayerda yangi usuldagi maktab ochadi?

Hamza maktabni isloh qilish, gazeta-jurnallar chiqarish, dramaturgiya va teatr san'atini rivojlantirish orqali xalq hayotini yaxshilamoqchi, turmush darajasini bir oz ko'tarmoqchi bo'ldi. Shu maqsadda ilk bor 1910-yili Toshkentda Qashqar darvozada usuli savtiya maktabini ochdi, unda ko'proq kambag'allarni bepul o'qitishga intildi. Bunday maktab tezda quvg'in ostiga olinardi. Shuning uchun u turli joylarda tez-tez bunday maktablar ochgan.

45. Hamza qaysi asarini "milliy roman" deb ham atagan?

Hamzaning "Yangi saodat" asari 1915-yilda yozilgan bo'lib, unda mustamlakachilik siyosatiga qarshi ma'rifatparvarlik, xalqparvarlik g'oyalari bo'rtib turadi. "Yangi saodat yoxud milliy roman" asari 46 betdan iborat. U Qo'qonda nashr etilgan. Asar muallifning "Kirish so'zi" bilan boshlanadi. Unda asarning "*qora mehnatchilarga*" bag'ishlanganligi qayd etiladi. Hamza asarda mehnatkashlarni ilmli-bilimli bo'lishga, hunar o'rganishga da'vat etadi.

"Yangi saodat" – Hamzaning nasrdagi bizga ma'lum eng dastlabki urinishi bo'lishiga qaramay, undagi tasvir san'ati, qahramonlar obrazining yorqinligi, g'oyaning izchil olg'a surilganligi va til xuzuziyatlari muallifning katta "nasriy" iste'dodga ega bo'lganidan dalolat beradi.

46. "Yangi saodat" (Hamza) romanining bosh qahramoni kim? Siz u haqda nimalar bilasiz?

"Yangi saodat" asarining bosh qahramoni Olimjon bo'lib, uning hayot yo'li turmush mashaqqatlarini yengib, nurli maqsad sari shaxdam borishi va "*g'arib millat uchun kerakli*" kishi bo'lib yetishishi jadid adabiyoti qahramonlari uchun xos bo'lib, Hamza ana shu qahramon taqdirini tasvirlash bilan jaholat botqog'ida yashayotgan xalqiga ibratli bir siymoni, baxt-saodatga erishish yo'lini ko'rsatmoqchi bo'ladi.

Olimjon – Abduqahhor ismli tagli-tugli boyning farzandi. Uning otasi johil bir savdogar bo'lgani sababli "*saodat va chin turmushlari uchun eng birinchi darajada farzu ayn o'lgan ilm, ma'rifat*"dan mahrum bo'lib qolgan edi. Hayotda ancha qiynaladi. Onasi Maryam uni jadid maktabiga o'qishga beradi. Xulq-odobi va iqtidori bilan muallim mehrini qozongan Olimjon – "*millat gulshaniga yangi qo'ngan bu andalib*"(bulbul) – tez orada obro'-e'tibor qozonadi. Dastlab ustozga yordamchi bo'lib, maktabda saboq beradi, so'ng Abdurahmon ismli savdogarga

mirza bo'lib, uning yolg'iz qizi Nazokatxonimga uylanadi. Shu asnoda Olimjon adashgan otasidan xabar topib, Toshkentda yamoqchilik orqasida tirikchilik o'tkazib yurgan Abduqahhorni oila bag'riga olib keladi. Abdurahmonboy olamdan o'tgandan keyin esa Olimjon undan qolgan boylikka ega bo'lib, "*mashaqqatsiz davlat va chin maishat*"ga yetishadi.

47. Hamzaning "Yangi saodat" romani negizida qanday g'oya yotadi?

"Yangi saodat" romani negizida ikki xil inson – o'qigan va o'qimagan insonning taqdiri yotadi. Hamza bu ikki qahramonni bir oiladan topadi. O'qimagan inson – Abduqahhor o'qigan inson – o'qigan inson – o'z farzandi Olimjon tufayli tubanlikdan ko'tarilib, "*do'st-dushmani ajratub, insof va diyonatli, shafqat va marhamatli*" kishiga aylanadi.

"*Shohlar bir kun gado bo'lur, bizlarga o'xshab, Gadolar yana bir kun shoh bo'lib qolur, bolajonlarim*", - deydi Maryam oilasi parokanda bo'lgan kezlarda. O'g'li Olimjon ko'z o'ngida ilm va ma'rifat tufayli gadodan shohga aylanadi.

Yozuvchi asar g'oyasini faqat Olimjon taqdiri orqali ochmay, uning kitobxon qalbiga yetib borishi uchun boshqa imkoniyatlaridan ham foydalanadi. Qisqasi, shoir asarda ilm-ma'rifatli bo'ish har narsadan ustun ekanini ko'rsatgan.

48. Hamzaning "Zaharli hayot" fojiasi mavzusi nima haqda?

Agar Hamza "Yangi saodat" asarida Olimjonning ma'rifat tufayli baxtli hayotga erishuvi va uning o'z baxtidan boshqa kishilarning ham bahramand bo'lishini tasvirlagan bo'lsa, "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" fojiasida ma'rifatli insonning *jaholat va g'aflat zindonidagi fojiali taqdirini ko'rsatishni maqsad qilib olgan*. Ushbu asar janrini Hamza "*Turkiston maishatidan olingan qiz va kuyov fojiasi*" deb ataydi. Dramaturg pyesaning dastlabki sahnasidayoq qahramonlarning o'zlariga munosib bo'lmagan, ular qalbidagi muhabbat gullarini xazon qilishga tayyor bir muhitda yashayotganini ko'rsatadi. Shu tarzda pyesaning avvalidayoq eskicha qarashlar ta'siridagi ota-onalar bilan ulardan ilgarilab ketgan va o'z zamoniga sig'may qolgan yoshlar o'rtasidagi ziddiyat nish uradi. Voqealar rivojlanishi bilan bu konflikt taranglashib, oxirida kamonning tortilgan yoyidek uchib boradi-da, har ikkala qahramonni – Mahmudxon bilan Maryamxonni halok qiladi.

49. Muhammadsharif So'fizoda kim? Siz u haqda nimalar bilasiz?

Muhammadsharif So'fizoda XX asr boshlaridagi ijodiy faoliyati bilan xalqimizning milliy va ijtimoiy uyg'onishiga salmoqli hissa qo'shgan. So'fizoda 20-yillardagi she'rlari bilan yangi o'zbek poeziyasini yaratishda samarali xizmat qilgan ulug' shoirlarimizdandir. So'fizoda ma'rifatparvar shoir va murabbiy sifatida ham mashhur bo'lgan. Shoir va ma'rifatparvar Muhammadsharif So'fizoda XX asrning 10-yillaridayoq yangi usuldagi maktab ochib, bolalarga dars bergan. Shu jihatlari

bilan XIX asrning oxiri XX asr boshidagi o'zbek madaniyati ning Ishoqxon Ibrat, Siddiqiy Ajziy, Abdulla Avloniy, Hamza kabi vakillari bilan bir safda turadi¹⁵.

Yana shuni ham aytib o'tish kerakki, O'zbekiston hukumati o'zbek adabiyotini rivojlantirishdagi xizmatlarini alohida ta'kidlab, 1926-yil 27-fevral 35-sonli farmoni bilan So'fizodaga "O'zbekiston xalq shoiri" faxriy unvonini bergan.

So'fizoda Arabiston, Hindiston, Boku, Tiflis kabi mamlakatlarda o'qigan, ma'lum vaqt Hindistonda o'qituvchilik qilgan. O'zbek tilidan tashqari fors va ozar tillarida, ya'ni uch tilda baravar ijod qilgan. Hajviy she'rlariga "Vahshiy" taxallusini qo'llagan.

So'fizoda 1937-yilda 57 yoshida¹⁶ sho'rolar qatag'oniga uchrab, halok bo'ldi.

50. So'fizoda qachon va qayerda tug'ilgan, qaysi asari bizga yetib kelgan?

Muhammadsharif So'fizoda 1880-yilda Namangan viloyatiga qarashli Chust shahrida hunarmand oilada tug'ilgan. Otasi Egamberdi So'fi pichoqchilik bilan shug'ullangan. Onasi Zaynab xolaning harakatlari evaziga Muhammadsharif yon qo'shnisi Manzura otin qo'lida savod chiqaradi, keyin mahallasidagi eski maktabda ta'lim oladi. Bo'lajak shoirning adabiyotga ko'ngil qo'yishida g'azalni did bilan o'quvchi ustozining ta'siri kuchli bo'lgan.

So'fizoda ijodini o'rganish 20-yillarda boshlangan, shoir ijodi haqida ko'plab ilmiy maqola va risolalar¹⁷ yozilgan. She'rlaridan namunalar 30-yillardayoq maktab darsliklariga kiritilgan.

Adabiyotshunos olim To'lqin Rasulovning tashabbusi bilan 1968-yilda So'fizoda she'rlarining bir qismi kitobcha holda bosilib chiqdi¹⁸. Shu yili "O'zbek sovet adabiyoti tarixi"ning birinchi jildi To'lqin Rasulovning shoir haqidagi maqolasi nashr etildi hamda So'fizodaning adabiyotimiz va madaniyatimiz tarixidagi o'rni haqida fikr yuritildi¹⁹.

51. "O'qing, onalar!" she'ri kimniki? U qaysi shaklda yozilgan?

"O'qing, onalar!" she'ri O'zbekiston xalq shoiri So'fizodaniki. Unda onalarni ma'rifatdan uzoqda savodsiz, omi bo'lib qolayotganidan afsuslar chekadi. Ayollar huquqini himoya qilgan holda ilm o'rganishga chaqiradi. She'r musaddas (har bir bandi olti misrali she'r) shaklida yozilgan. She'r shunday misralar bilan boshlanadi:

*Muncha yomon sho'rladi peshonalar,
Qizlarimiz – joriyayi xonalar.
Siz edingiz jonlara jononalar,
Qadringizi bilmadi debonalar.
Qumri bilan bulbulu bedonalar,
Yaxshi o'qur, siz ham o'qing onalar²⁰.*

¹⁵ Бу ҳақда қаранг: Б. Қосимов, Ш. Юсупов, У. Долимов, Ш. Ризаев, С. Ахмедов. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент, "Маънавият", 2004, 340-бет.

¹⁶ Бу ҳақда қаранг: ЎзАС, 1993 йил, 23 июл.

¹⁷ Миён Бузрук Солихов. Сўфизода ва унинг ижоди. – Тошкент, 1934.

¹⁸ Сўфизода. Тароналар. (Т. Расулов сўзбоши ёзган) - Тошкент, 1968.

¹⁹ Қаранг: Ўзбек адабиёти тарихи. 1-том, -Тошкент, 1968, 319-бет.

²⁰ Қаранг: Adabiyot. Majmua. Akademik litseyarning 3-bosqich o'quvchilari uchun. – Т.: 2007, 64-65-бетлар.

MAVZU: ABDURAUUF FITRAT

52. Fitrat kim? Siz ijodkor haqida nimalar bilasiz?

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat – ko'p qirrali iste'dod sohibi. Fitrat XX asr o'zbek adabiyotining ilk bunyodkorlaridan bo'lib, Behbudiy, Avloniy, Hamza, Qodiriy, Cho'lpon, Ayniy kabi adiblar bilan bir qatorda ijod qilgan. Fitrat mohir dramaturg, yirik olim va jamoat arbobi sifatida adabiyot va san'at, ilm-fan, maorif va madaniyat rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. Alloma ayniqsa o'zbek milliy she'riyati, prozasi, maorifi, tilshunosligi, adabiyotshunosligi singari o'nlab sohalarining oyoqqa turishida jonbozlik ko'rsatgan.

Fitrat yozuvchining taxallusi bo'lib, arab tilida “tug'ma talant”, “tabiiy holat”, “yaratilish” ma'nolarini bildiradi.

Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoroda savdogar oilasida tug'ilgan. Otasi Abdurahimboy 1903-yilda vatanni tark etib, Qoshg'arga ketib qolgach, onasi Bibijon tarbiyasida qolgan. U Mir Arab madrasasida o'qigan, turk, fors, arab tillarini o'rgangan. 1909-1912-yillarda Turkiyada o'qiydi. Jadidchilikda faol bo'ladi.

53. "Yurt qayg'usi" (sochma asar) kimniki ?

Abdurauf Fitrat 1917-yilning yozidan Samarqandda “Hurriyat” gazetasiga muharrirlik qila boshlaydi. Jurnalistlik va muharrirlik Fitrat faoliyatida muhim o'rin tutadi. Gazetaga Mahmudxo'ja Behbudiy, Mirmuhsin Shermuhamedov, Siddiqiy kabi vatanning millatparvar farzandlarini jalb etadi. “Yurt qayg'usi” rukni ostida ularning istiqlol g'oyalariga hamroz maqolalarini e'lon qiladi. O'zi ham shu rukn ostida xalqning siyosiy va milliy ongi ko'tarilishida zo'r ahamiyatga molik ajoyib publisistik maqolalar, sochma she'rlar chop etadi. “Ittifoq etaylik”, “Saylov yaqinlashdi”, “Ikki ro'yxat”, “Siyosiy hollar” maqolalarida xalqni saylovda o'z haq-huquqlaridan to'g'ri foydalanishga chaqiradi, ularni birlashishga chorlaydi, o'zlikni g'urur va nafsoniyatni mahkam tutmoqqa, ona yurtning qayg'udosh, munosib farzandi bo'lishga undaydi. “Yurt qayg'usi” uchta sochma she'rdan iborat bo'lib, “Hurriyat” gazetasida e'lon qilingan. Bu asarlarni haqli ravishda o'zbek istiqlol adabiyotining porloq namunalari deb ayta olamiz. “Qorong'ular ichra yog'dusiz qolgan o'zbek ko'zlari uchun tuprog'ingdan surma olgani keldim”, - deb yoliboradi she'rning lirik qahramoni (u ayni vaqtda shoirning o'z hamdir). “Turkning nomusi, e'tibori, iymoni, vijdoni zolimlarning oyoqlari ostada qoldi. Turkning yurti, o'chog'i, Turoni yot qo'llarga tushdi”, “Nomusini bad kishilarning oyoqlari ostinda ko'rub, turklik qoni qaynag'ay- musulmonchilik hamiyati toshg'ay, tamug' olovlari kabi sachrag'ay. Lekin, o'z kuchsizligini anglab, qaytib o'tirgan va qon yig'lagan turklik holini arz etarga keldim, hoqonim”.

Bu misralarni hayajonlanmay, milliy tuyg'u jo'shmay, Vatanga muhabbat yanada alanganmay o'qib bo'lmaydi. She'r 1917-yilning 31-oktabrida bosilgan.

54. Fitratning tilshunoslikka oid qanday asarlarini bilasiz?

Fitrat tilshunoslikka doir “Sarf”, “Nahv”, “O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba”, “Tilimiz I”, “Tilimiz II”, “O'zbek tili saboqlari” kabi bir qator

qo'llanma va ilmiy maqolalar yozgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarini birinchilar qatorida ilmiy jihatdan o'rgangan. Bular yozuvchining iste'dodli tilshunos olim bo'lganini ko'rsatadi. Fitratning o'zbek ma'rifati ravnaqiga qo'shgan ulkan hissasi uning bir qancha darslik va qo'llanmalarida namoyon bo'ladi. 20-yillarning o'rtalarida Fitrat o'zbek tilining qonun-qoidalarini yoritishga va o'rgatishga bag'ishlangan "Sarf" va "Nahv" darsliklarini alohida-alohida nashr etdi. Bu kabi dalillar Fitratni XX asr o'zbek tilshunosligining asoschilaridan hamda til faniga oid darsliklarning ilk mualliflaridan biri deyishga asos beradi. Fitrat ayni vaqtda, bu yo'nalishlarda tojik tiliga oid darslik va tadqiqotlar ham yaratdi.

55. Nima uchun Fitratni XX asr o'zbek adabiyotshunosligining asoschisi deymiz?

Fitrat o'zbek adabiyotshunosligi ravnaqiga katta hissa qo'shdi. U XX asr o'zbek adabiyotshunosligining asoschisidir. Adabiyotshunos sifatida allomaning "Farhod va Shirin" dostoni to'g'risida", "Ahmad Yassaviy", "Fors shoiri Umar Xayyom", "Firdavsiy zamoni va muhiti", "Bedil", "Navoiyning forsiy shoirliigi va uning forsiy devoni to'g'risida", "O'zbek shoiri Turdi", "Mashrab" kabi ko'pdan-ko'p tadqiqot va maqolalari sharq va o'zbek mumtoz adabiyotining atoqli vakillari va muhim muammolariga bag'ishlangan.

Fitratning tadqiqotlari, maqolalari nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ular hozirgacha o'z qimmatini yo'qotgan emas. O'zbek va sharq adabiyoti tarixining mumtoz namunalari, san'atkorlar hayoti va ijodi, nazariy muammolar haqida dastlab Fitrat ilgari surgan fikrlar, u chiqargan xulosalar keyingi bosqich tadqiqotchilari uchun katta ijodiy maktab bo'ldi. Shu ma'noda Fitrat XX asrda yetishib chiqqan ulkan o'zbek adabiyotshunos olimlarining, xususan, mumtoz adabiyot bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarining bevosita va bilvosita ustozidir. 20-yillardagi mutaxassislar uning "Adabiyot qoidalari. Adabiyot muallimlari va adabiyot havasliilari uchun qo'llanma"(1926) darsligini o'qib voyaga yetdilar. Bu kitobda ilk bor o'zbek adabiyotshunosligida zamonaviy adabiyot nazariyasi muammolari, tushunchalari yoritildi.

56. Qaysi alloma XX asrning 20-yillarida "Qutadg'u bilig"ning Namangan nusxasini topib, fan tarixiga kiritdi?

Abdurauf Fitrat XX asr o'zbek adabiyotshunosligi asoschisidir. Bu boradagi faoliyatining o'ziniyoq bir necha yo'nalishga bo'lib o'rganish mumkin. Fitratning folkloristika, matnshunoslik, mumtoz adabiyot, aruz, adabiyot nazariyasini o'rganish ilmi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi alohida tahsinga sazovordir. Alloma XX asrning o'rtalarida "Qutadg'u bilig"ning uchinchi – Namangan nusxasini topib, fan tarixiga kiritdi hamda o'zi u haqda katta maqola yozdi.

57. Fitratning Buxoro xonligidagi dehqonlar hayoti haqida tasvirlangan asari qanday nomlangan?

Fitratning Buxoro xonligidagi dehqonlar hayoti haqida yozgan asari "Arslon" bo'lib, 1925-yilda yozilgan. Asarning bosh qahramoni – Arslon. U bir bechora

kambag'alni xonavayron bo'lishdan saqlab qolish uchun to'yga yig'ib yurgan pulini sarflaydi. Arslon va To'lg'anoyning bir-birlariga muhabbatlari cheksiz, biroq to'y uchun imkoniyat yo'q... Asarning asosini muhabbat hamda adolat uchun kurash jarayonlarini badiiy gavdalantirish tashkil etadi.

58. Fitratning iqtisod nazariyasiga doir asarlari qaysilar?

Fitrat "Munozara", "Hind sayyohi" kabi asarlarida iqtisodga oid nazariy qarashlarini bayon qilgan. Bu asarlarida Fitrat Turkiston xalqi jamiki boyligiga o'zi ega bo'lmog'i kerak, unga qanday ko'rinishda bo'lmasin, boqimanda ravishda o'zgalarning sherik bo'lishi va egaligi, bir jihatdan, adolatsizlik, ikkinchi tomondan, o'zimizni o'zimiz uddalay olmayotganimiz oqibatidir, degan fikrni ilgari suradi. Bunga faqat istiqlol tufayligina erishish mumkin edi. Bu asarlarida Fitrat Turkiston va Buxorodagi iqtisodiy turmushni atroflicha tahlil etishga o'tadi. Dehqonchilik va hunarmandchilikni rivojlantirish xususida fikr yuritadi.

59. "O'zbek klassik musiqasi hamda uning tarixi" nomli risola kimniki?

Fitrat XX asr o'zbek milliy musiqashunosligi sarchashmalarida turadi. San'atkor tomonidan yozilgan "O'zbek klassik musiqasi hamda uning tarixi" nomli risolasi mumtoz musiqamiz nazariyasi va amaliyotini o'rgangan ko'pdan-ko'p mutaxassislarga dasturilamal bo'ldi. "Shashmaqom"ni kechiktirmay notaga tushirishda tashabbus ko'rsatdi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Fitratning o'zi dutor va tanburda ajoyib kuylar ijro etgan.

60. Fitrat qaysi asarini bir farangi bilan buxorolik mudarris o'rtasidagi bahs shaklida yozgan?

Fitrat Buxorodagi jadidchilik harakatida faol ishtirok etibgina qolmay, bu harakatga rahbarlik ham qildi. Bu boradagi qarashlarini "Munozara" (1910) nomli nastiy asarida singirdi. Asarning to'la nomi "Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadid xususida Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadid xususida munozarasi" deb nomlangan.

Agar e'tibor berilsa, "Munozara"da Fitrat Turkiston xalqi jamiki boyligiga o'zi ega bo'lmog'i kerak, unga, qanday ko'rinishda bo'lmasin, boqimanda ravishdao'zgalarning sherik bo'lishi va egaligi, bir jihatdan, adolatsizlik, ikkinchi tomondan, o'zimizni o'zimiz uddalay olmayotganimiz, boshqara olmayotganimiz oqibatidir, degan fikrni ilgari suradi. Bunga esa, faqat istiqlol tufayligina erishish mumkin edi.

61. Fitratning qaysi kitobini hozirgi o'rta maktablardagi darslik-majmualarning dastlabki ko'rinishlaridan biri deyish mumkin?

Eski maktablarning yuqori sinf o'quvchilari uchun yaratgan va 1917-yili Bokuda nashr ettirgan "O'quv" kitobida Fitrat Hamza, Avloniy, Aziziy, Ayniylarning shu tipdagi kitoblaridan farqli o'laroq, badiiy asarlarning o'ziga xos xususiyatlari, mualliflar haqida muxtasar ma'lumotlar beradi hamda Navoiy, Bobur kabi mumtoz shoirlarning asarlaridan namunalar keltiradi. Fitratning

“O’quv”i hozirgi o’rta maktablardagi darslik-majmualarning dastlabki ko’rinishlaridan biridir, deyish mumkin.

Fitrat 1921-yilning bahoridan Buxoroda maorif ishlarini tashkil etish hay’atiga rahbarlik qildi. Shu vaqtda Buxoro jumhuriyatida turkiy til davlat tili deb e’lon etilishi bevosita Fitratning jonbozligi natijasidir. U isloh qilingan lotin alifbosiga o’tish ishlarining ham tashkilotchilaridan biridir.

62. Fitrat qaysi asarida o’z ona Vatani –O’zbekistonni mustaqil, o’z xalqini har qanday zulm cheklashlardan ozod holda ko’rishni istagan va bu istakni asarda o’ziga xos tarzda majoziy usulda ifodalagan?

Dramaturg Fitratning “Hind ixtilochilari” asarida Hindistonni Angliya hukmronligidan qutqarish, mustaqillikka erishish g’oyasi aks etgan. Dramada musulmon farzandlari Rahimbaxsh bilan Dilnavozlarning ishq qissalari hindlarning istiqloq haqidagi armonlari bilan uzviy bog’liq holda tasvirlab berilgan. Tragediyada voqea va obrazlar Hindiston hayotidan olingan bo’lsa-da, bu Rossiyasining mustamlakachilik siyosatini fosh etishga, chorizmni zulmi ostida ezilgan Turkiston xalqlarini mustaqillik uchun kurashga chaqirishga qaratilgan.

63. Fitratning 1919-1920-yillardagi faoliyati haqida nimalar bilasiz?

Fitrat 1919-1920 –yillarda Afg’oniston hukumatining Toshkent shahridagi vakolatxonasida tarjimon bo’lib ishladi, qator gazeta va jurnallarni tashkil etishda bosh-qosh bo’ldi, ularning ayrimlariga muharrirlik qildi. Fitrat muharrirligida chiqqan “Tong” jurnalining birinchi sonida: “Yashasin ilmiy, adabiy, ijtimoiy o’zgarish. Miya o’zgarmaguncha boshqa o’zgarishlar negiz tutmas. Yashasin sharq qutulishi!” – degan fikrlar yozilgan edi.

Sho’ro to’ntaruvidan so’ng Turkistonda til, adabiyot, san’at masalalari bilan ilk bor tashkiliy ravishda shug’ullangan “ Chig’atoy gurungi “ jamiyatiga Fitrat rahbarlik qilgan.

64. Fitratning “Yopishmagan gajaklar “ maqolasi qachon va qanday maqsadda yozilgan?

Fitratning o’z hayoti, taqdiri bilan chambarchas aloqador “Yopishmagan gajaklar” maqolasi 1929-yilda yozilgan.

Xalqning asl farzandlarini qatag’on qilishning avj nuqtasi 1937-yil bo’lsa-da, yangi jamiyatga yot unsurlarni izlash jazavasi undan o’n yil ilgari boshlangan edi. Fitratdan jiddiy ayb, xato izlashlar ham o’sha yillarga to’g’ri keladi.

“Yopishmagan gajaklar” nomli asari Fitratning o’ziga nisbatan islomparast (panislomist), turkparast (panturkist), o’ziga nisbatan o’tmishni qo’msovchi va uning merosini targ’ib qiluvchi – komfirqa va sotsializmning dushmani, millatchi degan tuhmatni yopishtiruvchilarga qarshi raddiya, ochiq xat sifatida e’lon qilingan maqolasi edi.

Maqolada Fitrat o’ziga qo’yilayotgan siyosiy ayblar noto’g’ri ekanini aytish bilan birga, madaniy merosdan voz kechish kerak, degan fikrlarga qat’iy qarshi chiqadi. Ayni vaqtda, zamon tazyiqiga bo’ysunib, o’zining komfirqa bilan yakdil ekaniga ishonitirmoqchi bo’ladi.

65. Fitratning sotqinlar, o'z xalqi qonini zuluk kabi so'rganlar haqidagi she'ri qanday nomlangan?

Fitratning sotqinlar, o'z xalqi qonini zuluk kabi so'rganlar haqidagi she'ri "Mirrix yulduziga" deb nomlangan bo'lib, 1922-yilda yozilgan. Chor Rusiyasi davrida Turkiston hayotida hukm surgan norasoliklar, xalq hayotidagi og'ir ahvol, ham siyosiy, ham iqtisodiy qaramlik, undan qutulish yo'llarini izlash va ularga badiiy javob topishga urinish Fitrat she'rlarining markazida bo'ldi. Bu she'r o'z davri o'quvchilariga nihoyatda kuchli ta'sir etdi. Asarning yuksak badiiy ta'sirchanligi hozir ham o'z kuchini yo'qotgan emas:

*Bizning yerda bo'lib turgan tubanliklar, xo'rliklar,
So'yla, yulduz, sening dag'i quchog'ingda bo'lurmi?
Bormi senda bizim kabi insonlar,
Ikki yuzli ishbuzarlar, shaytonlar?
O'rtoq qonin qonmay ichgan zuluklar,
Qardosh etin to'ymay yegan qoplonlar?
Bormi senda o'ksuk yo'qsilning qonin
Gurunglashib chag'ir kabi ichganlar²¹?*

Istiqlol ruhi bilan sug'orilgan bu she'r salkam yetmish yil davomida millatchilik ruhidagi asar sifatida baholanib keldi. Aslida esa, she'r davr hayotini, davr kishilari qiyofasini, tuzumning dolzarb ijtimoiy-siyosiy va milliy-mafkuraviy muammolarini, vatan va istiqlolga cheksiz muhabbat azoblarini yuraklarga jo etgan otalarimizning zamindan, zamondan, zamondagi zolimdan chora topolmay ko'kka (*Mirrix – Mars yulduzi misolida*) nido bilan iltijo qilgan jiqqa yoshli ko'zlarini nihoyatda teran va chuqur gavdalantiradi.

66. Mustaqillik yillari davri va Fitrat ijodi haqida nimalar bilasiz?

Mustaqillik yillari davrida Fitratning pok nomi qayta oqlandi, asarlari yangidan nashr etila boshlandi. Adabiyotshunoslik Fitrat hayoti va ijodini xolisona tadqiq etmoqqa kirishdi. Erik Karimovning "A. Fitratning hayoti va ijodi haqida", Ozod Sharafiddinovning "Fitrat"(1990), Sherali Turdiyevning "Fitrat jahon kezadi", Mamajon Rahmonovning "Fitrat dramaturgiyasi va uning sahna tarixi", Begali Qosimovning "Fitrat"(1991), Hamidulla Boltaboyevning "Fitratning hayoti va ijodi"(1992), Baxtiyor Nazarovning "Abdurauf Fitrat"(1999), B. To'ychiboyevning "Fitrat – tilshunos" kabi maqola va risolalari shular jumlasidan bo'lib, ular Fitratni bilish tomon qo'yilgan muhim qadamlardandir.

Yuksak saviyadagi badiiy va ilmiy asarlari 1991-yilda Alisher Navoiy nomidagi respublika davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Hukumatning maxsus qarori bilan 1996-yili shoir tavalludining 110 yilligi keng nishonlandi.

Mustaqillik uchun kurashgan, bu yo'lda jonini fido qilgan millat farzandlari yod etilar ekan, xalqimiz Abdurauf Fitrat nomini birinchilar qatorida tilga oladi.

²¹ N. Karimov, B. Nazarov, U. Normatov. XX asr o'zbek adabiyoti. 11-sinf uchun darslik. T.: "O'qituvchi" 2002 75-bet.

MAVZU: ABDULLA QODIRIY

67. O'zbek romanchiligi asoschisi kim? Siz u haqda nimalar bilasiz?

Abdulla Qodiriy o'zbek romanchiligiga asos solib, milliy nasr uchun yangi davrni boshlab bergan, adabiyotimizni zamonaviy jahon badiiyati yuksakliklariga yaqinlashtirgan ijodkordir. Bu noyob iste'dod sohibi XX asr o'zbek adabiyoti tarixida faxrli o'rin egallaydi. Akademik Izzat Sulton: *“Abdulla Qodiriyning asarlari badiiy mahorat namunasi. Bu asarlarda asosiy g'oya doimo yaqqol ifoda qilinadi, odamlar va ularning hayot sharoiti xuddi ‘ko'z oldimizda turgandek’ tasvir etiladi, bu asarlarning sujeti doimo qiziqarli, tili boy va shirali. Bu asarlarlarning xalqqa manzur bo'lgani bejiz emas”*²², - deb yozgan edi. Akademik Oybek esa adib mahoratini: *“Abdulla Qodiriyning prozasi birinchi navbatda g'oyatda hayotiyli bilan ajralib turadi. Qodiriyning tilidan uning xalqning boy va ajoyib tilini g'oyatda yaxshi bilganligi yaqqol seziladi; uning romanlari ana shunday go'zal til bilan yozilgan. U tug'ma epik yozuvchi, keng ko'lamdagi master, yuksak ma'nodagi realistik san'atkor edi”*²³, - tarzida yuksak baholagan.

68. Abdulla Qodiriyga mustaqillik yillarida qanday mukofotlar berildi?

Xalqimizning sevimli yozuvchisi, ardoqli adib Abdulla Qodiriy O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofotiga (1991) va “Mustaqillik” (1994) ordeniga sazovor bo'ldi, asarlari qayta-qayta chop etildi.

69. ”Ahvolimiz”, ”Millatimga” she'rlari kimniki?

Abdulla Qodiriy 1909-yildan badiiy ijod bilan shug'ullana boshladi. Dastlab kichik-kichik she'rlar, maqolalar, hajviy asarlar bilan matbuotda qatnashdi. “To'y” nomli birinchi she'rini “Sadoi Turkiston” gazetasining 1914-yil 4-aprel sonida chop ettiradi. So'ngra “Ahvolimiz”, “Millatimga”, “Fikr aylagil” singari she'rlarni yozdi. Bu she'rlarida Abdulla Qodiriy kitobxonlarni ezgulikka, ilm-ma'rifatga undadi, ushbu g'oyalariga go'zal badiiy libos kiygizdi. Uning she'rlari XX asr o'zbek ma'rifatparvarlik adabiyoti, qolaversa, jadid adabiyotining ilk namunalari sifatida muhim qimmatga ega. “Ahvolimiz” she'rida shoir xalq va yurt taqdirini ko'zlab yozadi:

*Ko'r bizning ahvolimiz, g'aflatda qanday yotamiz,
Joyi kelgan chog'ida vijdanni pulga sotamiz...
Kelingiz, yoshlar, ziyolilar, bu kun g'ayrat qiling,
Uxlaganlarni agar Qodir esak uyg'otamiz.*

70. Abdulla Qodiriy 1924-yilda qayerda o'qidi?

Abdulla Qodiriy 1924-yilda Moskvadagi V. Bryusov nomidagi Oliy Adabiyot institutida o'qidi, rus tilini mukammal o'zlashtirdi va bu yozuvchi

²² Султонов Иzzат. Ёзувчи Абдулла Қодирий ҳақида. – “Қизил Ўзбекистон” газетаси, 1956 йил, 28 октабр.

²³ Ойбек. Туғма адиб.- “Фан ва турмуш” журнали, 1967 йил, 7-сон, 23-бет.

ijodida muhim ahamiyat kasb etdi. U Moskvadan qaytgach, matbuot sohasida ishladi, ijodiy ish bilan band bo'ldi. Natijada, yangi o'zbek jurnalistikasining asoschilari qatoridan joy oldi.

71. Abdulla Qodiriy kimlarning asarlarini tarjima qildi?

Abdulla Qodiriy rus tilini mukammal bilgan. U 1927-1930-yillarda ruscha-o'zbekcha lug'at tuzish²⁴, rus tilidagi turli darsliklarni o'zbekchaga o'girishda faol ishtirok etgan. A.Chexov, N.Gogol, Mark Tven, Emil Zolya, Deni Didro, Alfons Dode kabi yozuvchilarning bir qancha asarlarini tarjima qilgan. Yozuvchi jahon adabiyotini sevib mutolaa qilgan. L. Tolstoy, A. Chexov singari badiiy so'z ustalaridan yorqin xarakter yaratishni, psixologik tahlil mahoratini o'rgangan. Abdulla Qodiriy: "Mumtozlardan ta'lim olish – o'sib yuksalishimizning garovidir"²⁵, – deb yozgan edi.

72. Paxtachilikdagi "shohmot usuli"ning ixtirochisi haqida kim qanday asar yozgan?

Abdulla Qodiriy badiiy nasrning deyarli hamma janrida ijod qilgan va o'zbek adabiyotidagi ocherk, hikoya, qissa va roman janrlarining bir qancha yetuk namunalarini yaratgan. Adibning "G'irvonlik Mallaboy aka "ocherkida ijtimoiy muhit, shart-sharoit o'zgarishi bilan inson ongi va ruhiyatida sodir bo'lgan o'sish-o'zgarish, evrilishlar haqqoniy aks ettirilgan. Ocherkda paxtachilikdagi "shohmot usuli"ning ixtirochisi g'irvonlik dehqon Mallaboy aka obrazi juda jonli va tabiiy berilgan. Asarda paxtachilikning istiqboli yangi usulni joriy qilishda, texnikadan unumli foydalanishda, degan g'oya yangi tipdagi dehqon Mallaboy Boqiboyev obrazi orqali ilgari surilgan.

73. Berdi tatar, Xatib domla, Usmon polvon qaysi asar qahramonlari?

Obid ketmon, Berdi tatar, Usmon polvon, Xatib domla, Muhsin domla Abdulla Qodiriy tomonidan 1934-yilda yozilgan "Obid ketmon" asarining asosiy qahramonlaridir. "Obid ketmon" – siyosiy tadbirga atab yozilgan birinchi yirik nasriy asar. Unda o'zbek dehqonlarining jamoa xo'jalikka uyushish jarayoni "Chetan" kolxozining tuzilishi va o'sa borishi misolida ochib berilgan.

Yozuvchi qissada davr hayotini, obrazlar faoliyatini aslidagiday qilib aks ettirishga katta e'tibor bergan. Shu maqsadda yakka xo'jalikni qoralash yoki jamoa xo'jaligini ortiqcha maqtab, uni ideallashtirishdan qochgan. Asar badiiy jihatdan yuksak saviyada yaratilgan. Adib o'zining xilma-xil xarakterlar yaratishga mohir san'atkor ekanligini yana bir bor ko'rsatgan.

74. Dunyoda oltinchi romanchilik maktabini kim yaratgan?

Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" romanini yozib, o'zbek romanchiligiga asos soldi. Bu haqda taniqli sharqshunos olim Ye. Bertels: "*Dunyoda beshta: fransuz, ingliz, rus, nemis va hind romanchilik maktablari bor edi. Endi oltinchisi,*

²⁴ Маърупов Зокир. А. Қодирий- луғатчи. – "Шарқ юлдузи" журнали, 1966 йил, 4-сон.

²⁵ "Литература Средней Азии" газетаси, 1935, 21 ноябрь.

ya'ni o'zbek romanchiligi maktabi paydo bo'ldi, bu maktabni Abdulla Qodiriy yaratdi “, – deb aytgan edi.

75. Abdulla Qodiriyning qanday sahna asarini bilasiz?

Abdulla Qodiriyning sahna uchun mo'ljallab yozgan asari “Baxtsiz kuyov” (1914) pyesasidir. Asarda boylarga taqlid etib, katta to'y o'tkazgan va natijada qarzga botib, baxtsizlikka uchragan kambag'al yigitning fojiasi hikoya qilingan. Kambag'al yigit Solih o'z xo'jayinidan og'ir shartlar bilan pul qarz olib, katta to'y qiladi, uylanadi. Biroq Solih qarzini o'z vaqtida to'lay olmaydi. Oqibatda, uning hovli-joyi qarz evaziga boyga o'tadigan bo'ladi. Yosh kelin-kuyov bu kulfatga chiday olmay, o'zlarini o'zlari halok qilishadi.

76. ”Qodiriyning so'nggi kunlari” xotira-qissasi kim tomonidan yozilgan?

Ma'lumki, Abdulla Qodiriy hayotining so'nggi yillari nihoyatda og'ir kechdi. Yozuvchining o'g'li Habibulla Qodiriy tomonidan yozilgan “Qodiriyning so'nggi kunlari” xotira-qissasida bu voqealar yorqin ifodalangan. Yozuvchi boshida qora bulitlar quyuqlashgan kezlari uning yaqinlari, mehribon tanish-bilishlari balo-ofatlardan saqlab qolish haqida qayg'urganlar, unga har xil maslahatlar berganlar. H. Qodiriyning yozishicha, Toshkentning mashhur kishilaridan Mannop tabib unga: “*Dadangga borib sekin ayt, u albatta o'zini Toshkentdan chetroqqa olsin*”, –deydi. H. Qodiriy bo'lgan gapni dadasiga yetkazganida, u chuqur o'yga tolib: “*Mening hech gunohim yo'q! Gunohsizni qamamasalar kerak... Yo'q gunohni bo'yinga olib vatanni tark etish, xalq ko'ngliga shubha solish, ... allaqaysi joylarda bo'yin egib, sarg'ayib yurish... Yo'q, bo'lmaydi!*”, – deya qat'iy javob beradi. Adib shaxsga sig'inishning qurboniga aylanadi. Bular asarda o'ta ta'sirli va hayajonli yozilgan.

77. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidagi Anvar qismatida qanday holatlar aks etgan?

“Mehrobdan chayon” romanidagi Anvar qismatida , uning tevaragidagi fisqu fasodlar, qalloblar qutqusi bilan uning boshiga tushgan kulfat, ko'rgiliklar, qahramonning qalb iztiroblari, qalloblarga cheksiz nafrati ifodasida Abdulla Qodiriyning o'z boshidan kechgan iztiroblari ham aks etgan.

78. Haydar soqov, Shokir shilpiq, Eson ko'knor, Orif sarkor kabi o'zlaqabiga ega bo'lgan obrazlar kimning qaysi asarida uchraydi?

Mazkur obrazlar Abdulla Qodiriyning “ Uloqda “ (1915-1916) hikoyasida qatnashadi. Hikoyaning bosh qahramoni Turg'un chavandoz – hikoyani so'zlab beruvchi bola. Haydar soqov va Shokir shilpiq Turg'unning o'ртоqlaridir. Esonboy ot tuyoqlari ostida qolib halok bo'ladi. Orif sarkor uloqni boshqargan oqsoqol. Hikoyaning asosiy g'oyasi aql va idrok bilan ish tutish, behuda narsalarga umr sarflamay, ma'rifat va ma'naviyatga intilish .Bu hikoyaga mashhur yozuvchi Oybek ham katta baho bergan. Qisqasi, bu hikoya faqat Abdulla Qodiriyning yutug'I bo'lib qolmay. Oktabr to'ntarishigacha bo'lgan o'zbek adabiyotidagi realistik hikoyaning eng yaxshi, yetuk namunasi.

79. Abdulla Qodiriyning qanday taxalluslarini bilasiz?

Abdulla Qodiriy 1919-1925-yillar orasida matbuotda uch yuzdan ortiq maqola, hajviya va feletonlari bilan qatnashdi. Ularda bo'layotgan nohaqliklarni, aldanchilikni ro'y-rost fosh etdi, mazax qildi. Bu asarlarini yozuvchi Qodiriy, Julqunboy, Kalvak Mahzum, Toshpo'lat, Ovsar, Dumbul, Shig'oy kabi ko'plab imzo-taxalluslarda e'lon qilgan. Yozuvchining bu faoliyati haqida o'g'li Habibulla Qodiriy yozadi: *“Mushtum” jurnalining 1924-yil sonlaridan birida dadamning suratini o'rtoqlik hazily tariqasida masxaralab bosishgan va tagiga shu so'zlarni yozib qo'yishgan edi: Feletonlar qiroli Julqunboy: yig'latib kuldiradi, kuldirib yig'latadi*²⁶.

80. Abdulla Qodiriyning qutlug' nomi va asarlari nechanchi yildan boshlab xalqqa qaytarildi?

1958 -yildan boshlab Abdulla Qodiriyning qutlug' nomi va asarlari xalqqa qaytarildi. Lekin katta ishlar asosan mustaqillik yillarida amalga oshirildi.

81. Abdulla Qodiriyning eskilik sarqitlarini fosh qiluychi hikoyalari qaysilar?

Abdulla Qodiriyning “Kalvak Maxzumning xotira daftaridan”, “Toshpo'lat tajang nima deydi?” kabi hajviy asarlarida eskilik sarqitlari, odatlari ayovsiz fosh qilingan. Shuni ham unutmaslik kerakki, yozuvchini ilk bor elga tanitgan ham ana shu hajviy asarlari bo'ldi. Muallif bu asarlarda hayotdagi odamlar tabiatidagi muayyan salbiy hodisalarni sof mafkuraviy nuqtai nazardan bir yoqlama qoralash, fosh etish yo'lidan bormay, xarakter va hodisalarni xolis turib, murakkabligi, ziddiyatlari bilan ko'rsatishga jazm etgan va bunga erishgan ham...

82. Abdulla Qodiriy asos solgan hajviy jurnal qanday nomlangan?

Abdulla Qodiriy 1917-yildan boshlab jurnalistika sohasida faoliyat ko'rsata boshladi. 1923-yildan boshlab “Mushtum” jurnalida mas'ul lavozimda ishladi. Feleton, maqola va hajviy hikoyalari bilan “Mushtum”da faol qatnashib, birinchi o'zbek jurnalining asoschilaridan biri sifatida tanildi.

83. “Zulmatni tark etib” kinofilmi kimning qaysi asari asosida yaratilgan?

Abdulla Qodiriy romanlari kinofilm qilib ham ishlangan. Yozuvchining “Mehrobdan chayon” romani kinofilmi “Zulmatni tark etib” deb nomlangan.

Mavzu: ABDULHAMID SULAYMON O'G'LI – CHO'L PON

84. Cho'lpon ijodiga xolis yondashish qachondan boshlandi?

XX asrning 20-30-yillarida Cho'lpon ijodi qoralangan bo'lsa, so'nggi davrlarda, asosan XX asrning 90-yillaridan boshlab shoir asarlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini tadqiq etishda xolislik tamoyillariga tayanildi. Shunga ko'ra, Cho'lpon ijodiga haqli ravishda yuqori baho berilgan. Ozod Sharafiddinov²⁷,

²⁶ Хабибулло Қодирий. Отам ҳақида. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983, 36-бет.

²⁷ Шарафиддинов Озод. Чўлпон. Шоир ҳақидаги ривоятлар ва ҳақиқатлар. Т.: “Чўлпон”, 1991, 112 бет.

Baxtiyor Nazarov, Naim Karimov²⁸, Salohiddin Mamajonov²⁹, Sherali Turdiyev, Dilmurod Quronov³⁰ kabi munaqqidlarning turli maqola va risolalarida Cho'lponning she'riy va nasriy asarlari hozirgi kun talablari darajasida tahlil etilgan.

Ozod Sharafiddinov "Cho'lponni anglash" risolasida shoir ijodi haqida shunday xulosaga kelgan: "*Cho'lponni anglash – so'z san'atining botiniy qonuniyatlarini teran anglash, ularning shoir ijodida qanday zohir topishini anglashdir. Cho'lponni anglash-uning buyuk umumbashariy g'oyalarini, yuksak insoniy tuyg'ularini yurakka singdirib olishdir. Cho'lponni anglash-Vatanni, ko'hna Turkistonimizni Cho'lpon ko'zi bilan ko'rib, Cho'lpon yuragi bilan seva bilmoqdir...*"³¹.

85. Cho'lponning birinchi nasriy asari qachon va qaysi gazetada chop etilgan?

Cho'lponning birinchi nasriy asari (she'r va maqolalari ham shu yildan chiqqa boshlagan) "Sadoyi Turkiston"ning 1914-yil 29-aprel sonida chop etilgan "Qurboni jaholat" hikoyasidir. Dastlabki asarlari "Abdulhamid Sulaymon", "Abdulhamid Sulaymoniy" imzolari bilan bosildi. So'ngroq "Qalandar", "Q.", "Mirzaqalandar", "Andijonlik" nihoyat, "Cho'lpon" taxalluslari bilan chiqdi. Adabiyotimiz tarixiga "Cho'lpon" nomi bilan kirgan.

86. Cho'lponning shoirlik faoliyati haqida nimalar bilasiz?

Cho'lpon adabiyotning juda ko'p tur va janrlarida samarali ijod qilgan bo'lsa-da, shoir sifatida ko'proq shuhrat topdi. U XX asr o'zbek adabiyotining zabardast vakili, yangi o'zbek she'riyatining boniysidir. Cho'lpon chaqmoqdek she'rlari bilan 20-yillar o'zbek she'riyatining yulduziga aylandi. Shoirning "Uyg'onish" (1922), "Buloqlar"(1924), "Tong sirlari"(1926), "Soz" (1935) to'plamlari o'zaro raqqoslansa, Cho'lpon she'riyatidagi g'oyaviy-badiiy fazilatlar, ijodiy kamolot yo'lidagi izlanishlar, turfalik va ziddiyat ochiq ko'rinadi. Shoir so'nggi she'riy kitobiga quyidagi serma'no satrlarni epigraf qilib keltirgan edi:

*Bir esib o'tdilar "Uyg'onish" yellari,
Bir qaynab toshdilar ko'zyoshi – "Buloqlar".
Ey, tongda qaltirab o'ynashgan yaproqlar,
Tek turing, yoyilsin endi "Tong sirlari".*

Haqiqatan ham, 20-yillarning jang-u jadallar millatni uyg'otdi. Sevinch va alam yoshlari to'kildi. "Buloqlar" o'sha ko'z yoshlaridir. Hammasi o'tdi. Endi o'tganni anglamoq va anglatmoq zamonidir. "Sirlar"ni ochmoq zamonidir. Shoir

²⁸ **Каримов Наим.** Чўлпон, Т.: "Фан", 1991, 84 бет. **Каримов Н.** Истиклолни уйғотган шоир. Т.: "Маънавият", 2000.

²⁹ **Мамажонов С.** Бизнинг Чўлпон (Бадий-публицистик мақолалар), Т.: "Ёзувчи", 1997.

³⁰ **Қуронов Д.** Рухий дунё таҳлили. Т.: Хазина, 1995; яна шу муаллиф. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси, Т.: "Ўқитувчи", 1997.

³¹ **Шарафиддинов Озод.** Чўлпонни англаш.- Т.: "Ёзувчи", 1994, 46-бет.

“tongda qaltirab o’ynashgan yaproqlar”ni – g’ofil, chorasiz avlodni tinglashga, idrok etishga undaydi.

87. Cho’lponning qanday tarjima asarlarini bilasiz ?

Shekspirning “Hamlet”, Karlo Gotsining “Malikayi Turandot”, Pushkinning 25 she’ri va “Boris Godunov” va “Dubrovskiy”, Gogolning “Tergovchi”, Gorkiyning “Ona “ romanini, “Yegor Bulichov”, Andreyevning “Osilgan yetti kishining hikoyasi” ni hamda Lohutiyning “Yevropa safari” kabi asarlarni o’zbek tiliga tarjima qilib, zamonaviy o’zbek tarjima maktabiga asos soldi.

88. Cho’lponning qanday sahna asarlarini bilasiz?

Cho’lpon teatrchilik bilan ham shug’ullandi. Buxoro va Moskvada lik chog’ida bir qator dramalar yozdi. “Boy”, “Xalil farang”, “Yorqinoy”, “Cho’pon sevgisi”, “Cho’rining isyoni”, “Zamona xotini”(yoki “Mushtumzo’r”), “O’rtoq Qarshiboyev”, “Hujum” (V.Yan bilan hamkorlikda) kabi sahna asarlari yozgani haqida mutaxassislar ma’lumotlar beradilar. Afsuski, ularning ko’pi bizga yetib kelmagan. Bu pyesalar orasida eng mukammali “Yorqinoy” (1920) dramasidir. Bu yirik sahna asari folklor materiallari asosida yaratilgan. Bu ertak-pyesa 1921-yilda Mannon Uyg’ur truppasi tomonidan sahnaga qoyilgan.

89. “ – Aylanay, mehmon, kimdan xafa bo’lib tushdingiz? Kim ozor berdi sizga? Ayting. Qovog’ingizni ochsangiz-chi! Yorug’ dunyoga keldingiz! Shukur qiling! Mundog’ bir kuling!...” Fikrlar qaysi asardagi qahramonga qarata aytilyapti?

Bu fikrlar Cho’lponning “Kecha va kunduz “ romanidagi Razzoq so’fi obrazi haqida. U bosh qahramon Zebining otasi, farzandi taqdiriga mutlaqo loqayd. Romanda berilgan ra’rifga ko’ra, u “*ko’rgazmada qo’yilaturgan antiqa maxluqlardan*”dir. Bu hol yuqorida ta’kidlangan.

90. ”Qurboni jaholat”, “Do’xtur Muhammadyor” asarlasri muallifi kim? Qaysi janrga mansub?

”Qurboni jaholat”, “Do’xtur Muhammadyor” asarlari Abdulhamid Cho’lpon tomonidan yozilgan bo’lib, hikoya janriga mansub. Shuningdek, “Qor qo’ynida lola”, “Kleopatra”, ”Oydin kechalarda”, “Novvoy qiz”, “Nonushta” hikoyalari ham mazkur yozuvchi tomonidan yozilgan.

91. Qaysi asar ilk bahor tasviri bilan boshlanib,qish chillasida tugaydi?

Cho’lponning “Kecha va kunduz“ romanidagi voqealar nisbatan qisqa vaqt ichida bo’lib o’tgan voqealarni tasvirlagan. Asar ilk bahor tasviri bilan boshlanib, qish chillasida bo’lib o’tgan voqealar bilan tugaydi. Bosh qahramon Zebi asardagi ana shu bahorning jonli timsoli sifatida gavdalanadi. Baliq suv bilan tirik bo’lgani kabi ana shu bahor bilan tirik. Adib dastlabki satrlardananoq unga nisbatan teran bir muhabbat bilan qalam tebratadi: “*Zebining qish ichi siqilib, zanglab chiqqan ko’ngli bahorning ilk hovuri bilan ochila tushgan, endi ustiga poxol to’shalgan*

aravada bo'lsa ham allaqaylarga, dala-qirlarga chiqib yayrashni tusay boshlagan edi"³².

92. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida qaysi davr voqealari tasvir etilgan ?

Cho'lponning ikki kitobdan iborat bo'lgan "Kecha va kunduz"(1935-yilda yozilgan, 1936-yilda alohida kitob bo'lib bosilib chiqqan) tarixiy romani adabiyotimizning oltin xazinasidan mustahkam joy egallagan. Romanda 1-jahon urushi davridagi Turkiston hayoti aks ettiriladi. Ayni zamon adib nazdida xalqimiz hayotidagi qorong'I kechadirki, roman nomi ham shunga ishora: birinchi kitob "Kecha", ikkinchi kitob "Kunduz" deb ataladi. Biz mazkur romanning birinchi – o'tmish (kecha) qismiga egamiz. Uning ikkinchi – sho'ro zamoni (kunduz) yetib kelmagan. Tadqiqotchilarning fikriga qaraganda, u nashriyotga topshirilgan, hatto korrekturasi ham chiqib kelgan biroq tergov jarayonida yo'qolgan.

Asarda mamlakatda o'sha davrda hukm surgan ijtimoiy adolatsizlik, chorizmning ich-ichidan chirib, nurab borayotganligi, oq podsho hokimiyatining butunlay inqirozga yuz tutganligi, chor va mahalliy amaldorlarning kirdikorlari, razil xatti-harakatlari ro'y-rost ochib tashlangan. Shu bilan birga, mamlakat buyuk ijtimoiy o'zgarishlar arafasiga kelib qolgani ishonarli tarzda, obrazli ravishda ko'rsatib berilgan. Romanning bosh g'oyasi maishiy turmush manzaralari, an'anaviy kundoshlik mojarolari va yangi davrga xos bo'lgan xususiyatlar, ya'ni "kapitalistik munosabatlar" va "burjua axloqi" deb atalgan, islomiy turmush tarzidan uzoq fe'l-odatlar tasviri yordamida ifodalanadi.

93. Cho'lponning "Diyorim" she'rida nima xususida so'z yuritiladi?

Cho'lponning "Diyorim" she'rida o'zbek xalqi tarixining qora, nursiz sahifalari qalamga olingan. Shoirning bu sahifalar osha ko'rgani faqat mudhish voqealar – xonlar, qonlar va qurbonlar xolos. Uning tarixini bunday talqin etishida jon bor. O'z diyorini sevgan, shu diyor uchun qurbon bo'lgan shoirning bor-yo'q orzusi – uni farovon va charog'on ko'rish. Lekin 30-yillarda, ayniqsa kuchli ta'qib ostida qolgan, yozgan asarlari xalqqa yo'l topa olmagan shoir mustabid tuzum bilan murosqa qilishga majbur bo'lgan...

Mavzu: G'AFUR G'ULOM

94. G'afur G'ulom qachon va qayerda tug'ildi?

XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi, o'zbek she'riyati, badiiy publisistikasi, hajviy hikoyachiligi, yumoristik qissachiligi va tarjimachiligi rivojiga katta hissa qo'shgan yirik so'z san'atkori G'afur G'ulom 1903-yil 10-mayda Toshkent shahrining Qo'rg'ontegi mahallasida dunyoga keldi. Otasi G'ulom Mirza Orif o'g'li va onasi Toshbibi Yusuf qizi o'qimishli, fors tilini bilgan, adabiyotni sevgan odamlar edi. Otasi "Mirza" va "G'ulom" taxalluslarida ko'plab she'rlar yozgan.

³² Каранг: Чўлпон. Асарлар. 3 жилдлик, 2-жилд. Т., "Хазина", 1994.

95. Shoir G'afur G'ulomning yoshlik yillari qanday o'tdi?

G'afur G'ulom ota-onasidan juda erta ajraydi, u 9 yoshida otasidan, 15 yoshida onasidan judo bo'ldi, oilaning moddiy muhtojligi kuchayadi. Keyinchalik ana shu yetimlik va muhtojlik kunlarini eslab shunday yozadi:

*Yetimlik nimadir
Bizlardan so'ra,
O'ninchi yillarning
Sargardonligi,
Isitma aralash
Qo'rqinch tush kabi
Xayol ko'zgusidan
O'chmaydi sira.
Men yetim o'sganman,
Oh, u yetimlik...*

G'afur G'ulom hayotning og'irliklariga qaramay, ilm olishga intildi, badiiy adabiyotga, she'riyatga juda qiziqdi. Shoir she'rlarni tinmay mutolaa qildi.

96. G'afur G'ulomning birinchi she'ri qanday nomlangan?

1923-yildan boshlab shoir internatda mudir bo'lib ishlaydi. Shoirning birinchi she'ri shu joyda yozilgan. "Shu kecha o'z yetimligim, boshimdan kechirganlarim va shu yetim bolalar ahvoli, shu go'daklarga xalqimizning g'amxo'rliги to'g'risida she'r yozdim. Shu she'rimni ilk she'rim desam bo'ladi"³³. Bu "Feliks bolalari" she'ridir. She'r quyidagi misralar bilan boshlanadi:

*Biz odam bolasimiz,
Odamning donasimiz.
Biz o'sib ulg'ayamiz,
Olim bo'lish g'oyamiz.*

97. Qaysi ijodkor Turkiston-Sibir temir yo'li qurilishiga bag'ishlab she'r yozgan? She'r qanday nomlangan?

G'afur G'ulom Turkiston-Sibir temir yo'li qurilishiga bag'ishlab 1930-yil 1-mayda "Turksib yo'llarida" nomli she'r yozgan. Bu she'rda shoir Turkiston-Sibir temir yo'li qurilishining ijtimoiy mohiyatini ochishda taqqoslash usulidan o'rinli foydalangan. She'r yuksak badiiyluk ruhida yozilgan, unda davr va xalq hayotidagi muhim tarixiy hodisa ifodalangan:

*Bu yo'llar,
bu qadim yo'llar
Ustiga*

³³ Адабиётимиз автобиографияси. – Т.: 1973, 171-173-бетлар

*Bu izdan obida,
Abadiy xotiraki, bundan
to'xtamay bir nafas*

*Qon,
Qatron hidimas,
Ozodlik*

shamoli esajak.

98. G'afur G'ulom ijodi kimlar tomonidan o'rganildi?

Shoir ijodini ilmiy asosda o'rganish, tadqiq etish sohasida talay ishlar qilingan. H. Yoqubovning "G'afur G'ulom" (1959), S. Mamajonovning "Shoir va zamonaviylik" (1963), "G'afur G'ulom prozasi"(1966), "Uslub jilolari"(1972), N. Shukurovning "G'afur G'ulomning lirik poeziyadagi mahorati"(1966), A. Akbarovning "Shoirning hayoti"(1973) nomli kitoblari, I. Sulton, V. Zohidov, L. Qayumov, O. Sharafiddinov, U. Normatov, B. Imomov, N. Karimov, A. Oripov va boshqalarning ilmiy maqolalari shular jumlasidandir.

Mustaqillik davrida G'afur G'ulom ijodini tadqiq va tahlil etish kuchaydi. Keyingi vaqtlarda "G'afur G'ulom" (Naim Karimov), "Akademik G'afur G'ulom" (Aziz Qayumov), "G'afur G'ulom olami"(Baxtiyor Nazarov), "G'afur G'ulom zamondoshlari xotirasida", "G'afur G'ulom Samarqandda" kabi risola va maqolalar to'plami yaratildi.

99. G'afur G'ulom qaysi asari ustida salkam yigirma besh yil ishlagan?

G'afur G'ulom "Shum bola" qissasi ustida juda ko'p mehnat qilgan. Asarni 1941-yilda va 60-yillarning boshida ikki marta qayta ishlagan; har saqfar uni yangi boblar, yangi voqea va detallar bilan boyitgan. Yozuvchi Said Ahmad:"1962-yilda G'afur G'ulom yana "Shum bola"ni qo'lga oldi, tahrir qildi. Yangi boblar kiritildi. Hoji bobo obraziga juda ko'p detallar qo'shildi. Ayniqsa, qissaning bosh qismi, oxiri, o'rtalarida o'zgarishlar bo'ldi. Adib "Shum bola" qissasini salkam yigirma besh yil ishladi, desam yanglish bo'lmaydi"³⁴, – deb yozgan edi.

100. " Zamonali va Omonali " nomli musiqali komediya kimniki? U qaysi asar asosida yaratilgan?

Hamid G'ulom "Shum bola" va shu nomdagi telefilm asosida "Zamonali va Omonali" nomli musiqali komediyasini yaratgan.

101. Mamajon tanbal hayoti tasvirlangan asar qanday nomlanadi?

Mamajon tanbal obrazi tasvirlangan asar "Tirilgan murda" bo'lib, G'afur G'ulom tomonidan yozilgan. Asarda Mamajon ismli bir yigitning 1925-1933-yillarda kechirgan hayoti hikoya qilinadi. Adib uni "Ming bir kecha" asaridagi yalqovlikda mashhur Abutanbalni bir cho'qishda qochiradigan dangasa sifatida tasvirlaydi.

Qissada voqea Mamajon tilidan, uning kundalik daftarining sahifalari sifatida berilgan. Asar original uslubda yaratilgan.

³⁴ **Сайд Аҳмад.** Бу кунларга етганлар бор, етмаганлар бор.- "Жаҳон адабиёти" журн., 2001 йил, 9-сон, 5-бет.

102. "Shum bola" asaridagi qaysi qahramonga yozuvchi dadasining ko'p qiziq xislatlarini, so'zlarini yozgan?

G'.G'ulom "Shum bola" qissasidagi Hoji bobo obrazi haqida gapirib: "Hoji boboga marhum dadamning ko'p qiziq xislatlarini, so'zlarini shundoqqina yozib qoya qoldim. Dadam ham ko'chada yurganlarida hassalarining uchi bilan yo'ldagi qog'ozlarni titib ko'rardilar, non tushib qolgan bo'lsa, olib o'pardilar, ko'zlariga surtib, keyin devor kovagigami, balandroq joygami qo'yardilar. Hoji bobo ham shunaqa qiladi"³⁵ – degan edi.

103. G'afur G'ulomning qaysi asarida Farhod GES bunyod etilishi tasvirlangan?

G'afur G'ulomning "Suv va nur" balladasida urush davridagi umumxalq qurilishi – Farhod GES bunyod etilishi tasvirlanib, xalqning mehnat qahramonligi tarannum etilgan. G'alabaga ishonch tuyg'ulari asarning umumiy ruhiga mahorat bilan singdirib yuborilgan. Bu she'rda vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari g'alabaga ishonch tuyg'usi bilan uzviy birlikda namoyon bo'ladi.

104. G'afur G'ulomning tarjimonlik faoliyati haqida nimalar bilasiz?

G'afur G'ulom mohir tarjimon sifatida A. Pushkin, A. Tolstoy, A. To'qay, M. Lermontov, A. Nekrasov, V. Mayakovskiy, M. Gorkiy, T. Shevchenko, Nozim Hikmat, Mirzo Tursunzoda, Antal Gidash, Hodi Toqtosh, A. Lohutiy kabi qator san'atkorlarning bir qancha asarlarini o'zbek tiliga o'girdi.

Shuningdek, buyuk ingliz dramaturgi V. Shekspirning "Otello", "Qirol Lir" tragediyalari, Lope de Veganing "Qo'zibuloq qishlog'i", F. Shillerning "Vilgelm Tell" asarlari ilk bor G'afur G'ulom tomonidan tarjima qilindi. G'afur G'ulom tarjimalarida asl nusxaning yetakchi fazilatlarini, uning milliy ruhi va tarovati to'la saqlangan deyishimiz mumkin.

105. G'afur G'ulomning adabiyotshunoslikka doir qanday asarlarini bilasiz?

G'afur G'ulom adabiyotshunos olim sifatida "Folklordan o'rganaylik", "Shoir ayblaydi", "O'zbek shoirasi Mehri", "Oybek – yozuvchi va olim", "Talentli shoir va dramaturg" singari asarlarni hamda o'zbek adabiyotining Alisher Navoiy, Mashrab, Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar, Oybek, Hamid Olimjon, Shayxzoda, Sobir Abdulla, G'ayratiy kabi vakillari haqida, shuningdek, xalq og'zaki ijodi haqida bir qancha sermazmun maqolalar yozgan.

106. G'afur G'ulom ijodini "Shoir va zamonaviylik", "G'afur G'ulom prozasi", "Uslub jilolari" kabi kitoblarida keng tadqiq qilgan olim kim?

O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, filologiya fanlari doktori, professor Salohiddin Mamajonov G'afur G'ulom ijodini "G'afur G'ulom prozasi", "Shoir va zamonaviylik", "Uslub jilolari" kabi kitoblarida keng tadqiq qilgan olimdir. Taniqli olim mazkur kitoblarida G'.G'ulomning lirikasi, nasri, dramalari,

³⁵ Саид Ахмад. "Шум бола"нинг давоми.- "Ўзбекистон маданияти" газетаси, 1978 йил, 9 май.

tarjimalari, pubitsistik maqola hamda adabiyotshunoslikka oid asarlarini ilmiy jihatdan chuqur va atroflicha keng tahlil qilgan.

107. G'afur G'ulom 20-yillarning oxiri va 30-yillarning boshlarida qanday hikoyalar yozdi?

G'afur G'ulom 20-yillarning oxiri va 30-yillarning boshlarida “Ko'ngilsizning qilig'i”, “Eshonobod”, “Yigit”, “Chorbozorchi”, “Soat”, “Jo'rabo'za”, “Sabab”, “Elatiyada bir ov”, “Haji qabul bo'ldi”, “Luqmon”, “Badal novcha afsona qahramoni” kabi qirqqa yaqin hikoyalar yozdi. Bularning bir qismida o'tmish hayotga xos bo'lgan voqealar tasvirlangan. Aksariyatida esa hozirgi zamon voqeligi tasvirlanib, hayot taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi dangasalar, tekinox'r yulg'ichlar, firibgar savdogarlar fosh etilgan, yangi ong, yangi turmush va yangi urf-odatlar targ'ib va tashviq qilingan.

108. Mulla Dilkash obrazi qaysi hikoyada tasvirlangan ?

G'afur G'ulom o'tmish mavzusidagi hikoyalarida turmushdagi illatlarni satira ostiga olib, ular ustidan achchiq kuladi. “Hiylai shar'iy” hikoyasi shu fikrimizni asoslaydi. Uning asosiy qahramoni Mulla Dilkash bo'lib, salbiy qiyofasi chizilgan. Asar g'oyasi obrazlarning harakatidan, hikoyaning umumiy ruhidan kelib chiqadi. Hikoya sujet va kompozitsiya jihatdan ham pishiq. Yozuvchi asar g'oyasini ochishda, obraz yaratishda satirik bo'yoqlardan ustalik bilan foydalangan.

109. G'afur G'ulomning “Yodgor” qissasi qachon va qanday mavzuda yozilgan?

“Yodgor” qissasi 1936-yilda yozilgan. Qissada odamlardagi yangicha qarashlarning shakllanish jarayoni tasvirlangan. Yangi turmush tufayli kishilarimiz ongi va ruhiyatida yuz bergan o'zgarishlar, yangi insonning o'sib yetilishi Jo'ra, Saodat va Mehri hayoti bilan bog'liq sarguzashtli voqea tasvirida ochib berilgan.

Qissaning asosiy qahramoni Jo'ra – tadrijiy o'sishda ko'rsatilgan hayotiy obraz. Asar boshida Jo'ra dunyoqarashi, bilim doirasi tor va soda bir yigit sifatida namoyon bo'ladi. U voqealar davomida o'sadi, o'zgaradi. Hayotda, odamlar orasidagi munosabatlar tarziga jiddiy nazar tashlaydigan bo'ladi.

110. G'afur G'ulomning qaysi asari yumoristik ohangda bo'lib, voqeani bosh qahramonning o'zi hikoya qiladi?

G'afur G'ulomning “Yodgor” qissasi yumoristik ohangda bo'lib, voqeani bosh qahramonning o'zi hikoya qiladi. Asarda “Ming bir kecha”ga o'xshagan ertaklarga xos bayon va qoliplash (hikoya ichida hikoya qilish) yo'lidan foydalaniladi. Adib o'sha paytdayoq muhabbat erki masalasiuni ko'tarib chiqib, o'tmish sarqiti inson boshiga og'ir kulfatlar olib kelishi mumkinligini ko'rsatib beradi. Hazil-mutoyiba va ertaknamo yo'sinda yozilgan bu asar zamirida g'amgin hikoya, fojiali taqdir bor. G'afur G'ulom jahon adabiyotida hozirgi vaqtlarda keng qo'llanilayotgan tasvir usulini o'sha vaqtdayoq ishga solganini guvohi bo'lamiz.

111. G'afur G'ulomning "Yodgor" asarida qanday voqealar tasvirlanadi?

G'afur G'ulom "Yodgor" qissasini 1936-yilda yozgan. Yozuvchi qissada yangi zamon voqeligi va unda yangicha tarbiya topayotgan kishilar xarakterini aks ettirgan.

Yashashning mazmunini ulfatlar bilan ko'ngilxushlik qilib, bedana sayratib yurishdan iborat deb tushungan oddiy chapani yigit –Jo'raning hayotda o'z o'rnini toppish jarayoni rang-barang voqealar zahirida, ko'pdan-ko'p qahramonlar bilan o'zaro munosabatda aks ettiriladi. Qissadagi voqealar uning qahramoni bilan Toshkentdan Ashxobodga va boshqa shaharlarga ko'chib turadi. Asarda yangi turmush tufayli ongi va ruhiyatida yuz bergan o'zgarishlar, yangi insonning o'sib yetishishi Jo'ra, Saodat va Mehri hayoti bilan bog'liq sarguzashtli voqea tasvirida ochib berilgan. Butun asar davomida G'afur G'ulom Abdulla Qodiriydan o'rgangan "sir tutish" hamda sujet harakatining muayyan bir tuguniga o'quvchi diqqatini jalb etib turish mahoratidan ustalik bilan foydalangan. Ayni vaqtda, bu badiiy usul adibga asar ziddiyati va qarama-qarshiliklarini, qahramonlarning o'zaro to'qnashuvi va xarakterlar ruhiyatini ochishda muhim vosita vazifasini bajargan.

112. Yangi turmush ta'siridagi o'zbek yigiti milliy ongi va xarakterini ko'rsatishda yozuvchi G'afur G'ulom qanday usullardan foydalangan?

Asarda voyaga yetmagan Jo'ra armiya xizmatiga ketadi. U yerda uch yil davomida hayot sinovlarida toblanadi. Asar davomida Jo'ra bilan Saodatning pok muhabbati tasviri qissani bezab turadi. Harbiy xizmatdagi ayriliq muhabbatni ham sinovdan o'tkazadi.

G'afur G'ulom uchun harbiy xizmatni tugatgan Jo'rani harbiy akademiyaning tibbiyot bo'limiga yuborish, chegaradagi bo'linmalardan biriga shifokor qilib jo'natish syujet chizig'idagi qiziquvchanlikni oshirish yoki voqea ketidan quvish muddaosi emas. Yozuvchining bundan kutgan asosiy muddaosi yangicha sharoitda shakllanib, voyaga yetib borayotgan yangi turmush tarzidagi o'zbek yigiti milliy ongi va xarakterini ko'rsatishdan iboratdir.

113. G'afur G'ulom qaysi she'rini ingliz lordining bizlarni qabila deb ataganiga javob tariqasida yozgan?

G'afur G'ulom "baxt nima?" degan savolga javob berar ekan, bunday deydi: "Inson baxtli bo'lishdan ilgari ozod-erkin bo'lishi kerak. Erkin bo'lish uchun tabiat va jamiyatning butun qonunlarini bilish kerak" deydi. Shoirning o'zbek xalqining qadimiyligi, jahon ma'naviyati xazinasiga qo'shgan salmoqli hissasini ko'rsatuvchi she'rlari tagida ham shu maqsad, niyat yotardi. "O'zbek xalqi qadim xalqlardan biridir. U taraqqiyot tarixining har bir bosqichida o'z qadr hissasi bilan ishtirok qilgan bir xalqdir", degan edi. "Sharaf qo'lyozmasi" she'ri ostiga shoir "Ingliz lordining bizlarni qabila deb ataganiga javob", deb yozib qo'yadi. Shoir she'r boshidanoq:

*Qadim o'zbek xalqisan,
Asl odam avlodi.
Misr ehromlaridan
Tarixing qariroqdir, –*

deb yozadi.

114. G'afur G'ulomning qanday qissalarini bilasiz?

G'afur G'ulom o'z ijodini she'r yozishdan boshlagan, keyinchalik ko'plab hiloyalar, feletonlar, ocherklar ham yozdi. Yozuvchi o'zbek adabiyotini "Netay" (1930), "Tirilgan murda"(1934), "Shum bola"(1936-1963), "Yodgor" (1936) singari qissalar bilan boyitdi, o'zbek adabiyotida qissa janrining qaror topishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

115. G'afur G'ulomning "Vaqt" she'ri nima munosabat bilan yozilgan?

G'afur G'ulom 1945-yilda yozgan "Vaqt" she'riga "*Menga soat taqdim etgan jiyanim Hamidulla Husan o'g'liga bag'ishlangan*" deb yozib qo'ygan. Shoir she'rda mehnat va vaqt haqida poetik fikr yuritib, teran mazmunli falsafiy umumlashma yaratadi. Vaqtni e'zozlab, uning har bir daqiqasidan unumli foydalanish, samarali mehnat qilib "*umr daftarini bezash*" haqida bong uradi:

*Aziz asrimizning aziz onlari,
Aziz odamlardan so'raydi qadrin.
Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la
Bezamoq chog'idir umr daftarin.*

G'afur G'ulom faylasuf shoir sifatida jamiyat va insoniyat tarixi, taqdiri va kelajagi mavzusiga qayta-qayta murojaat etadi. Har safar favqulodda topqirlik bilan hayot haqiqatiga mos bo'lgan badiiy-falsafiy umumlashmalar chiqaradi. Shoirning she'rda qilgan bashorati, ezgu tilaklari aynan mustaqillik yillarida ro'yobga chiqdi:

*Hayot sharobidan bir qultum yutay,
Damlar g'animatdir, umruzoq soqiy.
Quyosh-ku falakda kezib yuribdi,
Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.*

116. "Dinamo", "Tirik qo'shiqlar" to'plamlari kimniki ?

Bu to'plamlar G'afur G'ulom tomonidan yozilgan. Ilk she'riy to'plami "Dinamo" 1931-yilda, "Tirik qo'shiqlar" to'plami esa 1932-yilda e'lon qilingan. Bu to'plamlardan joy olgan she'rlar shoirning dastlabki mashqlaridir. Shunday bo'lishiga qaramay, ularda shoirning ko'tarinki uslubi, uning ranglarga bo'lgan munosabatida aks etgan, ijodkor tabiatdagi "haft rang"ni sevadi va unda Vatanimiz jamolining tovlanishini ko'radi. Vatan rangi oldida hatto "*quyosh ham qoyil bo'lib yetkazolmay qoldi rang*", deydi shoir. U kumush va qizil rangni nihoyatda sevadi (alvon, gulgun, lola, shafaq, quyosh, kumush, oppoq, tong...). Bularda baxt va musaffolikni, tinchlikni ko'radi.

117. G'afur G'ulom qaysi asarlarida oila va axloq muammolarini qalamga olgan?

G'afur G'ulomning “Elatiyada bir ov”, “Hiylayi shar’iy”, “Yodgor” kabi qator hikoya va qissalarida oila va axloq muammolari badiiy talqin etilgan. Masalan, “Hiylayi shar’iy” hajviy hikoyasidagi Mulla Dilkash obrazi orqali adib bir necha xotini bo’lishiga qaramay, yana yangisini olishni ko’ngli tusab qolgan, biroq bunga shariat yo’l qo’ymagani tufayli “yo’lini” qidirishga majbur bo’lib, axloqiy va ma’naviy tubanliklargacha borib yetgan olchoq va beor kishi qiyofasini gavdalantirdi.

118. Urush yillari farzandlarini frontga jo’natgan millionlab otalarning mehri va sog’inchi badiiy tarannum etilgan G’afur G’ulomning she’ri qanday nomlangan?

G’afur G’ulomning insonparvarlik g’oyasi nihoyatda tiniq va yorqin ifodalangan she’ri “Sog’inish“ bo’lib, 1942-yil, 15-mayda yozilgan. Bu she’rda jonajon O’zbekistonda o’z farzandlarini frontga jo’natib, g’alaba bilan qaytishini intiqlik bilan kutayotgan ota-onalar, sevikli mahbubalar, jami jigargo’shalar qiyofasi – olisdagi farzandlarga nisbatan sog’inchlari alanganib turgan umumlashma xalq obrazi yaratilgan. “Sog’inish” she’ri zamirida olijanob g’oya – insonparvarlik g’oyasi yotadi:

*Zo’r karvon yo’lida yetim bo’tadek,
Intizor ko’zlarda halqa-halqa yosh.
Eng kichik zarradan Yupitergacha
O’zing murabbiysan, xabar ber, Quyosh.*

She’rning bosh lirik qahramoni bir jihatdan shoirning o’zi. Ikkinchi qahramon esa, shoirning sog’ingan dilbandi, frontda jang qilayotgan o’g’lidir. “Sog’inish” badiiy umumlashma darajasiga ko’tarilgan, faqat bir shoirninggina emas, farzandlarini frontga jo’natgan millionlab otalarning mehri-sog’inchi badiiy tarannum etilgan she’rdir.

119. G’afur G’ulomning “Mening o’g’rigina bolam“ hikoyasida qanday masala yoriytilgan?

G’afur G’ulomning “Mening o’g’rigina bolam“ lirik-dramatik hikoyasi 1965-yilda yozilgan. Yozuvchi bolaligida guvoh bo’lgan hayotiy voqeani asos qilib olgan, shu asosda shafqatsiz jamiyatni va shunday sharoitda ham o’zining insonligiga, mehr-oqibatiga zarracha putur yetkazmagan insonni ko’rsata olgan.

Hikoyada yozuvchi qashshoq hayot kechirishiga qaramay, ma’naviy barkamolligi, insonparvarligi va odamiyligini yuksak darajada saqlab qololgan bir mushtipar o’zbek kampiri qiyofasini gavdalantiradi. Hikoyada, ayni vaqtda, birinchi jahon urushining dahshatli ta’siri ostida qismat va yo’qchilikdan hayotning nochor ko’chasiga kirgan yigitning ichki dunyosi va xarakteri tasvirlangan. Kampir tomonidan iliq munosabat, yumshoqlik o’g’rilik ko’chasiga kirgan yigitning qalbiga ilqlik olib kiradi, hali yo’qolib bitmagan insoniy fazilatlarini uyg’otib yuboradi. Qisqasi, hikoyada ikki nochor odamning taqdiri misolida xalqning ahvoli bayon etilgan.

120. G'afur G'ulom she'rlaridagi sifatlashlarni kim "ideallashtiruvchi sifatlashlar" deb baho bergan?

G'afur G'ulom she'rlari badiiy tasvir vositalariga boyligi bilan ham kishiga xush yoqadi, xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Ayniqsa, shoir sifatlashlari, rus she'rshunos olimi va tanqidchisi B. Tomashevskiy iborasi bilan aytganda, "*ideal lashtiruvchi sifatlash*"lardir. Chunki ular shoirning voqelikni yuqori pardada – lirik usulda tasvirlashiga mos keladi."Ulug' tempalar", "bo'ron armiyamiz", "vulqonli sevgi"). Shoirning sifatlashlari qorong'i tunda narsalarni kunduzgidek ko'rsatuvchi chaqmoqqa o'xshaydi...

121. "G'oliblar bayrami" she'ri kimniki?

G'afur G'ulom urush yillarida xalqimizni, jangchilarimizni g'alabaga chorlovchi ko'plab she'rlar yozgan. Bular qatoriga "Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak", "G'oliblar", "G'oliblar bayrami", "G'oliblar sharafiga", "Chin arafa" kabi she'rlarini ko'rsatishimiz mumkin. Shoirning "G'oliblar bayrami" she'ri 1945-yil 8-mayda yozilgan bo'lib, vatandoshlarimizning g'alabasi ulug'langan:

*G'alaba bayraming muborak bo'lg'ay,
To'rt yil urush qilgan vatandosh o'rtoq.
Ko'ngillar agarchi loladek xandon,
Musibat tamg'asi qalb ustiga dog'.*

Sevimli shoirimiz g'alaba qozongan xalqimizni buyuk kashfiyotlar va mo'jizalar ko'rsatishiga chin dildan ishonadi va deydi:

*Asrlar taqdiri qo'limizdadir,
Vatan qayta boshdan bo'ladi obod.
Otashlar ichida yengib chiqolgan
Xalqim mo'jizalar qilolgay ijod.*

122. G'afur G'ulomning "Afandi o'lmaydigan bo'ldi" nomli hikoyasi qachon yozilgan?

G'afur G'ulom "Afandi o'lmaydigan bo'ldi" nomli hikoyasini 1965 -yilda yozgan. Bu asari bilan G'afur G'ulom folklor asarlariga yana ham chuqurroq kirib borishga, ularni qayta ishlashga erishgan, deb ayta olamiz.

123. G'afur G'ulomning "Sog'inish" she'ridan olingan "Tongotar chog'ida juda sog'inib, ... o'qir edim, chiqdi oftob" misralaridagi nuqtalar o'rniga qaysi mashhur sharq shoirining nomini qo'yish o'rinli?

"Sog'inish" she'rida shoir mashhur alloma Bedilga ishora qiladi. She'r misralari quyidagicha:

Tong otar chog'ida juda sog'inib,

Bedil o'qir edim, chiqdi oftob.
Loyqa xayolotlar chashmaday tindi,
Pok-pokiza yurak bir qatra simob³⁶.

E'tibor berib qarasak, lirik qahramon ko'nglini vasvasalar bosganda ko'z yosh yoki oh-vohlarga berilmaydi. Tong otar choq Bedilni o'qir ekan, oftob chiqib kelishidan (*oftob chiqishiga alohida e'tibor berish* o'rinli, albatta) katta ma'nolar uqadi.

Mavzu: MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI – OYBEK

124. Oybek kim? Siz u haqda nimalar bilasiz?

Noyob iste'dod egasi, lirik shoir, benazir nosir va atoqli olim sifatida nom taratgan Oybek XX asr o'zbek adabiyotining iftixoridir. Oybekning kamalakdek tovlanuvchi, serjilo va qudratli she'riyatini, purviqor va hikmatli nasrini millionlab kitobxon sevib o'qiyapti. Adibning "Qutlug' qon", "Navoiy" kabi shoh asarlari oltmishdan ortiq xorijiy tillarga tarjima qilingan. Turkman yozuvchisi Berdi Kerboboyev: "*Oybek faqat o'zbek xalqiqagina emas, barcha qardosh xalqlarga ham sevikli adibdir*"³⁷, - degan edi. Hamid Olimjon: "*Prozada shoiru, poeziyada prozaikdir*",- degan edi.

Yozuvchi Oybek ijodi haqida mustaqillik yillarida davr talablariga mos ravishda yangi tadqiqot ishlari olib borildi. Adib ijodi sog'lom fikr asosida tadqiq va tahlil etilib, yangi-yangi ilmiy xulosalar chiqarildi. N. Karimov, S. Mamajonov, B. Nazarov, U. Nornatov, O. Sharafiddinovlarning "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi" (Toshkent, "O'qituvchi", 1999), Sanjar Sodiqning "Yangi o'zbek adabiyoti tarixi" (Darslik. Toshkent, "Universitet", 2005), Saydulla Mirzayevning "XX asr o'zbek adabiyoti" (Darslik. Toshkent "Yangi asr avlodi" 2005) darsliklari, N. Karimovning "Oybek" tadqiqoti, U. Hamdamovning nomzodlik, A. Sabirdinovning doktorlik dissertatsiyalari bunga misol bo'la oladi.

125. Oybekshunos olimlardan kimlarni bilasiz?

Oybek ijodini o'rganish shoir hayotlik chog'idayoq boshlangan. O'zbek va rus adabiyotshunoslari hamda yozuvchilari qalamiga mansub o'nlab maqolalardan tashqari, adib ijodiga bag'ishlangan ko'plab kitob va risolalar ham mavjud. Homil Yoqubovning "Oybek" (1959), "G'oyaviylik va mahorat" (1963), Matyoqub Qo'shjonovning "Oybek mahorati" (ikkinchi, to'ldirilgan nashri, 1965), Naim Karimovning "Oybek" (1985), "Oybek gulshanida qolgan g'unchalar" (1985) singari kitob va risolalarida yozuvchi hayoti va ijodi bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, Ozod Sharafiddinov, Salohiddin Mamajonov, Umarali Normatov, Abdug'afur Rasulov, Baxtiyor Nazarov, Norboy Xudoyberganov, No'mon Rahimjonov, Yo'ldoshxo'ja Solijonov, Dilmurod

³⁶ F. Фулом. Танланган асарлар. Ўн томлик. Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. 2-том. 126-бет.

³⁷ Кербобоев Берди. Алангали нур/ - "Шарқ юлдузи" журналы, 1969, 9-сон, 15-бет.

Quronov, Bahodir Karimov, Akbarali Sabirdinov, Ulug'bek Hamdamov kabi taniqli olimlarning ham bir qator ilmiy tadqiqotlari bor.

126. Oybek qachon va qanday oilada tug'ilgan?

Oybek 1905-yil 10-yanvarda Toshkentning Gavkush mahallasida hunarmand-bo'zchi Toshmuhammad aka oilasida tug'ilgan. Oybek adabiy taxallus bo'lib, yozuvchining asl ismi Musodir. Bolaligi haqida bo'lajak yozuvchi: "Otam yoshligida bo'zchi, keyin Xumson va Yangibozor qishloqlarida baqqolchilik bilan shug'ullangan. O'qimagan, jahli tez, tajang biro dam edi. Onam jismoniy kuchsiz, lrekin aqlli, ziyrak, rahmdil va har ishga epchil xotin edi. Do'ppi, jiyak va qo'l ishlari bilan ko'p mashg'ul bo'lardi. Ishdan bo'shagach, ko'p vaqt kitob o'qirdi"³⁸, - deb yozgan edi.

127. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnaliga kim asos solgan?

"O'zbek tili va adabiyoti" jurnaliga Oybek 1958-yilda asos solgan va umrining oxirigacha, ya'ni 1968-yilgacha bosh muharrir bo'lgan.

128. Oybekning matbuotda e'lon qilingan ilk she'ri qaysi?

Yosh shoir Oybekning matbuotda e'lon qilingan birinchi she'ri 1922-yilda yozilgan "Cholg'u tovushi" bo'lib, u "Armug'on" to'plamida e'lon qilingan. Bu vaqtda Oybek Navoiy nomidagi ta'lim va tarbiya texnikumida o'qiyotgan bo'ladi. Yosh shoirning bu va shu davrda yozgan ko'plab mashqlarini hali she'r deb atash qiyin edi. Shunday bo'lsa-da, ularda diqqatga sazovor bir nuqta bor. Bu – uning qushlarga, tabiat yaratgan boshqa jonivorlarga rahm va shafqat bilan munosabatda bo'lishi, yosh do'stlarini hatto qo'ng'izlarga ham ozor bermaslikka chaqirishidir.

129. Oybekning serqirra ijod sohibi ekani nimalarda ko'rinadi?

Oybek – chin ma'noda serqirra iste'dod sohibi. Alloma so'z san'ati va adabiyotshunoslik ilmining barcha tur va janrlarida chuqur iz qoldirgan atoqli va ardoqli yozuvchidir.

Hamid Olimjon Oybek to'g'risida so'zlab, "*u prozada shoir-u, poeziyada prozaikdir*", deb aytgan edi. Mashhur ijodkorning qalamkash do'sti haqidagi bu so'z larida jon bor: Oybek nasrga she'riyatning muattar nafasini olib kirdi va she'riyatni faqat nasrga xos bo'lgan tafsillar marjoni bilan boyitdi. Uning nasriy asarlaridagidek shoirona til boshqa biror yozuvchida uchramaganidek, she'riy asarlaridagi tasvir mukammalligi ham faqat uning o'ziga xos fazilatdir.

130. O'zbek she'riyati rivojida Oybekning o'rni nimalardan iborat?

Oybek she'riy ijodi bilan o'zbek she'riyatining ijodiy ufqini kengaytirib, tasvir imkoniyatlarini g'oyat boyitdi. O'zbek she'riyatida realizm Oybekning she'r va dostonlari tufayli yanada teranlashdi. Oybek Pushkin she'rlaridagi poetik latofat va nafis musiqani, A. Blok va V. Bryusov she'rlariga xos ramziylikni, Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliy lirikasidagi nazokat va jo'shqinlikni hozirgi o'zbek

³⁸ Шарафиддинов О. Шарипов Ж. Адабиёт дарслиги. – Т.: Ўздавнашр, 1936, 46-бет.

she'riyatiga olib kirdi. Shu fazilatlar o'zaro uyushgan holda Oybek she'rlarining o'ziga xosligini ochuvchi poetik belgilar darajasiga ko'tarildi. Bu fikrlarimizni 1934-yilda yozilgan "O'zbekiston" she'ridan olingan misralar ham isbotlaydi:

*Bir o'lkaki, tuprog'ida oltin gullaydi,
Bir o'lkaki, qishlarida shivirlar bahor.
Bir o'lkaki, sal ko'rmasa, quyosh sog'inar...
Bir o'lkaki, g'ayratidan asabi chaqnar.
Baxt toshini chaqib bunda kuch guvillaydi.*

131. Xolxo'ja va La'lixon sevgisi tasvirlangan dostoni qanday nomlangan?

Xolxo'ja va La'lixon sevgisi tasvirlangan doston "O'ch" dostoni bo'lib, asar 1932-yilda Oybek tomonidan yozilgan. Dostonda inson erki va sevgisining zolimlar oyog'i ostida toptalganligi ta'sirli ko'rsatilgan.

132. Xolxo'ja va La'lixon sevgisiga g'ov bo'lgan shaxs kim?

Hoshimboyvachcha ikki sevishtanlarga – Xolxo'ja va La'lixonlarga g'ov bo'ladi. U Xolxo'jani yolg'on tuhmat bilan qamatadi. La'lixonni xotin qilib olmoqchi bo'ladi. La'lixon esa sevgisiga xiyonat qilmasdan, zahar ichib o'ladi. Asar oxirida Xolxo'ja qamoqdan qochib, o'z qishlog'iga keladi va qabih, turli qiyofaga kiruvchi Hoshimboyvachchani o'ldirib, undan o'chini oladi.

133. Oybekning qaysi dostoni 4 marta nashr etilgan?

Oybekning "Baxtigul va Sog'indiq" dostonida inson erki va sevgisining zolimlar oyog'i ostida toptalganligi ko'rsatilgan. Doston 4 marta nashr qilingan. Birinchi nashri (1934) bilan keying (1949, 1955, 1966-yillar) nashrlari o'rtasida g'oyaviy jihatdan ham, badiiy jihatdan ham jiddiy farqlar bor. Chunki shoir dostonni qayta-qayta ishlagan va har safar unga sayqal va jilo bergan. Unda hayot haqiqati real aks ettirilgan. Bu asar xalq og'zaki ijodida mavjud bo'lgan sujet asosida yozilgan.

134. Oybek urush davrida qaysi opera librettosini yozdi?

Oybekning harbiy lirikasi mazmun va badiiy mahorat jihatidan yuqori saviyada, nafis bo'lib, milliy she'riyatning jiddiy yutug'idir. Bu fikr urush davrida yozilgan "Mahmud Tarobiy" dostoni (opera librettosi) ga ham taalluqlidir. Bu asarda xalqimizning XIII asrda mo'g'ul bosqinchilariga qarshi olib borgan mardonavor kurashi hikoya qilingan. Asar sujeti markazida qadimiy Buxoro yaqinida bo'lib o'tgan tarixiy voqea yotadi: Mahmud Tarobiy boshchiligida mo'g'ul istilochilariga qarshi ko'tarilgan xalq isyoni tasvirlanadi. Shular orqali Vatanni bosqinchilar asoratidan ozod qilish uchun hayot-mamot kurashiga otlangan xalq qahramonligi ulug'langan. Asarning bosh qahramoni – tarixiy shaxs Mahmud Tarobiy. U butun borlig'i bilan el-yurt baxt-saodati uchun kurashgan xalq qahramoni sifatida gavdalantirilgan.

135. Oybek Pokiston taassurotlari asosida qaysi asarlarini yaratdi?

Oybek 1949-yilda bir qator ijodkorlar bilan Pokistonga boradi va Pokiston taraqqiyparvar yozuvchilari uyushmasining kongressida qatnashadi. Oybek chet eldan qaytib kelgach, “Zafar va Zahro”, “Haqgo’ylar “ dostonlar,”Nur qidirib” qissasi, “Pokiston poytaxti”, ”Orzu”,”Pokiston ayoliga”, “Muhojirlar lageri” she’rlarini yaratadi. Bu asarlarda Pokiston xalqining 40-yillardagi ijtimoiy hayoti, turmush sharoiti, urf-odatları, ozodlik va tinchlik yo’lidagi kurashlarini yozgan.

Pokiston istiqboliga ishonch tuyg’usi Oybekning “Zafar va Zahro”, “Haqgo’ylar” dostonlari va nasriy asarlarida yanada keng va aniq aks etgan.

136. Oybekning atom urushi oqibatlariga atab yozgan dostoni qanday nomlanadi?

Oybekning “Davrim jarohati” dostoni atom urushining oldini olish muammolariga bag’ishlangan bo’lib, unda insoniyatga mehr-muhabbat tuyg’usi tinch hayotni ulug’lash dahshatli atom urushini keskin qoralash bilan chambarchas bog’liq holda yorqin ifodalangan. Dostonda 1945-yilda Yaponiyadagi Xirosima va Nagasaki shaharlariga atom bombasining tashlanishi va uning fojiali oqibatlari zo’r hayajon va iztirob bilan tasvirlangan. Shoir bu shaharlarga atom bombasining tashlanganligini, atom bombasi bilan qurollanishning kuchayganini davrimiz uchun katta ayb, davrimizning sog’lom tanasidagi og’ir jarohat deb ataydi. Oybek dostonda insoniyatning baxti - mening shaxsiy baxtim, insoniyatning jarohati – mening yuragimdagi jarohatdir, degan g’oyani ilgari surgan.

137. Adabiyotda yaratilgan eng so’nggi jadid obrazi kim va u qaysi asarda berilgan?

Oybekning “Qutlug’ qon” romani sujet va kompozitsiya jihatdan tahsinga loyiq asar hisoblanadi. Unda asar g’oyasini va obrazlar xarakterini ochishga xizmat qilmaydigan tasvirlar, ortiqcha voqea va epizodlar yo’q. Aytish kerakki, asarda o’sha davr taqozosiga ko’ra, sotsialistik realizm talabiga binoan rus-inqilobchi Petrov obrazi sun’iy ravishda kiritilgan. Shu bilan birga adabiyotda yaratilgan eng so’nggi jadid obrazi – Abdishukur ham “Qutlug’ qon” romanida berilgan. Bu obraz ham bir tomonlama tasvirlangan.

138. Oybek qalamiga mansub qaysi tarjimalarni bilasiz?

Oybekning adabiyotshunoslik va badiiy tarjima sohasidagi xizmatlari ham buyukdir. Oybek A. Pushkinning “Yevgeniy Onegin” she’riy romani, “Antik adabiyot” xrestomatiyasining 2 jildi (Rim adabiyoti) va “Sosunli Dovud” eposi, M. Lermontovning ”Maskarad” dramasi,”Demon” poemasi, Genrix Geynening “Qullar kemasi” dostoni va boshqa ko’plab asarlarni o’zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Shu bilan birga Oybek Pushkin she’rlaridagi poetik latofat va nafis musiqani, Navoiy va Fuzuliy lirikasidagi nazokat va jo’shqinlikni, A.Blok va V. Bryusov she’rlariga xos ramziylikni she’riyatimizga olib kirdi.

140. Oybekning avtobiografik asari qanday nomlangan?

Oybekning avtobiografik asari “Bolalik “ qissasi bo’lib, 1963-yilda esdalik janrida yozilgan. Qissaning bosh qahramoni yozuvchining o’zi- Musaboy. Asarda

Musaboyning tarjimai holi xalq hayoti, davr hodisalari bilan uzviy bog'liq holda tasvirlangan. Bu qissada bolalar xarakteri va ruhiyatining ko'z ilg'amas darajada nozik bo'lgan murakkab tomonlari ham mohirlik bilan ochib berilgan.

141. Oybekning urush mavzusida yozilgan birinchi romani qaysi?

Oybekning "Quyosh qoraymas" asari ikkinchi jahon urushi mavzusida yozilgan birinchi o'zbek romanidir. Unda jangchilarimizning vatanparvarligi, qahramonligi, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, partizanlar harakati tasvirlangan. Romanning g'oyaviy mazmuniuning sarlavhasida ham o'z ifodasini topgan. Yozuvchi romanni "Quyosh qoraymas" deb atash bilan quyosh abadiy qoraymagani singari adolat va haqqoniyat uchun jang qilayotgan xalqni yengish also mumkin emas, degan g'oyani obrazli ravishda ifodalagan. Romanning bosh qahramoni Bektemir bo'lib, o'zbek jangchilarining umumlashma obrazidir.

142. Oybekning tarixga murojaat qilib yozgan ilk dostoni qanday nomlangan?

Oybekning tarixga murojaat qilib yozgan ilk dostoni 1937-yilda yozilgan "Navoiy" dostonidir. Shoir bu asarida birinchi marta tarixga murojaat etib, ulug' o'zbek shoirining obrazini yaratdi. Oybek bu asarning yaratilish tarixi to'g'risida so'zlab, bunday degan: *"O'z xalqimning taqdiri haqida fikr yuritar ekanman, menda yangidan-yangi temalar tug'ildirdi. Yoshligimda asarlari bilan tanishgan ulug' o'zbek klassigi, buyuk, o'lmas Alisher Navoiy haqida yozishni ko'pdan beri orzu qilar edim. Ulug' insonparvar obrazi o'rta asr tuni qorong'uligini yorituvchi mash'al kabi mening xayolimni egallab oldi. Men "Navoiy" poemasini yozdim"*.

143. Oybek ijodida Alisher Navoiy siymosi qaytarzda ifoda etildi?

Oybek butun umri davomida mumtoz o'zbek adabiyoti va uning cho'qqisi – Alisher Navoiy ijodini sevib o'rgandi. Buyuk siymoning hayoti va ijodi haqida qator ilmiy maqolalar, ko'plab she'rlar, dostonlar yaratdi. 1940-yilda "Navoiy" romanini yozishga kirishdi. 1942-yilda esa romanni yozib tugatdi. Bu romanning o'ziga xos poetik eskizi bo'lgan "Navoiy" lirik dostonini 1937-yilda yozdi.

Oybekning temuriylar davri madaniyati tarixi, xususan, Alisher Navoiy ijodini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlari uning 1943-yilda yangi tashkil etilgan O'zbekiston Fanlar akademiyasiga haqiqiy a'zo bo'lib saylanishiga to'la huquq berdi.

144. Oybekning "Navoiy" romanidagi voqealar qanday boshlanadi?

Oybekning tarixiy-biografik xarakterdagi "Navoiy" romani (1944) o'zbek adabiyoti tarixida faxrli o'rin tutadi. Roman voqeasi 18 yoshli yigit – Alisher Navoiyning Samarqanddan Hirotga qaytishi bilan boshlanadi va Navoiy hayotining eng samarali va eng sermazmun davrlarini qamrab oladi. Asar voqeasi Navoiyning o'limini aks ettirish bilan tugaydi. Asarda Navoiyning olijanob fazilatlari, ajoyib xislatlari, Vatan, xalq va adabiyot oldidagi buyuk xizmatlari birin-ketin ochila boradi. Navoiy obrazi romanda el va xalq uchun qayg'uruvchi, yurtning baxt-saodati haqida jon kuydiruvchi, adolat va haqqoniyat uchun astoydil intiluvchi ulug' siymo sifatida namoyon bo'ladi.

145. Oybekning “Navoiy” romanidagi tarixiy shaxs obrazlari qaysilar?

Asarda tarixiy shaxs obrazi sifatida asosan bosh qahramon Alisher Navoiy siymosi turadi. Oybek romanda buyuk shoir obrazini yaratishda Navoiyning turkiy til va adabiyotga bo'lgan munosabati tasviridan ham o'rinli foydalangan. Romanda haqqoniy tasvirlanganidek, Navoiy o'z ona tilisi- turkiyni dildan sevadi. Uning go'zal va boy til ekanini inkor qiluvchilarga qarshi dadil kurashadi. O'zbek tilining boyligini amalda namoyish qiluvchi ajoyib badiiy asarlar yaratadi.

Romanda Alisher Navoiy bilan bir qatorda Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro, Badiuzzamon, Xadicha begim, Mo'min Mirzo, Darveshali, Binoiy, Majididdin singari tarixiy shaxslar obrazi ham berilgan. Bu obrazlar Navoiy xarakterini ochishda muhim o'rin tutadilar, ular vositasida o'sha davr hayotini haqqoniy ko'rsatgan. Asarda podshoh Husayn Boyqaroning o'z o'g'li Badiuzzamonga qarsho jang qilishi, nabirasi Mo'min Mirzoni qatl etish haqida farmon berishi, shahzodalarning bir-biriga qarshi qilich qayrashi, bir-biriga xiyonat qilishi singari fojiali voqealar, ziddiyatlar g'oyat ta'sirli qilib ifodalangan.

146. Oybekning “Navoiy” romanidagi to'qima obrazlar qaysilar ?

Romanda tarixiy shaxs obrazlari bilan birga, Sul-tonmurod, Dildor, Arslonqul, Zayniddin, To'g'onbek singari badiiy to'qima obrazlarning ham borligi bosh qahramon xarakterini, uning fazilatlarini yanada yorqinroq ochishga xizmat qilgan. Oybek bu obrazlar orqali o'sha davrdagi ma'lum ijtimoiy guruhlar hayotini umumlashtirib ko'rsatib bergan. Bular yozuvchi ijodiy fantaziyasining mahsulidir. Shuningdek, bu obrazlar vositasida bosh qahramon Navoiy xarakterini, uning fazilatlarini hamda tarixiy davr haqiqatini yanada yorqinroq ochishga xizmat qilgan.

147. “Qutlug' qon” romanidagi qaysi qahramon: “Men do'stlarga sira ishonmayman...” yoki “Xotin erning quli, uning ko'ngliga, ra'yiga qarab ish qilgan erkak- odam emas”,- deydi ?

Bu “falsafiy” fikrlar muallifi Mirzakarimboydir. Keltirilgan fikrlardan Mirzakarimboyning yirtqich qiyofasi, uning odamgarchilikdan mahrum ekanligi yaqqol anglashiladi. Romanda Mirzakarimboy obrazi ustalik bilan ishlangan. Mirzakarimboy – aqlli, tadbirkor shaxs. Uning qilmishlari – jirkanchli, niyati – buzuq. Mahalla baqqolining o'g'li bo'lgan Mirzakarimboy halollik bilan emas, balki qarolu xizmatkorlarni shafqatsiz ishlatish, ularning ish haqidan urib qolish orqali mashhur millioner boy darajasiga ko'tarilgan.

148. Oybek faoliyatining dastlabki bosqichida ikkita soha teng davom etdi. Bular qaysi sohalar edi?

Oybek 1925-yili O'rta Osiyo davlat universitetining iqtisod bo'limiga o'qishga kiradi. 2-kursni bitirib, o'qishni Sankt-Peterburgda ettiradi. Biroq sovuq va zax havo unga qiyinchilik tug'diradi. 1929-yilda Toshkentga qaytib keladi va bir yildan so'ng iqtisodchi diplomini oladi. 1935-yilgacha universitetda iqtisod kafedrasida ishlaydi.

Yillar o'tgan sayin siyosiy iqtisod va badiiy ijodning har biri Oybekdan butun vaqtini bag'ishlashni talab eta boshlaydi. Ammo uning qalbida ijod mehri kuchliroq edi. Kuchli iqtisodchi bo'lgan Oybek shoirlikni tanlaydi. O'zbekiston Fanlar komiteti qoshidagi Til va adabiyot institutiga ilmiy xodim bo'lib ishga o'tadi. Bu vaqtda uning "Tuyg'ular" (1926), "Ko'ngil naylari"(1929), "Mash'ala" (1932), "Baxtigul va Sog'indiq"(1933) she'riy to'plamlari nashr etilgan va Oybek shoir sifatida o'zbek adabiyotidan mustahkam o'rin olgan edi. Shu tariqa Oybek shoirlikni tanlaydi va hayot uni to'g'ri qarorga kelganini ko'rsatdi.

149. Oybekning "Qutlug' qon" romani qachon yozilgan va uning tarixi haqida nimalar bilasiz?

Oybek yetuk prozaik edi. Uning qator romanlari, ko'plab qissalari o'zbek nasri rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. "Qutlug' qon" romani alohida ahamiyatga ega asardir. Adib bu asarni yozishga qatag'on avj olgan mash'um 1937-yillarda kirishgan edi. Bu haqda adibning turmush o'rtog'i Zarifaxonim Saidnosirova shunday yozadi: "... Oybek butun yoz ichi bog'dan chiqmay ijod qildi, u buyuk iroda egasi edi. Shuning uchun ham u o'ta tahlikali va fojiali kunlarda, g'urbat yutib kechirilgan hayotda "Qutlug' qon" day go'zal va o'lmas asarni yaratdi".

Tahlikali vaziyatda bo'lishiga qaramay, roman ilhom og'ushida shiddat bilan yozilgan. Buni adabiyotshunos olim Homil Yoqubov keyinchalik: "Oybek shu qadar qizg'in ilhom bilan qalam tebratdiki, olti oy badalida milliy ozodlik harakatida mehnatkash xalq ongining munavvarlashishini tasvirlagan, badiiy jihatdan yuksak asar "Qutlug' qon"ni yozib tugatdi", - deb eslaydi. Ehtimol, adib hayotdagi adolatsizlikni, zulm-zo'rlikni ko'rmaslik, undan o'zini chalg'itish uchun butun e'tiborini romanga qaratgandir.

Oybek 1939-yilda asarni yozuvchilar uyushmasida muhokama qildirdi. Muhokama chog'ida ayrim kishilar adibni asarga inqilobchi kuchlarni, rus vakillarini kiritmaganlikda aybladilar. Shundan so'ng Petrov obrazini kiritishga majbur bo'ladi.

150. "... odam bo'lmoqchi esang, onang zoriga quloq solma!" Ushbu fikrlar Oybekning "Qutlug' qon" romanidagi qaysi qahramon tomonidan kimga qarata aytilgan ?

Mirzakarimboy obrazi romanda juda aqlli, ehtiyotkor va tadbirkor odam sifatida tasvirlangan. U pulni qanday topish va qanday ushlab kerakligini juda yaxshi biladi. Yo'lchi ro'zg'ordan siqilgan onasiga yuborish uchun pul so'raganida, Mirzakarimboy ancha vaqt davom etgan jimlikni buzib, deydi:

" – Xotin zotining aqli qisqaligi hammaga ma'lum narsa. Onangning ham aqli komil deb bo'lmaydi, jiyan. San yuborgan pulning mazasiga tushundimi – bo'ldi, haftada, oyda pul so'rayveradi. Yaxshi yegusi, yaxshi ichgusi keladi... Xullasi kalom, sabrni, qanoatni unutadi. Gapimga kirsang, odam bo'lmoqchi esang, onang zoriga quloq solma! "

151. Oybekning tugallanmay qolgan dostonlari qaysilar?

Oybek o'z ijodi davomida yigirmadan ortiq dostonlar yozgani ma'lum. Yozuvchi tarjimai holida "Temur", "Bobur" kabi dostonlar ustida ish olib borayotganini aytgan, biroq bu dostonlar bizga to'laligicha yetib kelmagan.

152. Oybekning ilk she'riy to'plami qanday nomlangan?

Oybek 1925-yilda O'rta Osiyo Davlat universiteti ijtimoiy fanlar fakultetiga o'qishga kiradi. Oybek Cho'lpon bilan tanishib, uning she'riyati ta'sirida inja tuyg'ular tasviriga beriladi. 1926-yilda ijodkorning birinchi she'rlar to'plami e'lon qilinadi. Kitob "Tuyg'ular" deb nomlangan. Bu to'plamga kirgan she'rlarida hatto qushlar va uy hayvonlariga ham ozor bermaslikka chaqiruvchi cho'lponona buyuk insonparvarlik yorqin ko'rinib turadi.

To'plamdan joy olgan she'rlardan biri "Nay kuylari" deb nomlangan va uni Cho'lponga bag'ishlagan. Chindan ham, Cho'lponning nozik tuyg'u va kechinma tasvirlangan qator she'rlarida nay sadolari mavjlanib turadi. Bu kabi o'tli sadolar Oybekning qalbiga ham yaqin edi. Shuning uchun shoir 20-yillarga oid she'rlarida cho'lponona mayin va nafis kechinmalarni tasvirladi.

153. Oybekning ilk dostoni qaysi?

"Dilbar – davr qizi" (1932) shoir qalamiga mansub ilk dostonidir. Oybek tarjimai holida bu doston to'g'risida so'z yuritib, unda O'zbekistonning inqilob natijasida ozod bo'lgan yangi ayoli va to'la ozodlikka erishish yo'lida turgan qiyin chiliklar to'g'risida, turmush sarqitlari to'g'risida fikr yuritishga harakat qilganini aytadi.

Oktabrda keyin sho'ro davlati tomonidan amalga oshirilgan ko'pgina tadbirlar O'zbekistonni Rusiya sanoati xomashyo bazasiga, xalqini esa mehnat quroliga aylantirib yubordi. Shu bilan birga, oktabr to'ntarishi O'zbekistonga yangi hayot shabadasini olib kirdi. U ayniqsa xotin-qizlar taqdirida muayyan o'zgarish yasadi. Oybek "Dilbar – davr qizi" dostonida musulmon olami uchun muhim ana shu jarayonni Dilbar taqdiri misolida tasvirlab bera olgan. Bunda o'tmish zulmat va vahshatning timsoli sifatida tasvirlangan.

154. "Ona, men qamalishdan qo'rqmayman, dordan ham, o'qdan ham qo'rqmayman. Turma! Bu dunyo turmadan yaxshimi? Olam zindondan qorohg'iroq, iflosroq emasmi? Hamma yoq qorong'i, hamma yoqdan zahar yog'iladi. Qachongacha zahar ichaman?!" Nutq kimning qaysi asari qahramoni tilidan aytilgan?

Bu nutq Oybekning "Qutlug' qon" romanidagi bosh qahramon Yo'lchi tilidan aytilgan. Yo'lchi faqat o'zining taqdiridosh do'stlari bilan yolg'izlanib qoladi. Ularning barchasi sodda, oqko'ngil, mehnatsevar kishilar bo'lsa-da, na o'z mehnatlari bilan baxtsiz taqdirini o'zgartira oladilar, na birlashib, zulm saltanatini ag'dara oladilar. Ular tarixning boshi berk ko'chasiga kirib qolgan bechoralardir.

Yo'lchi o'zi tushib qolgan ana shu holatni butun vujudi bilan sezib, Saodat kampirga qarata aytgan.

155. Oybekning “Qutlug’ qon “ romanidagi qaysi qahramon Cho’lponning “Kecha va kunduz” romanidagi Razzoq so’fi obrazini eslatadi?

“Qutlug’ qon” romanidagi Yormat obrazi kelib chiqishi, turmush tarzi va sajiyasiga ko’ra, kambag’al xalq vakili. U 16 yil Mirzakarimboyga xizmat qiladi. Yormat o’z qavmidan ajralgan, lekin boylar bilan qoni qo’shilmagan va shu tufayli arosatda qolgan kishi. U Cho’lponning “Kecha va kunduz” romanidagi Razzoq so’fi obrazini eslatadi. Yormatning ko’zi faqat Gulorning o’limidan keyingina ochiladi. Oybek Yormat timsolida XX asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat taqozosi bilan manqurtlasha boshlagan kambag’al kishining obrazini yaratgan.

MAVZU: ABDULLA QAHHOR

156. Abdulla Qahhor kim? Siz ijodkor haqida nimalar bilasiz?

XX asr o’zbek adabiyoti shuhratini O’rta Osiyoning badiiy adabiyotga chanqoq deyarli barcha davlatlarida hamda qator xorijiy mamlakatlarda taratgan peshqadam vakillaridan biri Abdulla Qahhordir.

Abdulla Qahhor nasrning hikoya, qissa, roman, dramaturgiyaning komediya hamda adabiy tanqidning esse (badea) janrlarida xalq qalbidan chuqur joy olgan jozibali asarlar yaratdi. O’z vaqtida yozuvchining ko’plab asarlari Ovro’po va Osiyo xalqlari tillariga tarjima qilingan. Shu tarzda, Abdulla Qahhor o’zbek adabiyotining xalqaro miqyosda shuhrat qozonishida ham katta xizmat qildi. Uning el-yurt oldidagi xizmatlari haqida gapirganda o’zbek adabiy tilining rivojiga qo’shgan hissasini alohida ta’kidlash kerak.

Abdulla Qahhor mustabid tuzum paytida ham achchiq bo’lsa-da, to’g’ri gapirishdan cho’chimagan va ayni paytda, shu tuzum yo’rig’iga tushishiga ham to’g’ri kelgan, o’ziga xos ijodiy uslub maktabini yaratgan, biroq kezi kelganda ilojsizlik va tazyiq tufayli ijodiy prinsiplariga o’zi istamagan holda tahrir kiritishga majbur bo’lgan yozuvchilardan biridir.

157. Abdulla Qahhor qachon va qayerda tug’ildi?

Abdulla Qahhor 1907-yil 17-sentabrda Qo’qon shahrida Ko’mir bozori mahallasida tug’ilgan. Uning otasi Abduqahhor temirchi usta bo’lgan. Yosh Abdullaning bolaligi Yaypan, Nursux, Qudash, Buvayda, Tolliq, Yulg’unzor, Olqor, Oqqo’rg’on kabi Qo’qon atrofidagi qishloqlarda kechdi. Og’ir hayot, davr qiyinchiliklarini boshidan kechirgan adib oilasi sargardon bo’lib, qishloqma-qishloq ko’chib yurgan. Lekin bu kunlar uning hayotida, taqdirida beiz qolmadi. Hayotning achchiq haqiqatini bezamay, bo’yamay yozish, kambag’al, bechora kishilarning dardi va taqdiriga cheksiz hamdardlik bo’lajak yozuvchi idrokiga shu bolalik yillari urug’ tashlagan bo’lsa ajabmas. Bolalikda boshdan kechirgan voqealar ko’p yillardan keyin “O’tmishdan ertaklar” qissasida yuksak mahorat bilan aks ettirildi.

158. Abdulla Qahhorning o’qish yillari qanday kechdi?

Abdulla o'n yoshga kirganda Buvaydadagi eski maktabga o'qishga kiradi, lekin ko'p o'tmay, oila Oqqo'rg'onga ko'chadi. Oqqo'rg'on maktabida Abdulla qo'qonlik Muhammadjon qorining qo'liga tushadi. Muhammadjon qori ilg'or fikrli odam edi. Uning maktabida bolalar ko'plab zamonaviy fanlarni o'qiganlar. Ayniqsa, shogirdlarida Sharq adabiyotiga qiziqish kuchli bo'lgan. Shu sababli yozuvchi umrining oxirigacha Sa'diy va Umar Xayyom, Hofiz va Bedil, Lutfiy va Navoiy, Bobur va Nodira asarlarini ko'p o'qidi, yod oldi, fikrini dalillashda ulardan unumli foydalandi.

Abdulla Qahhor 1919-1924-yillarda boshlang'ich maktabda, so'ng Qo'qon pedagogika texnikumida ta'lim oladi. Dastlabki mashqlari texnikumda chiqadigan "Bilim yurti" devoriy gazetasida e'lon qilinadi. 1923-yilda "Mushtum" jurnalida yozuvchining birinchi feletoni bosiladi. 1926-1929-yillarda O'rta Osiyo Davlat universitetining ishchilar fakultetida o'qiydi. 1930-yilda SAGU (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) ning pedagogika fakultetiga kiradi. So'ng O'zR FA Til va adabiyot institutining aspiranturasida ikki yil tahsil ko'radi.

159. Abdulla Qahhor qanday taxalluslarda ijod qilgan?

Abdulla Qahhor 1926-1927-yillardan gazeta va jurnallarda ("Qizil O'zbekiston", "Yangi Farg'ona", "Mushtum") faol qatnashib boradi. "Mushtum" jurnalida "Gulyor", "Yalangoyoq", "Norin shilpiq", "Mavlono kufur", "Nish" kabi taxalluslarda ijod qilgan.

160. Abdulla Qahhorning ilk to'plami qachon va qanday nomda chiqqan?

Abdulla Qahhorning dunyo yuzini ko'rgan birinchi kitobi 1932-yilda bosilib chiqqan "Qishloq hukm ostida" nomli kitobidir. O'sha vaqtda bu kitob adabiy hayotda sezilarli voqea bo'lgandi, tanqidchilik mazkur asarni iliq kutib oldi.

"Qishloq hukm ostida" qissasida kitobxon e'tiborini torta oladigan qahramon obrazi yaratilgan. Bu – O'tbosardir. U qizil armiya safida xizmat qilgan, sho'ro hukumatini mustahkamlashda jonbozlik ko'rsatgan. Armiyadan qaytib kelib, kolxozni tiklaydi, maktablar ochadi, madaniy-oqartuv ishlari bilan shug'ullanadi. Shuni aytish kerakki, bosh qahramon ochiqdan-ochiq ideallashtirilgan.

161. Abdulla Qahhorning adabiyot haqidagi qaysi fikrlarini ayta olasiz?

Abdulla Qahhor jahon miqyosidagi ulkan yozuvchilarning mahorat sirlarini o'rgandi. O'z ijodiy tajribalaridan xulosalar chiqardi. Hayot va adabiyot, yozuvchi va qahramon muammolari haqida chuqur mulohaza yurituvchi ko'plab adabiy-tanqidiy maqolalar, esse³⁹lar yozdi. Adib ularda hayot va ijod, yozuvchi va kitobxon, iste'dod va ilhom, mahorat sirlari va ijodiy jarayon haqidagi fikrlarini bayon qildi. Ijodiy halollik va ma'naviy poklik singari ijodkor uchun muhim xislatlar haqidagi mulohazalarini aytgan. Mana, ulardan ayrim namunalar: *"Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarf qilish kerak emas", "Adabiyot – ko'ngil ishi, ilhom samarasi. Tuyg'siz, ilhomsiz yozilgan*

³⁹ Esse fr. essai – tajriba, sinab ko'rish) – muallifning u yoki bu masala (muayyan voqea-hodisa, hayotiy holat va sh.k.) bo'yicha shaxsiy mulohazalari bayon qilinuvchi nasriy asar; adabiy janr.

asarlar changlanmagan gulga o'xshaydi – meva tugmaydi”, ”Adabiyot – hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi.

162. Abdulla Qahhor ijodi qaysi adabiyotshunoslar tomonidan ilmiy asosda atroflicha o'rganilgan?

Abdulla Qahhor ijodiga xos ko'pgina fazilatlar adabiyotshunoslar tomonidan ilmiy tahlil asosida ochib berilgan. I. Borolinaning “Abdulla Qahhor”, Hafiz Abdusamatovning “Abdulla Qahhor”, Mashhura Sulstonovaning “Abdulla Qahhor uslubi”, Matyoqub Qo'shjonov va Umarali Normatovning “Mahorat sirlari”, Matyoqub Qo'shjonovning “Abdulla Qahhor ijodida satira va yumor”, “Abdulla Qahhor mahorati” Ozod Sharafiddinovning “Abdulla Qahhor” kabi bir qator monografiyalarini, shuningdek, Izzat Sulton, Homil Yoqubov, Pirmqul Qodirov, Laziz Qayumov, Naim Karimov, Baxtiyor Nazarov, Sharif Yusupov, Ibrohim Haqqul, Dilmurod Quronov, Rahmon Qo'chqorov, Xurshida Hamraqulova va boshqa olimlarning qahhorshunoslikka oid maqolalari shular jumlasidandir. Ularda A. Qahhor ijodining asosiy xususiyatlari, g'oyaviy-badiiy jihatlari, adibning so'z san'atiga qo'shgan beqiyos hissasi va uning adabiyotimiz tarixida tutgan o'rni ko'rsatilgan.

163. Abdulla Qahhorning qaysi asarlari asossiz qoralangan?

Shaxsga sig'inish va turg'unlik yillarida ayrim mualliflar tomonidan adibning “Sarob”, “Qo'shchinor”, “Tobutdan tovush” kabi asarlari teskari talqin etilib, asossiz qoralangan. Vaqt o'tishi bilan bu “xato”lar tuzatilib, adib shaxsi, sermahsul ijodi yon bosishu qoralash kabi tuyg'ularga berilmagan holda tekshirila boshladi. Ijodkor tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan “Abdulla Qahhor” (O. Sharafiddinov), “Abdulla Qahhor mahorati” (M. Qo'shjonov) nomli monografiyalar bu jihatdan alohida ahamiyatga ega. Har ikkala kitobda ham asosiy e'tibor asarlar badiiyatiga qaratilgan.

164. Abdulla Qahhor qaysi janrda katta muvaffaqiyatlarga erishdi?

Abdulla Qahhor hikoya janrida katta muvaffaqiyatlarga erishdi. 30-yillarda o'zbek realistik hikoyachiligi ustalaridan biri sifatida tanilgan adib bu janrda qariyb 40 yil ijod qildi. A. Qahhor bir maqolasida: “Men hikoyachilikni juda yaxshi ko'raman va shu bilan birga, hamma vaqt qalamimning qayrog'i, deb qaraganman”⁴⁰, - deb yozgan edi.

165. Abdulla Qahhorning hikoyachilikdagi ustози kim bo'lgan?

Abdulla Qahhor o'z ijodiga o'ta talabchanlik bilan tanqidiy yondashib, dastlabki asarlarida yo'l qo'ygan kamchiliklarini o'z ustida qunt bilan ishlash, ustozlar ijodini, badiiy mahorat “sir”larini sinchiklab o'rganish orqali yo'qota boradi. Adib hayot haqiqatini, odamlar xarakterini, ruhiyatini chuqur o'rganish, A. Chexov va A. Qodiriy kabi buyuk yozuvchilar mahoratini ijodiy o'zlashtirish bilan yetuk, go'zal hikoyalar yaratish san'atini egalladi. Adib: “*Uslubda menga hech kim*

⁴⁰ “Ўзбекистон маданияти” газетаси, 1957 йил, 2 январ.

domla Chexovchalik ta'sir ko'rsatgan emas. Agar men uslubda biron darajada kamolotga erishgan bo'lsam, buning uchun, shubhasiz, ustod Anton Pavlovichga qulluq qilama"⁴¹, - deb qayd etgandi.

166. Abdulla Qahhor hikoyalarini mavzu jihatdan qanday yo'nalishlarga ajratish mumkin?

Abdulla Qahhor hikoyalarini mavzu jihatdan **tarixiy** ("Bemor", "O'g'ri", "Anor", "Dahshat"), **zamonaviy** ("Asror bobo", "Xotinlar", "Mahalla", "Ming bir jon", "Kampirilar sim qoqdi"), **hajviy** ("Mayiz yemagan xotin", "Adabiyot muallimi", "To'yda aza", "Munofiq") yo'nalishlarga ajratish mumkin. Bu hikoyalarda qahhorona xarakter yaratish mahorati, siriq va ixcham hajmga katta mazmun sig'irish, badiiy tildagi joziba singari fazilatlar keyingi avlod yozuvchilari uchun san'atkorlik maktabiga aylandi.

167. Rus yozuvchisi Tolstoyning "Urush va tinchlik" asarini kim tarjima qilgan?

Abdulla Qahhor badiiy ijodni jamoat ishlari bilan qo'shib olib bordi. 50-yillarning boshlarida O'zbekiston yozuvchilar uyushmasini boshqardi. Rus adabiyotining mumtoz namunalarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi.

Jumladan, rus yozuvchisi L. N. Tolstoyning "Urush va tinchlik" epopeya⁴² sining 1- va 2-jildlari yozuvchi tomonidan mahorat bilan tarjima qilingan. Afsuski, asarning keyingi jildlarini tarjima qilish yozuvchiga nasib etmadi. 3- va 4-jildlari yozuvchining rafiqasi Kibriyo Qahhorova tomonidan tarjima qilindi.

168. Urush mavzusida yozilgan "Oltin yulduz" qissasi kimniki?

Urush mavzusidagi "Oltin yulduz" (1944-yilda yozilgan) qissasi Abdulla Qahhor tomonidan yozilgan. San'atkor asarda fashizm ustidan qozonilgan g'alaba omillarini badiiy bo'yoqlarda ifodalaydi. Bu o'rinda asar qahramonlari Ahmadjon Shukurov, Bo'taboy kabi obrazlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Yozuvchi asarning bosh qahramoni Ahmadjon Shukurov obrazini alohida muhabbat bilan tasvirlaydi. Mazkur obraz orqali Vatan madhi, mehnat va oila tushunchasi, xalqlar do'stligi, qahramonlik hamda g'alabaga bo'lgan ishonch yuksak mahorat bilan yoriyiladi.

Adib asarning bosh qahramoni Ahmadjon obrazini chuqurroq ochish maqsadida qahramon tarjimai holiga murojaat qiladi, sarguzashtlarini bayon qiladi, bu bilan qahramonning to'laqonli xarakterini yaratishga erishgan.

169. Sho'rolar mamlakati va qator xorijiy yurtlardagi 75 ga yaqin teatr sahnasida qo'yilgan asar kimniki va qanday nomlangan?

Abdulla Qahhor dramaturgiya sohasida ham barakali ijod qildi. Ijodkor ko'proq dramaturgiyaning komediya janrida asarlar yozdi. A. Qahhorning "Shohi so'zana" (yoki "Yangi yer") deb atalgan birinchi komediyasi 1949-yilda yozilgan. O'sha yiliyoq komediya respublika tanlovida mukofot oldi. Ikki yil o'tgach, Davlat

⁴¹ **А. Қаҳҳор.** Устод. – "Қизил Ўзбекистон" газетаси, 1960 йил, 29 январ.

⁴² Еропея (yun. еροπία, уа'ни еροs – гίvoуа, hikoуа, va ποίεο – уаратмоқ, ijod qilmoқ) – hajman yirik epik asar.

mukofoti bilan taqdirlandi. Ko'plab gazeta va jurnallarda alohida e'tirof etildi, ko'plab tillarga tarjima qilindi. Shuni aytish mumkinki, komediya bir necha yil davomida sho'rolar mamlakati va qator xorijiy yurtlardagi 75 ga yaqin teatr sahnasida qo'yib kelindi.

170. Abdulla Qahhorning “Shohi so’zana” komediyasida qanday masalalar yoritilgan?

Abdulla Qahhorning ijobiy kulgi asosiga qurilgan “Shohi so’zana” komediyasida institutni tamomlab, qo’riq Mirzacho’lni o’zlashtirishga borgan yoshlarning – Dehqonboy va Hafizalarning yangi davr farzandlariga xos bo’lgan intiluvchan, erkin fikrlovchi qiyofalari aks etgan. Asarda milliy ruh bilan sug’orilgan keksa avlod – Xolbuvi va Xolnisaning jonli va hayotiy xarakterlari yaratilgan. Yosh avlod vakillari – Saltanat va Omon orqali dadil fikrlovchi yangi insonlarning shakllanish jarayoni, yangi davrning o’ziga xos fazilatlari, oilaga, muhabbatga, shaxsiy turmushga yangicha munosabatlarni ko’rsatish afsuski, sotsialistik g’oyalarni targ’ib etishga bo’ysundirildi.

171. Abdulla Qahhorning “Og’riq tishlar” komediyasi haqida nimalar bilasiz?

Abdulla Qahhor 1954-yilda “Og’riq tishlar” komediyasini yaratdi. Asar o’sha yilning o’zida Hamza nomidagi teatr sahnasida qo’yildi. Bu asar ham o’zbek dramaturgiyasi rivojida sezilarli iz qoldirdi. “Og’riq tishlar” – satirik komediya. Unda hayotdagi ba’zi eskilik qoldiqlari tanqid qilinadi.

Ma’lumki, xotin-qizlarga erkinlik berish, ularni jamiyatning teng huquqli a’zosi darajasiga ko’tarish XX asrning olamshumul masalalaridan biri bo’ldi. Xotin-qizlar masalasi Sharq mamlakatlarida – O’zbekistonda o’ziga xos shakllarda yanada keskinroq namoyon bo’ldi. Bizda xotin-qizlar ko’p hollarda rasman ozod edilar; ularning erkaklar bilan teng huquqliligi qonunlar va dasturlarda e’lon qilingandi, lekin amalda turli usulda bu huquqlar kamsitilar, ularga boy-feodallar-cha munosabat davom etardi. Sho’ro zamonida xotin-qizlar ozod deb e’lon qilingan bo’lsalar-da, bu niqob ostida ular, ayniqsa, qishloq xo’jaligi sohasida shafqatsiz ezish ob’ektiga aylanib qolgan edilar. Adib Abdulla Qahhor o’z asarida shu jihatlarga e’tiborni qaratdi.

172. Abdulla Qahhorning hayoti va ijodini aks ettiruvchi asari qanday nomlangan?

Abdulla Qahhorning o’tmish mavzusida yozilgan ajoyib hikoyalari uning bolalik taassurotlariga asoslangan edi. Yozuvchining eng so’nggi asarlaridan bo’lgan “O’tmishdan ertaklar“ qissasi (asar 1965-yilda yozilgan) ham yoshlik – bolalik xotiralari hujjatlari asosida yozilgan. Bu materiallarga yozuvchining qirq yillik ijodiy tajribasi qo’shilgan. Ko’rgan, guvohi boi’gan voqealarni mahorat bilan xillaydi va ularni katta badiiy umumlashmalar darajasiga yetkazib tasvirlaydi.

173. Abdulla Qahhorning ”O’tmishdan ertaklar“ asari qaysi janrda yozilgan?

“O’tmishdan ertaklar” avtobiografik (xotiranoma) tarzidagi asardir, ya’ni yozuvchining o’z hayoti haqida yozgan asaridir, u asosan I shaxs tilidan yoziladi. Qissa asosida bolalik yillaridan to sho’ro to’ntarishidan keyingi ilk oylargacha Abdullajonning, ya’ni yozuvchining boshidan kechgan va o’zi guvoh bo’lgan voqea-hodisalar yotadi. Qissada sho’ro hukumati o’rnatilishidan avvalgi bir necha yil va yangi tuzumning dastlabki oylari mobaynida o’zbek xalqi hayotida kechgan o’ziga xos hodisalar bo’lajak adib nigohi orqali badiiy aks ettirilgan. Shu ma’noda, Abdullajonning o’zi – asatrnig bosh va markaziy qahramoni. Boshqa qahramonlar uning ota-onalari, shaxsan o’zi va ular tanigan kishilardir.

Qissaning shakli va tuzilishi o’ziga xosdir. U bir necha alohida-alohida, mustaqil hikoyalardan tashkil topgan. Ayni vaqtda, ularni bosh markaziy qahramonlar, g’oyaviy-badiiy maqsad yaxlitligi birlashtirib turadi.

Yozuvchi ba’zi adiblarga o’xshab, o’tmish ustiga bir hamla bilan boshdan-oyoq qora bo’yoq tortmaydi, uni yomondan olib, yomonga solmaydi. Turmushni bor murakkabliklari, qiyinchiliklari, azob-uqubatlari-yu yorug’ kunlari, nurli havaslari bilan, qanday bo’lsa shundayligicha, xolis ravishda yorqin badiiy obrazlarda ko’rsata olgan.

174. “O’tmishdan ertaklar” sujeti qanday usulda berilgan?

Asar sujeti hikoyalar tizmasi tartibida berilgan. Shunga ko’ra, qissadagi hikoyalar ichki mantiq jihatidan kompozitsion markaz bilan mahkam bog’langan bo’lsa-da, ma’lum darajada mustaqillikka ham ega. “O’tmishdan ertaklar” yumorga, hajviy unsurlarga boy. Unda ortiqcha tasvirlar yo’q, yozuvchi fikrini doimo siqiq va obrazli qilib ifodalaydi. Qissada: *“Yuzboshi yurtning boshiga kelgan ko’rgilikni qoshiq qilib, xalqning qonini ishayapti”*, *“Ochlik bo’lganda dehqon kelisining kiri, tegirmonchi do’ppisining changi bilan bo’lsa ham nariroqqa borib oladi, lekin kosibga qiyin”*, *“Yarim so’mga tuyaning ko’ziday zog’ora non olib berardi”* singari obrazli jumlar ko’p.

175. “O’tmishdan ertaklar“ asarida asosiy e’tibor nimaga qaratilgan?

Yozuvchining bolalik va o’smirlik chog’larini ko’rsatishga, yosh Abdullaning turmush qiyinchiliklari ostida toblanib, chiniqib borganligini hikoya qilishga qaratilgan. O’tmishdagi jaholat, qoloqlik qissaning har bobida yangi bir ko’rinishda ochila boradi. Yaypanlik nonvoy Olimbuva – mehnatkash xalq vakili, insofli, hamiyatli odam. U qishloqma-qishloq ko’chib sargardon bo’lib yurgan usta Abduqahhorga joy beradi, qo’lidan kelganicha yaxshilik qiladi. Usta “shayton arava” – velosiped minib kelayotganda Olim buvaning sakson yashar opasi qo’rqib ketib o’lib qolganda ham Olim buva ustani kechiradi. *“Opamning kuni bitgan, qazosi yetgan ekan, xudoning irodasi”* deydi. Ammo boshqa arzimagan bir sabab – qizining paranjisiga ilashgan bir shox yantoqni usta oyog’i bilan bosib olib tashlashi va juvon buni teginish deb o’ylagani Olim buvaday yaxshi odamni ham johilga aylantirib yuboradi. Olim buva *“Hozir ko’rpangni ko’tar, it kelgindi!”* deb, ustani oilasi bilan uyidan quvadi.

176. Romanning bosh qahramoni Siddiqjon bo'lib, unda O'zbekistondagi kolxozlashtirish aks ettirilgan. Bu A. Qahhorning qaysi romani va unga qanday ayblar qo'yilgan?

Bosh qahramoni Siddiqjon bo'lib, O'zbekistonimizdagi kolxozlashtirish jarayoni aks ettirilgan A. Qahhor asari "Qo'shchinor chiroqlari" romanidir. Roman 1947-yilda "Qo'shchinor" nomi bilan kitob holda bosilib chiqqan. Adabiy tanqidchilik asarni sovuq kutib oladi, matbuotda keskin tanqidga uchraydi." Unda sinfiy kurash ko'rsatilmagan. Siddiqjon harakatiga firqaviy faollik yetishmaydi..." kabi ayblar qo'yilgan. O'sha vaqtda yozuvchi tanqidchilikning ana shu talablarini hisobga olishi va ular asosida asarni qayta ishlashga majbur edi. 1951-yilda bir necha yillik umrini sarflab, romanni "Qo'shchinor chiroqlari" nomi bilan e'lon qiladi. Siddiqjon Zunnunxo'janing qizi Sharofatga uylanib, ichkuyov bo'ladi. Zunnunxo'janing asl maqsadi yomon bo'ladi. Buni Siddiqjon keyin tushunadi, biroq kech edi. Oilasi o'rtasidagi katta farqni sezgach, u yerdan chiqib ketadi va "Qo'shchinor" jamoa xo'jaligida ishlay boshlaydi. Romanda O'rmonjon, Bo'taboy, Kanizak, Ziyoda kabi yana ko'plab obrazlar bor.

177. Qayta ishlangan "Qo'shchinor chiroqlari" asariga jamoatchilik va yozuvchining o'zi qanday munosabatda bo'lgan?

50- yillardagi adabiy tanqidchilik "Qo'shchinor chiroqlari" asariga katta baho berdi. 1951-yilda Moskvada o'tkazilgan o'zbek adabiyoti va san'ati dekadasi kunlarida bu roman rus tanqidchilari tomonidan ijobiy baholandi. Lekin yozuvchi Abdulla Qahhorning asardan ko'ngli to'lgan emas. Roman haqida gapira turib: "... *uni roman degani ham til bormaydi, chunki romanning uchdan ikki qismida bosh qahramon ishtirok etmaydi*",-degan.

Aslida, romanning yangi nusxasi ham har jihatdan mukammal, benuqson asar bo'lmadi, zamonlar o'tishi bilan asarda realistik prinsiplardan sezilarli chetlab o'tish hollari ma'lum bo'lib qoldi. Umrining ko'proq qismini qishloqda o'tkazgan yozuvchining o'zi kolxoz nima ekanini, kolxozlashtirish odamlarga qanday fojia keltirganini, kolxoz dehqon mehnatini surbetlarcha o'zlashtirib, o'zini asoratda saqlashga imkon beradigan bir dardi bedavo bo'yinturuq ekanini juda yaxshi bilar edi. Lekin bular haqida ro'y-rost yozolmasdi...

178. "Qazisan, qartasan, axir aslingga tortasan..." Abdulla Qahhorning qaysi asari shunday fikrlar bilan boshlanadi?

Abdulla Qahhorning "Qo'shchinor chiroqlari" romani bosh qahramoni Siddiqjon ichkuyov bo'ladi. Asar uning qaynonasi tomonidan aytilgan "*Qazisan, qartasan, axir aslingga tortasan...*" so'zlari bilan boshlanadi.

179. "Tobutdan tovush" komediyasining ikkinchi nomi nima? Unda qanday illat fosh etilgan va bosh qahramoni kim?

Abdulla Qahhor tomonidan yozilgan "Tobutdan tovush" komediyasining ikkinchi nomi "So'nggi nusxalar" (1962) deb nomlangan. Komediya jamiyat uchun yomon illat – poraxo'rlik illati fosh etilgan. Asarning bosh qahramoni Suqsurov va uni qurshagan muhitdagi jirkanchlik, vijdonsizlik, axloqsizliklarning

ildizi bitta – poraxo'rlik, tekinxo'rlik, mehnat qilmay boyluk orttirish va maishatda yashash istagi. Bu illat tufayli haqgo'y, odil va oqil kishilarning oyoqosti bo'lishi hech gap emas. Halollik, adolat, poklik oyoqosti bo'lgan jamiyatda esa ma'naviy tanazzul boshlanadi. Ma'naviy tanazzul esa jamiyat tanazzulining bosh belgisidir.

180. Abdulla Qahhorning “Ayajonlarim” komediyasi problematikasi haqida nimalar deya olasiz?

Abdulla Qahhorning “Ayajonlarim” asari lirik komediya janrida yozilgan. Unda yoshlar va kattalar, farzandlar va ota-onalar hamda yoshlarning muhabbati o'rtasidagi munosabatlar haqida hikoya qilinadi. Bu komediyada ham Abdulla Qahhor iste'dodining yangi qirralari ochiladi. Eng muhimi shundaki, asar g'oyatda hayotiy masala asosiga qurilgan bo'lib, teran bir samimiyat bilan sug'orilgan. Bu samimiyat asardagi yumorning boyligi, milliy kolorit aniq chizilgani tufayli yanada chuqurlashgan. Shuning uchun ham “Ayajonlarim” ko'p yillar mobaynida o'zbek teatrlari sahnasidan tushmay keldi.

181. Abdulla Qahhorning qanday qissalarini bilasiz?

Sevimli adibimiz Abdulla Qahhor epik turning qissa janrida ham barakali ijod qilgan. Yozuvchi qissa janrida xalq hayotining turli davrlari, muammolari, turli kishilar xarakteri aks ettirilgan “Qishloq hukm ostida”(1932, birinchi kitobi ham shu nom bilan chiqqan), “Qotilning tug'ilishi”(1933), “Dardaqdan chiqqan qahramon”(1944), “Oltin yulduz”(1944), “Sinchalak” (1958), “Zilzila”(1959, qissa tugallanmay qolgan), “O'tmishdan ertaklar”(1964), “Muhabbat”(1966) kabi qissalarni yozgan. Bu asarlarning mavzulari rang-barang. Adib qissadan qissaga ijodiy o'sa borgan.

182. Abdulla Qahhorning tugallanmay qolgan qissasi qanday nomlangan?

Abdulla Qahhorning tugallanmay qolgan qissasi “Zilzila“ deb nomlangan bo'lib, asar yozuvchi vafotidan so'ng nashr etilgan.

183. Abdulla Qahhorning qanday hajviy hikoyalarini bilasiz?

Abdulla Qahhor o'z ijodi bilan tinch hayotimizga raxna soluvchi har qanday salbiy hodisalarga qadrshi ayovsiz kurash olib borgan. Bu holat uning ko'plab asarlarida o'z ifodasini topgan. “Mayiz yemagan xotin“, “Bek” hikoyalarida kekkaygan ozodlik dushmanlari, ig'vogarlarini, “Adabiyot muallimi“, “San'atkor”, “To'yda aza“, “O'jar” hikoyalarida savodsiz, soxta san'atkorlarni fosh etadi. “Munofiq“, “Ikki yorti – bir butun”, “Qizlar”, “Bashorat”, “Qanotsiz chittak”, “Og'aynilar”, “Ayb kimda? kabi ko'plab hajviy hikoyalarida ham jamiyatdagi ayrim nuqson va illatlar ustidan kuladi, ulardan tezroq qutulish kerakligini qayta-qayta uqtirib o'tadi.

184. Abdulla Qahhorning o'tmish mavzusiga doir qanday hikoyalarini bilasiz?

Abdulla Qahhorning o'tmish mavzusida yozgan hikoyalari juda ko'p. Ular qatoriga "Bemor", "O'g'ri", "Dahshat", "Anor", "Tomoshabog'", "Millatchilar" kabi hikoyalarni ko'rsatishimiz mumkin. Yozuvchi ijodining so'nggi yillarida bunday mavzudagi asarlar yana ko'paydi. "O'tmishdan ertaklar" qissasining ko'p boblari, undagi Babar va Savrinisolarning fojialari ham mavzu va g'oya jihatidan o'tmish mavzusiga yaqin turadi.

185. Abdulla Qahhor qaysi asarlarni tarjima qilgan?

"Kapitan qizi" (Pushkin), "Mening universitetlarim" (M. Gorkiy), "Revizor", "Uylanish", "Taras Bulba" (Gogol), "Urush va tinchlik" (Tolstoy, 1–2-qismlari), "Niqob", "Yovuz niyatli kishi", "Lozim choralar", "Unter Prishiboyev", "Semiz va oriqliq", "Xameleon", "Chinovnikning o'limi" (A. Chexov), "Tog' oraliqlari" (I. Le), "Olovli ot" (F. Gladkov), "Gidrocentral" (M. Shaginyan), "Lyubov Yarovaya" kabi ko'plab asarlar Abdulla Qahhor tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan.

186. Hammaga gumonsirab qaraydigan Mulla Norqo'zi obrazi qaysi hikoyaning qahramoni hisoblanadi?

Abdulla Qahhorning "Mayiz yemagan xotin" hikoyasidagi Mulla Norqo'zi hammaga gumonsirab qaraydi, ular haqida kurakda turmaydigan g'iybat gaplarni tarqatishdan or qilmaydi, zamondagi o'zgarishlarni ko'rolmaydi. O'z xotinini farishta bilib, boshqa xotinlarni buzuqlikda ayblaydi. Oxir-oqibatda o'zining xotini Norqo'zini el oldida sharmanda qiladi.

187. Yozuvchi Abdulla Qahhor urush yillarida qanday hikoyalar yozdi?

Adabiyotimizda "**kichik hikoyalar ustasi**" sifatida mashhur bo'lgan Abdulla Qahhor "Ko'k konvert", "Xotinlar", "Kampirlar sim qoqdi", "Asror bobo", "Oltin yulduz", "Sep", "Qizil konvert", "Botirali" kabi qator hikoyalarni urush yillarida yaratgan, ularda front ortidagi kishilarning chidami, irodasi, mehru oqibatini jonli timsollar vositasida mahorat bilan tasvirlab bergan. Bu hikoyalarning mavzu va g'oyasigina emas, balki shakli-kompozitsiyasi ham davr ruhiga muvofiqdir. Mazkur hikoyalarda xat shakliga bir necha bor murojaat qilingan. Hikoya kompozitsiyasi jangchining o'z yoriga yoki qizning frontdagi yigitiga yo'llagan xati asosiga qurilgan. Bu asarlarda yozuvchi voqeadan voqea chiqarish yo'li bilan ixcham sujet yaratadi: hayot haqiqatini ta'sirli qilib ochib beradi.

Adib "Botirali", "Ko'k konvert", "Qizil konvert" hikoyalarida bosqinchilarga qarshi mardona jang qilgan oddiy o'zbek askarlari obrazini yaratdi. "Asror bobo", "Xotinlar", "Sep" hikoyalarida esa front orqasidagi fidokor kishilar obrazini yaratdi.

188. Abdulla Qahhorning "Sarob" romani qachon yozilgan va qahramonlari kimlar?

Abdulla Qahhorning hukmron mafkura ta'siri kuchli bo'lgan va hozirgi paytda alohida ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab etadigan asari "Sarob" romanidir. Roman 1934–yilda yozilgan bo'lib, ulkan mafkuraviy muammoning badiiy talqiniga bag'ishlangan.

Adib asarda 20-yillar oxiri, 30-yillarning boshlaridagi “millatchilar” deb atalgan ijtimoiy kuchning mahv etilishi, o‘z g‘oya va orzularini amalga oshirolmay inqirozga yuz tutishi jarayonini badiiy gavdalantirdi. Mavjud tuzumga, uning siyosatiga qarshi bildirilgan fikrlar deyarli yetmish besh yil davomida – Sho‘ro va komfirqa barbod bo‘lguncha – burjua mafkurasi, dushman harakat sifatida o‘zining bahosini olib keldi.

Abdulla Qahhor “Sarob” romanida asarning bosh qahramoni Rahimjon Saidiy, uning hammaslamlari, shahar maorif bo‘limining mudiri Salimxon, adabiyotshunos Abbosxon, Murodxo‘ja domla, tergovchi Mirza Muhiddin, go‘zal, lekin baxtsiz qiz Munisxon, befarosat va sovuq kelin Soraxon, jurnalist Yoqubjon, savdogar Muxtorxon singari obrazlar yaratilib, bu obrazlar orqali sho‘roga qarshi olib borilgan maxfiy kurashni badiiy tarzda gavdalantirdi. Asarda bu kurash xalqqa qarshi, adolat va hayot taraqqiyotining bosh yo‘liga qarshi harakat sifatida talqin etildi. Saidiyler yo‘li halokat yo‘lidir, bu orzular hech qachon amalga oshmaydigan ro‘yo va sarobdir, degan badiiy xulosa chiqarildi. Bu yo‘lning nihoyasi fojidir, deb uni batamom inkor etish va fosh qilish asarning tub g‘oyasini tashkil etadi.

189. Abdulla Qahhorning “Sarob” romanidagi qaysi qahramon xudbinlik qurboniga aylanadi?

“Sarob” romanidagi Saidiy xudbinlik qurboni bo‘ladi. U asli badavlat oilada tarbiya topgan. Xudbinlik va shaxsiyatparastlik Saidiyda o‘qishga ham, do‘stlariga ham, atrofdagi hayotga ham loqaydlik tug‘diradi va uni hayotda biron katta maqsaddan, olijanob ezgu niyatdan mahrum qilib qo‘yadi. Faqat Munisxonni sevib qolganidan keyingina unda muayyan niyat paydo bo‘ladi, hayot ma‘no kasb etganday bo‘ladi. U nima qilib bo‘lsa ham Munisxonga munosib bo‘lishga, uning ko‘nglidan o‘rin olishga, unga erishishga intiladi. Bunga esa “olamshumul” adib bo‘lib, ko‘p pul topadigan, sevgisining har qanday istagini bajo keltira biladigan boyvachcha bo‘lib erishish mumkin. Shundan so‘ng olamga mashhur adib bo‘lish istagi uning barcha xatti-harakatiga yo‘nalish beradi, biroq bundan naf chiqmaydi. Bu Saidiyning hayotdan, muhitdan noroziligini kuchaytiradi. Shunday vaziyatda Saidiy Salimxon va Abbosxonlar qo‘liga tushadi. Ular Saidiyning xudbinligidan ustalik bilan foydalanadilar.

Saidiyning xomxayollari real hayot bilan to‘qnashuvda chilparchin bo‘ladi, u shunchaki oddiy, xashaki yozuvchiga aylanadi, hatto birovlarning qalam haqini o‘g‘irlab kun ko‘ra boshlaydi. O‘zini osmonda bilib yurgan Saidiyning chinakam bahosini Ehson beradi: *“Bilishimcha, talanti shiradan tozalangan Rahimjon hozir shalag‘i chiqqan aravaday Murodxo‘ja domlaning tomorqasida ag‘anab yotibdi”*.

190. “ ... asarda muhim o‘rin tutuvchi obraz. U badavlat xonadon qizi. Takabburlik, boshqalarni mensimaslik, o‘zini hammadan yuqori qo‘yish uning doimiy odati...”. Fikrlar A.Qahhorning qaysi asari qahramoniga tegishli?

“Sarob” romanida muhim o‘rin tutuvchi obrazlardan biri –Munisxon obrazidir. U ham badavlat xonadonning qizi. Uning ham dunyoga munosabati – takabburlik, boshqalarni mensimaslik, o‘zini hammadan yuqori deb bilish asosiga

qurilgan. Xudbinlik kasali Munisxon xarakterida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. U benihoya go'zal, shuning uchun erta-yu kech o'ylagani – erkak zotini asir qilish. Munisxon muhiti nimasi bilandir kitobxonda iliq tuyg'ular uyg'otuvchi bu juvonne halokatga olib boradi. Hayotda biron tayinli maqsadga ega bo'lmagan, sevgi, muhabbat nima ekanini bilmaydigan, akasi Salimxonning siyosiy manfaatlari tufayli Muxtorxonga turmushga chiqqan Munisxon oxirida buzuqlik ko'chasiga kiradi. Yozuvchi Munisxon fojiasini ham psixologik jihatdan dalillab bergan.

191. Abdulla Qahhorning "Sarob" romanidagi qaysi qahramon o'rdakka o'xshatiladi? Nima uchun?

"Sarob" romanidagi asosiy obrazlardan biri Murodxo'ja domladir. Asarda Murodxo'ja domla xakteri jonli va to'laqonli qilib chizilgan. Domla tashqi ko'ri nishdan sodda va beozor odamga o'xshasa-da, aslida qo'y terisiga o'ralgan bo'ri, hiylakor bir shaxs. *"Murodxo'ja domla o'zining yurishi bilangina emas, yana birmuncha sifatleri bilan o'rdakka o'xshardi. O'rdakning uch xislati bor: havoda uchadi, yerda yuradi, suvda suzadi. Murodxo'ja domla maktabda muallim, qishloqda yer egasi, mehmonxonada, garchi oshkora bo'lmasa ham savdogar"*.

192. Abdulla Qahhorning "Sarob" romanidagi qaysi qahramon sho'ro hukumatini dil-dilidan yomon ko'radi, uni tezda yemirilishini istaydi?

Abdulla Qahhorning "Sarob" romanidagi Murodxo'ja domla sho'ro hukumatini dil-dilidan yomon ko'radi, uni tezda tag-tugi bilan yemirishni istaydi. Murodxo'ja domla o'zini siyosiy arbob qilib ko'rsatishga urinsa-da, aslida mol-mulkidan, boyligidan ayrilib qolmaslik uchun jon-jahdi bilan kurashadigan uddaburon va hiylakor shaxs. U juda makkorlik bilan Saidiy uchun o'rgimchak uyasidek tuzoq to'qiydi, domiga ilintirgach, so'nggi tomchisigacha Saidiyning shirasini so'rib oladi. Boyligi uchun yolg'iz qizini unga beradi. Saidiyning omadi ketib, puli qolmaganda, qizini undan ajratib oladi.

193. Ehson, Kenja, Shafrin kabi obrazlar Abdulla Qahhorning qaysi asarida uchraydi?

Abdulla Qahhorning "Sarob" romanida Ehson, Kenja, Shafrin kabi ijobiy obrazlar ham bor, ammo ular asarda ikkinchi o'rinda turadi. Yozuvchi butun e'tiborini Saidiy obrazi tasviriga qaratgan, natijada bu personajlar ancha tussiz chiqqan, ya'ni mustaqil xarakter darajasiga ko'tarila olmagan. Shunday bo'lsa-da, bu obrazlar bosh obraz xarakter qirralarini to'laroq ochishga xizmat qilgan, deb ayta olamiz.

194. Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasida qanday g'oya yetakchilik qiladi?

Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasida *insoniy haq-huquqlari toptalgan ayolning o'z erki, qadri uchun isyoni* ko'rsatilgan. Hikoyaning bosh qahramoni – Unsin. U taqdir taqozosi, qismat yo'rig'i tufayli Olimjon dodxohga o'zigacha bo'lgan yeti xotinning kenjasi bo'lib tushgan. U eriga sevimli va erka bo'lib, taqdirda

bori shu ekan-da, deb yashayverishi mumkin edi. Biroq, Unsinning “O’g’ri”dagi Qobil bobo, “Anor”dagi Turobjon, “Bemor”dagi Sotiboldidan farqi shuki, u o’z salaflariga o’xshab mutelik asirasi va jaholat qurboni bo’lib yashashni istamaydi.

Unsin o’z taqdirini o’zgartirmoq, o’zi tug’ilib o’sgan uyiga qaytib ketmoq istagida tanho isyon ko’taradi. Bu yozuvchining “topshirig’i” bilan bajarilayotgan sun’iy bosh ko’tarish emas, xarakterning badiiy mantig’idan kelib chiqqan iymon isyoni, erk va qalb isyonidir.

195. Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasida qanday g’oya ilgari surilgan?

Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasida Sotiboldining kasal xotinini davolash uchun befoyda urinishi, oxir-oqibatda ayolning vafot etishi tasvirlangan. Adib ana shu fojiani tasvirlash orqali Sotiboldi, norasida qizaloq, qo’shni kampir kabilarning ichki dunyosi ko’rsatib beriladi. Hikoyada tasvirlanishicha, Sotiboldi doktorxona haqida aniq tasavvurga ega emas: *“Doktorxona deganda Sotiboldining ko’z oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 somlik pul kelardi”*. Qisqasi hikoyada qo’li kalta, qashshoq kishining nochor holati ayanchli tarzda ko’rsatilgan.

196. Abdulla Qahhorning “Sinchalak” asaridagi qaysi qahramon “Ayol kishi rahbarlik qlisa, kalavamning uchini yo’qotib qo’yaman”, - deydi?

“Sinchalak” (A.Qashhor) asarining bosh qahramonlaridan biri Arslonbek Qalandarovdir. U “Bo’ston” jamoa xo’jaligi raisi bo’ladi. Biroq raisni manman, o’ziga bino qo’ygan, ko’pchilikning fikri bilan hisoblashmay, o’zbilarmon bo’lgani, ayollarga mensimayroq qaragani bilan butkul salbiy qahramon qatoriga qo’shib bo’lmaydi.

U jamoa xo’jaligi ishini, uning sir-asrorini, xo’jalikning har bir a’zosini juda yaxshi biladi, o’zi ham tinim bilmay ishlaydi. Shu kabi muvaffaqiyatlar Arslonbek Qalandarovni anchagina esankiratib ham qo’ygan. Manmanlik o’zgalar fikrini yo’q qilishga olib keladi. Ko’pchilik fikri bo’g’ilgan joyda esa, u mamlakat rahbarimi, jamoa xo’jaligi raisimi, baribir, shaxsga sig’inish illati paydo bo’ladi. Bunday holda tashabbus o’rniga norozilik, ishonch o’rniga hadik, o’sish o’rniga chekinish yuzaga keladi. Shu tariqa yozuvchi Qalandarovga xos fazilatlarni aslicha ko’rsata olgan.

197. Abdulla Qahhorning qaysi asarida qahramon insonparvarlikni ulug’lab, ”Odam bolasi sirkning oti emaski, qamchilaganda cho’kkalasa...”- deydi?

Yozuvchi Abdulla Qahhorning “Sinchalak” asaridagi bosh qahramon Saida Aliyevadir. U kolxoz raisi Arslonbek Qalandarov bilan to’qnashadi. Yozuvchi bir-biriga mutlaqo teng kelmaydigan kuchlar kurashini tasvirlab, bu kurash yordamida voqelikning ko’pgina muhim va ahamiyatli jihatlarini ochib bergan. Saidaning maqsadi g’oyat ezgu va pok. U odamlarning hayotini yaxshilashga, go’zalroq qilishga intiladi. Saidaning faoliyati chuqur insoniylik bilan sug’orilgan – uning odamlarga munosabatida bu sezilib turadi. Hikmat tarzida aytilgan Saidaning yuqoridagi so’zlarida uning insonparvarligi yaxshi ifodalangan.

198. Abdulla Qahhorda badiiy adabiyotga, Sharq she'riyatiga ixlos qayerda uyg'ondi?

Abdulla Qahhor o'n yoshga kirganda Buvaydadagi eski maktabga o'qishga kiradi. Ko'p o'tmay, oila Oqqo'rg'onga ko'chadi. Oqqo'rg'onda jadid maktabida Muhammad qoridan tahsil oladi, domla ilg'or fikrli odam edi. Uning maktabida bolalar partada o'tirib dars tinglardilar. Domla geografiya, tabiiyot, matematika kabi ilmlarni ham o'qitgan, shogirdlarida Sharq adabiyotiga qiziqish uyg'ota olgan. Shu sabab Abdulla Qahhor umrining oxirigacha Sa'diy va Umar Xayyom, Lutfiy va Alisher Navoiy, Bobur va Nodira asarlarini qo'ldan qo'ymay mutolaa qilar, ularning ko'pini yod bilar va o'rni kelganda parchalar keltirib, fikrini dalillar edi.

199. Abdulla Qahhor "O'tmishdan ertaklar" asari uchun qanday mukofot bilan taqdirlangan?

Abdulla Qahhorning avtobiografik xarakterdagi "O'tmishdan eraklar" qissasi keng adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. Bu asar uchun yozuvchi 1966-yilda O'zbekiston Davlat mukofoti bilan taqdirlangan.

200. Abdulla Qahhorning yoshlik yillari qaysi qishloqlarda kechgan?

Abdulla Qahhorning yoshlik yillari turli qishloqlarda kechgan, bu haqda shunday deydi: "Mening bolalik yillarim Farg'ona vodiysining Yaypan, Nurcux, Qudash, Buvayda, Tolliq, Olqor, Yulg'unzor, Oqqo'rg'on degan qishloqlarida o'tgan..." Otasi temirchi bo'lgani sababli turli qishloqlarda ko'chmanch hayot kechirgan, ya'ni qayerda ish bo'lsa, ularni bajarib boshqa joylarga ketavergan. Keyinchalik A.Qahhor ko'chmanchilikda kechgan og'ir kunlarini aks ettirib bir qissa yozgan. Bu "O'tmishdan ertaklar" nomli avtobiografik qissasidir.

201. Abdulla Qahhor qaysi hikoyalarida sho'ro kishilarining nuqsonlarini, sotsialistik tuzum kamchiliklarini tanqid qilgan?

Abdulla Qahhor "Mayiz yemagan xotin", "Jonfig'on", "Munofiq", "Qizlar", "Adabiyot muallimi", "San'atkor" kabi hikoyalarida sho'ro kishilarining ayrim nuqsonlarini, sotsialistik tuzum kamchiliklarini keskin tanqid qilgan. U sotsialistik realism metodidan chekingan, sho'ro voqeligini buzib ko'rsatgan.

202. Abdulla Qahhorning "Tobutdan tovush" asari "voqelikni buzib ko'rsatgan, ijobiy tamoyillarni ko'rsatib berolmagan..." kabi fikrlar kimga tegishli?

Ma'lumki, "Tobutdan tovush" hajviy komediyasi 1962-yilda yozilgan va o'sha yiliyoq Hamza teatri sahnasida qo'yilgan. Asarni adabiy jamoatchilik iliq kutib oladi, u haqda ijobiy taqrizlar chiqadi. Biroq oradan bir yarim yilcha o'tgach, matbuotda "Tobutdan tovush" haqida" degan maqola bosiladi. Maqola G'afur G'ulom, Vohid Zohidov, Hamid G'ulom kabi taniqli adiblar tomonidan yozilgan. Unda asar voqeligimizni buzib ko'rsatuvchi, uni qoralash ruhi sug'orilgan, ijobiy tamoyillarni ko'rsatib berolmagan, g'oyaviy zararli asar sifatida baholangan edi. Maqola xolislikdan butunlay mahrum bo'lsa-da, unga asoslanib, asar sahnadan olib tashlandi. Suxsurovdek odam cotsialistik jamiyatimizda bo'lishi mumkin emas,

demak, u biz uchun yotdir, degan xulosa faqat maqola mualliflarining emas, balki aslida davr mafkurasi va siyosatining xulosasi edi.

203. Tanqiddan so'ng yozuvchi o'z asariga qanday munosabatda bo'ldi?

Tanqiddan so'ng asar yozuvchi Abdulla Qahhor tomonidan birmuncha qayta ishlandi va "So'nggi nusxalar" nomi bilan sahnalashtirildi. Komediya endi (nomida urg'u qilinganidek) Suxsurovga o'xshash kishilar tugab borayotibdi, lekin ular jamiyatdagi so'nggi nusxalar bo'lib, harqalay yo'q emas, demak ularga qarshi kurashmoq kerak, degan fikr ilgari surilayotgandek bo'lsa-da, unda dastlabki asl maqsad va ruh saqlab qolindi. Bu yozuvchining jiddiy yutug'i edi.

Mavzu: MAQSUD SHAYXZODA

204. Qaysi shoir poeziyasida Sharq klassiklari bilan Ovro'po shoirlarining an'analari uyg'unlashib ketgan?

Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyoti rivojida salmoqli o'ringa ega yirik so'z san'atkoridir. Uning ijodi kommunistik mafkura hukmronligi avjga mingan yillarda kechdi. Shuning uchun boshqa ko'pgina sho'ro ijodkorlari kabi uning asarlarida ham zamonasozlik, siyosatga moslashish va unga xizmat qilish mayli ancha kuchli bo'lgan. Biroq shunga qaramay, uning eng yaxshi asarlarida insonning ma'naviy dunyosi, qalbi, o'ylari, orzu-istaklari o'ziga xos tarzda – publisistik ko'tarinkilik bilan, original poetik obrazlar, chuqur falsafiy umumlashmalar orqali ochib berilgan. Shayxzoda o'z davrining eng bilimdon, donishmand odamlaridan biri edi – uning *poeziyasida Sharq klassiklari bilan Ovro'po shoirlarining an'analari uyg'unlashib ketgan*.

205. Maqsud Shayxzoda qachon va qayerda tug'ildi?

Maqsud Shayxzoda 1908 - yili Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tug'ildi. Otasi Ma'sumbek o'z davrining peshqadam ziyolilaridan bo'lib, el-u yurtda katta obro'ga ega shifokor edi. Shoirning o'zi bu haqda "Toshkentnoma" asarida shunday yozadi:

*Umrim bino bo'ldi Ozarbayjonda,
Kechdi bolaligim u gul makonda.
Nizomiy vatani, Ganja o'lkasi,
O'pkamga to'ldirdi she'r havosini.*

Shayxzoda san'at va adabiyotni sevar, tarix va falsafaga qiziqardi. Oqtosh ziyolilari bilan turli masalalarda suhbatlashardi. Yosh Maqsud Nizomiy va Firdavsiy, Navoiy va Fuzuliy, Pushkin va Lermontov kabi buyuklar nomini ilk daf'a ana shu gurunglarda eshitadi. Bu muhit bo'lajak shoirda adabiyotga qiziqish uyg'otadi.

206. Misralar muallifi kim?

... Ammo tole' meni doim erkalamadi,

*Ba'zan zamon yilni yilga hech ulamadi.
Sahrolarga duch keldimki, na irmoq, na ko'l,
Surgunlarga yuborildim, na ufq, na yo'l.*

Yuqoridagi misralar muallifi o'z yurtidan quvg'in qilingan shoir Maqsud Shayxzodadir. U nohaq qamaladi. 1928-yilda Toshkentga keladi va umrining oxiriga qadar shu yerda yashab qoladi. Sho'ro hukumati shoirni O'zbekistonda ham ta'qiblar va tahqirlardan benasib qoldirgani yo'q. 50-yillar boshida uni asossiz ravishda qamoqqa oladi va 25 yilga surgun qiladi. Shaxsga sig'inish fosh etilgandan keyingina O'zbekistonga qaytadi. Shoir "tole' doim erkalaganiga" qaramay, umri oxirigacha o'zbek xalqining sadoqatli farzandi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

207. Maqsud Shayxzoda o'zi haqida qanday fikrlarni bildirib o'tgan?

Maqsud Shayxzoda o'zi haqida: "... men "yoshi kattalar" deb atalgan shoirlar avlodiga mansubman. Bu avlod yigirmanchi yillarning romantik havosida qad ko'targan, o'ttizinchi yillarning qurilish ma'rakasida pishiqqan, qirqinchi yillarning jang sinovida suyagi qotgan va elliginchi yillarning tinch muhitida faollik ko'rsatgan avloddir", – degan?

208. Shaxyzoda asarlariga adabiy tanqidchilik va adabiyotshunoslik qanday munosabatda bo'ldi?

Maqsud Shayxzoda asarlarining badiiy xususiyatlari, estetik-tarbiyaviy ahamiyati adabiy tanqidchilik va adabiyotshunoslikda to'g'ri qayd etilgan. Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, K. Yashin, Izzat Sulton, Mirtemir, Shuhrat kabi taniqli yozuvchilaradib ijodining asosiy xususiyatlarini ochiq ko'rsatib berganlar. Hamid Olimjon: "*Shayxzoda fikrlar shoiridir, u siyosiy she'rlar yaratadigan san' atkordir. Keng ma'lumotli shoir juda qaltis mavzularda asarlar yozadi va ko'pincha yaxshi natijalarga erishadi*"⁴³, – deb ta'kidlagan bo'lsa, Oybek shoir asarlarini tahlil etib, shunday yozadi: "*Shayxzoda she'rlarining formasi rang-barangdir. U ruboiy (falsafiy mazmundagi to'rtlik), ballada, poema va lirik she'rlar formasidan foydalanadi. U porloq va kutilmagan obrazlar yaratgan*"⁴⁴.

Adabiyotshunoslardan O. Sharafiddinov, M. Zokirov, B. Imomov, O. Abdullayev, H. Olimjonova, I. G'afurov va boshqalarning maqola va risolalarida Shayxzoda asarlarining asosiy xususiyatlariga doir muhim fikrlar bayon etilgan.

209. Shayxzodaning dastlabki she'rlarini qaysi shoir tahrir qiladi?

Shoir Maqsud Shayxzoda Toshkentga kelgach, avval Narimonov nomli texnikumda dars beradi, keyin "Sharq haqiqati", "Qizil O'zbekiston" (hozirgi "O'zbekiston ovozi") gazetalarida ishlaydi. Shu yerda G'afur G'ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Mirtemir bilan tanishadi. G'afur G'ulom uning dastlabki

⁴³ **Хамид Олимжон.** Танланган асарлар, 3-жилд, – Т.:1960,421-бет.

⁴⁴ **Ойбек.** Асарлар, 14-жилд. – Т.: "Фан", 1979, 38-бет.

asarlarini tahrir qiladi va shu tariqa ular o'rtasida bir umr davom etgan hamkorlik, do'stlik boshlanadi.

210. Shayxzodaning dastlabki she'riy to'plami qanday nomlangan?

Maqsud Shayxzoda 1928-yilda Toshkentga keladi. Narimonov nomli maktabda o'qituvchilik qiladi, ko'p o'tmay, adabiy harakatchilikka qo'shiladi. Yosh muallim "Sharq haqiqati", "Qizil O'zbekiston" (hozirgi "O'zbekiston ovozi"), "Yosh leninchi" (hozirgi "Turkiston"), "Guliston" singari gazeta va jurnallarning faol adabiy xodimi, muallifi bo'lib qoldi. Bu haqda Shayxzoda shunday deydi: "Men O'zbekistonni ikkinchi Vatanim deb, shu yerda qoldim va o'z taqdirimni o'zbek adabiyoti bilan bog'ladim"⁴⁵. Mana shu bog'lanishning mahsullari bo'lib, 30-yillarning boshida shoirning she'riy to'plamlari bosilib chiqqan boshladi. Shayxzodaning birinchi she'riy to'plami "O'n she'r" deb nomlangan, u 1933-yilda bosilib chiqqan.

211. Shayxzoda yana qanday she'riy to'plamlar yaratdi?

Shayxzoda birinchi to'plamidan keyin "Undoshlarim" (1933), "Uchinchi kitob" (1934), "Jumhuriyat" (1935), "Yangi devon" (1937); urush yillari "Jang va qo'shiq", "Kurash nechun?", "Ko'ngil deydiki..", urushdan keyin "Yurt she'rlari", "Olqishlarim", "Zamon torlari", "Sozim", "Chorak asr devoni", "Yillar va yo'llar", "Xiyobon" kabi ko'plab she'riy to'plamlarni e'lon qildi.

Tinimsiz ijodiy izlanish, o'z ustida ishlash, hayotning qaynoq jabhalarida bo'lish shoirning kamolotida katto rol o'ynadi. Ajoyib muallim, tinib-tinchimas, serg'ayrat va bilimdon olim, ikki yuzdan ortiqroq ilmiy-tanqidiy maqolalar yozgan, faylasuf shoir va dilbar bir inson o'zining "Yarim asr devoni"ni yozishga ulgurolmadi. Maqsud Shayxzoda zakovati mo'jiza kabi anglanadigan she'rlar yaratdi. Bular tatar shoiri Abdulla To'qay aytganidek, "*ajaldan seskanmay*" abadiyan tiriklik yo'lga chiqib olgandir. Shayxzoda bir to'rtligida shunday yozgan edi:

*Umrlar bo'ladiki,
Tirigida o'likdir.
O'limlar bo'ladiki,
O'lgan odam tirikdir.*

Shayxzoda ham o'z she'rlari bir umrga tirikdir!

212. Qaysi shoir olim ham bo'lib, umrining oxirigacha Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutida (hozirgi pedagogika universiteti) o'zbek adabiyotidan dars ham bergan?

Maqsud Shayxzoda iymoni but, e'tiqodi mustahkam, halol va pokiza odam edi. Jismoniy qiynoqlar, ma'naviy xo'rlashlar uning irodasini sindirolmadi – shoir 1956–yildan keyin yangi kuch, yangi qudrat bilan yanada faol ijod qilishga kirishdi

⁴⁵ Т. Жалолов. Яшасин табассум, Тошкент бадиий адабиёт нашриёти, 1966, 18-бет.

hamda pedagogik faoliyatini qayta tikladi va umrining oxirigacha Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutida (hozirgi pedagogika universitetida) o'zbek adabiyotidan dars berdi. Shayxzoda adabiyotshunos olim sifatida adabiyotning muhim masalalariga bag'ishlangan o'nlab tadqiqotlar, maqolalar e'lon qildi.

213. "G'azal mulkingning sultoni" degan tadqiqot kimniki?

Maqsud Shayxzoda buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning badiiy mahoratiga bag'ishlangan turkum maqolalar yozgan. "Genial shoir", "Navoiyning lirik qahramoni", "Alisher Navoiyning poetik mahorati" kabi ilmiy asarlari shular qatoriga kiradi. 1958-yilda "Alisher Navoiyning lirik qahramoni" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Olim vafotidan sal avval kasalxonada yozib tugatgan "*G'azal mulkingning sultoni*" degan tadqiqot navoiyshunoslik ilmida bebaho durdonalardan bo'lib qoldi. Hozir ham deyarli barcha adabiyotshunos olim va Alisher Navoiy ixlosmandlar shoirni e'zozlab, "*G'azal mulkingning sultoni*" iborasini tilga olishadi.

214. M. Shayxzoda badiiy ijod haqida qanday fikrlarni aytgan?

M. Shayxzoda shoir va dramaturg sifatida emas, balki adabiyotshunos olim sifatida ham mashhur bo'lgan. Ko'plab ilmiy asarlar yozgan. Jumladan, olim badiiy ijod mashaqqati haqida shunday deydi: "*Inson ruhini tarbiyalash, odamda yaxshilik unsurlarini ko'paytirish hamda go'zallik va nafosat tuyg'usini yanada baland darajaga ko'tarish san'atning muqaddas vazifasidir*".

215. M. Shayxzodaning "Xarita oldida" she'ri nima haqida?

Harbiy lirikaning yorqin namunasi bo'lgan "Xarita oldida" she'ri urush yillarida yozilgan. Bu she'rda shoir Shayxzoda lirik qahramon hislarini shu qadar zo'r kuch bilan ifodalaydiki, Vatan va shaxs tushunchalari har qachongidan ko'ra mustahkamroq birlashib ketadi.

Shayxzodaning lirik qahramoni ma'naviy yetuklik jihatidanyuksak darajada turadi. U urush va tinchlik, o'lim va hayot haqida, inson hayotining ma'nosi to'g'risida chuqur fikrlar yuritadi. Bu esa Shayxzoda lirikasidagi falsafiy teranlikni yanada kuchaytiradi.

216. M. Shayxzodaning urush va tinchlik, o'lim va hayot haqida, inson hayotining ma'nosi to'g'risida chuqur fikrlar yurituvchi she'rlari qaysilar?

Shoir Maqsud Shayxzodaning urush va tinchlik, o'lim va hayot haqida, inson hayotining ma'nosi to'g'risida chuqur fikrlar yurituvchi she'rlari talaygina. "Yo'q, men o'lgan emasman", "Kapitan Gastello", "Chorak asr" she'rlari shular jumlasidandir. "Chorak asr" she'rida shoir xalq bosib o'tgan tarixiy yo'lga nazar tashlaydi, uning fashizmga qarshi mardona kurashini tasvirlaydi.

217. "O'n besh yilning daftari", "Olqishlarim", "Zamon torlari", "Shu'la" to'plamlari kimniki, qachon yozilgan?

Urushdan keyingi yillarda Shayxzoda zo'r orzu-umidlar bilan ijod qilishga kirishdi. Urush tugaganda shoir 38 yoshga qadam qo'ygan, balog'at pallasining bo'sag'asida edi. U hayotda katta tajriba orttirgan, uning issiq-sovuqlarini boshidan kechirgan, adabiyotning mohiyatini, shoirlik mohiyatini chuqur tushunib yetgan, ijod sirlarini puxta egallab olgan edi. Urushdan keyingi yillarda shoir juda faol ijod etdi va qisqa muddatda "O'n besh yilning daftari", "Olqishlarim", "Zamon torlari", "Shu'la" kabi ko'plab she'riy to'plamlarni e'lon qildi. Ammo sho'ro tuzumi shoir Shayxzoda uchun bemalol ijod etishga, o'sib-ulg'ayishga sharoit yaratib berishdan uzoq edi.

218. Shayxzoda ijodining so'nggi bosqichida qaysi asarlarini e'lon qildi?

Shayxzoda 1956-1966 –yillar mobaynida "Chorak asr devoni" nomi bilan tanlangan asarlarini, "Toshkentnoma" dostonini, "Yillar va yo'llar", "Xiyobon" to'plamlarini e'lon qildi. "Dunyo boqiy" turkumi adabiyotimizda katta voqea bo'ldi. Bularning bari Shayxzoda ijodining so'nggi bosqichi ancha barakali bo'lganidan, shoir xalqning o'sib borayotgan estetik ehtiyojlarini yorqin asarlar bilan javob berishga intilganidan dalolat berardi.

219. Shayxzodaning 1956-1966 -yillar orasida yozgan she'rlarining ko'zga ko'ringan asosiy nuqsonlari nimada deb o'ylaysiz?

Shoir Shayxzodaning 1956-1966-yillar mobaynida yaratgan she'rlaridagi eng katta nuqson shundan iboratki, ularda ritorika, bayonchilik, va'zxonlik va madh ancha keng o'rin tutadi. Shoir chinakam lirik tuyg'ularni, ichki hislarni, to'liqlik hayajonlarni, yorqin fikrlarni ifodalash o'rniga ko'pincha hammaga yod bo'lgan fikrlardan, o'ylashga, his qilishga undamaydigan siyqa obrazlardan foydalanadi. Oqibatda chinakam lirika, haqiqiy poetik asar o'rniga quruq madhiya, yuzaki tasvir paydo bo'ladi. "O'zbek dengiziga" she'rida shunday misralar bor:

*Qatrası ochadı gulning yuzini,
Uning bir yutumi qushlarga qanot.
Uning ariqlari bog'ga jon berar,
Uning kanallari – dashtlarga hayot.*

Bunday she'rlarni realistik asarlar deb baholash qiyin. Urushdan keyingi yillarda Shayxzoda she'riyatida ayni bir xil tasvir vositalaridan haddan tashqari ko'p foydalaniladi, yangi obrazlar va chuqur fikrlar kashf etish ustida chin dildan ishlamaydi, o'z ijodiga nisbatan talabchanlikni ancha bo'shashtiradi. Yorqin sabab she'riyatda quruq tantanabozlik, va'zxonlikka keng yo'l ochilganida ko'rinadi.

Shoir buni yaxshi tushunardi, shuning uchun ham 1956-yildan keyin ijodiga bir muncha tanqidiy nuqtai nazardan yondasha boshladi. Keyingi asarlarida uning serhayajin, to'liqlik ovozi, ehtirosli qalbi yorqin ko'rinishga boshladi.

220. Quyidagi misralar muallifi kim? She'r qanday nomlangan va kimga bag'ishlangan?

*Ko'p sog'indim, o'rtoqjon, bir oz gaplashsak,
Burungidek Xadradan tushib O'rdaga,
Yayov yurib muzdayin pivo xo'plashsak,
Navoiyning kalomin solib o'rtaqa...
Yori aziz, qaydasan, qaydan qidiray?
Hasrat to'lgan xatimni qayga yuboray?*

She'r "G'afurga xat" deb nomlangan bo'lib, Maqsud Shayxzoda tomonidan yozilgan. Mazmuniga ko'ra marsiya, u G'afur G'ulom vafotiga bag'ishlangan. She'r buyuk inson haqida, uning hayot yo'li to'g'risida, umuman, inson hayotining ziddiyatlari, inson umridagi o'tkinchi va boqiy narsalar haqida yozilgan. Ayni zamonda shoir o'zining qirq yillik qarddon do'stidan ajralib, yuragidan kechgan alamli sog'inch hislarini insoniy tarzda ifodalagan.

221. Adabiy jamoatchilik Shayxzodaning qaysi dostonini adabiyotimizning yirik ijodiy muvaffaqiyati sifatida baholadi?

Maqsud Shayxzodaning ijodiy kamolotidan dalolat beruvchi asarlaridan biri 1957-yilda yozilgan "Toshkentnoma" nomli lirik-falsafiy dostonidir. Keng adabiy jamoatchilik ijodkorning bu asarini *adabiyotimizning yirik ijodiy muvaffaqiyati* sifatida baholadi. 18 bob va muqaddimadan iborat bu asar fikrlar, tuyg'ular poemasi hamdir. Asardagi ayrim-ayrim lavhalarni lirik qahramon obrazi – shoir obrazi birlashtirib turadi va asarga bir butunlik baxsh etadi.

Doston qahramonlari – Toshkent, toshkentliklar va shoir. Har bir bob, har bir misrada lirik qahramon ko'hna hamda navqiron Toshkentga bo'lgan mehrini ifodalaydi, o'z taqdirini shahar taqdiri, el taqdiri bilan birgalikda his qiladi:

*Har qachon, har qayda deyilsa "Toshkan",
Degaysan yozlarga yozlar tutashgan.
Ha, "Toshkan" deyilsa, esga kelar yoz...
Ha, "Toshkan" deyilsa, quyosh esda shay.
Quyoshki, umrzoq avlodga damsoz,
Bu yerda hamma der: – "Quyoshcha yashay".*

222. "Toshkentnoma" dostonining o'ziga xosligi nimada deb o'ylaysiz?

Dostonda shoir Maqsud Shayxzoda iste'dodining yangi qirralari, o'zbek she'riyatining cheksiz imkoniyatlari namoyon bo'lgan, deb ayta olamiz.

"Toshkentnoma" dostoni sermazmun poetik fikrlarga, falsafiy xulosalarga boy, unda hikmatli so'z – aforizm darajasiga ko'tarilgan baytlar, quyma misralar ko'p. Shoir Vatan tushunchasining mazmuni va mohiyati haqida fikr yuritib, yorqin falsafiy-badiiy umumlashma yarata olgan:

Vatanning ma'nosi ulug'vor, ulkan,

*Ha, Vatan so'zining cheki bepoyon.
Bu yerda tug'ilgan, yashagan, o'lgan,
Yaratgan, ishlagan, kurashgan inson.
Vatan mehri bilan o'z qadrin bilgan
Vatansiz kimsalar darvish deyilgan.*

223. Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasi qachon yozilgan?

Maqsud Shayxzoda ko'pqirrali iste'dod sohibi bo'lgan. Ijodkor she'rlar va dostonlar bilan birga, yuksak badiiy quvvatga ega bo'lgan dramalar ham yaratdi. Shayxzoda umrining so'ngida yozishga kirishgan, lekin tugatib ulgurmagan "Beruniy" dramasini hisobga olmaganda ham uning "Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek" dramalari allaqachon xalqimizning badiiy mulkiga aylanib qolgan.

"Jaloliddin Manguberdi" dramasi 1944-yilda yozilgan. 1945-yili Hamza nomidagi O'zbek davlat drama teatrining sahnasida namoyish qilingan.

224. Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasidagi asosiy rollarni kimlar ijro etgan edi?

"Jaloliddin Manguberdi" dramasi 1945-yili Hamza nomidagi O'zbek davlat drama teatrining sahnasida namoyish qilingan. Spektakl chindan ham o'sha kezlari yirik san'at bayramiga aylanib ketgan edi. Dramaning o'zi yorqin romantik bo'yoqlarga boy edi, bosh rollarni ijro etgan xalqimizning mashhur artistlari Shukur Burhonov, Olim Xo'jayev, Amin Turdiyev, Sayfiqori Olimov, Shohida Ma'zumovalar benihoya zo'r ko'tarinkilik bilan o'ynab, asarning joziba kuchini yanada oshirgan edilar.

225. "Ko'pdan beri uzun umrli, badiiy salmoqdor sahna asarlarini orzu qilar edik. Bu asar orzumizga javob berishga qodir". Fikrlar muallifi kim? Qaysi asar nazarda tutilgan?

Mazkur fikrlar buyuk yozuvchilarimiz Oybek va G'afur G'ulomlarga tegishli bo'lib, ular shoir va dramaturg Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasini nazarda tutishgan. Zero, ular yozganlaridek, "Jaloliddin timsolida muallif xalqni dushmanga qarshi kurashga safarbar eta olgan, ona-Vatan uchun o'z hayotini bag'ishlagan dovyurak, dono, mohir qo'mondon obraz siymosini yaratdi. Vatan o'g'lonlarining erk, mustaqillik, nomus va sharaf uchun boshlagan fidokorona kurashi dramatism bilan to'la, hayajonli kartinalarda gavdalanadi. Jaloliddin so'zi, harakati va butun siymosi bilan romantik ruhdagi bahodir, ayni zamonda haqiqiy odamiylik xislatlaridan bahramand... Tragediya davrimizga g'oyat hamohang"⁴⁶.

226. Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasi qachon o'zbek tilida bosib chiqarildi?

⁴⁶ **Ойбек, Ғ. Ғулом.** "Жалолиддин" драмаси ҳақида. – "Қизил Ўзбекистон" газетаси, 1946 йил, 8-феврал.

Dramaturg Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddi Manguberdi” dramasi dastlab Bokuda ozarbayjon tilida ikki jildlik saylanmasida bosib chiqariladi. Afsuski, shoir bu asarning chop etilganini ko’rmay olamdan o’tib ketadi. O’zbek tilida esa, hatto 70-yillarning boshida Shayxzodaning 60 yillik tavalludi munosabati bilan nashr etilgan 6 jildli asarlar to’plamiga ham bu asar kiritilmagan. Asar birinchi marta o’zbek tilida 1988-yilda Shayxzodaning “Boqiy dunyo“ degan kitobida bosib chiqarildi.

227. “Jaloliddin Manguberdi” dramasi nima haqida?

Shoir va dramaturg Maqsud Shayxzodaning besh pardali “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy-romantik dramasi Vatanimizning olis tarixiga bag’ishlangan bo’lib, undagi voqealar XIII asrning birinchi choragida – mo’g’ullar O’rta Osiyoga bostirib kirgan kezlarda bo’lib o’tadi.

228. ”Jaloliddin Manguberdi” dramasi qahramonlari kimlar?

“Jaloliddin Manguberdi” dramasi qahramonlari Sulton Muhammad Alovuddin Xorazmshoh, uning o’g’li Jaloliddin, Xorazmshohning kuyovi Samarqand hokimi amir Badriddin, Jaloliddinning singlisi Sultonbegim, tarixnavis olim Muhammad Nasaviy Xo’jand hokimi , iste’dodli sarkarda Temur Malik va boshqalardir.

229. ” Jaloliddin Manguberdi” asari qanday yakun topadi?

Jaloliddin 60 ming kishilik qo’shinga rahbarlik qilgan, Chingiz qo’shinlari bir necha marta zarbaga uchraydi, biroq lashkarboshilar o’rtasida hukm surgan nizolar va ichki kurashlar Jaloliddinning yengilishiga olib keladi.1221-yili Sind daryosi bo’yidagi jangda u yengiladi. U onasi, xotini va singlisi Sultonbegimning dushman qo’lida xor bo’lishini istamaydi, daryoga cho’ktirib yuboradi. O’zi to’rt ming askarini olib daryo orqali Eronga chekinadi (bu haqda muarrix Nasaviy aytib o’tgan). Nasaviyning xabar berishicha, Chingizxon Jaloliddinning tengsiz jasurligiga qoyil qolib, harbiy mahoratiga tan berib: “*Agar shunday o’g’lim bo’lganda, o’zimni dunyodagi eng baxtiyor otalardan hisoblardim*”, degan ekan.

230. Maqsud Shayxzoda fikricha, uch fazilat birlashsa, mushkullar oson yemirilib, dunyo obod, hayot farovon bo’ladi. Qaysi she’rida shu fikrlar ilgari surilgan?

Mashhur ijodkor Maqsud Shayxzoda fikricha, uch fazilat birlashsa, mushkullar oson yemirilib, dunyo obod, hayot farovon bo’ladi. Bu ush fazilat odamzodga ato etilgan *g’a yarat, mehnat va bilim* bo’lib, ularning zamirida olam yashnab ketadi. Shoir buni “ Uch do’st “ to’rtligida shunday yozadi:

G’ a y r a t : - Men to’xtamay jadal yurdim, der,

M e h n a t : - Ekkanimni barvaqt terdim, der.

B i l i m : - Mushkullarni tez yemirdim, der,

U ch d o’ s t ning kuchidan o’lka bahra yer.

231. Shayxzodaning qaysi asarini “o’ziga xos ijodiy jasorati“ deyish mumkin?

Maqsud Shayxzodaning o’zbek adabiyotiga qo’shgan yana bir ulkan hissasi “Mirzo Ulug’bek” tragediyasidir. Tragediya 1964 –yilda yozilgan. O’sha yili bu asar Hamza teatri sahnasida qo’yildi, keyinchalik kinofilm ham yaratildi .

“ Mirzo Ulug’bek “ tragediyasini Shayxzodaning o’ziga xos ijodiy jasorati deyish mumkin. Gap shundaki, 60-yillarning boshida tarixiy mavzularga qiziqish rasmiy tashkilotlar tomonidan rag’batlantirilmas edi. O’sha kezlarda ilmiy doiralarda Ulug’bekning jahon madaniyatiga katta hissa qo’shgan ulug’ olim ekani ma’lum edi, lekin o’zbek tilida bir-ikkita she’riy asarlardan tashqari yirikroq asar yaratilmagandi. Shayxzoda bu muhim mavzuga adabiyotda mohiyat e’tibori bilan birinchi bo’lib, murojaat etdi va o’zining tarixiy qahramonlariga munosib baquvvat asar yarata oldi.

232. “Mirzo Ulug’bek” dramasida Ulug’bekning qaysi yillardagi hayoti aks etgan?

Maqsud Shayxzoda asarga asos qilib Mirzo Ulug’bekning so’nggi ikki yillik hayoti va faoliyatini tanlab olgan.

“Mirzo Ulug’bek” bizni olis va notanish olamga – XV asr o’rtalaridagi azim Samarqand muhitiga olib kiradi. O’sha davr odamlarining hayoti, o’zaro aloqalari, dard-u alamlari, shodlik va quvonchlari ko’z o’ngimizda jonli manzaralarda qayta namoyon bo’ladi. Dramaturg bizni sulton saroyiga olib kiradi, gavjum bozorlarga boshlaydi, qashshoq qishloqlarga yetaklaydi, madrasalar hayoti bilan yanishtiradi.

233. “Mirzo Ulug’bek” tragediyasida Ulug’bekdan tashqari yana qanday tarixiy shaxslar berilgan?

“Mirzo Ulug’bek” tragediyasi adolatli podshoh va buyuk astronom olim Ulug’bek boshchiligidagi ilg’or ziyolilar, taraqqiyparvar kuchlar bilan yomon niyatli guruhlar o’rtasidagi keskin kurash asosiga qurilgan. Asarda bosh qahramon Mirzo Ulug’bekdan tashqari, Abdullatif, Gavharshodbegim, Xo’ja Ahror, Said Obid, Abbos, Ali Qushchi, Sakkokiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Qozi Miskin kabi tarixiy shaxslar obrazlari ham mahorat bilan yaratilgan.

234. “Mirzo Ulug’bek” asarida qanday to’qima obrazlar berilgan?

“Mirzo Ulug’bek” fojiasida tarixiy shaxslar siymosi jonli, hayotiy tarzda tasvirlangan. Shu bilan birga asarda Feruza, Piri Zindoniy, Bobo Kayfiy, Ota Murod, Ko’r Qalandar kabi bir qator to’qima obrazlar berilganki, ular asarga hayitilik baxsh etgan.

235. Shayxzoda “Mirzo Ulug’bek” dramasida Ulug’bekning qaysi jihatlariga alohida e’tibor bergan?

Dramaturg asarda Ulug’bek yashagan davrni, u hukmronlik qilgan saroy muhitini gavdalandirgan. Mirzo Ulug’bek oily hukmdor, buyuk olim sifatida ko’p narsalarni boshidan kechirgan. Adib Ulug’bekni bir tomondan, qattiqqo’l, butun Xurosonni o’z qo’lida saqlab qolish uchun har qanday chorani ko’rishga tayyor

hukmdor sifatida, ikkinchi tomondan, ilm-fanning jonkuyari, jahonshumul kashfiyotlar qilgan olim, fan ahlini jonidan ortiq ko'radigan (masalan, Ziji Ko'ragoniyning so'zboshisida shogirdi Ali Qushchini "farzandi arjumand" – aziz farzandim deb ataydi), biroq saroydagi fisq-fasod, ig'vo ishlar oldida ojiz bir inson qabilida tasvirlaydi. Shayxzoda birinchi navbatda Ulug'bekning mutafakkirlik va olimlik xislatlarini ochishga, falsafiy qarashlarini, inson va olam haqidagi o'ylarini yorqin ifodalashga intilgan.

236. Ulug'bekning davlatchilik faoliyati haqida nimalar bilasiz?

Ulug'bekning tarix oldidagi katta xizmati uning hukmdorlik faoliyatidan ko'ra ilm-fanni, ma'rifat va madaniyatni rivojlantirishidadir. Shu sabab shoir asarda uning ma'rifatparvarlik faoliyatiga ko'proq e'tibor qaratgan. Buni dramadagi Mirzo Ulug'bek so'zlaridan ham anglasa bo'ladi:

*Ma'rifatning dargohiga qo'ydim ixlosim,
Og'ir bo'ldi qismat menga ortgan vazifa.
Men, sultonlar o'rtasida bo'ldim donishmand,
Donishmandlar tepasida sulton sanaldim.
Ma'rifatni hukumatga qilib rahnamo,
Bu o'lkaning yerida ham yulduzlar yoqdim⁴⁷.*

Bundan ko'rinadiki, Ulug'bekning davlatchilik faoliyati ma'rifatchilik asosiga qurilgan.

237. Asarda Ulug'bek insonlarni qanday ezgu ishlarga chaqiradi?

Ulug'bek odamlarning olijanob, pok, yuksak bo'lishini, zulmat ichida ko'rday turtinib yashamay, hayot yo'llarini aql nuri bilan yoritib yashashlarini istaydi va odamlarni yulduzlar olamidani ibrat olishga chaqiradi:

*Ey odamzod, ibrat olgin yulduzlardan sen,
Xayrixohlik va balandlik xislatlarida.
Shaltoqlarda ag'anamagin, ko'taril, yuksal,
So'qir baxtdan ko'rar ko'zli baxtsizlik afzal.*

238. Shayxzoda Abdullatifning qaysi jihatiga alohida e'tibor beradi?

Shayxzoda Abdullatifning padarkushligiga alohida e'tibor berib, Ulug'bek fojiasining mohiyatini shundan iborat qilib qo'ymaydi. Ulug'bek fojiasi XY asr voqeligining mohiyatidan, feodal jamiyatning ob'ektiv taraqqiyot qonuniyatlaridan mantiqan kelib chiqadi.

239. Asarda Ulug'bek qaysi jihatlari bilan kitobxon ko'z o'ngida namoyon bo'ladi?

⁴⁷ Мақсуд Шайхзода. "Мирзо Улуғбек". Қаранг: 8-синф Адабиёт дarsligi, -Т.: 2014. 214-бет.

Ulug'bek teran mulohazali, bilimdon, ma'rifatli, insonparvar shaxs sifatida ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. U mutafakkir olim sifatida o'z zamonidan ancha ilgarilab ketgan.

240. Ulug'bek asar davomida kimlar bilan to'qnashadi?

“Mirzo Ulug'bek” fojiasining asosiy konflikti Ulug'bek –Abdullatif, Ulug'bek - Gavharshodbegim, Ulug'bek - Said Obid, Ulug'bek - Piri Zindoniy, Ulug'bek - Feruza o'rtasidagi to'qnashuvlarda namoyon bo'ladi.

241. Ulug'bek nimani barcha narsadan ustun qo'yadi?

Mirzo Ulug'bek ilmni hamma narsadan – behisob boylikdan ham, podsholik davri davronidan ham ustun qo'yadi. Shunga ko'ra u do'stlari va shogirdlariga nasihat qilib, deydi:

*Ilm inson ko'zin ochar, qulog'in ochar,
Fan miyaga idrok bilan yorug'ni sochar.
Fan miyaga kirgan joyda, biling, muhaqqaq,
Na shaytonga o'rin bordirva na folbinga...
Zamon o'tar, vahshat bitar, yomonlik ketar,
Ammo fanning shavkatiga cho'kmaydi g'ubor.*

Ulug'bek ilmning amaliy ahamiyatiga katta baho beradi. Ilm-ma'rifat orqali jaholatga barham berib, mamlakatda adolat o'rnatishni, xalq ahvolini yaxshilashni, yurtni obod etishni orzu qiladi. Biroq buyuk olim o'zining bu ezgu niyatiga yeta olmaydi.

242. Shayxzodaning “Mirzo Ulug'bek”tragediyasi qaysi usulda yozilgan?

“Mirzo Ulug'bek” tragediyasi chuqur mazmunli aforizmlarga, obrazli ifodalangan falsafiy fikrlarga boy. Asar oq she'r (qofiyasiz she'r)da yozilgan, ko'p sahnalar Shayxzodaga xos jo'shqinlik va harorat bilan bitilgan. Quyidagi misollar fikrimizni dalillaydi:

*Agar yurtning fuqarosi tunda uxlamay
Faryod etsa, demak, shohning vijdoni uxlar.
Elni boqib, cho'pon bo'lmoq uning xizmati,
Saltanatda lozim erur shunday bir usul:
Marg'ilonda tovuq yitsa, shoh bo'lsin mas'ul!
Sayid, biling, qizning o'zi xohishi bilan
Erga tegsa, bu hech qanday o'g'irlik emas.*

Tragediyada bosh qahramon tilidan berilgan bunday teran ma'noli hikmatli so'zlar va falsafiy-badiiy umumlashmalar Mirzo Ulug'bekka xos olijanob sifatni – uning dono insonva buyuk mutafakkir bo'lganini ochib berishga xizmat qilgan.

243. “Mirzo Ulug'bek”asarida qanday ruh sezilib turadi?

“Mirzo Ulug’bek” tragediyasi tili – boy, shirali, aniq va obrazli. Asardagi monolog va dialoglar katta mahorat bilan yozilgan. Tragediyada Shekspir ruhi yaqqol sezilib turadi, chunki bu asarni yozishga kirishdan avval “Hamlet” ni tarjima qilgan edi. Tarjima jarayonida u ulug’ ingliz dramaturgining dramatik mahorat sirlarini o’rgandi. Shekspirdan o’rganish “Mirzo Ulug’bek”ning sujet quri lishida ham, kompozitsiyasida ham seziladi. Ayni chog’da dramatismning kuchliligida ham, shaxslar fojiasini tub ildizlari bilan ochib berishda ham, obrazlar xarakterini butun ziddiyatlari ichki ruhiy kurashlari va insoniy jozibasi bilan tasvir lashda Shekspir saboqlarining ruhi sezilib turadi.

244. Amir Temur monologi qaysi asarda berilgan?

Mirzo Ulug’bek – Amir Temurning suyuqli nabirasi, ya’ni to’rtinchi o’g’li Shohrux Mirzoning farzandi, u bobosi Temurning barcha yurishlarida ishtirok etgan. “Mirzo Ulug’bek” fojiasida Ulug’bek Amir Temur maqbarasiga kiradi, qabrga engashib xayolga botadi. Sahnaning orqa pardasida soyalar qo’ynida Amir Temurning qomati paydo bo’ladi. Shu yerda uning quyidagi monologi berilgan:

*Yer yuzida buzilganga o’xshar intizom,
Avlodimdan sohibqiron chiqolgan kim bor?
Men to’ldirgan ummonlarning savlati qani?
Qani o’shal quturuvchi yoldor dengizlar?
Men oltmish yil ot belidan tushmadim, toki,
Ilalabad avlodlarim bo’lsin jahongir...*

Amir Temur yana davom etib, nabirasiga shunday deydi:

*...O’g’lim, sening irodangni yeb qo’ydi kitob.
Sipohiylik rasmlarin qilmayin pisand,
Yulduzlarning qo’shiniga bo’lding farmondor.
Osmoniy o’lkalarni olmoqchi bo’lib,
Yerdagi naqd diyoringni boy berding qo’ldan...*

Ko’rinadiki, Amir Temur qiynalib qoldirgan davlat parchalanib ketdi. Temuriyzodalar bobolari qoldirgan vaziyatlarga amal qilmadilar. Shuning uchun ham Temur ruhi bezovta ...

245. Piri Zindoniy kim bo’lgan?

Piri Zindoniy - tragediyada ozodlik uchun boshini dorga qo’ygan sarbadorlar farzandi, u adolatsevar shaxs sifatida tasvirlangan. Piri Zindoniyning asl ismi Hasan Ohangar bo’lgan.

246. “Mirzo Ulug’bek” tragediyasidagi Abdurazzoq Samarqandiy kim?

“Mirzo Ulug’bek” tragediyasida bosh qahramon Ulug’bek bilan doim birga bo’lgan hamfikir va taraqqiyparvar muarrix bu Abdurazzoq Samarqandiydir.

247. “... men shohlikni ma’rifatga qildim dastyor” degan so’zlar qaysi qahramonga tegishli?

Bu hikmatomuz so'zlar Mirzo Ulug'bek ("Mirzo Ulug'bek") obraziga tegishli. Bu haqda shunday deydi:

*Kim biladi, bo'lmasaydimshu zamonada
Bu davlatning boshida men, nelar bo'lardi!
Balki, diyor zulmatlarga cho'kib qulardi.
Ammo, biling, gapim xolis, Piri Zindoniy,
Faqat tojning mehri emas shu andishalar,
Men shohlikni ma'rifatga qildim dastyor.*

Mavzu: HAMID OLIMJON

248. Hamid Olimjon kim? Siz shoir haqida qanday ma'lumotlarni bilasiz?

Hamid Olimjon – o'zbek she'riyatining yorqin siymolaridan biri. Bor-yo'g'i o'ttiz besh yil yashagan Hamid Olimjon o'zining talay she'rlari, dostonlari, nasriy asarlari, dramalari, badiiy tarjimalari va adabiyotshunoslikka doir tadqiqotlari bilan hali uzoq vaqt mobaynida xalq xizmatida bo'ladi. Qanday adabiy-tarixiy davrlar kelmasin, qanday fikrlar shabadasi esmasin, asr adabiyotining eng iste'dodlilari orasida Hamid Olimjonning dilbar she'riyati ham yashashda davom etadi.

Hamid Olimjon lirikasi shoir qalbida ungan, mavj urgan va katta to'lqinga aylangan tuyg'ular shalolasidan iborat. Bu tuyg'ular shoir qalbining qaynoq va samimiy holatidan otilib chiqadi. Hamid Olimjonning muhabbatida ham, nafratida ham porloq alanga bor. U o'zbek she'riyatida Cho'lpondan keyin jnsonning ruhiy olamini nafis bo'yoqlarda ifodalashga uringan shoirlarning dastlabkilaridan biri. Hamid Olimjonning 1936-yildan keyingi ijodida lirik qahramonning ichki olami barcha go'zal jilvalari bilan aks eta boshladi.

O'zbekiston xalq shoiri Mirtemir shunday deydi: "*Hamid Olimjon nodir iste'dod egasi. Qonida, ko'z qorachig'ida, to'qson ikki tomirida tug'ma zukkolik, shoirona sajiya, bilgichlik ayon... chin ma'nosi bilan o'qimishli qalamkash edi*".

249. Qaysi shoir yoshligida bobosi pinjida o'tirib, mashhur xalq shoiri Fozil Yo'ldosh o'g'lining doston va termalarini tinglagan?-

Hamid Olimjon 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida tug'ilgan. To'rt yoshga yetar-yetmas otadan yetim qolgan Abdulhamid Azimbobo qo'lida tarbiya ko'rgan. Azimbobo xat-savodli kishilardan bo'lib, nevarasida ham o'qish-yozishga qiziqish uyg'otgan. Mashhur xalq shoiri Fozil Yo'ldosh o'g'li ahyon-ahyonda 242-tnuf sfra.....

250. *Men bir qaro kunda tug'ildim, Tug'ildim -u shu on bo'g'ildim.*

Misralar muallifi kim? She'r qanday munosabat bilan yozilgan?

Satrlar muallifi Hamid Olimjon. She'rning tug'ilishiga sabab bo'lgan voqea 1916-yilgi Jizzax qo'zg'olonining shafqatsiz ravishda bostirilishidir. Jazo otryadi tomonidan jazirama dashtga haydalgan ko'plab jizzaxliklar orasida yetti yashar Abdulhamid ham bor edi.

251. Hamid Olimjon qachon va qayerda, kimlar qo'lida tahsil ko'rdi?

Hamid Olimjon 1923-yili Jizzaxdagi to'liqsiz o'rta maktabni tugatib, Samarqanddagi o'zbek bilim yurtida o'qidi. S.Ayniy, A.Shakuriy, Hoji Muin, V. L.Vyatkin singari mashhur allomalardan saboq oldi. Tezda o'zining imkoniyatlarini yuzaga chiqarib, she'rlar yoza boshladi. 1928 –yili bitirib, O'zbekiston oliy pedagogika institutida o'qishni davom ettirdi.

252. Hamid Olimjonning ilk to'plami qachon va qanday nomda e'lon qilindi?

Hamid Olimjon talabalik chog'idayoq ko'plab she'rlar muallifi edi. 1928-1930-yillarda Samarqanddagi pedakademiyada (hozirgi Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti) Uyg'un, Oydin, Mirtemir, Jalol Ikromiy kabi ijodkorlar bilan o'qidi, ular bilan tanishdi. Bu adabiy muhit Hamid Olimjonning ijodiy takomilida katta rol o'ynadi. 1929 –yilda “Ko'klam “ nomli ilk she'rlar to'plami talabalik chog'larining mahsuli bo'lib, u adabiyotga iste'dodli bir shoirning kirib kelayotganidan dalolat edi.

253. Hamid Olimjon talabalik chog'ida qanday hioyalari to'plamini chop ettirdi?

Hamid Olimjon o'ta tirishqoq talaba sifatida darslarni puxta o'zlashtiradi, shiddat bilan ijod qilib, “ Tong shabadasi” (1931) hikoyalari to'plamini e'lon qiladi.

254. Hamid Olimjon yana qanday to'plamlarni yaratdi?

Hamid Olimjon “Olov sochlar”(1931),”Poyga” ,”O'lim yovga” (1932), ”Daryo kechasi” (1936), ”She'rlar”(1937), “Chirchiq bo'ylarida” (1937), ”O'lka”, ”Oygul bilan Baxtiyor”(1939) “ Baxt “ (1940) kabi to'plamlarni hamda qator tarjimalarni nashr qildiradi. Bu to'plamlarga kiritilgan she'riy asarlarning aksariyati shoir ijodida rang-barang voqelik tasviri tobora chuqurlashib, go'zallashib, obrazlilik va ta'sirchanlik kuchaya borganligidan dalolat beradi. 1939-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga mas'ul kotib etib tayinlanadi.

255. Mustaqillik yillarida shoir ijodi qanday baholandi?

2004-yilda Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov tomonidan Hamid Olimjon “ Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi. Shoir ijodi o'rta va oily maktablarning hamda akademik litseylarning o'quv dasturlaridan mustahkam o'rin egallagan. San'atkor asarlari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan. 2009-yilda shoir tavalludining 100 yilligi yurtimizda keng nishonlandi.

256. Hamid Olimjon ijodi bilan shug'ullangan qaysi adabiyotshunoslarni bilasiz?

Hamid Olimjon g'oyat qisqa umr ko'rdi. 35 yil yashagan shoirning XX asr o'zbek adabiyoti tarixida qolishi katta voqeadir. Ijodkorning o'n jildlik to'la asarlar to'plamidan joy olgan adabiy merosi she'riy asarlaridan tashqari, bir qancha nasr namunalari, ocherklar, dramalar, publitsistik va adabiy-tanqidiy maqolalar hamda

tarjimalardan iborat. Bu rang-barang meros orasida she'riyat alohida mavqega ega. Shoir she'riyati badiiy tasvir vositalariga boyligi bilan ham ahamiyatlidir.

Mashhur adabiyotshunoslardan Sarvar Azimov, Salohiddin Mamajonov, Umarali Normatov, Naim Karimov, Saydulla Mirzayev, Baxtiyor Nazarov va D. Quronovlarning yirik monografiyalari (ya'ni ilmiy tadqiqotlari), Hotam Umurovning uch jildlik asarida va boshqa ko'plab kitoblarda shoir ijodiyoti keng, atroflicha tahlil qilingan.

257. Hamid Olimjon Farg'ona vodiysiga bag'ishlab qanday she'rini yozgan?

Hamid Olimjon 1932 –yil bahorida Farg'onada bo'ladi. Farg'onaning go'zal tabiati, shirinso'z, tanti odamlari shoirni maftun qiladi. Shu munosabat bilan 1932-yilda “Baxtlar vodiysi” (Farg'ona she'rlaridan) she'rini yozgan. She'r misralariga e'tibor beraylik:

*Ey Farg'ona!
Mushkul kunlar bolasini
tishida tishlab,
Yuvib,
Tarab,
Sevib,
o'pib,
quchib,
opichlab,
Ey, baxtlarni balog'atga yetkazgan oma!
Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k...⁴⁸*

She'rda ko'klam obrazi mahorat bilan chizilgan. She'rda “Ulug' yo'lda toliqmasdan tez ketayotgan baxmal qirlar, keng bo'shliqlar, paxtazor yerlar”gina emas, balki butun Farg'ona vodiysi, butun sho'rolar mamlakati ko'm-ko'k bo'lib ko'rinadi:

*Barcha yaproqlari
birday ko'kargan.
Novdalari jonli
bu noyob bahor,
Qarashlari nurga to'lgan
bu ulug' vodiy
ko'm-ko'k!..*

30-yillar Hamid Olimjon singari shoirlar orzu qilgan va yonib tasvirlagan yangi jamiyat yetmish yil ichida kamol topish, fuqarolarining haq-huquqlarini ta'minlash, ular uchun farovonlik va moddiy to'kinlik bunyod etish o'rniga asta-

⁴⁸ **Ҳамид Олимжон.** Ўрик гуллаганда. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1990. 34-бет.

sekin ichdan zil keta boshladi. Millionlab kishilar quvg'inga uchradi, Sibirning abadiy muzliklarida qolib ketdi. Ammo bunday dahshatli voqealarga qaramasdan, Hamid Olimjon singari shoirlarning sotsialistik ideal nuqtai nazaridan hayotni aks ettirganliklarini to'la qoralab bo'lmaydi. Ular, birinchidan, partiya olib borgan siyosat natijasida mamlakat sotsialistik taraqqiyotning yangi bosqichiga erishuviga astoydil ishongan edilar. Ikkinchidan, bunday ishonch uchun ozmi-ko'pmi asos ham bor edi. Ana shunday asoslardan biri sotsialistik o'zgarishning dastlabki ijobiy samaralari bo'lsa, ikkinchi va eng muhimi, "*ulug' ishlar*"ga shaylangan "*yangi inson*"ning tug'ilishi edi⁴⁹.

Hamid Olimjon "Baxtlar vodiysi"da ana shu insonni katta e'tibor bilan kuzatadi. "*Tong pallasi havas bilan dalaga oqqan, ... ketmonlari kun tig'ida yarqirab boqqan, g'o'zalari o'sib, gullab, ko'saklar taqqan*" shu inson yangi hayot kurtaklarining gullab-yashnashiga garovdek edi. Shuning uchun ham shoir bu va boshqa asarlarida shu "*yangi qahramon*"ning tug'ilishini mehr bilan kuzatadi va tasvirlaydi. She'r badiiy tasvir vositalariga boy, o'quvchining estetik zavqini oshiradi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, "Baxtlar vodiysi" she'ri erkin vaznda yozilgan.

258. "Kuychining xayoli" she'ri muallifi kim? Kimga bag'ishlangan?

"Kuychining xayoli" she'ri Hamid Olimjon tomonidan yozilgan bo'lib, unda xalq baxshisi Fozil Yo'ldosh o'g'lining badiiy olami aks ettirilgan. Xalq og'zaki ijodiga bolalik yillaridan mehr qo'ygan shoir 30-yillarning o'rtalarida Fozil Yo'ldosh o'g'li singari baxshilarni qayta qashf etib, ularning "Alpomish" singari qahramonlik dostonlarini nashr etishda qatnashadi. "Kuychining xayoli" she'rida shoir ana shu rang-barang qahramonlarga, bir-biridan maroqli voqealarga boy olamni gavdalantirib bergan. Baxshi aytgan doston va termalarda xalq ma'naviy hayoti, tarixi, udumlari, orzu va intilishlari aks etganini; bu asarlar kitobxonga, xalqqa ruhiy oziq va madad berishini alohida ta'kidlab ko'rsatgan:

*Kuy ko'pdir, qo'shiqlar millioncha jonni
Qozg'ata oladi, muhtaram padar!*

Ana shu kuychining jamiyatdagi, xalq ma'naviy hayotidagi o'rni ushbu she'rda baxshiyona ohang va ranglarda ishonarli qilib ochib berilgan.

259. Hamid Olimjonning "Sevgi" she'rida qanday g'oyalar ilgari surilgan?

Xalq og'zaki ijodida mahubaning jang maydonlarida kurashayotgan yor ortidan borishi tasvirlangan asarlar Hamid Olimjon ijodida ko'plab uchraydi. Shoir tomonidan yozilgan "Sevgi" she'rida ana shu an'anaviy sujetdan foydalanilgan. Ammo bu she'rdagi oshiq va ma'shuqa obrazlari Vatan urushi maydonlarida harakat etishi bilan real kishilarga aylanadilar. She'rda urush davri haqiqatining badiiy tajassum topishiga imkoniyat yaratadi. Shoir davr talabi bilan muhabbat

⁴⁹ Фикрлар муаллифи Н. Каримов. Бу ҳақда қаранг: Н. Каримов. Ҳамид Олимжон. – Т.: 1979. 118-бет.

tuyg'ulari va ishqiy kechinmalar tasvirini ham jang maydoniga ko'chiradi. She'rdagi tasvirlangan qiz jangchi yori ortidan frontga yo'l oladi. *“Menga ne kerakdir bu yolg'iz qolish? Sensiz ololmasman also men nafas”*, deydi u va bosh olib, jang maydoniga ketadi:

*Balki uchrashmasmiz biz endi mangu,
Bo'samiz ham qolar balki sargardon.
Lekin sevishganlar qaytmas o'limdan,
Lekin mangu qolar ikki tomchi qon.*

Ikki sevishganlar Vatan ozodligi va mustaqilligi yo'lida halok bo'lishlari mumkinligini sezadilar. Lekin bu fojiali yakun ham ularni mardlik va jasorat yo'lidan qaytarmaydi:

*Bug'doy boshog'iday ko'kka intilib,
Men shunda tuproqdan ko'tararman bosh.
Sening qonlaringdan o'sar qizil gul,
Yoqutga aylana soylardagi tosh.
Dunyoni yoritar bizning sevgimiz.
Ikkimiz hech o'lmasmiz also...*

Hamid Olimjonning baxt sururidan mast bo'lgan lirik qahramoni mustaqillik uchun kurashda o'z baxtini ham, sevgisini ham qurbon qilishga tayyor. Zero, uning uchun shaxsiy farog'atdan ko'ra xalq va yurtning taqdiri, istiqloli muhimdir. Uning butun she'riy ijodida olg'a surilgan g'oyalar shu nuqtaga kelib, o'zaro tutashadi.

260. Hamid Olimjonning tarjimonlik faoliyati haqida nimalar bilasiz?

Hamid Olimjon shoir, nosir, dramaturg hamda adabiyotshunos olim bo'libgina qolmasdan, balki mohir tarjimon hamdir. Shoir A.S. Pushkinning “Suv parisi”, “Kavkaz asiri”, N. A. Ostrovskiyning “Po'lat qanday toblandi” kabi asarlarini yuksak mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qilgan.

261. Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” ertagi qaysi ertakni eslatadi?

Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” ertagi o'zbek xalq ertaklaridan “Malikai Husnobod” ni esga soladi, uning ozodlik, baxt va muhabbat haqidagi ideali bilan mujassamlashgandek. Ammo teranroq nazar tashlansa, u Hamid Olimjon Oygul bilan Baxtiyorning sevgi va baxti tarixini emas, balki “*Jambil degan tomonda, Juda qadim zamonda*” zolim xonga qarshi ko'tarilgan isyonga, Darxon boshliq isyonchilarning qatl etilganiga va uning qizi Oygul bilan Baxtiyorning bu zolim xondan o'ch olib, uning o'rniga Jambilga Tarlonni boshliq qilib ko'targaniga e'tiborni qaratadi. Ya'ni dostonida tasvirlangan voqea yo'qsillarning 1917-yil inqilobiga hamohanggina emas, balki aslida uning majoziy – ertaknamo tasviri hamdir.

262. "Bahor keldi seni so'roqlab" she'ri kimniki, nima munosabat bilan yozilgan?

"Bahor keldi seni so'roqlab" Zulfiya tomonidan Hamid Olimjonga bag'ishlab 1945-yilda yozilgan she'rdir. Shoira qayg'uli, iztirobli va hatto fojiali voqealar haqida ham kishini qiyinchiliklarni yengishga chorlovchi hayotbaxsh asarlar yarata oldi. Bu xususiyat ijodkorning yuqoridagi she'ridan tashqari "Kechir, qoldim g'aflatda", "Hijron kunlarida", "Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh", "Sen qaydasan, yuragim", "Ne baloga etding muftalo", "Yulduz" kabi she'rlarida ochiq ko'rinadi. Zulfiyaning "Bahor keldi seni so'roqlab" she'rida hayot va o'lim, muhabbat va hijron, sevgiga sodiqlik hamda bevaqt ayriliq haqida teran poetik fikr yuritilgan:

*Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...*

*Qancha sevar eding, bag'rim bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.
Har uyg'ongan kurtak hayot bergan kabi
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.*

Zulfiya xayolan Hamid Olimjon bilan suhbat quradi. Bahor va baxt haqida to'liqlanib gapiradi. Shoir bahor maftuni bo'lgan. She'r davomida bahor shoirni qidirayпти, lekin hech qayerdan topolmayпти. Hulkar va Omonlarni ham ko'rdi, lekin bahorning oshig'i xayolchan yigit yo'q. Shoiraga bu holat Hamid Olimjonni eslatib yubordi. Sevgan yoridan bevaqt ayrilib, uning dard-u firoqida yongan, ich-ichidan ezilib, qanchadan-qancha qayg'u va musibatli damlarni o'z boshidan kechirgan Zulfiya, ya'ni lirik qahramon she'r so'ngida shunday yozadi:

*Bahorga burkangan sen sevgan elda,
Ovozing yangradi jo'shqin, zabardast.
O'lmagan ekansan, jonim, sen hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.*

*Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam.
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!*

263. Hamid Olimjonning "Semurg' yoki Parizod va Bunyod" ertagi qachon yozilgan va uning "Oygul bilan Baxtiyor" ertagidan farqli jihatlari nimada ko'rinadi?

Hamid Olimjon tomonidan 1939-yilda yozilgan bu dostonida ilon, semurg', dev kabi afsonaviy obrazlar ham harakat qiladi. Lekin xalq ertaklarida xonzodalar

turli iqlimlardan kelgan oshiqalar oldiga o'z shartlarini qo'ysalar va g'olibga turmushga chiqsalar, bu dostonda Parizod g'olib cho'pon Bunyodga tegmaydi:

*Qancha botir bo'lsang ham,
Zo'r bahodir bo'lsang ham,
To'shaging xas, deb bildim,
Aslingni past, deb bildim...*

264. Hamid Olimjonning qaysi asari qahramonning laqabi bilan nomlangan?

Hamid Olimjonning “Muqanna” dramasi urush yillari davrida, ya'ni 1942-yilda yozilgan. Muqanna “niqobli kishi” demakdir. Asar bosh qahramoni Muqanna uning asl ismi Hoshim ibn Hakim bo'lib, “niqobli kishi” uning laqabidir.

265. Muqanna asli kim bo'lgan?

Muqanna marvlik bo'lib, Abo Muslim huzurida otasi singari sarhang lavozimida xizmat qilgan. Narshaxiyning aytishicha, u keng bilimli, turli fanlar va “sirli san'atlar “dan xabardor kishi bo'lgan. U o'z atrofiga xalq ommasini to'plash va uning muhabbatini qozonish niyatida har xil da'volar qilgan.

Tarixiy manbalar Muqannaning yuzida doimo niqob bo'lganligi haqida ma'lumot beradi. Uning yuzini birortakishining ko'rganligi haqida hech bir so'z yo'q. Shu dalilning o'ziyoq Hamid Olimjonning asarni romantic fojia tarzida yozgani bejiz emas. Uning romantic tasvir uslubi esa asarda tasvirlangan barcha voqealarga o'zgacha bir ruh, o'zgacha bir nafosat bag'ishlagan.

266. Hamid Olimjon “Muqanna” asarini yozishda kimning ta'siri bo'lgan?

Taniqli adabiyotshunos Sarvar Azimovning guvohlik berishicha, H.Olimjon pedakademiyada tahsil ko'rgan davridayoq mashhur yozuvchi Sadriddin Ayniydan ta'sirlangan. Shoir Muqanna qo'zg'oloni bilan qiziqib, o'zbek xalqi tarixining bu qahramonona sahifasini qunt bilan o'rgangan. 1937-yili esa Muqanna harakatiga bag'ishlanhan dramatik asar yozishga kirishib, hatto uning birinchi pardasini yozib tugatgan. Lekin hali adabiy tajribaning yetishmasligi sababli Hamid Olimjon o'zining bu ijodiy niyatini oxiriga yetkazolmagan.

267. “Muqanna” asari qachon yozib tugatilgan?

Hamid Olimjon “Muqanna” nomli sahna asarini 1937-yilda yozishga kirishgan va asarning birinchi pardasini yozib tugatgan. Orada bu asarni ma'lum sabablarga ko'ra yozmagan. Besh yil o'tgach, shoir muayyan ijodiy tajriba va malaka hosil qilgach, yana Muqanna mavzuiga qaytadi. 1941-yilning boshlarida Hamid Olimjon asarni yozishga qayta kirishib, 12-fevraldayoq uning birinchi pardasini tugatdi. So'ng qariyb bir yillik tanaffusdan keyin, 1942-yil 31-mayda asarni to'la yozib tugatgan.

268. Hamid Olimjonning “Muqanna” asaridagi Feruzning qullari kimlar edi?

Milliy ozodlik uchun kurash mavzuiga bag'ishlangan Hamid Olimjonning "Muqanna" dramasi sevgi masalalari keyingi o'rinda turadi. Shoir Muqanna qo'zg'olonining kelib chiqishi, avj olishi va mag'lubiyatga uchrashi sabablarini ko'rsatish uchun qahramonlar silsilasini to'g'ri tanlay bilgan. Bu qahramonlar orasida arab lashkarboshilari ham, xo'jalar va ularning qullari ham, dehqonlar ham bor. Ana shu rang-barang qahramonlar qatorida Feruzning qullari – Otash, xotini Gulobod, qizi Guloyin alohida mavqega ega. Bu kichik oila xalq vakillari sifatida tasvirlangan. Asar davomida Muqanna va Guloyin o'rtasida muhabbat paydo bo'ladi.

269. Guloyin obrazi qaysi asarda uchraydi?

Guloyin obrazi Hamid Olimjonning "Muqanna" dramasi uchraydi. Guloyin xalqni hurriyat sari yetaklayotgan rahnamo bo'lganligi uchun ham Muqannani yurakdan sevadi. Guloyin Muqanna tarafdorlari safidan o'rin olar ekan, o'zi ham To'maris va Shiroq singari otashqalb jangchiga aylanadi. Shu tarzda, sevgi munosabatlari asardan qonuniy o'rinni egallab, Muqannaning kuchiga kuch qo'shadi.

270. Hamid Olimjonning "Muqanna" dramasi qanday asosda qurilgan?

Asar konflikti hayotiy haqiqatga mos. Konflikt Muqanna, Otash, Gulobod, Guloyin, G'irdak kabi mahalliy xalq vakillari bilan arab qo'shini qo'mondoni Saidbattolarab ruhoniysi Jaloyir, qul xo'jasi Feruz singari shaxslar o'rtasidagi hayot-mamot kurashi asosiga qurilgan.

271. "Muqanna" mazmun darajasiga ko'ra qaysi asarlarga yaqin turadi?

Shoir va dramaturg Hamid Olimjonning she'riy yo'l bilan yozilgan "Muqanna" dramasi mazmun teranligi va badiiy shaklining mukammalligiga ko'ra V. Shekspirning "Otello" va "Gamlet", Uyg'un va Izzat Sultonlarning "Alisher Navoiy" kabi mashhur sahna asarlariga yaqin turadi.

Asar yaratilgan va sahnalashtirilgan paytda nemis bosqinchilari sovetlar mamlakatiga bostirib kirib, tarix hali ko'rmagan xunrezliklarni qilayotgan edilar. Shuning uchun ham asarning zo'ravonlikka, vahshiylikka, bosqinchilikka qarshi qaratilgan ruhi Muqannaning: "*Qarang, vatan kul bo'lib sovurilmoqda, Ota-ona otashda qovurilmoqda... Kimlar o'lim oldida qaltiraydi? Kimlar yovuz yovdan omon so'raydi?..*" qabilidagi o'tli so'zlari xalqda yangi g'azab va nafrat o'chini uyg'otuvchi qudratga ega bo'lgan.

272. Guloyinni keng dunyoni ko'rishga imkon bergan, ozodlik uchun kurashga chorlagan qahramon kim edi?

Guloyin asar boshlarida ham aniq dunyoqarashga ega qiz edi. U otasi bilan bo'lgan suhbatda bunday so'zlarni aytadi:

*...Shuncha yillar otashgohga topindim
Va bilmadim: ilohim kim, tangrim kim.*

*Qayg'usi yo'q biror kunni ko'rmadim,
Biror soat men baxtiyor bo'lmadim...
Ixtiyorni bersang agar menga sen,
Ozodlikka topinardim yolg'iz men.*

Ana shu Guloyin Battol qilichidan yaralanib, halok bo'lar ekan, Muqannaga shunday deydi:

*Ko'zim ochding, men dunyoni keng ko'rdim,
O'zimni ham odamlarga teng ko'rdim.
Sening bilan birga yozdim qanot ham,
Ko'zlarimga go'zal bo'ldi hayot ham.
Bir necha kun havas bilan yashadim,
Hatto erkin nafas bilan yashadim.*

Faqat ozodlikka topinishni istagan Guloyin Muqanna tufayli milliy-ozodlik harakatiga qo'shilib, qo'lga qilich olgach, hayot uning ko'zlariga go'zal bo'lib ko'rinadi; shu ma'noda Muqanna uning ko'zini ochib, keng dunyoni ko'rishiga imkon beradi. Muhabbat mavzusi asar to'qimasiga shu tarzda uzviy kirib borib, qahramonlarning kurashi va intilishlarini go'zallashtiradi.

273. Hamid Olimjonning “Muqanna” asari qanday ruhda tugaydi?

“Muqanna” dramasi Muqanna va uning lashkari so'nggi nafasiga qadar vatan ozodligi uchun kurashadi. U ona tuproqni dushmandan ozod qilgandan keyin ham yuzidagi niqobni olish haqidagi va'dasini bajarolmaydi. Jangda mag'lubiyatga uchragan yo'lbo'shchi gulxan yoqdirib, ota-bobolar yotgan tuproqqa aylanishi oldida haqli ravishda deydi:

*Xalqqa ayting, men also o'lganim yo'q,
Yov qo'liga taslim ham bo'lganim yo'q.
Men elimning yuragida yashayman,
Erk deganning tilagida yashayman.*

Sho'ro davrida yaratilgan fojialarning bunday tantanavor ohangda tugashi ma'nodan xoli emas. Har bir yirik asarbu davrda ayni paytda tarbiya quroli ham edi. Hamid Olimjon “Muqanna” fojiasi bilan sho'ro tuzumi va mamlakatini dushman changalidan himoya etishga katta hissa qo'shdi. Lekin bugun bu asar zamiridagi milliy mustaqillik uchun kurash g'oyasi, ona-Vatanni sevish va ardoqlashga qaratilgan ruh biz uchun juda ham muhimdir.

274. Hamid Olimjonning “Roksananing ko'z yoshlari” nomli asari qaysi janrda yozilgan?

Hamid Olimjon “Roksananing ko'z yoshlari” she'rini urush yillarida ballada janrida yozgan. Voqea Farg'ona vodiysiga qarashli o'zbek urf-odatlarini yaxshi saqlangan Shahrixon tumanida bo'lib o'tadi.

Hamid Olimjon urush tufayli o'zbek tuprog'idan makon topgan Roksana fojiasini tarixiy davr manzaralari negizida tasvirlaydi. Begona yurtga, begona kishilar va begona urf-odatlar muhitiga kelib qolgan Roksananing boshiga katta musibat tushadi. Agar yakka-yuyolg'iz go'dagi Vovaning o'limi Roksananani ruhan majruh etsa, uning jasadini qayerga qo'yish masalasi baxtsiz onaga yangi iztiroblar keltiradi. Ijodkor ana shunday fojiali vaziyatda qolgan Roksananing o'zbek yurtida mehr-shafqatsiz, muruvvatsiz qolishi mumkin emasligini ko'rsatadi. Agar Roksananani o'z panohiga olgan Sora butun mahallani oyoqqa turg'azib, uni izlasa va unga hamdard bo'lsa, qabristondagi choluning musibatiga teng sherik bo'ladi. U jasadni qo'lga olar ekan, "*Bilsang, mening ham o'g'lim Qoldi sening yeringda. Bor mening ham bir qabrim Sening sevgan elingda*", deydi. Uning bu so'zlarida katta ma'no bor: davr turli millat, turli tuproq va turli iymon-e'tiqodga mansub kishilar qalbini ham, qabrini ham birlashtirib yuborgan edi. Shoir ana shu tarixiy haqiqatga suyanib, asarda xalqlar do'stligi g'oyasini barilla kuylagan.

275. "Men o'zbek xalqi nomidan so'zlayman" asari qachon va qanday maqsadda yozilgan? Qaysi asarida aytgan?

Hamid Olimjonning "Men o'zbek xalqi nomidan so'zlayman" nomli asari 1943 – yilda yozilgan. Adib mazkur publitsistik asarida fashizmni keskin fosh etib, o'zining Vatan haqidagi yurak so'zlarini zo'r hayajon bilan ifodalagan. Jumladan, shoir shunday degan: "*Mening xalqim birlik va ittifoqni, hamjihatlikni yaxshi ko'radi. Tirik ekan bir-birini qo'llab-quvvatlaydi...Mening xalqim do'stlik va birodarlikning qadrini juda yaxshi biladi...*"

276. Hamid Olimjon urush yillari qanday to'plamlarni chop ettirdi?

Hamid Olimjon ikkinchi jahon urushi davrida samarali ijod qildi. Shoir jangovar davr talablariga hozirjavoblik ko'rsatib, bosqinchi yovga qarshi kurashga birinchilardan bo'lib otlandi. Shoir urush yillarida "Ona va o'g'il"(1942), "Qo'lingga qurol ol" (1942), "Ishonch" (1943) kabi qator she'riy to'plamlarini yaratdi. Bu to'plamlardan joy olgan she'rlarining aksariyati harbiy vatanparvarlik lirikasining ajoyib namunasi hisoblanadi. Ularda g'alabaga ishonch tuyg'ulari kurashga chaqiriq g'oyalari bilan uzviy birlikda namoyon bo'lgan...

277. Hamid Olimjonning "Jangchi Tursun" asari qaysi janrda yozilgan va nima haqda?

Hamid Olimjonning "Jangchi Tursun" she'ri ballada janrida yozilgan. She'rda jangchi Tursun va ona obrazi yaratilgan. Jangdagi mag'lubiyatlardan sarosimaga tushgan Tursun qochmoqchi bo'ladi. Tursun hujum oldidan qochish yo'llarini o'ylar ekan, onasidan xat oladi. Xatda ona o'z farzandidan mardlik ko'rsatishini, botirlarcha jang qilishni talab qiladi:

*Xalqing uchun to'kkali
Yo'qmi bir qoshiq qoning?
Vataning tuprog'idan
Shirin ekanmi joning?..*

Onaning xati Tursunga qattiq ta'sir qiladi. Natijada u dushmanga qarshi qahramonona jang qilib, ona ishonchini oqlaydi.

To'g'ri, balladada ona obrazi hayotdagi odamdan ko'ra shiorga o'xshab qolgan. Chunki onaning o'z bolasiga “*Qochib tirik qolgandan O'lganing yaxshi menga*”, – deyishi hayotiy reallik nuqtai nazaridan also mumkin emas. Lekin shoir yaratgan badiiy reallik o'quvchining shunga ishontiradi, uni onaga qiyoslaydi.

278. Hamid Olimjonga yoshligidan hamroh bo'lgan janr qaysi edi?

Hamid Olimjonga folklor (xalq og'zaki ijodi) yoshligidan hamroh bo'lgan. Bobosi mulla Azim va onasi Komila bibi aytgan ertak va matallarni jon qulog'i bilan tinglagan. Shoir 30-yillarning ikkinchi yarmida xalq baxshisi Fozil Yo'ldosh o'g'li og'zidan yozib olingan “Alpomish” dostonini nashrga tayyorlagan...

279. “Bizning yozuychilarimizga folklorni bilish zarur. O'zbek adabiyotini yuksaltirish, uning tilini chin xalq tili qilish, sodda va chuqur qilish, umuman aytganda, o'zbek yangi adabiyotini chin ma'noda xalqchil qilish uchun folklorning ahamiyati buyuk bo'lur”, - deb yozgan sah'atkor kim?

1936-yili Hamid Olimjon Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olgan “Alpomish” dostonini nashrga tayyorladi. Bu voqea shoir ijodiga barakali ta'sir ko'rsatdi. Hamid Olimjon ijodida boshlangan o'zgarish belgisi sifatida “Kuychining xayoli” she'ri maydonga keldi.

Bu she'r Fozil Yo'ldosh o'g'luga bag'ishlangan. Shu bahona shoir xalq og'zaki ijodiga murojaat qildi, o'zi ham xalqona ruhda ko'plab she'r hamda “Oygul bilan Baxtiyor” (1937), “Semurg' yoki Parizod va Bunyod” (1939) kabi ertak-dostonlarni yozgan.

280. Hamid Olimjonning aniq hayotiy voqealar asosida yozgan dostoni qanday nomlangan?

O'zbekiston 30-yillarda 1 million tonna “oq oltin” xirmoni yaratadi. Davlat ko'plab paxtakorlarni yuksak mukofotlar bilan taqdirlaydi. Bular orasida Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi brigadir Zaynab Omonova ham bor edi.

Hamid Olimjon aniq hayotiy voqealar asosida 1936-yilda “Zaynab” nomli ocherk yozadi. Ocherk qahramoni Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi jamoa xo'jalik a'zolaridan biri Zaynab Omonovadir. Ocherk shoirga tinchlik bermaydi. Bundan ilhomlangan Hamid Olimjon 1938-yilda “Zaynab va Omon” dostonini yaratadi. Ijodkor nazarida mehnat maydonida dongdor paxtakor sifatida tug'ilgan Zaynab va uning shu maydonda topib tekkani Omon yangicha insoniy munosabat larning jonli timsoli, “yangi davr”ning “yangi kishilari” edi:

*So'ylab beray Zaynab va Omon
Sevgisidan bir yangi doston.
Bir zo'r otash, bir zo'r alanga*

*Ikki qalbga tutashgani rost.
Bir sevgikim, jon berur tanga,
Ham Zaynab-u Omonlarga xos.*

281. Hamid Olimjonning ”Zaynab va Omon” dostonida qanday voqealar tasvirlangan?

“Zaynab va Omon” dostonida yangi inson, erkin sevgi, yangi urf-odat muammosi ko’tarilgan va mahorat bilan tasvirlanib, hal etilgan. Asarda yangi zamon nafasi ona diyorga mehr-muhabbat tuyg’usi bilan birgalikda ifodalanadi:

*Zaynab o’sgan elning misli yo’q,
Zaynab o’sgan el baxtga to’liq.
Yuragida hech armon qolmas,
Bunga jannat tenglasha olmas*

282. Kim Hamid Olimjonni “Shodlik va baxt kuychisi” deb atagan?

XX asrda Cho’lpon va Fitrat tufayli tug’ilgan yangi o’zbek she’riyatining kamol topishi, lirik janrlarning rivojlanishi, lirik qahramon inja tuyg’ularining badiiy mujassamlanishida Hamid Olimjonning ham munosib o’rni bor. U tabiatan lirik shoir, nozik hissiyot va kechinmalar musavviridir. Shoir ijodida baxt, quvonch va shodlik, Vatanga muhabbat hissi to’lib-toshib kuylanadi. Shining uchun ham xalqimizning sevimli shoiri Uyg’un Hamid Olimjonni *shodlik va baxt kuychisi* deb aytgan. Shoir o’zi ko’plab she’rlarida bu fikrlarni aytib o’tgan. Jumladan, “Baxt to’g’risida” she’rida shunday yozadi:

*Baxt topilmas hech bir zamonda,
El qul bo’lsa, bo’lsa yalang’och.
Jannatlarni yaratgan odam
Natijada o’zi qolsa och.
Quvonch shulkim, tole yor bo’lib
Baxtni topgan elni ko’roldim.
Asrlarning qayg’usin qarg’ab,
Shodlik va baxt kuyini chaldim⁵⁰.*

“Daryo tiniq, osmon beg’ubor” she’rida o’zining baxtiyor ekanligiga ishongan lirik qahramon kechinmalari quyidagicha tasvirlanadi:

*Baxtim borki, har narsa go’zal
Ko’rinadi mening ko’zimga.*

283. Akademik Oybek shoir Hamid Olimjonni qanday ta’riflagan?

⁵⁰ Хамид Олимжон. Ўрик гуллаганда. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1990. 52-бет.

Ona Vatanni, ona tuproqni ardoqlash hamma davrlar adabiyoti uchun mushtarak hodisa. Hamid Olimjon ham bu mavzuga qayta-qayta murojaat etib, sho'rolar vatanining jahondagi eng baxtli kishilarning makoni sifatidagi obrazini yaratishga urindi. Uning tasviridagi vatan – kishilikning muqaddas beshigi. Shoir yaratgan lirik qahramon shu beshikda ulg'aygani bilan faxrlanadi. Shu beshik unga hayotgina emas, baxt-saodat ham berganiga ishonadi. "O'lka" she'rida shunday yozadi:

*Men dunyoga kelgan kudanoq
Vatanim deb seni, uyg'ondim.
Odam baxti birgina senda
Bo'luriga mukammal qondim.*

Shoir ijodida vatanparvarlik va xalqparvarlik ruhi bilan sug'orilgan she'rlar juda ko'p. Akademik yozuvchimiz Oybek bejizga Hamid Olimjonni "Otashin vatanparvar va talantli shoir" deb aytmaganiga guvoh bo'lamiz.

284. Hamid Olimjonning "Gamlet" (V. Shekspir) fojiasi ta'sirida yozilgan she'ri qanday nomlangan?

Hamid Olimjon "Gamlet" (V. Shekspir) fojiasi ta'sirida "Ofeliyaning o'limi" nomli she'rini yozgan. Bu she'rda pok sevgi, samimiy insoniy muhabbat madh etiladi. Uni beg'ubor sevgi yo'lida qurbon bo'lgan yosh yuraklarga qo'yilgan she'riy haykal desa bo'ladi.

285. Hamid Olimjonning qaysi she'rini peyzaj lirikasining yorqin namunasi deyish mumkin?

Hamid Olimjonning "O'zbekiston" she'rini peyzaj lirikasining eng yorqin namunasi deyish mumkin. Shoir she'riyatida jonajon O'zbekiston va o'zbek xalqi obrazi butun bo'yi basti va tarovati bilan yorqin namoyon bo'ldi. "O'zbekiston" she'rida aniq detallar, rang-barang tasvir vositalari yordamida nurli yurtimizning yaxlit poetik obrazini yaratib, asar g'oyasini she'rning qat-qatiga singdirib yubordi, unda tabiat manzarasi kitobxon ko'z o'ngida to'laligicha namoyon bo'ladi:

*O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston,
Dostonlarda bitgan guliston.
O'zbekiston deya atalur,
Uni sevib ei tilga olur.
Chiroylidir go'yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin.
Qorli tog'lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qosjida.
Chor atrofga yoyganda gilam,
Aslo yo'qdir bundayin ko'klam...
Bu shundayin ajib diyordir.*

286. Hamid Olimjonning olimlik faoliyati haqida nimalar bilasiz?

Hamid Olimjon badiiy asarlar yozish bilan bir qatorda ilmiy tadqiqot ishlarini ham olib bordi. Hamid Olimjon sinchkov tadqiqotchi va iste'dodli olim sifatida "O'qish va o'rganish qiyinchiliklari", "Yozuvchining saviyasini ko'taraylik", "Adabiyot va xalq", "O'zbek xalqining adabiyoti" singari maqolalarida yangi adabiyotimizning nazariy va amaliy masalalarini chuqur va atroflicha o'rganadi.

Bundan tashqari, Hamid Olimjon o'zbek mumtoz adabiyotini va xalq og'zaki ijodini tadqiq etishga ham alohida e'tibor beradi. "O'zbek xalqining ulug' shoiri Navoiy", "Navoiy va zamonamiz", "Mardlik, muhabbat va do'stlik dostoni", "Farhod va Shirin haqida", "Muhammad Amin Muqimiy", "Jambul va xalq" kabi jiddiy maqolalar yozgan. Bu maqolalarda Mumtoz adabiyot va xalq og'zaki ijodining bebaho boyliklari tahlil etilib, milliy qadriyatlarimizning o'ziga xos xususiyatlari va ibratli tomonlari adolatli ravishda ochib berilgan.

Mavzu: MIRTEMIR

287. Mirtemir kim? Siz alloma haqida nimalar bilasiz?

Mirtemir XX asr o'zbek she'riyatini tom ma'nodagi lirik she'rlar va badiiy yuksak dostonlar bilan boyitgan xalqimizning sevimli shoiridir. O'zbekiston xalq shoiri Mirtemir asarlarida xalq hayotining nafasi ufurib turadi, inson qalbining eng nozik jihatlari ham aniq va yorqin ko'rinib turadi, maftunkor yurtimizning turfa xil ranglari jilolanadi. Shuning uchun ham o'zbek tanqidchilari sevimli shoirimizni "o'zbek she'riyatining bobodehqoni" deb atashardi. Bu unvondan shoir shaxsiga ehtirom bilan birga, uning she'riyatidagi xalqchilik ham yaxshi ifodalangan.

Akademik yozuvchimiz Komil Yashin ustoz shoir haqida shunday degan: *"Mirtemir yangi o'zbek she'riyatining tamal toshini qo'ygan ustoz, oqsoqol shoirlarimizdan. U g'oyatda mehnatkash, jafokash, hassos, bilimdon, kamtar, zukko so'z san'atkoridir, hozirgi zamon she'riyatimizni yuksaklikka ko'tarishda zo'r kuch sarf etdi"*⁵¹. Chingiz Aytmatov esa: *"Mirtemir ulkan shoir, jonajon do'st, tengi yo'q dilkash inson edi... U G'afur G'ulom, Oybek, Maqsud Shayxzoda va o'zbek adabiyotining katta avlodiga mansub boshqa san'atorlar bilan yonma-yon turadi"*⁵², - deb yozgan edi.

Mirtemir Tursunov 1910-yilning 10-mayida Qozog'iston respublikasining Turkiston tumanidagi Eski Iqon qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. Oldin qishloqda savod chiqaradi. O'n bir yoshida Toshkentga kelib, maktab internatda tarbiyalanadi, yangi maktabda o'qiydi. Pedakademiya (hozirgi Alisher Navoiy nomli Samarqand davlat universiteti)da ta'lim oladi. So'ng gazeta va jurnal tahririyatlarida ishlaydi, turli nashriyotlarda muharrirlik qildi, badiiy ijod va tarjima bilan shug'ullandi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi bo'lib ishladi, yosh shoirlarni tarbiyalashga katta hissa qo'shdi.

⁵¹ **Миртемир.** Асарлар. 1-жилд. – Т.: 1980, 5-бет.

⁵² Миртемир замондошлари хотирасида. – Т.: 1982, 24-бет.

288. Mirtemirning ilk to'plami qachon va qanday nomda chiqqan?

Xalq shoiri Mirtemir: "Birinchi she'rim 1926-yilda "Yer yuzi" jurnalida "Tanburim ovozi" nomi bilan bosilib chiqdi"⁵³, - deb eslaydi. 1928 – yilda "Shu'lalar qo'ynida" nomli birinchi she'rlar to'plami chiqadi. Bu to'plamga shoirning "Mehnat", "So'nggi xat", "Kurash va tilak", "Baxt", "Sahro", "Mehnat bolasi" kabi sochma she'rlari kiritilgan. To'plam yangi davr ruhini o'zida ifoda eta olgani bilan xarakterlidir. Unda inson mehnatining badiiy obrazi chizilgan. Bu asar bilan Mirtemir o'zbek adabiyotiga sochma janrni olib kirdi.

289. Mirtemirning "Shu'lalar qo'ynida" kitobiga qaysi tanqidchi so'zboshi yozgan?

Mirtemirning yangi davr ruhi bilan sug'orilgan "Shu'lalar qo'ynida" nomli kitobiga tanqidchi Sotti Husayn quyidagicha so'zboshi yozgan: "*Qo'lingizdagi to'plam o'zbek adabiyotiga yangi qo'zg'alon, yangi umidlar bag'ishlaydi... "Shu'lalar qo'ynida" gi sochmalardan haqiqatan kurash, isyon, zafar taronalarini tinglab olarsiz... O'zbek ishchisi, dehqoni o'z hayotini, kurashini shu kitobdan o'qib ko'radi, zavqlanadi, lazzat oladi*".

"Shu'lalar qo'ynida" kitobida g'uncha tarzida namoyon bo'lgan ijobiy tomonlar shoining keyingi asarlarida tobora yorqinroq ko'rinib, o'sa bordi.

290. "Mirtemir she'rlarini o'qisam yayrab ketaman. U shoshilmay, erkalanib yozadi". Fikrlar muallifi kim?

Mirtemir ijodining fazilatlari ko'p. Shoirning yozgan she'rlari g'oyaviy mazmun jihatidan ham, badiiy shakl jihatidan ham boshqa asarlaridan ustun turadi. Bunday ijodiy o'sish Mirtemirning ustoz shoirlar maktabidan saboq olishi, mahorat sirlarini puxta o'zlashtirishi, hayot haqiqatini sinchiklab o'rganib, asar ustida qunt bilan mehnat qilishining natijasidir. Ana shuning uchun ham akademik shoir G'afur G'ulom "*Mirtemir she'rlarini o'qisam yayrab ketaman. U shoshilmay, erkalanib yozadi*"⁵⁴, - degan edi.

Alisherga alla aytib uxlatgan

Sen - Ona.

Og'ushida Bobur kamolga yetgan

Sen - Ona.

Torobiyni og'ir jangga jo'natgan

Sen - Ona...

Misralar muallifi kim?

Misralar muallifi Mirtemirdir. She'rning nomi "Sen – ona!" den nomlangan bo'lib, urush davrida yozgan.

⁵³ Адабиётимиз автобиографияси. – Т.: 1973, 237-бет.

⁵⁴ Қаранг: Саид Аҳмад. Назм чорраҳасида. – Т.: "Ёш гвардия", 1982, 16-бет.

291. Otayorning “ Men quyoshni ko’rgani keldim” kitobi qaysi ijodkor haqida?

Yozuvchi Otayorning “Men quyoshni ko’rgani keldim” asari Mirtemir haqida. Unda shoir asarlari tahlil qilingan, hayoti va ijodiga doir esselar yozilgan.

292. Mirtemir ijodi mustaqillik yillarida qanday baholandi?

Shoirning avlodlarga qoldirgan ijodiy merosi ardoqlanib, to’rt jildlik “Asarlar”i chop etildi, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishdagi ulkan xizmatlari evaziga 2002-yilda “Buyuk xizmatlari uchun“ ordeni bilan taqdirlandi. 2010-yilda xalqimizning sevimli shoiri tavalludining 100 yilligi nishonlandi.

293. Mirtemirning ”Bulut”, “Shudring” kabi she’rlari qachon va qanday mavzuda yozilgan?

XX asrning 50-60-yillarida yozilgan bo’lib, ularda tabiat tasviriga keng o’rin ajratilgan. Uning tabiat hodisalarini kuzatish orqali teran falsafiy xulosalar, go’zal qiyoslar, betakror obrazlar yaratish mahorati yaqqol sezilib turadi:

*Ko’k yuzida dam qaldiraq, dam sukut,
Yog’may o’tma, pag’a bulut – oq bulut!
Yog’ib o’tsang – tizza bo’yi o’t bo’lur,
O’t bo’lur, ham sut bo’lur, ham qut bo’lur.*

294. Mirtemirning ilk she’ri qachon va qanday nomda chiqqan?

Mirtemir bir umr yuksak ma’nodagi xalqchillikkka intilib kelgan, xalqchillikni she’riyatning onasiga aylantira olgan shoirdir. Shoirning ilk qo’shiqlaridayoq qo’shiq aytib, rom qilish, qo’shiq aytib qanotlantirish mayli kuchli bo’lgan. U o’z she’ri, qo’shig’I oldiga mana shu talabni qo’ygan. Dastlabki she’ri “Tanburim tovushi” bo’lib, 1926-yilda yozilgan. She’r misralariga e’tibor beraylik:

*Tanburim torining yangroq sadosi,
Borliqda umidlar uyg’otib borsin:
Qalblarni eritib yoniq navosi
Har ruhga bitmas zavq uyg’otib borsin.*

Bu satrlarning yozilganiga sal kam bir asr bo’lyapti, shoirning o’nlab qo’shiqlari chindan ham “*har ruhda bitmas zavq o’ynatib*” keldi. Bu zavqning manbai Mirtemir taronalarining tozaligi, g’uborsizligida, deb bilmoq kerak.

295. Mirtemirning qanday dostonlarini bilasiz?

Mirtemir dostonchilikda ham barakali ijod qilgan. “Bong”, “Barot”, “Agronom”, “Jang”, “Xidir”, “Nomus”, “Ochlar o’lkasida”, “Dilkusho”, “Suv qizi”, “Oysanamning to’yida”, “Farg’ona”, “Baxshining aytganlari”, “Daryo bo’yida”, “Surat”, “Pattining hasratlari” kabi yugirmaga yaqin katta-kichik

dostonlar Mirtemir tomonidan yozilgan bo'lib, ularning ko'pi zamonaviy mavzuga bag'ishlangan.

296. "Surat" lirik dostoni muallifi kim va u nima haqida yozilgan?

"Surat" nomli lirik doston muallifi Mirtemirdir. Doston hayotiy timsollar asosida yaratilgan. Ma'lumki, shoir 30-yillar boshida asossiz hibsga olinib, Moskvadagi Dmitrov lageriga surgun qilingan, Moskva – Volga kanali qurilishiga jo'natilgan. Shoirning xotini ikki yashar qizchasini tashlab Moskvaga ketib qolgan. Qizcha esa tezda vafot etgan. Dostoni ana shu hayitij fojia asosida yaratilgan. Unda ikki yillik ayriliqqa bardosh berolmay ahdini buzgan beburd kelin hamda bevafo yor dardida kuyib yongan, ishq jabrini tortib ruhan ezilgan, beg'ubor sevgi sohibi bo'lgan yigit turmushidan olingan tuyg'ular tug'yoni inson qalbini larzaga soladigan darajada hayajonli va yorqin aks ettirilgan. Shu orqali hayot va inson qismati, sadoqat va xiyonat haqida teran poetik mushohada yuritilgan.

"Surat" dostonida shoir lirik qahramonning ichki kechinmalarini, ruhiy olamini yaqqol tasvirlab bergan. Asarda ruhiyat tasviri, tabiiylik va samimiylik yorqin ko'rinib turadi:

*Na oltin, na javohir edim,
Armonli bir yosh shoir edim.
Zuhro bo'lmasang ham chiroyda,
Men ishqingda naq Tohir edim.*

297. Mirtemirning "Surat" dostoni qanday tasvirga ega?

Mirtemirning "Surat" dostoni "Qoraqalpoq daftari" turkumiga kiritilgan. Bu lirik qissa Mirtemirning inson ruhini butun murakkabligi bilan tasvirlay olishidan, "qalb dialektikasi"ga chuqur kira olganidan dalolat beradi. Doston yaxlit syujet chizig'iga ega emas, balki lirik qahramonning ichki kechinmalarini, ruhiy olamini ifodalaydigan ayrim-ayrim lirik lavhalardan tashkil topgan. Ammo bu lavhalardagi hislar, tuyg'ular shu qadar aniq va tabiiyki, ular birgalikda qahramonning hayot yo'lini ham, boshiga tushgan og'ir sinovlarni ham uning ma'naviy go'zalligini ham yoritib beradi...

298. Mirtemirning "Qoraqalpoq daftari" asari haqida nimalar bilasiz?

Mirtemirning "Qoraqalpoq daftari" she'riy turkumi 1957-yilda yozilgan. Asarni qoraqalpoq xalqining bugungi sermazmun va serqirra hayotini, erishgan ulkan yutuqlarini, orzu-istaklarini haqqoniy ifodalovchi, o'zbekning o'z inisi qoraqalpoqqa bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatini tarannum etuvchi, xalqlar do'stligi va birodarligini ulug'lovchi she'riy qissa deb aytish mumkin.

299. Mirtemirning "Qoraqalpoq daftari" turkumiga qancha she'ri kiritilgan?

Mirtemirning "Qoraqalpoq daftari" nomli she'riy turkumi 20 dan ortiq go'zal she'rlardan tashkil topgan. Bu asarda shoir Mirtemirning qoraqalpoq xalqiga bo'lgan samimiy hurmati, qon-qardoshlik e'tiqodi yaqqol aks etgan, asarda shoir qoraqalpoq yurtini o'z yurti sifatida sevib, ardoqlab tasvirlagan va qoraqalpoq mehnatkashlarining fe'l-atvori, an'analari maftuni bo'lib kuylagan.

“Qorqalpoq daftari” asarida she’riy turkum janrining o’ziga xos talablariga to’la rioya qilingan, sarlavhaga chiqarilgan mavzu atroflicha yoritilgan va bu turkumni tashkil etuvchi she’rlarning bir-biriga bog’liq bo’lishi ta’minlangan. To’plamdan joy olgan “Hodisa” she’rida asosiy maqsad qilib, onalarning ulug’vor siymosini yaratish, madh etish vazifasini qo’ygan. She’rning ana shunday jihati quyidagi misralarda yorqin namoyon bo’ladi:

*Seni ezgu timsolday,
Tengsiz sohibjamolday
Kuylaganim kuylagan,
Siylaganim siylagan.
Chunki, axir, onasan,
Elimda durdonasan.*

- 300.** *Ona tilim – onajonim tili bu,
Beshikdanoq singgan jon-u quloqqa.
El-u yurtim, xonumonim tili bu,
Qadimlikda o’xshar ona tuproqqa...*

Misralar muallifi kim? She’rda shoir nima demoqchi?

Misralar muallifi O’zbekiston xalq shoiri Mirtemir.” Ona tilim “ nomli she’ri 1974 –yilda, ya’ni tilimizga Davlat tili maqomi berilishidan 15 yil oldin yozilgan. Aytish mumkinki, Mirtemir o’zbek tiliga umumxalq va umumdavlat miqyosida katta e’tibor berish, uning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish lozimligini o’sha vaqtdayoq yurakdan his etgan.

301. Mirtemirning “Surat” dostonidagi Toshlon kim?

Dostonning bosh qahramoni Toshlon aslan Mirtemirning o’zi. Mirtemir 22 yoshida qatag’onning achchiq tuzini yalagan va bu dahshatli voqea shoirning butun hayotida chuqur iz qoldirgan. Ushbu lirik qissada shoir o’z hayoti lavhalarini tasvir etgan, ammo u o’z dardini doston qiladigan kishilar qavmidan bo’lmagani uchun ruhiy iztirobi bilan bog’liq voqealarni qoraqalpoq yigiti Toshlon obrazi orqali aks ettirgan.

302. Quyidagi she’riy parcha qaysi asardan olingan va kimga tegishli?

*Gunohim ne? Jangda bo’lganim,
Qon kechganim, yuz bor o’lganim?
Diydoringni unutmayin,
O’limlardan hatlab kelganim?*

Mazkur she’riy parcha shoir Mirtemirning “Surat” dostonidan olingan.

“Surat” dostoni bosh qahramoni Toshlon aytyapti, lekin bu satrlarda shoirning Moskva-Volga kanali qurilishida kechgan azobli hayoti va o’limlarni hatlab kelgani o’z ifodasini topgan

303. Mirtemir she’riyatining bosh mavzusi va asosiy qahramoni kimlar?

Mirtemir she'riyatining bosh mavzusi – O'zbekiston, asosiy qahramoni esa o'zbek xalqidir. Shoir O'zbekiston va o'zbek xalqi hayoti mavzulariga muntazam murojaat etadi va har safar o'z el-ulusi obrazining yangi bir qirrasini o'ziga xos usulda mahorat bilan ochib beradi. Yurt jamolidan, odamlar kamolidan quvongan shoir niyat qiladi:

*She'rlarimda jilva qilsin zamona,
Yurtim madhi bo'lsin so'nggi satrim ham.*

Shoir niyatiga yetdi. Shoirning so'nggi satrlari ham yurt madhi, ona xalqqa muhabbat-u sadoqat tuyg'usi bilan yo'g'rildi. Quyidagi misralarga e'tibor beraylik:

*Xalqim yetagida yetdim voyaga,
Xalqim bilan kuldim...
Xalqim deb o'ldim.
Xalqim nima bo'lsa, men o'sha bo'ldim...
Mening yuragimni teshib o'tdilar
Xalqimga otilgan talay-talay o'q.
Qancha yo'llar bosdim, gohida toldim,
Lekin xalq nomiga yuqtirmadim gard.*

304. Mirtemirning so'nggi kitobi qanday nomlanadi?

Shoir Mirtemirning so'nggi kitobi “Yodgorlik” deb ataladi. Shoir bu kitobida butun umri davomida kuylagan ohanglarga, amal qilgan estetik prinsiplariga sodiq qolgan. Lekin shoir she'riyatining fazilatlarini bu kitobda o'zgacha bir tiniqlik kasb etgan. Ma'lumki, Mirtemir o'z ijodining boshidan oxirigacha ona-yurtni, Vatan go'zalligini kuyladi. Shoir oddiy mehnatkash insonni sevar, unga sajda qilar, u yaratgan va yaratadigan mo'jizalarni muqaddas bilardi. “Yodgorlik”da shoir lirikasining shu xususiyatlari yangicha bir kuch bilan jilolanadi. Kitobda “Toshkent taronalari”, “Sen borsan”, “Toshkent oqshomlari”, “Yil boshi orzulari”, “Hindu raqqosasiga bag'ishlaganim”, “Baxt qo'shig'i”, “Yorti asr qo'shiqlari” kabi she'rlar bor.

Mirtemirning bu she'rlari mazmunining teranligi bilan kishini maftun etadi. Shoir publitsistik she'rlarida butun Sharqning o'tmishi va buguni haqida gapiradi, o'zbek xalqining tarixiy taqdirini gavdalantiradi. “Toshkent oqshomlari” she'rida go'zal Toshkent manzarasi ko'z oldimizda gavdalanadi:

*Ko'z uzib bo'lmaydi, sehrli manzara,
Jozibador, yarq-yurq, oqin sharshara.
Nima bo'ldi, ertakmi yo Eram bog'i?
Yoki xayolotmi, yo nur aymog'i?
Yo'q, samolyot sekin qo'nmoqda edi
So'ngsiz bir kahkashon ustiga go'yo...*

Ana shunday teranlik va ehtiros, latofat, samimiyat shoirning boshqa she'rlarida ham yetakchi o'rin tutadi.

305. Mirtemir ijodining so'nggi bosqichidagi asarlar va ularning o'ziga xos asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?

Mirtemir hamisha o'z ijodida oddiy odamlarni, mehnat kishilarini madh etib kelgan. Shoirning so'nggi she'rlarining qahramonlari ham oddiy paxtakorlar, g'alla yetishtiruvchilar, ishchilar, ziyolilar,.. Shoir ularning har biriga xos bo'lgan noyob fazilatlarni topadi va ulug'laydi.

Mirtemir ijodining so'nggi bosqichidagi asarlar shoir poeziyasidagi beqiyos milliy ranglarga yo'g'rilgan obrazlilik, xalqchilik, shaklning mukammalligi, uslub tiniqligi yana bir pog'ona yuksakka ko'tarilganidan dalolat beradi. Shoir she'riyati, uning tili, o'lkamiz tabiatidek ranglarga, jilolarga boy uslubi kitobxonda yorqin taassurot qoldiradi.

Mirtemir bir she'rida "*Qo'shiqlarim, siz uchun xijolatli emasman*", deb yozgan edi. Shoir tug'ma iste'dod egasi edi, uning baquvvat asarlari hisobsiz edi. Shuning uchun Mirtemir o'z she'rlari uchun xijolat bo'lmaslikka batamom haqli edi. Shoir she'riyati ko'p yillar davomida "*El dilini shu'lador qilib keldi*", bundan keyin ham shunday bo'lib qolaveradi.

306. "Kipriklarim" she'ri kimniki, u nima munosabat bilan yozilgan?

"Kipriklarim" she'ri shoir Mirtemirniki. 1960-yilda yozilgan bu she'r yosh qalamkash do'stlariga bag'ishlangan. Shoir o'zi parvarishlab o'stirayotgan ijodkor yoshlarni kipriklarim deb atadiki, natijada kiprik poetik obrazi an'anaviy obraz darajasidan ko'tarilib, yangi zamonaviy mazmun bilan sug'orilgan:

Kipriklarim qo'ng'irmikin yo qora?

Kipriklarim yuztamikin yoki ming?

Kipriklarim muncha aziz va sara,

Ko'zginamning kipriklari...

Mirtemir yosh ijodkorlarni doim qo'llab-quvvatlagan. Ularni yangi-yangi cho'qilarga chorlagan, ruhiy madad bergan. Bu she'rning oxirgi misralarida shunday ifodalanadi:

Ey, aziz kipriklarim.

Sergaklikda tiriklarning siz-ku eng tiriklari.

Kiprigimday azizlarim, nechog'liq ham suyuksiz.

Armonimday buyuksiz!

307. *Majnuntol tagiga o'tqazing meni, Men uchun yig'lasin, men yig'lab bo'ldim*,-

deya nola chekkan san'atkor kim ?

Misralar muallifi sevimli shoirimiz Mirtemir tomonidan yozilgan bo'lib, "Betoblikda" nomli she'ridan olingan. Shoir she'rida o'z dilidagi dard-u armonlari, orzu va havaslarini ifodalamoqchi bo'lgan, lekin to'la emas...

308. "... Qissa shoirning inson ruhini butun murakkabligi bilan tasvirlay olishidan "qalb dialektikasi"ga chuqur kira olganidan dalolat berib turadi... Qaysi asar nazarda tutilgan?

Bu lirik shoir Mirtemirning "Qoraqalpoq daftari" turkumiga kirgan "Surat" nomli lirik qissasi bo'lib, asar asosan qahramon kechinmalarini ifodalovchi lirik lavhalardan tashkil topgan

309. Mirtemir ijodiga asos bo'lgan 3 ta manba qaysilar ?

Mirtemir ijodiga asos bo'lgan 3 ta manba quyidagilar: 1. Xalq og'zaki poetik ijodi. 2. O'zbek mumtoz adabiyoti. 3. Qardosh xalqlar adabiyoti. Bu 3 manba tajribasi shoir ijodini yuksaklikka ko'tardi.

310. Mirtemirning "Qoraqalpoq daftari" turkumiga qancha she'ri kiritilgan?

Mirtemirning "Qoraqalpoq daftari" 1957-yilda yozilgan. Bu she'riy turkumni qoraqalpoq xalqining sermazzun va serqirra hayotini, erishgan ulkan yutuqlarini, orzu-istaklarini haqqoniy ifodalovchi, o'zbekning o'z inisi qoraqalpoqqa bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatini tarannum etuvchi, xalqlar do'stligi va birodarligini ulug'lovchi she'riy qissa deb aytish mumkin. 20 dan ortiq go'zal she'rlardan tashkil topgan bu asarda Mirtemirning qoraqalpoq xalqiga bo'lgan samimiy hurmati, qon-qardoshlik e'tiqodi yaqqol aks etgan, shoir qoraqalpoq yurtini o'z yurti sifatida sevib, ardoqlab tasvirlagan va qoraqalpoq mehnatkashlarining fe'l-atvori, an'analari maftuni bo'lib kuylagan.

"Qoraqalpoq daftari" asarida she'riy turkum janrining o'ziga xos talablariga to'la rioya qilingan, sarlavhaga chiqarilgan mavzu atroflicha yoritilgan va bu turkumni tashkil etuvchi she'rlarning bir-biriga bog'liq bo'lishi ta'minlangan.

311. Mirtemir qaysi asarlarni tarjima qilgan?

Mirtemirning tarjima sohasidagi xizmatlari ham tahsinga sazovor. O'zbek kitobxonlari shoir-tarjimon Mirtemirning katta ijodiy mehnati tufayli "Ruslan va Lyudmila", "Shoh Sulton haqida ertak", "Oltin baliq va baliqchi chol ertagi"(A. Pushkin), "Ismoilbek", "Savdogar Kalashnikov haqida qissa" (M. Lermontov), "Rusiyada kim yaxshi yashaydi" (A. Nekrasov), "Bo'ron qushi haqida qo'shiq"(M. Gorkiy) kabi o'lmas asarlarni o'z tillarida o'qishga muyassar bo'ldi.

Mirtemir mashhur qirg'iz eposi "Manas"ni, Uyg'un bilan hamkorlikda qoraqalpoq eposi "Qirq qiz"ni, Maqsud Shayxzoda bilan birga gruzin shoiri Shota Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" dostonini ham o'zbek tiliga tarjima qildi. Bulardan tashqari, Mirtemir Genrix Geyne, Ejen Potye, A. Pushkin, M. Lermontov, N. Nekrasov, T. Shevchenko, A. Surkov, A. Tvardovskiy, Abay, Nozim Hikmat, Berdax, Xachatur Abovyan, Yanka Kupala, Silva Kaputikyan, Pablo Neruda, Samad Vurg'un kabi ijodkorlarning durdona asarlarini tarjima qildi, oily poeziya sirlaridan voqif bo'ldi.

312. Qaysi shoir Mirtemirning tarjimonlik faoliyatiga katta baho bergan?

Shunisi e'tiborliki, Mirtemir tarjimalarida asl nusxaning asosiy xususiyatlari, undagi milliy ruh to'liq saqlangan. Shuning uchun ham, mashhur shoirimiz

O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov o'z ustozini Mirtemirning ana shu xususiyatlariniyuksak qadrlab: *“Uni haqli ravishda O'zbekistondagi she'riy tarjimaning otasi deyish mumkin. Bizda hech qaysi shoir Mirtemirdek ko'p va xo'p tarjima qilgan emas”*⁵⁵, – deb yozgan edi.

Mavzu: ZULFIYA

313. ”Siz zamonamizning zabardast shoiri va jamoat arbobi sifatida O'zbekistonning jarangdor ovozi bo'ldingiz... Jahon minbarlarida yangragan she'rlaringiz Sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolidan noyob nishonadir...”. Fikrlar muallifi kim? Qaysi ijodkor haqida?

O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov Zulfiya tavalludining 80 yilligi munosabati bilan unga yo'llagan tabrik xatida shoira ijodiga yuksak baho bergan edi. Zulfiya ijodi haqida Yurtboshimiz yana quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan: *“... Siz latif ijodingiz bilan millionlab kishilarga ezgulik, muhabbat va sadoqatdan saboq berdingiz... Siz Gulbadanbegim, Zebunniso, Uvaysiy, Nodirabegim kabi Sharqning buyuk fozila ayollari boshlagan an'analarni boyitib, yangi pog'onaga ko'tardingiz. Mehribon va talabchan ustoz Zulfiyaxonimning mahorat maktabidan ko'plab yosh iste'dodlar bahramand bo'ldilar.*

*Istiqlool ruhi Sizni, ijodingizni yanada yashartirib yubordi. Maftunkor she'riyatingiz yoshlik nafasi bilan qayta uchqunlandi”*⁵⁶.

314. Zulfiyaning birinchi she'rlar to'plami qanday nomlangan?

Zulfiya 1931 – 1934-yillarda xotin-qizlar pedagogika bilim yurtida tahsil oldi. Bilim yurti qoshida shoir Shukur Sa'dulla rahbarligida adabiy to'garak tashkil etiladi. Shoira shu yerda she'r mashq qila boshlaydi. To'garakda ko'p narsalarni o'rgandi, hayot, turmush saboqlaridan ilhom oldi va 17 yoshida, ya'ni 1932 – yilda “Hayot varaqlari” nomli ilk to'plamini chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Ammo shoira bu kitobda dunyoga, voqelikka va kishilarga o'z nuqtai nazaridan qarash darajasiga ko'tarilmagan edi. Shunday bo'lsa-da, birinchi to'plam shoirani adabiyot olamiga, ijod ahliga tanitdi.

315. Zulfiyani kim “tong kuychisi” deb ta'riflagan?

O'zbekiston xalq shoiri Mirtemir Zulfiya ijodiga alohida muhabbat bilan qaragan. Shoira ijodi haqida ko'plab maqolalar ham yozgan. Jumladan, Zulfiya haqida shunday yozadi: *“Zulfiya – kamtar, o'ta zahmatkash, bilim ufqi keng, doimo dili toshqin, olamni timsollar – obrazlar ko'zgisida tasavvur etishga qodir asl shoira”.* Yoki : *“O'zbek poeziyasida Zulfiya degan nomning chaqnaq paydo bo'lishi – tong yulduzining tug'ilishiga teng voqea , u chindan ham tong kuychisi”.*

316. Zulfiya qaysi jurnalda 32 yil bosh muharrir bo'lgan?

⁵⁵ Mirtemir zamondoshlari хотирасида. – Т.: 1982, 138-бет.

⁵⁶ “Халқ сўзи” газетаси, 1995 йил, 30 май.

Zulfiya ilmini oshirishga astoydil intildi, aspiranturada o'qidi, bolalar nashriyatida muharrirlik qildi. Urush Zulfiya uchun ham katta sinov davri bo'ldi. 1944-yilda Hamid Olimjon bevaqt halok bo'ldi. Endi u ikki sozni – o'zi va Hamid Olimjon sozini chalishni bo'yniga oldi. Bu shoira she'riyati mazmuni, yo'nalishi, ruhidagina emas, ayni chog'da ijtimoiy faoliyatida ham yaqqol ko'rindi. “Saodat” jurnalida (jurnal dastlab “O'zbekiston xotin-qizlari” deb nomlangan) bosh muharrir bo'ldi. Zulfiya bu jurnalda 32 yil muharrir bo'lgan.

317. Zulfiyaning qanday dostonlarini bilasiz?

Shoira Zulfiya ijodi mavzu xilma-xilligi va g'oyaviy mazmun jihatidagina emas, balki janr va badiiy mahorat jihatdan ham boyib, sayqal topa bordi. Zulfiya oila va burch, axloq-odob, yoshlik va shodlik, vijdon va iymon, ishq-muhabbat, sadoqat va xiyonat kabi mavzularda chuqur mazmunli dostonlar yaratdi. “Uni Farhod der edilar”, ”Quyoshli qalam”, ”Mushoira”, ”So'roqlaydi shoirni she'rim”, ”Xotiram siniqlari” kabi qator dostonlari shular jumlasidandir.

318. Zulfiyaning urush davrida yozgan tarixiy-biografik dostoni qanday nomlangan va u kim haqida?

Shoira Zulfiya urush davrida “Uni Farhod der edilar” nomli tarixiy-biografik doston yozdi. Asar bosh qahramoni taniqli o'zbek artisti, otashin vatanparvar jangchi Qobil qori Siddiqovdir. Dostonda bu obraz hayotiy tasvirlangan. Shoira bosh qahramon timsolida xalqning fashizmga munosabatini ustalik bilan tasvirlay olgan. Dostondagi voqea xushovoz san'atkor Qobil qorining Toshkent teatrida Farhod rolini o'ynayotganligi tasviri bilan boshlanadi. Shoira:

*Bu kuychiga tan berib butkul
Qo'shig'ini unutdi bulbul,*

singari lirik misralarda Qobil qorining sahna san'atidagi mahoratini maftun bo'lib tasvirlaydi. So'ngra Qobil qorining urush davridagi jangovar hayotiniehtiros bilan hikoya qiladi. Dostonda Qobil qori so'zi bilan ishi bir haqiqiy qahramon sifatida namoyon bo'ladi. U deydi:

*Aziz Vatan, jonajon Vatan,
Kerak bo'lsa qurbon jon-u tan.
Baxt, erkimiz qolsin deb elda,
Muhabbating, qudrating dilda.
Ko'rsatamiz kurashda sabot,
Yovdan seni qilamiz ozod.
Xalqim uchun, san'atim uchun
Yana jangga kiraman bu kun!*

319. ”Uni Farhod der edilar” (Zulfiya) dostoni nima haqida?

Zulfiya tomonidan yozilgan “Uni Farhod der edilar” dostonida ayol qalbining sezgir, beorom tabiatini ko'ramiz. Doston, bizning nazarimizda, hozirgacha o'z

fayzini saqlab qolgan asarlardan. Doston markazida qahramonning mardlik va vatanparvarlik bilan to'la ma'naviy dunyosi tahlil etiladi. Asarning zamirida san'atkorning so'zi bilan ishi bir bo'lishi kerak, degan fikr mavjud. Bosh qahramon mashhur san'atkor Qobilqori. Farhod rolini mahorat bilan ijro etgani uchun Farhodning o'zi der edilar. Frontga borib, ona-Vatan yo'lida qurbon bo'ladi. Uning qahramonona hayot yo'li va fojiali taqdiri "*Hayotimizni saqlab qol, do'stlar uchun qasos ol*", degan chaqiriq yanglig' yangrab turadi.

320. Zulfiya qaysi asarlarni tarjima qilgan?

Zulfiya mohir tarjimon hamdir. Demyan Bedniyning "Ziynatning qasami", Lesya Ukrainaning "Umid kutaman", "Oqshomgi soatda", "Kuylarim" asarlarini, Mustay Karimning "Oy tutilgan tunda" pyesasini, N. Nekrasovning "Rus ayollari" dostonini, shuningdek, M. Lermontov, Nozim Hikmat, Amrita Pritam, V. Inber, Silva Kaputikyan, Marvarid Dilbozi, Svetlana Somova kabi turli millat ijod ahlini ko'plab she'riy asarlari Zulfiya tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Deyarli barcha tarjimalarda asliyatning ruhi, nazokati, jozibasi va milliy xususiyatlari sof, tabiiy ravishda saqlangan.

321. "Quyoshli qalam" dostoni muallifi kim va u kimga bag'ishlangan?

Atoqli yozuvchi Oybek haqidagi "Quyoshli qalam" dostoni Zulfiya qalamiga mansub. Doston ijodkorning Vatan, xalq, tarix, kelajak avlod oldidagi burchi to'g'risida. Asarda yo'l obrazining falsafiy ma'no kasb etishi bejiz emas. Shoira Oybekning ruhiy olamini, yuksak orzu-armonlarini hamda intilishlarini atroflicha keng ifodalab bergan.

321. Zulfiya qaysi asarida zamon, davr, xalq boshiga tushgan dard, jabr-jafoni xuddi o'zinikiday, o'zinikini xalqnikiday qilib tasvirlab bergan?

Respublikamizning milliy mustaqillikka erishishi shoira Zulfiya ilhom bulog'ining ko'zini ochib yubordi. Yillar davomida qimtinib, haqiqatni bor bo'yicha ayta olmay, yuragi o'rtanib yurgan shoira yangi davr kelganini teran his etdi. Bosib o'tilgan yo'lga adolat ko'zi bilan boqib, ularni o'z nomi bilan atab, haqqoniy realistik asarlar yaratdi. 1995-yilda yozgan "Xotiram siniqlari" dostoni shoira Zulfiya ijodining yangi sahifasi, yangi bosqichi va hozirgi davr o'zbek she'riyatining qonuniy yutug'i deyishga arziydi.

Doston she'riyatimizda muhim voqea bo'ldi. Zulfiya o'z tarjimai holini asos qilib olib, xalqimizning og'ir, ammo qahramonona yo'lini haqqoniy ifodalab beradi:

*Onam qo'llarida mushtday tugunchak,
Tosh shaharni kezar avaxta izlab,
Avaxta nechadir, zor ona necha,
Nechalar yashardi zamoni "siz"lab.*

Yoki:

*Taqdir, taqdir dedim, yashadim uzoq,
Taqdir peshonaga yoziq deyishdi.
Yoziqni peshonaga urdim-u biroq,
Men sindim, qonimdan g'ishtlari pishdi.
Alam. Yomon alam ko'zing ko'r bo'lsa,
Lekin so'qir dillik undan-da dahshat.
Xalq ganjin yulmoqqa cho'zilgan qo'lga
Biz alvon guldasta tutibmiz faqat.*

Ko'rinadiki, shoira zamon, davr, xalq boshiga tushgan dard, jabr-jafoni xuddi o'zinikiday, o'zinikini xalqnikiday qilib tasvirlab bergan. Dostonni bekorga "Xotiram siniqlari" deb nomlamaydi. Bu xotiralar – xalq tarixi shunchaki xotira, shunchaki tarix emas, balki "dardli, tig'li siniqlar" bo'lib, doim yurakni tilib qon chiqarib azob berib turadi, ular saboq. Shu tufayli shoira intiqlik bilan kutgan istiqoldan cheksiz xursand:

*Hurriyat, keldingmi, nahotki kelding,
Kelar yo'llaringda pinhona toldim.
Mening ota-onam, jon Vatanimda,
Elim taqdirida abadiy qolding.*

Ardoqli va atoqli shoira Zulfiya o'z ijodi haqida shunday degan edi:
".. **chop etilgan she'rlarimda qalbidagi quvonch, dard, hayajonlarimning suvratini ko'rganday bo'laman**".

323. "Do'stlik" ordeni Zulfiyaga qachon berildi?

1995 – yilda xalqimizning ardoqli va atoqli shoirasi Zulfiya 80 yoshga to'ldi. Shu munosabat bilan Vatanimiz ijodkorni "Do'stlik" ordeni bilan taqdirladi.

324. Zulfiyaning "Mushoira" dostoni nima haqda?

Zulfiyaning "Mushoira" dostoni chet el xalqlari hayotini, ularning tinchlik va do'stlik uchun kurashini aks ettirishga bag'ishlangan. Unda Osiyo va Afrika taraqqiyparvar yozuvchilarining 1956-yilda Hindistonda bo'lib o'tgan konferensiyasi voqealari, she'r bahsi, she'rxonlik hikoya qilinadi. Shu orqali xalqlar do'stligi, insonparvarlik va tinchlik uchun kurash g'oyalari ustalik bilan olg'a suriladi.

325. 1953-yilda yozilgan "Oydin Sobirova" nomli ocherk kimniki?

Zulfiya badiiy ocherk va publitsistika sohasida ham ijod etdi. Ijodkorning 1953-yilda yozgan badiiy ocherkida XX asr o'zbek adabiyotining yorqin vakilasi bo'lgan adiba Oydin Sobirovaning ibratli hayoti va sermazmun ijod yo'li qiziqarli tarzda hikoya qilingan.

326. Zulfiya yana qanday publitsistik asarlar yozdi?

Zulfiya keyinchalik “Dugonalar bilan suhbat”, “Paranjili xotin bilan uchrashuv” “Birlashgan holda ilgariga”, “Kolombo kabutarlari”, “Yugoslaviya xotiralari”, “Shahriniso haqida” kabi asarlar yaratib, o’zining badiiy ocherk va publitsistika sohasidagi yutuqlarini mustahkamladi. Zulfiyaning bu asarlarida ham jangovar ruh, lirik ohang va hayotbaxsh tuyg’u ustun turadi. Yozuvchi xalqimiz erishgan barcha yutuqlarni ko’z qorachig’iday avaylab, mehr bilan tasvirlaydi va ularni turfa xil dushmanlar xurujidan himoya qiladi.

327. ”Hijron kunlarida” to’plami kimniki?

Zulfiya ikkinchi jahon urushi davrida faol ijod qildi. Ko’plab she’riy to’plam va dostonlar yaratdi. Ijodkorning “Hijron kunlarida” to’plami 1944-yilda yozilgan. Kitobdan joy olgan she’rlarida o’sha jangovar kunlarning dolzarb mavzulari yorqin ifodalangan, jonajon xalqimizning Vatanga muhabbati, g’alabaga bo’lgan ishonchi, qahramonlik, insonparvarlik, dushmanga nafrati ifoda etilgan.

328. Zulfiya “O’ylar”, ”Yillar, yillar” tukumlarida nima haqda fikr yuritadi?

Zulfiyaning “O’ylar”, “Yillar, yo’llar” turkumlarida hayot va inson, umr mazmuni, muhabbat va sadoqat, yashash va kurash ma’nosi to’g’risida fikr yuritiladi.

329. ”Uni Farhod der edilar” (Zulfiya) dostoni nima haqida?

Zulfiya tomonidan yozilgan “Uni Farhod der edilar” dostonida ayol qalbining sezgir, beorom tabiatini ko’ramiz. Doston, bizning nazarimizda, hozirgacha o’z fayzini saqlab qolgan asarlardan. Doston markazida qahramonning mardlik va vatanparvarlik bilan to’la ma’naviy dunyosi tahlil etiladi. Asarning zamirida san’atkorning so’zi bilan ishi bir bo’lishi kerak, degan fikr mavjud. Bosh qahramon mashhur san’atkor Qobilqori. Farhod rolini mahorat bilan ijro etgani uchun Farhodning o’zi der edilar. Frontga borib, ona-Vatan yo’lida qurbon bo’ladi. Uning qahramonona hayot yo’li va fojiali taqdiri “*Hayotimizni saqlab qol, do’stlar uchun qasos ol*”, degan chaqiriq yanglig’ yangrab turadi.

330. ”Zulfiya o’z xalqining taqdiri bilan qo’shib ketgan ijodkor” deya kim ta’kidlagan?

Zulfiya haqidagi mazkur fikrlar dog’istonlik mashhur shoir Rasul Hamzatov tomonidan aytilgan.

331. Zulfiya qaysi xalqlar mukofotini olgan?

Shoira Zulfiya Osiyo va Afrika yozuvchilari harakatida faol qatnashdi, mamlakatimiz vakili sifatida Hindiston, Yugoslaviya, Shri Lanka, Misr, Birma, Avstraliya kabi mamlakatlarda bo’ldi. She’riy chiqishlari orqali katta e’tiroflar-u bir qator mukofotlarga sazovor bo’ldi. Zulfiyaga berilgan qo’sha-qo’sha mukofotlar uning el-yurt oldidagi katta xizmatlaridan dalolat beradi.

Shoira ko’plab xalqaro mukofotlar sohibi hamdir. Hindistonning Javoharlal Neru nomidagi davlat mukofoti (1968) va xalqaro “Nilufar” mukofoti (1970), Bolgariyaning “Kirill va Mefodiy” ordeni bilan taqdirlangan.

Mavzu: ASQAD MUXTOR

332. Asqad Muxtor qachon va qayerda tug'ilgan?

XX asr o'zbek she'riyati, nasri, tarjimachilik san'ati va dramaturgiyasi rivojida Asqad Muxtorning alohida xizmatlari bor. Jahon adabiyotining eng sara namunalarini puxta o'rgangan, badiiy ijodga juda jiddiy faoliyat turi sifatida qaragan bu adib o'zidan boy va ibratli adabiy meros qoldirdi.

Asqad Muxtor 1920-yil 23-dekabrda Farg'ona shahrida temiryo'lchi oilasida tug'ilgan. 11 yoshga to'lganida otasi vafot etadi. O'n ikki yetim bolani boqib katta qilish oson ish emas edi. Asqad Muxtor bolalar uyida tarbiya topadi, o'qiydi. 1936-yilda Toshkentga kelib, jurnalistlar tayyorlaydigan kursga o'qishga kiradi, gazeta tahririyatida ishlaydi. Keyingi taqdiri badiiy va publitsistik ijod bilan bog'liq ekanini anglagan Asqad Muxtor 1938-yilda Samarqand dorilfununiga o'qishga kiradi. Urush yillari bu ilm dargohi O'rta Osiyo dorilfununiga qo'shiladi va Asqad Muxtor ham Toshkentda o'qishni davom ettiradi.

333. Asqad Muxtor ijodi qachondan boshlangan?

Asqad Muxtor badiiy ijodga juda yoshligidan qiziqdi. Uning "*Tilak*", "*Tong edi*", "*Totli damlar*" singari ilk she'riy asarlari 1935-1938-yillarda e'lon qilingan. Bu to'plamlardan joy olgan she'rlarida adabiyotdan juda ko'p narsani kutuvchi, unga butun umrini bag'ishlashga tayyor lirik qahramon qiyofasi gavdalangandi.

Ikkinchi jahon urushi yillari Asqad Muxtor poeziyasining asosiy mavzui, o'z-o'zidan, urush bilan bog'landi. Yosh ijodkorning kuchli pafosga yo'g'rilgan "*G'alaba ishonchi*", "*Jangchining bayram kechasi*", "*Tug'ishganlar qaytdi*", "*Sog'inish*" singari o'nlab she'rlari urush davri o'zbek poeziyasi namunalari bo'lib qoldi.

334. Asqad Muxtorning qanday she'riy to'plamlarini bilasiz?

Asqad Muxtor she'riyati XX asrdagi o'zbek adabiyotining yorqin bir sahifasini tashkil qiladi. Shoirning asarlari chuqur poetik fikrlarga, ehtirosli tuyg'ularga, tiniq va jonli tasvirlarga boyligi bilan ham ahamiyatlidir.

Asqad Muxtorning "*Po'lat quyuvchi*"(1947), "*Hamshaharlarim*"(1949), "*Rahmat, mehribonlarim*"(1954), "*Chin yurakdan*", "*Hayotga chaqiriq*"(1956), "*Dunyo bolalari*", "*99 miniatyura*" (1962), "*She'rlar*" (1966), "*Karvon qo'ng'irog'i*", "*Quyosh belanchagi*" (1971), "*Charxpalak*" (1976) "*Sizga aytar so'zim*" (1978), "*Qaysi asrdan gapirayapsiz*" (1982), "*Sirli nido*" (1984), "*Yillarim*" (1990), "*Tundaliklar*" (1997) kabi she'riy to'plamlarda bu fazilatlar ochiq ko'rinadi. Shu bilan birga, mazkur kitoblar shoir mahorati asardan asarga o'sib, yuksalib borganini ham tasdiqlaydi.

335. Asqad Muxtorning qanday qissalarini bilasiz?

Asqad Muxtorning nasri ham serma'no va serjilodir. Adib 40-yillar o'rtalaridan boshlab nasrda ham muntazam suratda ijod qila boshladi. Asqad Muxtor qator ocherk va hikoyalardan tashqari "*Daryolar tutashgan joyda*"(1950), "*Qoraqalpoq*

qissasi”(1958), ” Bo’ronlarda bordek halovat”(1975), “Buxoroning jinko’chalari” (1980), ”Jar yoqasidagi chaqmoq”(1982), “Manba”(1986),”Kumush tola”(1987), ”Insonga qulluq qiladurman”(1994) kabi qissalarni ham yozdi. Bu qissalarning mavzusi xilma-xildir.

336. Asqad Muxtorning qanday romanlarini bilasiz?

Asqad Muxtor qissalaridagi ko’p fazilatlar adibning “Opa-singillar” (1955), ”Tug’ilish” (1960), “Davr mening taqdirimda” (1964), ”Chinor” (1969), ”Amu” (1985) kabi romanlariga ham tegishlidir. Bu romanlarda ham hayot haqiqati ko’p hollarda bevosita obrazli tarzda tadqiq etilgan.

Yozuvchining barcha romanlari adabiyotimiz xazinasidan mustahkam o’rin ola bildi. Adabiy tanqidchilik ham o’z vaqtida Asqad Muxtor romanlariga tegishli bahosini berdi.

337. “Chinor” romanining o’zbek nasri taraqqiyotidagi o’rni haqida nimalar bilasiz?

“Chinor” romani 1969-yilda yozilgan bo’lib, urushdan keyingi o’zbek nasri taraqqiyotida munosib o’rin egallaydi. Roman sharq adabiy an’analarini eslatadi. Asar sujeti va kompozitsiyasini yaratishda Asqad Muxtor mumtoz adabiyotimizda mavjud bo’lgan qoliplash usulidan samarali foydalangan. Roman besh qissa, besh hikoyat va besh rivoyatdan tashkil topgan. Qissalarda hozirgi zamon voqealari tasvirlanadi. Hikoyalarda bu voqealarning teran ildizlari – yaqin o’tmish voqea-hodisalari haqida bahs yuritiladi. Rivoyatlar qadim afsonalarga borib taqaladi.

Romandagi barcha qissa, hikoyatu rivoyatlar mantiq jihatidan bir markazga kelib birlashadi va bir butunlikni hosil qiladi. Ana shuning uchun ham ularni ulkan bir chinorning teran tomirlariga qiyos etish mumkin. Romanning asosiy g’oyasi chinor haqidagi ilk rivoyatdayoq aks etgan. Keyinchalik bubosh g’oya rivoyatdan hikoyatga, hikoyatdan qissaga o’tib rivojlanib va chuqurlashib borgan. Yozuvchi Ochilbobo, Orif, Azimjon, Komila, Matniyoz, Abdulahad qori, Said kabi turli xil obrazlar yaratib, hayot haqiqatini keng ko’lamda tasvirlagan.

Roman o’zbek adab adabiyotining rivojlanishiga, badiiy tafakkurimizning o’sishiga katta hissa qo’shdi. Shuning uchun bu roman 1973-yilda Hamza nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

338. Romanning bosh qahramoni kim? Nima uchun u ramziy qahramon?

Romanning bosh qahramoni – Ochil buva. Ochil buva asarning bosh g’oyasini, asosiy yukni o’zida tashuvchi ramziy obrazdir. Uning timsolida o’zbek xalqining umumlashgan nuroniy siymosini ko’ramiz. U chinordek uzoq yillar umr ko’rgan, lekin hali baquvvat, jismonan tetik, ruhan bardam. Qahramon psixologiyasidagi eng jozibador fazilati shundaki, u o’zini butun koinotning va undagi jami go’zallikning xo’jayini deb biladi. Hayotning ma’nosini esa odamlarga foyda keltirib, ularga pok muhabbat ulashib yashashda ko’radi. Ana shu xislatlar Ochil buvani xalqimizning yaxshi fazilatlarini mujassamlantirgan romantik obraz darajasiga ko’targan.

339. Asqad Muxtorning qaysi asari matonatli shaxs va betakror ijodkorning insoniyatga qoldirgan vasiyatidek yangraydi?

Asqad Muxtor umrining oxirgi yillarida og'ir kasallikka yo'liqdi. Lekin metin irodali adib ijoddan, izlanishdan to'xtamadi. Xastalikni g'olib kelishiga yo'l qo'ymadi. Yanada mag'zi bo'liq, mazmuni teran, jozibador she'rlar e'lon qildi. 1994-yili "Insonga qulluq qiladurmen" deb nomlangan to'plamidagi hikoyalar ham o'zining yuksak saviyasi bilan kitobxonlar e'tiborini tortdi. Eng so'nggi kitobi "Uyqu qochganda" ("Tundaliklar") (1997) nomli badiiy-falsafiy asari bo'lib, unda hozirgi hayot, ma'naviyat, madaniyat va badiiy ijod borasidagi mulohazalarini aks ettiradi.

Asqad Muxtor 1997-yilning 17-aprelida Toshkent shahrida vafot etdi. Adabiyotga ilk qadam qo'ygandan to' umrining oxirigacha uning yuragi badiiy ijod ishqini bilan urdi. Quyidagi misralar bu fikrimizning dalilidir:

*Men ko'p yo'llar yurdim,
Ko'p narsani ko'rdim,
Goh sog'inib,
Goho
Shodlikdan jo'shib;
Qanoti chiqqan qushday
Uyasiga sig'may,
Yuragimda talpinar qo'shiq.*

340. Asqad Muxtor qanday dramalar yozgan?

Asqad Muxtor talantli dramaturg sifatida "Mardlik cho'qqisi", "Samandar", "Yaxshilikka yaxshilik", "Zar qadri", "Sahro tor", "Yosh dovyuraklar", "Mening o'g'lim" kabi sahna asarlarini yozgan. Bu sahna asarlarida turli zamonaviy mavzular aks ettirilib, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, har qanday qiyinchiliklardan qo'rqmaslik, ezgulikka intilish g'oyalari olg'a surilgan.

341. Sofoklning "Shoh Edip" tragediyasi kim tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan?

O'zbekiston xalq yozuvchisi Asqad Muxtor talantli shoir, nosir, dramaturg, publitsist bo'libgina qolmasdan, balki tarjimon hamdir. Yirik tarjimon sifatida "Shoh Edip" (Sofokl), "Al – Maarriy" (A. Isaakyan), A. Korneychuk, A. Safronov, F. Shiller va V. Shekspirning bir qator fojialarini, A. Pushkin, M. Lermontov, A. Blok, V. Mayakovskiy, K. Simonov lirik asarlarini hamda R. Tagor, P. Pavlenko, V. Vasilyevning ayrim qissalarini yuksak mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Shulardan Sofoklning "Shoh Edip" tragediyasi Asqad Muxtor tarjimonlik faoliyatining cho'qqisi sifatida baholangan.

342. "She'r odamning yashashi uchun, kurashishi, ulg'ayishi uchun zarur..." fikrlari qaysi allomaga tegishli?

Asqad Muxtorning 40-50-yillari yozilgan ko'pgina she'rlari ham o'z vaqtida ijobiy baholangan edi. Ko'proq hukmron mafkuraga ma'qul keladigan

jihatlari ko'klarga ko'tarilgan edi, ular chinakam go'zallikdan, poetik nafosatdan mahrum she'rlar edi. Yosh shoir izlanishda davom etadi va ko'p o'qish-o'rganishlar natijasida she'riyatni yangicha idrok qila boshlaydi. Yuqoridagi fikrlar muallifi ham Asqad Muxtor bo'lib, ular shoir qalbidan otilib chiqqan. Fikrning davomiga diqqat qilaylik: *“She'r shoirlar tomonidan o'ylab chiqarilgan narsa emas. Har bir halol qalbning tubida hissiy boylik bor. Shoir ana shu hislar tug'yonini uyg'otadi, xolos. Hayotda poeziya naqadar mo'l bo'lsa, unda foydasiz bo'shliq shuncha kam bo'ladi”*.

343. Asqad Muxtorning tashkilotchilik faoliyati haqida nimalar bilasiz?

Asqad Muxtor mohir tashkilotchi sifatida adabiy jarayonni uyushtirishda katta ishlarni amalga oshirdi. Ijodkor ko'p yillar davomida “Sharq yulduzi”, “Guliston” jurnallariga va “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” haftaligiga muharrirlik qildi, bir necha marta O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida kotiblik vazifasini bajardi. Bu lavozimlarda ishlar ekan, Asqad Muxtor adabiyotimizda chinakam badiiy asarlar ko'payishi va adabiy muhit sog'lomligi uchun kurash olib bordi, yosh ijodkorlarga alohida g'amxo'rlik bilan qaradi.

Mavzu: SAID AHMAD

344. Qaysi ijodkorning asari Toshkentdagi Akademik teatrdan 600 martadan ortiq qo'yilgan?

Said Ahmad o'zbek adabiyotidagi mashhur komediyanavislardan biridir. “Kelinlar qo'zg'oloni” komediyasi salkam qirq yildan buyon sahnadan tushmay keladi. Komediya janrida surunkasiga bu qadar uzoq umr ko'rgan sahna asarining hozirgi yakkayu-yagonasi shu - “Kelinlar qo'zg'oloni” komediyasi. U Toshkent Akademik teatrining o'zidayoq 600 martadan ortiq sahnada muvaffaqiyat bilan qo'yilgan.

345. “Onajonlar”, “Turnalar”, “Cho'l burguti”, “Muhabbatning tug'ilishi”, “To'y kechasida”, “Hayqiriq” kabi hikoyalar kimniki?

Said Ahmad dilbar hikoyalari, ichakuzdi hajviyalari, nurbaxsh komediyalari, hayotiy romanlari bilan XX asr ikkinchi yarmidagi o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rin tutadi. Ijodkor adabiyotga hikoyanavis sifatida kirib keldi va bu janrda barakali ijod qildi. Yuqorida nomlari sanalgan ko'plab hikoyalari o'zbek lirik hikoyachiligi yo'nalishini belgiladi, deyish mumkin.

346. Said Ahmadning dastlabki to'plami qanday nomlangan?

Said Ahmad adabiyot olamiga hikoyanavis sifatida kirib keldi. Uning birinchi hikoyalar to'plami – “Tortiq” 1940-yilda maydonga chiqdi. U o'z ustida uzluksiz ishlash, hayotni, ustoz yozuvchilar ijodini sinchkovlik bilan o'rganish orqali dastlabki hikoyalaridagiyoq badiiy asar yaratish sirlarini egallab bordi.

Said Ahmadning iste'dodli yozuvchi sifatida shakllanishida G'afur G'ulom va Abdulla Qahhorning xizmati katta. Said Ahmadning o'zi bu haqda :”Aslida meni hajv yo'liga G'afur G'ulom boshlab kirgan. Meh yozuvchi hikoyalari ta'sirida

adabiyotga kirganman. Keyinchalik bu buyuk yozuvchi bilan yaqindan tanishganim, undan rosmana ijodiy ta'lim olganim hajvga bo'lgan intilishimda yuda katta yordam berdi. Undan keyin Abdulla Qahhor hikoyalaridagi siqqlik, so'zni isrif qilmaslik, tagdor gap aytish san'ati men uchun bir darslik xizmatini o'tadi⁵⁷ – deb yozgan edi.

347. "Ufq" (Said Ahmad) trilogiyasi qaysi romanlardan iborat?

Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasi XX asr o'zbek adabiyotining jiddiy yutug'idir. Asarda trilogiya janrining o'ziga xos g'oyaviy-badiiy xususiyatlari va asosiy janriy belgilari yaqqol namoyon bo'lgan. "Ufq"ning birinchi kitobi - " Qirq besh kun" romanida xalqimizning XX asrning 30-yillarida Katta Farg'ona kanali qurilishidagi qahramonona mehnati, qudratli xalq harakati yorqin aks ettirilgan. Asarning ikkinchi kitobi "Hijron kunlarida" deb nomlangan. Unda xalqimizning urush davridagi og'ir hayoti, kurashi, vatanparvarligi ehtiros bilan hikoya qilingan. Trilogiyaning uchinchi kitobi "Ufq bo'sag'asida" urushdan so'nggi dastlabki yillardagi xarakterli voqealar, qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish harakati tasvirlangan.

348. Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasida qanday voqealar yaratilgan?

Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasida xalq hayotining turli qatlamlari teran yoritilgan. Azizxon, Ikromjon, Jannat xola, Rahmonberdi tog'a, Nizomjon, Asrora, Dildor, Inoyat oqsoqol, Tursunboy singari xilma-xil obrazlar yaratilgan. Asarda bunday to'qima obrazlar bilan bir qatorda, xalqimizning asl farzandlari: Usmon Yusupov, Yo'ldosh Oxunboboyev, G'afur G'ulom kabi tarixiy shaxs obrazlari ham berilgan. "Ufq"dagi qahramonlardan Ikromjon va Azizxon obrazlari har tomonlama mukammal va jonli qilib tasvirlangan. Adib Azizxon obrazi orqali Katta Farg'ona kanali qurilishi jarayonida, qirq besh kun davomida sodir bo'lgan quvonchli va unutilmas voqea-hodisalarni, xalqning haqiqatan buyuk bunyodkor ekanini umumlashtirib tasvirlab bergan.

349. Sobiq turg'unlik deb atalgan davr illatlarinin fosh qilishga bag'ishlab Said Ahmad qanday asar yozgan?

Said Ahmad 1988 –yilda "Jimjitlik" romanini yozdi. Bu romanda 80-yillarning birinchi yarmidagi hayot haqiqati Mirvali Rixsiyev direktorlik qilayotgan qishloq misolida ochib berilgan. Adib qishloq hayotini respublika hayoti, xalqimizning kundalik turmushi, mehnati, dardi, muammolari, orzu-istaklari zamirida aks ettirgan. Yozuvchi yuzaki qaraganda bir me'yorda, sokinlik va jimjitlik bilan o'z yo'lidan beozor taraqqiy etib borayotganday tuyuluvchi hayotimizdagi har xil illatlarni, keskin ziddiyatlarni, alg'ov-dalg'ovliklarni dadillik bilan ko'rsatgan. Romanning nomi ham kinoyaviydir. Romanda Tolibjon: "*Bu joylarga jimjitlik qidirib keldim*" desa, Mirvali: "*Jimjitlikni odamzod o'lganda topadi. Go'rga kirganda*", deydi. Yozuvchining o'zi esa "*... notinch XX asrda jimjitlik qidirish telbalik*"dir degan xulosani asar to'qimasiga singdirib yuboradi.

⁵⁷ Қайюмов Лазиз. Замондошлар. – Тошкент: 1985, 309-310-бетлар.

350. Katta hayotiy tajribaga ega, muhandis-bunyodkor sifatida xorijiy mamlakatlarda ishlab kelgan obraz Said Ahmadning qaysi asarida uchraydi ?

Tolibjon bo'lib,"Jimjitlik" asarida mavjud. Tolibjon o'z davrining uzoq - yaqinini ko'rgan, ancha ilg'or dunyoqarashli kishi. U biz bugun ega bo'layotgan ayrim imkoniyatlarga bundan salkam chorak asr avval ega bo'lgan. Xorijiy dunyo, uning kishilari qilayotgan ishlar bilan o'zimizdagi ahvolni zimdan taqqoslagan.

Tolibjon hayotning ko'p azoblarini ko'rgan.Rafiqasi va farzandidan bevaqt judo bo'lgan. Natijada asab xastaligiga yo'liqqan, yagona istagi – *jimjitlik*.

351. “Jimjitlik” romanidagi Mirvali obrazi qaysi jihatlari bilan ajralib turadi?

“Jimjitlik” romanida rang-barang obrazlar yaratilgan. Bular orasida asarning asosiy obrazi Mirvali alohida ajralib turadi. Mirvali obrazida ikki xil kishi – ham yaxshi, ham yovuz odam qiyofasi gavdalantirilgan.Yozuvchi romanning birinchi qismini “*Bir tanda ikki odam*” deb bejiz atamagan. Chindan ham, Mirvali – keng fikrli, ishbilarmon, tashabbuskor, tashkilotchi. Uning respublika miqyosida rahbar bo'lishga, hatto biror vazirlikni boshqarishga qurbi yetadi. Biroq Mirvalida amal ketidan quvish, shuhratparastlik, xushomadgo'ylik, ko'zbo'yamachilik, nopoklik, xiyonat va jinoyat qilishdan tap tortmaslik singari yomon illatlar ham yo'q emas.

Yozuvchi Mirvalining yaramas qiliqlarini, vahshiyona kirdikorlarinitasvirlash bilan birga, Mirvali xarakteridagi illatlar qanday paydo bo'lganligini va qanday qilib rivojlanib borganligini ham ochib tashlagan. Adib Mirvalining hayot yo'lini va fojiali qismatini tasvirlash orqali kimki halollik, to'g'rilik, adolatparvarlik va insonparvarlik singari ezgu tushunchalarni mensimay, ularni oyoq osti qilsa, oxir-oqibatda xoru zor bo'ladi, degan xulosani olg'a surgan.

352. “Jimjitlik” romanidagi Nurmat tog'a qismati haqida nimalar bilasiz?

Asarda adolatsizlik va shafqatsizlikning qurboni bo'lgan Nurmat tog'a qismati juda ta'sirli va haqqoniy aks ettirilgan. Nurmat tog'a o'sha davrdagi ba'zi jirkanch amaldorlar tomonidan g'ijimlab tashlangan vijdonli bir kimsaning obrazi sifatida jonli va to'laqonli holda chiqqan. Adib bu obrazni yaratishda Nurmat tog'aning “*qamoqdan ozib-to'zib, bukchayib qaytib kelgandan*” keying hayoti, uning Mirvali qo'lida, tog'dagi shiyponda yolg'izlikda g'am chekib kun o'tkazishi, katta baza boshqaruvchisi (sobiq kolxoz raisi) Hojimumud Xolmatovga tasodifan duch kelishi va undan qasos olishi voqealaridan ustalik bilan foydalangan. Nurmat tog'a Hojimumudni o'ldirmaydi, lekin o'ldirgandan ham battar qiladi...

353. Ananas hidiga ajib tuyg'u va ma'no singdirgan Said Ahmad hikoyasi qaysi?

Said Ahmadning ananas hidiga ajib tuyg'u va ma'no singdirgan hikoyasi “Turnalar” deb nomlangan. Hikoyada oddiygina bir keksa kishi – Sobir ota bilan uchrashamiz. Hikoyani o'qiganimiz sari Sobir otaning og'ir qismati, irodasi, go'zal qalbi bilan tanisha boramiz.

Tabiat, manzara, holat, kayfiyat, milliylik... Lekin eng asosiysi, taqdir ba'zan inson boshiga qanday ko'rguliklar, azob-uqubatlarni solmasin, chidash mushkul bo'lgan anduhlarga giriftor etmasin, hayot hayotligicha, hech narsa bilan qiyoslab bo'lmas shirinligicha qolaveradi. "Turnalar"dagi ananas hidiga yozuvchi shu ma'nolarni jo etgan.

354. Qaysi tanqidchi Said Ahmadni "prozaning shoiri" deb atagan?

Mashhur tanqidchi Ibrohim G'afurov Said Ahmadni "*prozaning shoiri*" deb aytgan edi. Yozuvchining aksar hikoyalari bamisoli she'rdek o'qiladi. Bu fikrlarni "Turnalar" hikoyasiga ham qo'llasak xato bo'lmaydi. Qahramonning ruhiy dunyosi ham, tabiat manzarasi ham she'rdek qalblarimizga muhrlanadi. Adib ayrim so'z, ibora, kichik bir lavhada ham ruhiy holat, manzara, kayfiyat, xarakter qirrasini ko'rsatishga usta. E'tibor beraylik: "*Tepalikdan oshib o'tganimdan keyingina anhorning guvillashi eshitilmayqoldi. Dala jimjit. Shamol ananas hidini olib keladi. Qayerdandir, yaqinginadan turnaning "query-quirey"si eshitiladi. Bu ovoz negadir osmondan emas, pastdan keladi*". Bu lavha bizni hikoya o'quvchisidan uning ishtirokchisiga aylantirib qo'yganini sezmay qolamiz. Parchadagi har bir jumla oddiy manzara tasviri emas, ayni vaqtda, hikoyada biz tanishadigan voqealar darakchilari hamdir.

355. Said Ahmadning Lutfi, Bashorat, usta Boqi, militsiya polkovnigi Asqar kabi qahramonlar tasvirlangan asari qaysi?

Yuqorida nomlari zikr etilgan qahramonlar sevimli adibimiz Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" komediyasida uchraydi. Komediya katta bir o'zbek oilasining o'ziga xos sertashvish va serzavq hayoti kulgili voqealar asosida tasvirlangan.

356. Frontdan qochgan Tursunboy voqeasi "Ufq"ning qaysi kitobida tasvirlangan?

Jangdan qochgan Tursunboy voqeasi "Ufq" trilogiyasining ikkinchi kitobi - "Hijron kunlari" (1964) kitobida tasvirlangan. Unda xalqimizning urush davridagi og'ir hayoti, kurashi, vatanparvarligi, mardligi ehtiros bilan hikoya qilingan. Asarda qochoq Tursunboy qismati, uning to'qayzorda ota-ona hamda el-yurt mehri riga zor bo'lib, yolg'izlikda, xoru zorlikda o'lishi g'oyat ta'sirli qilib ifodalangan.

357. "Kuyov" asari qachon yozilgan, qaysi janrga mansub? Asardagi mashhur selksioner bog'bon kim?

Said Ahmad "Kuyov" komediyasini 1986-yilda yozgan. "Kelinlar qo'zg'oloni" komediyasidagi samimiy, xushchaqchaq kulgi ruhi "Kuyov" ruhiga ham singib ketgan. Bu asarda ham boshidan oxirigacha samimiy, beg'ubor va xushchaqchaq kulgi hukmronlik qiladi. Asarda mashhur seleksioner, keksa bog'bon G'ani ota obrazi mahorat bilan yaratilgan. Shu orqali yolg'izlik fojiasi komediya janri talablariga mos ravishda ochib berilgan.

Komediya ko'rsatilishicha, G'ani ota moddiy boylikka muhtoj emas, qarigan chog'da beva qolib, yolg'izlik azobini tortadi. Otaning yolg'izlik dardiga davo izlab

chekkan qiyinchiliklari, ichki kechinma va ruhiy holatlari asarda juda qiziqarli va ta'sirli qilib ko'rsatilgan. Shu asosda er-u xotinning qo'sha qarishi haqidagi xalq hikmatining asl ma'nosi va mohiyati ochib berilgan.

358. Qaysi adabiyotshunos olim Said Ahmad hikoyalarini Oybek, G'afur G'ulom va Abdulla Qahhor asarlariga qiyoslagan holda fikr bildirgan?

Said Ahmad ijodi urushdan so'ng, ayniqsa, 60-yillarda o'zining yuqori taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Shu davrda yaratilgan "Turnalar", "Onajonlar", "Ko'klam taronalari", "Xazina", "To'lqinlar", "Cho'l burguti", "O'rik domla", "Lochin", "Odam va bo'ron", "To'yboshi" kabi hikoyalar Said Ahmadning so'zga xasis, fikrga boy, yumorga kuchli yozuvchi bo'lib yetishganligidan, A. Qodiriy, G'.G'ulom, Oybek, A. Qahhor an'alarini muvaffaqiyat bilan davom ettirayotganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham professor Laziz Qayumov "*Said Ahmad hikoyalarida Oybekning psixologik tasvir mahorati, G'afur G'ulomning yumori, Abdulla Qahhorning bayondagi lakonizmi mujassam*"⁵⁸, - deb ta'kidlagan. Said Ahmadning o'zi ham "*Aslida meni hajv yo'liga G'afur G'ulom boshlab kirgan...*" - deya e'tirof etgan.

359. Said Ahmadning qaysi hikoyasida xushomadgo'y, laganbardor kimsa obrazi berilgan?

Said Ahmadning "Qoplon" hikoyasi satirik asarning yaxshi namunasi bo'lib, kishilardagi xushomadgo'ylik, laganbardorlik, o'z manfaati yo'lida hech qanday andisha-mulohazaga bormay surbetlarcha ish tutishi, odamlarni mansab kursisiga qarab munosabat ko'rsatishi kabi yaramas illatlar tanqidiga qaratilgan. Hikoyadagi Qurbonboy obrazi misolida yozuvchi o'zini hali tanimagan rahbarlar pinjiga kirishning nozik yo'llarini topib olgan, hech bir uyat-andishasiz o'zining laganbardorligini oshkora ko'rsatib, xo'jayinining polini yuvib, gilamini ham qoqib berishdan orlanmaydigan, vaqti kelganda shartta yangi boshliqqa xizmat qilib ketaveradigan oriyatsiz, ablah bir shaxs qiyofasini ko'rsatib bergan. Yozuvchi hikoya orqali bunday buqalamun, ablah kimsalarning jamiyatda, insonlar orasida bo'lmasligi, ularni tag-tomiri bilan yo'qotish kerak degan g'oyani ilgari suradi. Yozuvchi satirik hikoyasida shaxsdagi illatlarni qoralagan.

360. "Sobiq" hikoyasida qanday voqealar qalamga olingan?

Said Ahmadning "Sobiq" hikoyasi achchiq, alamli kulgidan yiroq, hajviy, sof yumoristik yo'nalishda yozilgan. Adib voqeani asar qahramonining tilidan hikoya qilarkan, jamiyatimizda, halol kishilarning xatti-harakatlarida paydo bo'layotgan dabdababozlik, nozarur yumushlarga chalg'ib, kulgili vaziyatlarga tushib qolishi kabi nuqsonlar ustidan yengil kuladi. Katta maqsadlar yo'lida intilayotgan yaxshi bir mehnatkash insonni asrab-avaylash, uning kuchidan oqilona foydalanish, har bir odam o'z o'rnida bo'lib, o'z vazifasini sidqidildan bajarishi

⁵⁸ Қайумов Лазиз. Замондошлар. – Тошкент: 1985, 309-310-бетлар.

lozimligi kabi qator masalalar hajviy yo'sinda tasvirlangan. Hikoya yumoristik xarakterda bo'lib, unda holat ustidan kulinadi.

361. "Sarob" hikoyasining muallifi kim va u nima haqda?

"Sarob" hikoyasining muallifi yozuvchi Said Ahmaddir. Adib bu hikoyada rossiyalik pioner Pavlik Morozovning o'z otasini fosh etib, ko'rsatgan "jasorat"ni takrorlagan Kimsan nomli oqpadarning o'z buzrukvoriga qarshi qilgan yovuzligi va buning ayanchli oqibatini mohirona aks ettirgan. Shu fojiali voqea misolida sho'rolar davridagi ijtimoiy adolatsizliklar, nopokliklar, kommunistlarning o'z qora niyatlarini amalga oshirishda bolalarni otalariga qarshi qayrab ish yuritishdan ham qaytmaganliklari fosh etilgan.

362. Said Ahmadning qanday hajviy hikoyalarini bilasiz?

Said Ahmad ijodida hajviy hikoyalar ham ko'p. Uning "La'li badaxshon", "Begona", "Xanka bilan Tanka", "Mening do'stim Boboyev", "Lampa shisha" kabi hajviy hikoyalarida yozuvchi hayotda uchrab turuvchi nopoklik, manmanlik, maishiy buzuvchilik, ig'vogarlik, ko'zbo'yamachilik, rasmiyatchilik singari illatlar ustalik bilan fosh etilgan. Bunga adibning "Mushtum" jurnali sahifalarini bezagan, teletomoshabinlarga zavq bag'ishlagan miniaturalari ham yaqqol misol bo'la oladi.

363. Said Ahmadning qaysi hikoyalarida xalqimizga xos milliy xususiyatlar, urf-odatlar va ezgu an'analar tasviri singdirib yuborilgan?

Said Ahmad hikoyalarida hayot nafasi ufurib turgani uchun ham ular zavq-shavq bilan o'qiladi. Xalqimizga xos milliy xususiyatlar, urf-odatlar ezgu an'analari tasviri tabiiy ravishda asarlar sujetiga singdirib yuboriladi. "Odam va bo'ron", "Quda va qudag'aylar", "Sumbul", "Laylak keldi", "Yalpiz hidi", "Onajonlar", "Xotinlar", "Oriyat" kabi hikoyalarida bu hol ochiq ko'rinadi. Bu hikoyalarda xalqimizga xos so'z o'yinlari, askiya va mubolag'alar ko'zga tez-tez tashlanib turadi.

364. Said Ahmadning birinchi yirik nasriy asari qaysi?

Said Ahmadning birinchi yirik nasriy asari "Qadrdon dalalar" bo'lib, 1949-yilda yozilgan. Bu qissada yozuvchi hayotni kengroq va chuqurroq aks ettirgan. Qissaning bosh qahramoni – bir oyog'i nogiron, urushdan qahramon bo'lib qaytgan Po'latjon. U jamoa xo'jaligi firqa tashkiloti kotibi va qurilayotgan elektr stansiya boshlig'i sifatida yeng shimarib ishga kirishib ketadi. Barcha ishlarda muvaffaqiyat qozonadi, shu bilan birga muhabbat bobida ham tahsinga loyiq. U Nazokatni sevadi.

Qisqasi, Said Ahmad qalamiga xos inson qalbi torlarini mayin va nazokat bilan, o'rniga qarab, goh sho'x, goh nolavor pardalarda cherta olish hamda bu ohanglarni tasvirlash mahoratiga "Qadrdon dalalar" qissasining ko'p joylarida duch kelamiz.

365. Qaysi yozuvchi : "Ufq" qochoq haqidagi roman emas, aksincha, qochoqni bag'riga sig'dira olmagan xalq haqidagi asardir"-degan?

“Ufq” romanida xalqimizning olijanob milliy xususiyatlari va o’ziga xos milliy xarakteri yorqin aks etgan. Ana shuning uchun ham mashhur yozuvchi Abdulla Qahhor asarga yuqori baho bergan. Tanqidchi Ibrohim G’afurov esa haqli ravishda “Ufq” trilogiyasida o’zbek milliy prozasi tasvir usullari sintezlashdi. Chukur lirizm bilan sug’orilgan bu asar epik tasvir bilan zamonaviy ilg’or psixologik tahlilning birlashgan namunalarini beradi”, - deb yozgan edi.

366. Said Ahmad “Ufq” romanidagi qaysi obrazni yaratishda xalqimizga xos milliy xususiyatlar va milliy xarakter belgilaridan unumli foydalangan?

Said Ahmad Ikromjon obrazini har jihatdan mukammal va jonli qilib tasvirlagan. Bu obraz vositasida oddiy kishilarning Vatanga bo’lgan cheksiz muhabbati mahorat bilan tasvirlangan. Ikromjon milliy xarakter sifatida namoyon bo’lgan. Xalqimizga xos qiyinchiliklarga chidash, mustahkam iroda, hayotbaxsh ruh Ikromjonning suyak-suyagiga singib ketgan.

367. “Ufq” romanidagi qochoq kim?

Said Ahmad asarda hayotdagi ibratli tomonlarni, ajoyib fe’l-atvor sohiblari bo’lgan insonlar obrazlarini tasvirlash bilan birga, salbiy jihatlarni, yaramas shaxslarni ham ro’yiost aks ettiradi. Asarda qochoq Tursunboy qismati, uning to’qayzorda ota-ona hamda el-yurt mehriqga zor bo’lib, yolg’izlikda, xor-zoirlikda o’lishi g’oyat ta’sirli qilib tasvirlangan. Tursunboy Jannat xola va Ikromjonlarning yolg’iz o’g’li bo’ladi. U Zebini sevadi. Sevgilisi Tursunboy qochoq nomini olqach, Nizom bilan topishadi. Nizomboy Jannat xola va Ikromjonlarning tutingan o’g’liga aylanadi.

368. Trilogiyaning “Ufq” deb nomlanishi qaysi qahramon monologida aks etgan?

Trilogiyaning “Ufq” deb nomlanishi Ikromjon monologida aks etgan. Bu timsol o’z milliy qadriyatlariga sadoqat hamda porloq kelajakka komil ishonchning ramzidir. Ikromjonning asar so’ngida: *“Yo’q, bolam, men dardga chalinmayman. Men o’lmayman. Tik bo’lsam yurib, yiqilsam emaklab, yotib qolsam sudralib hu o’sha ufqqa boraman. Ufqdan turib Yozyovo-nimga bir qayrilib qarayman. Ufqqa bormay o’lishim mumkin emas”*, – deyishi bejiz emas. Trilogiyaning “Ufq” deb homlanishi ham ana shu hayotbaxsh ruhdan kelib chiqqan. Bu asardagi ufq tushunchasi xalqimizning Ikromjon obrazida yorqin gavalangan o’z milliy qadriyatlariga sadoqati hamda porloq kelajakka komil ishonchining ramzidir. Shuni ham aytib o’tish kerakki, bu asar uchun Said Ahmad respublika Davlat mukofoti sovrindori bo’lgan.

369. O’rik domla, To’pponcha polvon, Yog’och polvon obrazlari qaysi asar qahramonlari hisoblanadi?

O’rik domla, To’pponcha polvon, Yog’och polvon obrazlari Said Ahmadning “Cho’l burguti” asari qahramonlaridir. Cho’llarni o’zlashtirayotgan oddiy odamlarning ajoyib fazilatlarini bu hikoyada ochib berilgan. Bu odamlarning bir-biriga o’xshamaydigan xarakterlari, o’ziga xos jonli obrazlari yaratilgan. Yoz-

yovonlik cho'l burguti Rahimjon , cho'lni bog'u rog'ga aylantirib,o'lkamizni shirin-shakar mevalarga yanada serob qilishni hayotning maqsadi deb bilgan maslakdoshlari hayoti ajoyib lavhalarda tasvirlangan.

370. Said Ahmadning sobiq Ittifoq davrida bo'lib o'tgan fojiali voqealar ta'sirli, aniq ko'rsatilgan asarlari qaysilar?

Said Ahmad hikoyalari fikrning aniqligi, sujetning qiziqarliligi, uslubning ravonligi, tilning pishiq va obrazlilik bilan o'quvchilarga g'oyat manzur bo'lgan. Buni adibning mustaqillik davridagi ijodi ham tasdiqlaydi. 30 dan ortiq hikoyalari shu davrda yaratildi. Bular haqida fikr yuritib adibning o'zi: *“Mening o'ylashimcha va ko'plab gazetonlar fikricha, ushbu hikoyalar so'nggi yillarda yaratilgan eng yaxshi hikoyalar turkumi bo'ldi”*, - deb yozgan edi. Adibning *“Sarob”*, *“Azroil o'tgan yo'llarda”*, *“Qorako'z Majnun”* kabi hikoyalari bu fikrimizning yorqin dalili bo'la oladi. Bu hikoyalarda sobiq sho'ro davrida bo'lib o'tgan fojiali voqealarning yorqin manzaralari ishonarli va ta'sirli qilib ko'rsatilgan.

371. Said Ahmadning xotira (esse) lardan iborat asari qanday nomlangan?

Said Ahmad ijodining keying yillarida xotira (esse) lar ham yozdi. Bu bilan ijodkorimiz Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Furqat va boshqa qator so'z san'atkorlari an'analarini davom ettirdi. Adibning 1999-yilda yozilgan *“Yo'qotganlarim va topganlarim”* asari yorqin xotiralardan iborat.

Ma'lumki, Said Ahmad ko'plab mashhur ijodkorlar bilan uzoq vaqt birga bo'lgan, asarda shular haqida ko'rganlarini yozgan. Kitobning birinchi bobida ustozlari va yaqinlari – Oybek, G'. G'ulom, A. Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Shuhrat, Saida Zunnunova, temirchi Usta Amin bobo, A. Muxtor, Turob To'la, O'. Umarbekovlar haqida, ikkinchi bobida O'. Hoshimov, N. Aminov, T. Murod, N.Fozilov, M.Qoriyev, To'lan Nizom kabu bugungi kunda yetuk yozuvchi bo'lgan, xalq hurmatiga sazovor bo'lgan yozuvchilar, shogirdlari to'g'risida qaynoq fikrlar bayon qilingan. 2003-yilda yozilgan *“Kiprikda qolgan tong”*, *“Umrin bayoni”* kabi qator asarlari ham esse va xotiralardan iborat.

372. “Kuyov” asari qachon yozilgan, uning qaysi janrda yozilganini ayting.

Said Ahmad *“Kuyov”* komediyasini 1986-yilda yozgan. Komediya boshidan oxirigacha samimiy, xushchaqchaq kulgi hukmronlik qiladi. Asarda mashhur seleksioner, keksa bog'bon G'ani ota obrazi mahorat bilan yaratilgan. Shu orqali yolg'izlik fojiasi komediya janri talablariga mos ravishda ochib berilgan.

Komediya ko'rsatilishicha, G'ani ota moddiy boylikka muhtoj emas, qarigan chog'da beva qolib, yolg'izlik azobini tortadi. Otaning yolg'izlik dardiga davo izlab chekkan qiyinchiliklari, ichki kechinma va ruhiy holatlari asarda juda qiziqarli va ta'sirli qilib ko'rsatilgan. Shu asosda er-u xotinning qo'sha qarishi haqidagi xalq hikmatining asl ma'nosi va mohiyati ochib berilgan.

373. Said Ahmadga qanday mukofotlar berilgan?

Sevimli yozuvchimiz Said Ahmadning soʻz sanʼati sohasidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. Adib “Oʻzbekiston xalq yozuvchisi” unvoniga, “Ufq” trilogiyasi uchun Davlat mukofotiga sazovor boʻlgan. Mustaqillik yillarida “Doʻstlik”, “Buyuk xizmatlari uchun” ordenlari hamda 80 yoshga toʻlishi, uzoq va barakali ijodi evaziga Vatanimizning yuksak mukofoti – “Oʻzbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlangan. Said Ahmad 2008-yilda vafot etdi. 2013-yil 10-iyunda Toshkentdagi Alisher Navoiy nomli Milliy bogʻda Said Ahmad va uning rafiqasi, xalqimizning sevimli shoirasi Saida Zunnunovalarga haykal oʻrnatildi.

Mavzu: Odil YOQUBOV

374. Odil Yoqubovning hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz?

Odil Yoqubov hozirgi oʻzbek adabiyotining atoqli vakillaridan biridir. Yozuvchi proza, dramaturgiya va publisistika sohasida barakali ijod qilib, XX asr oʻzbek adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshdi.

Odil Yoqubov 1926-yilda Qozogʻistonning Chimkent viloyati Turkiston tumani Otaboy qishlogʻida tugʻilgan. Ikkinchi jahon urushida qatnashish uchun 1945-yilda frontga ketgan. Yaponiyaga qarshi olib b orilgan harakatlarda qatnashish uchun bepoyon Gobi sahrosini yayov kezib chiqib, oʻlimlardan omon qolgan. Burch tuygʻusi yuksak yozuvchi uchun harbiy xizmat 1950-yilga qadar choʻzilgan. Frontdan qaytgach, Toshkent davlat universiteti (hozirgi OʻzMU)ning filologiya fakultetida oʻqib, uni imtiyozli diplom bilan tugatgan (1956). Oʻzbekiston Yozuvchilar tashkilotida maslahatchi (1955-1959), “Literaturnaya gazeta”da maxsus muxbir (1959-1963, 1967-1970), “Oʻzbekfilm”da, Oʻzbekiston Kinomatografiya davlat qoʻmitasida bosh muharrir (1963-1967), Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyotida (1970-1982), “Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati” gazetasida bosh muharrir (1982-1987) boʻlib ishlagan. 1987-yildan 1996-yilgacha Oʻzbekiston yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining raisi boʻlgan. Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, Odil Yoqubov ijod qilish bilan birga, Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Respublika atamashunoslik qoʻmitasiga rais, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasining vitse-prezidenti sifatida uzoq yillar faoliyat koʻrsatdi.

Odil Yoqubov proza va dramaturgiya sohasida joʻshqin faoliyat olib bordi.

375. ”Namangan tomonlarda”, ”Qishloqdagi fojia” kabi publitsistik maqolalar qaysi ijodkorga tegishli?

Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov oʻzining faol ijtimoiy ishlari, jurnalistika va badiiy ijod sohasidagi faoliyati bilan respublikamizda hozirgi adabiy-badiiy tafakkur rivojiga kuchli taʼsir koʻrsatgan adibdir. ”Namangan tomonlarda”, ”Qishloqdagi fojia” kabi publitsistik maqolalar sevimli adibimiz tomonidan yozilgan.

376. Sharqda Kvantun armiyasini tor-mor etishda qatnashib, 1950-yilda harbiy xizmatdan qaytgan adib kim?

Odil Yoqubov urushning oxirgi yili o'zi tug'ilib o'sgan qishlog'i Qarnoqdan qirq nafar tengdoshlari qatorida harbiy xizmatga jo'naydi. Ikkinchi jahon urushida qatnashish uchun, 1945-yilda frontga ketgan, Yaponiyaga qarshi olib borilgan harakatlarda qatnashish uchun bepoyon Gobi sahrosini yayov kezib chiqadi, Uzoq Sharqda Kvantun armiyasini tor-mor etishda qatnashadi. 1950-yili harbiy xizmatdan qaytib keladi.

377. Odil Yoqubov adabiyotimizga qaysi asari bilan kirib keldi?

Odil Yoqubov adabiyotimizga o'z zamondoshlari kuychisi sifatida kirib keldi, asarlarida o'z davrining ijtimoiy-ma'naviy masalalarini ko'tardi. Odil Yoqubov harbiy xizmatda ekanidayoq ko'p ijodiy mashqlar qilgan. 1951-yilda yozgan "Tengdoshlar" qissasi bilan yozuvchi adabiyotimiz maydoniga kirib keldi. Bu vaqtda u talaba edi.

378. Odil Yoqubovning "Muzqaymoq" asari qaysi janrga xos va unda qanday voqealar qalamga olingan?

Odil Yoqubovning "Muzqaymoq" asari hikoya janriga xos. Unda Stalin davri qatag'oni fojiasi yoritilgan. Hikoya bola (Odil) tomonidan bayon qilingan. Yozuvchi hikoya orqali mustaqillikning qadriga yetish, o'shanday yovuzliklar bo'lmasligi uchun kurashish, mehr-oqibat, adolat, g'oyalariga erishish fikrini ilgari suradi.

379. Odil Yoqubovning qanday qissalarini bilasiz?

Sevimli adibimiz Odil Yoqubov hikoya, ocherk, feleton va ko'plab romanlar, shu bilan birga sahna asarlarini ham yaratgan. Nasr ustasi "Bir feleton qissasi", "Muqaddas", "Tilla uzuk", "Qanot juft bo'ladi", "Larza", "Izlayman", "Billur qandillar", "Matluba", "Qaydasan, Moriko", "Ota izidan" kabi qissalarni ham yozgan.

380. "... O'qishni tashlab, qo'lga ketmon olishga to'g'ri keldi, yer haydadik, suvchilik qildik..." Fikrlar qaysi ijodkorga tegishli?

Odil Yoqubov yoshligida ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechirdi. Halol va vijdonli otasi 1937-yil qurboniga aylandi – johil kimsalar tomonidan qamaladi. To'rt norasida birgina beva ayol qo'lida qoladi. Olijanob odamlar himmat qo'lini cho'zadilar. Shular madadida oila qaddini tiklab oladi. Orada urush boshlanadi. Barcha erkaklar frontga o'tlanadi, qishloqdagi og'ir ishlar chollar, ayollar, o'spirinlar yelkasiga tushadi. Odil Yoqubov yuqoridagi fikrlarni "Hayot saboqlari va ijod mashaqqatlari" maqolasida yozarkan, yana quyidagilarni ta'kidlaydi: "*Ko'klamda dashtga chiqib yer haydadik, yozda suvchilik qildik, o'roq o'rdik, yalangoyoq tikon kechib "eshak karvon"larda front uchun g'alla tashidik. Bu ham yetmagandek, urush cho'zilib, mash'um qoraxatlar kela boshlaganida, ayollarning, yosh-yosh kelinchaklarning osmonu falakni zir titratguvchi faryodlarini eshitib, qon qaqshadik, ular chekkan iztiroblarning guvohi bo'ldik...*"⁵⁹.

⁵⁹ Фозилов Н. Устозлар даврасида. – Т.: "Ёш гвардия", 1988, 16-бет

381. Odil Yoqubovning qaysi asari uni yozuvchi sifatida elga tanitdi?

Odil Yoqubovning yozuvchi sifatida elga tanitgan asari 1961-yilda e'lon qilingan "Muqaddas" qissasi hisoblanadi. Ham ma'yus, ham allaqanday nurli ohanglarga to'la bu sevgi dostoni qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Bu asar shunchaki ikki yoshning sevgi qissasidan iborat bo'lmay, unda sevgi bahonasida insonning inson, el-yurt oldidagi burchi, halollik, adolat, diyonat kabi masalalar ko'tarilgan.

Yozuvchi "Muqaddas" qissasida hayotning o'zidan olgan zavqini, o'z yurak dardini, hayajonlarini izhor etgan, o'zi qalamga olgan hodisalarni murakkabligi, ziddiyatlari, chinakam nafosati bilan kitobxonga yetkaza olgan. Qissada ikki yoshning hayotdagi ilk mustaqil qadamlari, quvonch va tashvishlari samimiy tarzda hikoya qilingan.

382. Tanqidchi Ozod Sharafiddinov yozuvchining qaysi asarini yaxshi asar sifatida baholagan?

Odil Yoqubovning "Tengdoshlar" qissasi 1951-yilda bosilgan. Shundan keyin adib ko'plab asarlarni e'lon qildi. Biroq 1961-yilda e'lon qilingan "Muqaddas" qissasi muxlis va mutaxassislarga juda yoqib tushdi. Shuning uchun ham mashhur tanqidchi Ozod Sharafiddinov bu asarni chuqur tadqiq qilgan va haqli ravishda *"birinchi pichoqqa ilinadigan asar"* deya baholagan.

383. Qaysi ijodkor uchun diyonat, imon-e'tiqod, ijtimoiy adolat ijodining bosh ma'naviy muammosi hisoblanadi?

Odil Yoqubov adabiyotga zamondoshlari kuychisi, solnomachisi sifatida kirib keldi, asarlarida birinchi galda o'z davrining ijtimoiy-ma'naviy masalalarini ko'tardi. Ijodkor uchun diyonat, imon-e'tiqod, ijtimoiy adolatni kuylash bosh va asosiy masala hisoblanadi. Odil Yoqubovning "Muqaddas" qissasi ikki yoshning sevgi qissasidan iborat bo'lmay, unda sevgi bahonasida insonning inson, el-yurt oldidagi burchi, halollik, adolat, diyonat kabi masalalar ko'tarilgan.

"Muqaddas" so'zi faqat qissa qahramoni nomi bilangina bog'liq bo'lmay, yozuvchi asarda zo'r ehtiros bilan ilgari surgan – vijdon, burch, diyonat, imon-e'tiqod g'oyasini ham o'zida ifodalaydi. "Muqaddas"dan tortib "Diyonat", "Oqqushlar, oppoq qushlar" romanlarida ham shu muammo adibning diqqat markazida turgan.

384. "Muqaddas" qissasi qahramoni Sharifjonni qing'ir yo'lga boshlagan omillar qaysilar?

"Muqaddas" qissasi qahramoni Sharifjonni qing'ir yo'lga boshlagan omillardan biri oilaviy muhit ta'siri edi. Sharifjon muayyan bir vaziyatda o'z irodasiga, vijdoni, e'tiqodiga xilof ravishda xudbinlik ko'chasiga kiradi. Bu holat ikki yoshning sevgi sarguzashtlari, oliy maktabga kirish uchun imtihon topshirishlari bilan bog'liq kechinmalarini ifodalashda yaqqol ko'rinadi. Sharif o'z sevgilisi Muqaddas bilan birga kirish imtihonlarini topshiradi. Biroq yigit imtihonda nopok yo'l tutib, o'zi sezmagani va istamagani holda Muqaddasga jabr qilib qo'yadi. Qiz imtihondan o'ta

olmaydi. Bu voqea yigit qalbida chuqur iz qoldiradi, ruhan qiynaladi, og'ir iztirob girdobida qoladi. Uning ma'naviy hayoti ostin-ustun bo'lib ketadi.

385. Qaysi asar yozuvchi Odil Yoqubovning bosh estetik, axloqiy prinsiplarini shakllantiruvchi asar sifatida ham qimmatli?

Yozuvchi Odil Yoqubov "Muqaddas" qissasida bir qarashda kundalik oddiy voqeaday bo'lib ko'rinadigan hayot lavhalarini chuqur tadqiq etgan. Shu orqali axloq-odob va yoshlar tarbiyasiga oid muhim muammolarni ko'targan. Poklik, vijdoniy soflik, to'g'rilik va halollikni ulug'lab, yoshlar hayoti va ongida uchrovchi olg'irlik va qing'irlikning yaramas odatlarni keskin qoralagan. Shuning uchun ham "Muqaddas" yozuvchining bosh estetik, axloqiy prinsiplarini shakllantiruvchi asar sifatida ham g'oyat ahamiyatlidir.

386. Odil Yoqubovning "Qanot juft bo'ladi" asari nima haqida bahs yuritadi?

"Qanot juft bo'ladi" qissasi 1968-yilda yozilgan. Asarda yozuvchi bir emas, bir necha ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy muammolarni ko'taradi. 60-yillar kishilari ma'naviy hayotida nimalar sodir bo'lyapti, qaysi odatlar maqbul, qaysilari esa nomaqbul, xalqning ma'naviy yuksalishiga nimalar to'sqinlik qilyapgani haqida javob izlaydi.

Qissa personajlari Akram, Sayyora, Shavkatjon, Nilufar, Murodjon, Sodiq – barchasi burchga munosabat, imon-e'tiqod, diyonat, adolat tuyg'usi fonida tahlil etiladi.

Asarning yetakchi personajlari – Akramning ikkilanishlari, iztiroblari, Sayyoraning adashishi, boshqa personajlar taqdiri va xarakteridagi kuchli va ojjiz jihatlari davr sur'ati bilan bog'liq holda tahlil etiladi.

387. Odil Yoqubov qaysi asarida dongdor ayol Saltanatni halokatga olib kelgan omillarni badiiy tahlil qilib bergan?

Odil Yoqubov "Bir feleton qissasi"ni 1963-yilda yozgan. Unda keltirilishicha, journalist Uchqunjon yaxshi surishtirmay shoshma-shosharlik bilan bir vaqtlar mehnatda dong taratgan, keyinchalik esa yengil hayot kechirish yo'liga kirib ketgan ayol haqida feleton yozib yuborgan. U katta xatoga yo'l qo'rganini sezib qolgach, vijdon azobiga tushadi, asli pokiza yigit yuz bergan xatoni tuzatish uchun qalb da'vati bilan kurashga otlanadi. Xuddi o'sha kurash jarayonida, bir tomondan, qahramonning vijdon, diyonat tuyg'usining kuchi namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, yozuvchini hayajonga solgan hayotiy chigalliklarning ildizi ochila boradi. Yozuvchi dongdor ayol Saltanatni og'ir fojiaga olib kelgan omillarni badiiy tahlil etib beradi.

388. Odil Yoqubovning qaysi romanlarini faqat adib ijodida emas, balki o'zbek romanchiligi rivojida ham muhim bir bosqich sifatida e'tirof etiladi?

Odil Yoqubovning 70-80-yillari yaratgan zamondoshlari haqidagi "Diyonat", "Oqqushlar, oppoq qushlar", "Adolat manzili", tarixiy mavzudagi "Ulug'bek xazinasi" va "Ko'hna dunyo" asarlari faqat adib ijodida emas, o'zbek romanchiligi rivojida ham yangi bir bosqichni tashkil etadi. Yozuvchi xoh zamondoshlari, xoh

olis tarix haqida qalam tebratsin, har ikki holda ham avvalo davrning muhim romanbop gaplarni aytadi, ko'pchilikni hayajonga solayotgan katta ijtimoiy muammolarga e'tibor tortadi, keskin dramatik xarakterlar yaratadi. Eng muhimi, romannavis ayni mustabid tuzum mafkurasi va psixologiyasi keng yoyilgan kezlarda shu mafkuraga zid borib, bu tuzum aqidalarining zararli oqibatlarini jasorat va rostgo'ylik bilan ko'rsatadi.

389. Odil Yoqubovning "Er boshiga ish tushsa..." romani qachon yozilgan? Romanning bosh qahramoni kimlar, asarda qanday voqealar tasvirlangan?

"Er boshiga ish tushsa..." romani 1966-yilda yozilgan. Bu asar yozuvchining urush yillari o'zi shohid bo'lgan hodisalar, bolalik taassurotlari asosida bitilgan. Romanning bosh qahramonlari uch bahodir – Mashrab, Qo'chqor va Akmal -18 ga ham yetmagan o'spirinlar. Er boshiga ish tushgan og'ir urush yillarida ular juda erta fuqaro sifatida shakllanadilar, zamon tashvishlarini o'z zimmalariga oladilar, kattalar kabi jamoat ishlarida faol qatnashadilar, qalloblik, nopoklikka qarshi mardona kurash olib boradilar. Yozuvchi yosh qahramonlarning musaffo qalbini, ilk ishqiy kechinmalarini, mehnatdagi shijoatini, "eshak karvonlar"da qozoq o'tovidan urug'lik don keltirishdagi jonbozliklarini, Ertoyev, Chavandoz singari qalloblarga nisbatan nafratini ehtiros bilan ifoda etadi. Asarning asosiy qahramonlari romantik kayfiyatli yoshlar bo'lganidan tasvir ham shunga mos ravishda jo'shqin lirik-publitsistik ohang bilan yo'g'rilgan. Romanda yozuvchi uslubining muayyan jihati – hodisalarni romantik ehtiros bilan ifodalash yorqin namoyon bo'ldi.

390. Odil Yoqubovning qanday tarixiy asarlarini bilasiz?

Odil Yoqubov zamondoshlarimiz hayotini aks ettiruvchi hikoya, qissa va romanlar muallifi sifatida o'zbek kitobxonlariga yaxshi tanish. Adib tarixni ko'p o'rgandi, ularning samarasi o'lasroq "Ulug'bek xazinasi" (1973) va "Ko'hna dunyo" (1983) romanlarini yaratdi. Bular yozuvchiga katta shuhrat keltirdi. Adib asarlarida tarixiy faktlar, shaxslar asos qilib olingan bo'lsa-da, tarixiy shaxslarning batafsil biografiyasi emas, balki shu faktlar bahonasida muayyan ijtimoiy-axloqiy muammolar yuqori o'ringa chiqqan.

391. Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasi" asarini yozishda kimning tajribasidan foydalandi?

Ma'lumki, xalqimizning buyuk farzandi Ulug'bek haqida bir qancha badiiy va ilmiy-ommabop asarlar bor, ular orasida Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi alohida ajralib turadi. Odil Yoqubov ham Maqsud Shayxzoda tajribalaridan bahramand bo'lgan.

392. "Ulug'bek xazinasi" (Odil Yoqubov) romanining "Mirzo Ulug'bek" tragediyasidan farqi nimada?

"Ulug'bek xazinasi" romani bilan "Mirzo Ulug'bek" (Maqsud Shayxzoda) tragediyasi orasida ko'pgina umumiyliklar bor. Roman ham tragediya kabi

Ulug'bek hayotining so'nggi davrini hikoya qilishdan boshlanadi, tragediyadagi ko'pgina tarixiy faktlar romanda ham tilga olinadi, bir qancha tarixiy shaxslar ham bu yerda ham ishtirok etadilar. "Ulug'bek xazinasini" romani faktlar, tarixiy shaxslarning badiiy talqini, o'zining uslubiy, g'oyaviy-badiiy yo'nalishi bilan "Mirzo Ulug'bek" tragediyasidan keskin farq qiladi.

393. Odil Yoqubovga katta shuhrat keltirgan asari haqida nimalar bilasiz?

Odil Yoqubovga katta shuhrat keltirgan asari, shubhasiz, "Ulug'bek xazinasini" romani bo'ldi. Roman keng jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. Ko'plab olim-u yozuvchilar, jamoat arboblari roman haqida o'z mulohazalarini bildirishdi. Davrimizning ulkan adibi Chingiz Aytmatov shunday yozadi: *"Yaxshi kitob haqida gapirish maroqli. Bu –yuksak va olijanob proza namunasi. Badiiy quvvati jihatidan salmoqdor bu tarixiy roman meni larzaga soldi. Bu esa yaxshi asarning birinchi alomati. Bundan ham muhimi shundaki, romanni o'qirganman, ko'nglimda turkey xalqlarimiz tarixi uchun iftixor tuyg'usi jo'sh uradi. Ulug'bek shunday dahoki, u bizning asrlar osha tariximizga, ona yerda tutgan mavqeimizga guvoh. Ulug'bek – bizning dildagi ohimiz, hasratimiz, u buyuk insoniy tajribalar haqida, dunyo haqida yuksak mezonlarda turib, mulohaza yuritish, hukm-saboqlar chiqarish uchun asos beradigan shaxs...*

Ulug'bek men uchun o'rta asrning atoqli olimi bo'lgani uchungina emas, balki xalqlarimiz tarixidagi eng murakkab va og'ir fojiani boshdan kechirgan alloma bo'lgani uchun ham ulug'dir".

394. Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini" romanidagi qaysi alloma mudhish voqealar girdobida dovdirab, o'z ustozidan yuz o'giradi, fanga, e'tiqodiga xiyonat qiladi?

Text tepasiga Abdullatif boshliq qora guruh(ularning ma'naviy rahnamosi Nizomiddin Xomush) kelgach, Ali Qushchi boshliq ma'rifat fidoyilari Ulug'bek xazinasini o'sha dahshatli kunlarda qora guruhlar nazaridan, tahdid va ta'qibidan himoya etish uchun ketgan shiddatli, xatarli kurashda jonbozlik ko'rsatadilar.

Ana shunday og'ir sinov paytida maslakdosh shogirdlar orasida ham saralanish yuz beradi. Olim mavlono Muhiddin mudhish voqealar oldida dovdirab, o'z ustozidan yuz o'giradi, fanga, e'tiqodiga xiyonat qiladi.

395. Odil Yoqubovning "Ko'hna dunyo" romani haqida nimalar bilasiz?

Odil Yoqubov tarixiy o'tmish mavzusini aks ettirish va xalqimiz orasidan yetishib chiqqan buyuk allomalar obrazini yaratishda tarixiy-falsafiy romani – "Ko'hna dunyo"da katta yutuqqa erishgan. Unda mashhur tarixiy shaxslar – Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning ilm-fan taraqqiyotiga, xususan, tibbiyot ilmining rivojiga qo'shgan olamshumul hissasi badiiy yo'l bilan batafsil va teran aks ettirilgan. Shuningdek, ularning og'ir hayoti va fojiali qismati mahorat bilan tasvirlangan. Romanda Beruniy va ibn Sino obrazlari o'z davrining ijtimoiy ziddiyatlari va shiddatli voqealari zaminida ko'rsatilgan. Shunga ko'ra asarda o'sha davr ruhi bo'rtib turadi. Asar xalqimizning uzoq o'tmishi, uning o'sha davrdagi turmush tarzi, urf-odatlarini haqida boy ma'lumot beradi.

396. Odil Yoqubovning “Ko’hna dunyo” romani sujeti qanday tashkil topgan?

Sermahsul adib Odil Yoqubovning “Ko’hna dunyo”romani sujeti rivoyatlar negizida tashkil topgan. Romanda ishlatilgan rivoyatlarni uch guruhga bo’lish mumkin: 1. Roman sujeti tarkibida “*qistirma hikoya*” sifatida berilgan rivoyatlar. 2. Roman sujetiga asos bo’lgan voqealarning badiiy to’qimasiga singdirib yuborilgan rivoyatlar. 3. Roman sujeti tarkibidagi mif, afsona va rivoyat motivlari.

“Ko’hna dunyo” romanida telba shoh va avom xalq, dono to’ti va besabr podshoh, olam va uning yaratilishi haqidagi, “*ne’mati ilohiy*” to’g’risidagi, Abu Rayhon Beruniy va Mahmud G’aznaviy bahsiga doir rivoyat asar sujetiga mohirlik bilan singdirib yuborilgan. Bu rivoyatlar romanda tasvirlangan tarixiy voqelik va obrazlar ma’naviy olamining badiiy gavdalanishiga xizmat qilgan. Zero, romanda qo’llanilgan har bir rivoyat sujeti bilan mustahkam bog’lanib ketgan.

397. ”Yoqubovning romani markazida Ibn Sino hamda Beruniy taqdirlari, ular yashagan davr turadi. U tarixga bugungi davr nuqtai nazaridan qaraydi...” Kimning fikrlari va qaysi asar haqida?

O’tmish haqiqati tahlili va saboqlari “Ko’hna dunyo” romanida o’ziga xos tasvirlangan. Adabiyotshunos Sarvar Azimov “ Ko’hna dunyo” romanini tahlil qilarkan, yuqoridagi fikrlarini davom ettirib, shunday deydi: “... *muallifning xulosalari va umumlashmalari keng, shuning uchun tarixiy materialga ajib dolzarb ma’-no bag’ishlaydi. Zamonlar osha qilingan sayohat teran falsafiy umumlashmalar chiqarishga imkon beradi. Romanda tasvirlangan barcha voqealar hujjatlar bilan cheklab qo’yilmagan. Odil Yoqubov tarixni xuddi ko’rib turadi, tarix bilan bahslashadi, zamondoshlariga uzoq o’tmish tajribalaridan guvohlik berayotgandek bo’ladi...*”⁶⁰.

398. Shorahim shovvoz qaysi asar qahramoni? U qanday xarakterlarga ega?

“Oqqushlar, oppoq qushlar” romani markazida Shorahim shovvoz obrazi turadi. Bu obraz siymosida mehnatkash xalqimiz, asl dehqon-bog’bonga xos fazilatlar, ayrim ojizliklaryaxshi namoyon bo’lgan. Shovvoz butun umri mehnat bilan o’tgan, el-yurt g’amida o’zini, shaxsiy hayotini, huzur-halovatini unutib yuborgan. Shovvoz yil davomida erta-yu kech mehnat bilan bo’lib, tug’ilgan yurtining chiroyi va ne’matlaridan bebahra qolgan, vafodori Oysuluv ko’nglini ham ololmagan, sog’lig’i haqida qayg’urmagan. Oxirida u buning uchun o’kinadi, ammo hayotini qaytadan boshlash imkoniyati bo’lganida, yana shu tarzda umr kechirishi tabiiy, chunki u mehnat uchun tug’ilgan, el-yurt g’amidan boshqasini bilmaydigan odam.

Shovvoz – birda mard, tanti, kezi kelganda, qahri qattiq; birda muloyim, qalbi daryo; birda o’ta soda, go’l; birda esa, ko’pni ko’rgan, donishmand – xullas, g’aroyib tabiatli odam. Uning yigitlik sha’ni oyoqosti qilingan o’g’liga aytgan qat’iy so’zini tinglaganda, qabih kimsa – Fotih va qallob Muzaffarga hamla qilgandagi, Muzaffar “himmati”ni rad etgandagi holatini ko’rganimizda uning

⁶⁰ **Азимов Сарвар.** “Ўтмиш ҳақиқати сабоқлари”. – “Шарк Юлдузи” журнали, 1986 йил, 10-сон, 168-бет.

shijoatiga qoyil qolamiz. Umr yo'ldoshi Oysuluvga o'z vaqtida yordam berolmaganiga, o'g'li avariya uchraganda chekkan alamli zorlarini o'qiganda dildan achinamiz...

399. Adib Odil Yoqubovning “Diyonat” romanidagi halol, pok, insofli va diyonatli inson kim?

O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning “Diyonat” romanidagi halol, pok, insofli va diyonatli inson domla Normurod Shomurodovdir. Romanda tasvirlanishicha, o'z umrini ilm-fanga bag'ishlagan ulkan olim Normurod Shomurodov uzoq yillar oily o'quv yurtida mehnat qiladi. U o'zining adolatli, halol, to'g'ri so'zligi bilan ko'pchilikning hurmatiga sazovor bo'ladi. Keksayib, nafaqaga chiqqanda, yolg'iz o'g'li va ayolidan ajralgan professor tug'ilgan qishlog'iga ko'chib keladi. Lekin u yerdagi adolatsizliklarni, xususan, jiyani rais Otaqo'zi Umarovning xatti-harakatlarini ko'rib, qattiq ranjiydi hamda iztirob chekadi. Shu bilan birga, Otaqo'zini insofga, adolatga chaqirib, uning fe'l-atrofidagi qusur'larni dangal ochib tashlaydi. Bu haqda yozuvchi Odil Yoqubov: “... *men hayotda faqat Otaqo'zi kabi nohalol kimsalarnigina emas, Normurod Shomurodovga o'xshagan nihoyatda pok, halol, insofli, diyonatli, yurt koriga yaraydigan insonlarni ham ko'p uchratgandim*”, – deb alohida ta'kidlagan.

400. Odil Yoqubovning “Diyonat” romanidagi Otaqo'zi kim?

Rahbar xodim, rais. Unda savod, bilim, did, madaniyat ham yetarli. Fikr, manfaat doirasi xiyla keng. Bora-bora turg'unlik muhitida o'jar, mag'rur, shafqatsiz, toshbag'ir kimsaga aylanadi. Otaqo'zidagi salbiy xususiyatlar tobora kuchayib, tabiatidagi yaxshi fazilatlarini soyada qoldira boshlaydi. Qo'shnisi Nodiraga, o'g'li Haydarga, bo'lajak kelini Latofatga, qudasi Fazilatga, halol, adolatparvar tog'asi Normurod domlaga qarshi adolatsizlik va shafqatsizliklari, jinoiy ishlarni bosdi-bosdi etish yo'lidagi xatti-harakatlari bu odam inqirozidan dalolatdir.

401. Yozuvchi Odil Yoqubovning Otaqo'zi obrazini yaratishdan maqsadi nima edi?

Odil Yoqubov bu obraz orqali turmushda “katta ishlar qildim”, degan bahonada odamlarning boshiga chiqib olgan, qonunchilikni oyoqosti qilishdan toymagan ulkan xo'jalik rahbari obrazini yaratish, uning parvozi va tanazzulini ko'rsatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. “*Men hayotda ko'p adolatsizliklarga sabab bo'lgan bunday rahbarlarhaqidagi o'ylarim va ko'rgan-kechirganlarimni romandagi Otaqo'zi obrazida mujassamlashtirishga harakat qildim*”, – deb yozadi muallif.

402. “... Bu uch roman garchi har biri mustaqil, o'zicha tugal asar sanalsada, o'ziga xos trilogiya xalqimiz tarixining muayyan bosqichi – qizil imperiyaning yurtimizda tinch, osoyishta kunlarda ichdan yemirilishi, halokatga yuz tutish davri haqida muayyan tasavvur beradi”. Mazkur fikrlar kimning qaysi asarlari haqida?

Yuqoridagi fikrlar xalqimizning sevimli yozuvchisi Odil Yoqubovning “Diyonat”, “Oqqushlar, oppoq qushlar” va “Adolat manzili” romanlari haqida aytilgan. Bu uch roman zamonaviy mavzularni yoritishda yozuvchi imkoniyatlarini tobora ko’payib, mahorati yanada o’sganligidan dalolat beradi. “Diyonat” romanida O’zbekistonning XX asr 70-yillaridagi hayoti tasvirlangani bizga ma’lum.

“Oq qushlar, oppoq qushlar” romanida 80-yillarning boshlarida mamlakatda mavjud bo’lgan hayot haqiqati aks ettirilgan bo’lsa, “Adolat manzili” romanida 1984 – 1988-yillarda “paxta ishi”, “o’zbek ishi” bahonasida O’zbekistonda bo’lib o’tgan fojiali voqealar haqqoniy tarzda tasvirlangan.

403. Odil Yoqubovning ”Adolat manzili” romani nima haqida bahs yuritadi, bosh qahramoni kim?

Odil Yoqubov “Adolat manzili” romani ustida 1988-1991-yillar davomida ish olib bordi. Asar 1994-yilda “Sharq yulduzi” jurnalida bosildi. 1998-yilda alohida kitob bo’lib chiqdi. Roman voqeasi oddiy – unda “o’zbek ishi” deb atalgan ko’ngilsiz hodisaning ayanchli bir ko’rinishi haqida hikoya qilinadi. Yaqindagina sovxoz direktorligiga ko’tarilgan halol, g’ayratli, shijoatkor, tadbirkor yigit chaquv orqali mansabdorga “pora bergan”likda ayblanib qamaladi, markazdan kelgan “desantchi”larning tahdid-u bedodliklari uchun qamoqxonada o’zini o’ldiradi... Asardagi barcha gap-so’zlar, voqealar mana shu ko’rgulikka muhtalo bo’lgan shaxs – bosh qahramon Suyun burgut bilan bog’liq, yozuvchi bu mudhish hodisaga munosabatda bir talay personajlarning ma’naviy qiyofasini yana ham batafsil gavdalantiradi, o’zining hayot, uning chigal jumboqlari xususidagi o’y-mushohadalarini izhor etadi.

404. ”Odil Yoqubov o’zbek prozasini, to’g’rirog’i, romanchilikni bir bosqich yuqoriga ko’tardi...” kabi iliq fikrlar kimga tegishli?

Yozuvchi Odil Yoqubov romanlari o’zbek nasrining yorqin, serjilo va sermazmun sahifalarini tashkil etadi. Akademik Salohiddin Mamajonov qayd qilganidek: “*Adib prozasini, to’g’rirog’i, romanchilikni bir bosqich yuqoriga ko’tardi. “Ulug’bek xazinasi” romani “O’tgan kunlar”, “Navoiy”lardan keyin tarixiy romanchiligimizdagi quvonchli hodisadir, u tarixiy-psixologik roman sifatida ajralib turadi. “Ko’hna dunyo” tarixiy-falsafiy roman sifatida, “Diyonat” o’zbek adabiyotining yetuk asarlari safidan mustahkam o’rin oldi. “Oqqushlar, oppoq qushlar” roma-nida tahliliy, tanqidiy tafakkur kuchli*”⁶¹.

405. Odil Yoqubov Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag’ishlab qanday asar yozdi?

Nosir va dramaturg Odil Yoqubov “Fotih muzaffar yoki bir parivash asiri” dramasini 1996-yilda yozdi. Asar buyuk sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligiga tuhfa bo’ldi. Asarda Temurning ma’naviy fazilatlari, oddiy insonga xos tuyg’ulari, ichki kechinmalari, orzu-istaklari, fikr-mulohazalari ustalik bilan

⁶¹ Мамажонов С. Адибнинг бадиий олами. – “Совет Ўзбекистони” газетаси, 1986 йил, 12 – декабр.

ko'rsatib berilgan. Shuningdek, dramada Bibisardor, Saragul, Aqchagul, Suluvko'z singari obrazlar mahorat bilan yaratilgan.

406. Odil Yoqubovning qanday dramatik asarlarini bilasiz?

O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning dramaturgiya sohasidagi izlanishlari ham tahsinga sazovardir. Ijodkorning "Murakkab saylov" (1955), "Chin muhabbat", "Aytsam tilim kuyadi, aytmam dilim" (1956), "Yurak yonmog'i kerak" (1957), "Olma gullaganda" (1960), "Fotihi muzaffar yoki bir parivash asiri" (1996), "Bir koshona sirlari" (2000) kabi dramalari respublikamiz teatrlarida muvaffaqiyat bilan sahnalashtirilgan hamda tomoshabinlarga g'oyat manzur bo'lgan.

407. Odil Yoqubovning "Bir koshona sirlari" dramasi qanday mavzuga bag'ishlangan?

Odil Yoqubovning "Bir koshona sirlari" dramasi zamonaviy mavzu tasviriga bag'ishlangan. Unda inson xarakterining murakkabligi, yangi zamon ta'sirida kishilar turmushida, ong-tushunchasi va dunyoqarashida sodir bo'lgan o'zgarishlar, har xil ziddiyatlar ochib berilgan. Asar badiiy mahorat jihatidan ham yuqori saviyada yaratilgan. Dramaturg Sarvarning achchiq qismati, ruhiy iztiroblari, Diloraning oilaviy hayotga yuzaki qarab adashishi va bundan afsus – nadomatlar girdobiga tushib qolishi, Darveshalining rashk olovida azoblanishi, malak siymo go'zal, beayb Gulnozaning murakkab ruhiy holatlari tomoshabinda kuchli taassurot qoldiradi.

408. "Ulug'bek xazinasi" romanida qaysi qahramon zahar ichib o'zini o'ldiradi?

"Ulug'bek xazinasi" romanida Xurshida bonu, Qalandar Qarnoqiy, Amir Jondor kabi badiiy to'qima obrazlar ham berilgan. Shulardan Qalandar Qarnoqiyning sevgilisi Xurshida bonu asar so'ngida zahar ichib o'zini o'ldiradi.

409. Odil Yoqubovning mustaqillik yillari davridagi ijodi haqida nimalar bilasiz?

Odil Yoqubov mustaqillik yillarida ham barakali ijod qildi. Yozuvchining "Adolat manzili" (1998) romani, "Muzaffar Temur" (1996), "Bir koshona sirlari" (2000) singari pyesalari, yuzlab publitsistik maqolalari hamda o'nlab hikoyalari xalqimiz o'tmishi va bugungi dolzarb muammolari badiiy tadqiq etildi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi (1985) Odil Yoqubov 1994-yilda "Do'stlik", 1998-yilda "El-yurt hurmati" ordenlari bilan mukofotlangan.

Odil Yoqubov 2009-yilda 83 yoshida vafot etgan.

Mavzu: PIRIMQUL QODIROV

410. Pirimqul Qodirovning yangi o'zbek adabiyotida tutgan o'rni haqida nimalar bilasiz?

XX asrning ikkinchi yarmidagi o'zbek adabiyoti taraqqiyotini O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirovsiz tasavvur etish qiyin. P. Qodirov avvalo mohir yozuvchi – zamondoshlari haqidagi “Uch ildiz”, “Qora ko'zlar”, “Olmos kamar”, “Erk”, “Meros”, “Jon shirin” kabi asarlari, ko'plab publitsistik maqolalari, tarixiy mavzudagi “Yulduzli tunlar” (“Bobur”), “Avlodlar dovoni” (“Humoyun va Akbar”) romanlari bilan xalqimiz hurmat-e'tiborini qozondi. Adib L. Tolstoy, A. Chexov, K. Fedin, X. Deryayev, Tollis ijodidan tarjimalar qildi. Adabiyotshunos olim sifatida ilmiy tadqiqotlar – “Dil va til”, “Xalq tili va realistik proza” nomdagi risolalarni yaratdi.

411. Pirimqul Qodirovning yozuvchi sifatida elga tanitgan asari qaysi?

Pirimqul Qodirov 50-yillarning o'rtalaridan boshlangan yangi davr voqealari voyaga yetkazgan adabiy avlodga mansub. Uning ilk ijodiy mashqlari matbuotda 40-yillarning oxirlaridayoq ko'ringan, 1950-yilda “Studentlar” degan hikoyasi alohida kitobcha bo'lib chop etilgan bo'lsa ham, 1957-yili yozib tugatilgan “Uch ildiz” romani Pirimqul Qodirovni yozuvchi sifatida elga tanitdi. O'sha yilning kech kuzida roman keng muhokamadan o'tdi. Muhokamada ustoz adib Abdulla Qahhor shunday deydi: *“Ancha vaqtdan beri men o'zbek adabiyotida momaqaldiroq guldurosini eshitmay yurgandim. Nazarimda, mana shu asar adabiyotimizga momaqaldiroqday gulduros solib, chaqmoqday yaltillab kirib kelyapti”*. Bu asar haqida Izzat Sulton, Muxtor Avezov, Rasul Hodizoda kabi ulkan adabiyotshunos va yozuvchilar ko'p iliq gaplarni aytishgan.

412. Qaysi ijodkor 26 yoshida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan?

Pirimqul Qodirov 1951-yilda Toshkent davlat universitetining (hozirgi O'zMU) sharqshunoslik fakultetini tugatadi. 1951-53-yillarda Moskvada Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti institutida aspiranturada o'qiydi. 1954-yilda “Abdulla Qahorning urushdan so'nggi ijodi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan.

413. Yozuvchining adabiyotshunoslikka oid faoliyati haqida nimalar bilasiz?

Pirimqul Qodirov badiiy ijodni, tarjimonlikni ilmiy-tadqiqot ishlari bilan qo'shib olib bordi. Filologiya fanlari nomzodi, ilmiy xodim sifatida uzoq yillar O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida ishladi. “O'zbek adabiyoti tarixi”, “O'zbek adabiy tanqidi tarixi”ni yaratishda qatnashdi. Pirimqul Qodirovning ilmiy, adabiy-tanqidiy faoliyati doirasi keng, lekin u ko'proq badiiy asar tili, yozuvchi mahorati muammolarini o'rgandi. Olim “O'ylar”(1971), “Dil va til” (1972), “Xalq tili va realistik proza” (1973) kabi risolalar yozib, so'z san'atining til va badiiy mahoratga doir muhim muammolarini yoritishga munosib ulush qo'shgan.

414. “Uch ildiz” romanining o'ziga xos jihatlari haqida nimalar bilasiz? qahramoni Mahkam yaxshi ko'rgan qiz kim?

“Uch ildiz” romani 50-yillar o’rtalaridagi muhim tarixiy jarayonlarning qaynoq izidan borib yozilgan, o’zbek adabiyotida, balki ko’pmillatli sho’ro adabiyotida shaxsga sig’inishning noxush oqibatlarini aks ettirgan dastlabki yirik asardir. Shaxsga sig’inish muhitida yetishgan, aqidaparastlik hamda bulgar sotsiologizm g’oyalari bilan zaharlangan, safsatabozlikni o’zlariga qurol qilib olgan, shular vositasida mansab-martabalarga, ilmiy darajalarga ko’tarilgan, xolis, iste’dodli, haqiqiy fan zahmatkashlarini yo’ldan olib tashlashga erishgan kimsalarning asl qiyofasini fosh etish, o’shanday kimsalarga qarshi turgan yangi fikrli kishilar kurashini ko’rsatish romanning asosiy g’oyaviy-badiiy mundarijasini tashkil qiladi.

“Uch ildiz” romani voqealari bir oily o’quv yurtida bo’lib o’tadi, asardagi qahramonlar ziyolilar – professor-o’qituvchilar, aspirantlar va talabalar bo’lib, undagi mojarolar esa asosan mafkuraviy kurash tevaragida ketadi. Romanda yoshlarning ishq-muhabbati, sevgidagi adashishlar, yangicha va eskicha qarashlar, o’quv-tarbiya masalalari bilan bog’liq mojarolar ham qalamga olinadi, biroq ular ham har xil yo’llar bilan bosh masalaga – mafkuraviy kurashlarga borib ulanadi.

415. “Uch ildiz” romanining asosiy g’oyasi nimada deb o’ylaysiz?

Pirimqul Qodirovning “Uch ildiz” romani oliy maktab talabalari hayotiga bag’ishlangan birinchi katta nasriy asardir. Shaxsga sig’inish davri ta’sirida 50-yillarda oily o’quv yurtlarida ildiz otgan tarafkashlik, mansabparastlik, soxtalikdabdababozlik – “qizil so’zlik”, haqiqatdan ko’z yumib, rostgo’y olimlarni beobro’q qilish singari illatlarni fosh etish, ilm fidiyilari bilan soxta “olim”lar o’rtasidagi ziddiyatni ochib berish, adolatli, haqgo’y ziyolilarni iste’dodli tolibi ilmlarni qo’llab-quvvatlash – romanning asosini egallaydi.

416. “Uch ildiz” romanidagi “... urilgan, nomiga dog’ tushgan” tarixchi olim Toshevning qizi kim?

Adib Pirimqul Qodirovning “Uch ildiz” romani qahramoni Mahkam mehr qo’ygan qiz Gavhar. U “... urilgan, nomiga dog’ tushgan” kishining – tarixchi olim Toshevning qizi bo’ladi. Toshev xudbin va mansabparast kimsalar qutqusi bilan nohaq ayblanadi, ishdan chetlatilgan. Mahkam universitetdagi, fakultetdagi nosog’lom muhitni o’rgana borib, dekan Hakimov va Eshonboyevlarning soxta olimlar ekanini, jirkanch basharalarini dalillar bilan ochib tashlaydi.

417. Pirimqul Qodirovning qaysi qissalarida inson qadr-qimmatini ulug’lash, insonparvarlik va adolatparvarlik, halollik va sof vijdonlilik g’oyalari ilgari surilgan?

Pirimqul Qodirovning “Qadrim”(1959), ”Erk”(1969), ”Meros”(1974), ”Najot”(1981) qissalarida turli mavzular aks ettirilgan. Inson qadr-qimmatini ulug’lash, insonpar-varlik va adolatparvarlik, halollik va of vijdonlilik, vatanparvarlik va xalqlar do’stligi g’oyalari olg’a surilgan.

418. ”Qadrim” asarining bosh qahramoni kim?

Pirimqul Qodirovning “Qadrim” qissasida zamonaviy mavzu yoritilgan. Unda o‘zbek adabiyoti uchun yangi mavzu – gazchilar hayoti va mehnati qalamga olingan. Asarning bosh qahramoni Iskandar bo‘lib, dunyoqarashining shakllanishi, uning o‘z qadr-qimmatini tushuna borishi, hayotdan o‘rnini topib olishi jarayonini tasvirlashga e‘tibor berilgan va bu masala muvaffaqiyatli ravishda yoritilgan. Qissadagi voqealar ham Iskandar tilidan hikoya qilinadi.

419. ”Meros” qissasi nima haqida?

Pirimqul Qodirovning “Meros” qissasi mashhur paxtakor Mamajon Dadajonovning porloq xotirasiga bag‘ishlangan. Asarda paxtakorlar hayoti, ularning mashaqqatli mehnati haqqoniy va to‘laqonli aks ettirilgan.

420. ”Meros” qissasi qahramonlari kimlar?

Qissaning bosh qahramoni Yolqin Otajonov – fidoyi paxtakor, ukasi Tursun onasi, shuningdek, Rustam, O‘ktam, Jobir Toshbekov,.. Yolqin Mirzacho‘lni o‘zlashtirishda jonbozlik ko‘rsatadi.

421. Yozuvchining “Uch ildiz” romani nima haqida bahs yuritadi?

Pirimqul Qodirovning “Uch ildiz” romani oliy maktab talabalari hayotiga bag‘ishlangan birinchi katta nasriy asardir. Shaxsga sig‘inish davri ta‘sirida 50-yillarda oily o‘quv yurtlarida ildiz otgan tarafkashlik, mansabparastlik, soxtalikdabdababozlik – “qizil so‘zlik”, haqiqatdan ko‘z yumib, rostgo‘y olimlarni beobro‘q qilish singari illatlarni fosh etish, ilm fidiyilari bilan soxta “olim”lar o‘rtasidagi ziddiyatni ochib berish, adolatli, haqgo‘y ziyolilarni iste‘dodli tolibi ilmlarni qo‘llab-quvvatlash – romanning asosini egallaydi.

422. Mahkam obraziga xos xususiyatlar nimalardan iborat ?

Samimiylik, e‘tiqodga sadoqat, ilm olishga qiziqish, vafodorlik va rostgo‘ylik, qiyinchiliklarda qo‘rqmaslik “Uch ildiz” romanidagi bosh qahramon Mahkam qiyofasida mujassam. U adolatsizlikni, xiyonatni kechirmaydi. Mahkam kurashlar jarayonida o‘sib, toblanib, yosh avlodning yorqin vakili sifatida shakllana boradi.

423. Yozuvchi asarni nima uchun “uch ildiz” deb ataydi?

Yozuvchi asarda talabalik davrida yoshlarda shakllanadigan ezguliklar va fazilatlari haqida bahs yuritar ekan, mustahkam bilim olishni, faol fuqarolik malakasini kasb etishni va sevgi-sadoqatda sobit turishni inson hayotining uch ildizi deb ataydi.

424. Pirimqul Qodirovning chorvadorlar hayotidan hikoya qiluvchi asari qaysi?

Sermahsul adib Pirimqul Qodirovning “Qora ko‘zlar” (1965) romani yozuvchi ijodida olg‘a tashlangan qadam, o‘zbek romanchiligida muhim hodisa bo‘ldi. Unda chorvadorlar hayoti, qishloq va unda yashayotgan odamlarga doir muammolar Ismat bobo, Xolbek, Hulkar kabi obrazlar faoliyati vositasida yoritilgan. Adabiyotshunos olim Matyoqub Qo‘shjonov haqli ravishda “Qora

ko'zlar"ni "*ona asar*" deb ataydi. Chindan ham, yozuvchi Pirmqul Qodirovning keying ko'p asarlari shu romandan o'sib chiqqan. Mazkur romanga xos realistik tamoyillar keying asarlarida izchil davom ettirildi, yanada chuqurlashdi.

425. Pirmqul Qodirovning "Olmos kamar" asari qachon va qanday mavzuda yozilgan?

Xalqimizning sevimli yozuvchisi Pirmqul Qodirovning "Olmos kamar" romani 1977-yilda yozilgan. Bu romanda katta shaharlarni yangi zamon talablariga moslab qayta qurish va obodonlashtirish jarayonida yuzaga kelgan murakkab holatlarni bartaraf etish, qadimiy ezgu urf - odatlarni, iqlim sharoitini saqlab qolish bilan bog'liq muammolar o'z ifodasini topgan; hozirgi fan-texnika inqilobi davri, gavjum shahar hayoti, o'ta zamonaviy kishilar turmushi aks ettirilgan.

426. Yozuvchi Pirmqul Qodirovning qaysi asarlarini ma'lum ma'noda o'ziga xos trilogiya deb atash mumkin?

Zamonaviy mavzuda bitilgan ko'pgina asarlari orqali kattagina adabiy tajriba to'plagan O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirmqul Qodirov 60-yillarning oxiriga kelib murakkab va qaltis tarixiy bir mavzuga qo'l urdi- temuriylar saltanatining o'z yurtidagi inqirozi, o'zga yurtlar- Afg'oniston va Hindistondagi o'zgacha ko'rinishda qayta tiklanishi, jahonshumul dovrug'i, Temurxon naslining shonli siymolaridan Bobur va uning avlodlari hayoti, faoliyati to'g'risida hikoya qiluvchi keng ko'lamli epic asar ustida ish boshladi. Uzoq yillik izchil tadqiqot, betinim ijodiy mehnat, ma'naviy-ruhiy izlanishlar samarasi o'laroq "*Yulduzli tunlar*" (keyinchalik "*Bobur*") (1978), "*Avlodlar dovoni*" (yoki "*Humoyun va Akbar*") (1988) va "*Ona lochin vidosi*" (2000) romanlari maydonga keldi. Bu uch romanlarni ma'lum ma'noda o'ziga xos trilogiya deb atash mumkin.

427. Mazkur uch romandagi o'zaro ichki bog'lanish nimada deb o'ylaysiz?

"Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni" va "Ona lochin vidosi" kabi uch roman mavzu, g'oyaviy mazmun va asosiy obrazlar e'tibori bilan bir-biriga yaqin turadi. Har uchala asarda ham temuriy hukmdorlar hayoti, ular bilan bog'liq voqealar aks etadi. Bu romanlar o'rtasidagi o'zaro ichki mantiqiy bog'lanish ana shunda namoyon bo'ladi.

428. "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", "Ona lochin vidosi" asarlaridan qaysi biri tarixiy-biografik roman?

"Yulduzli tunlar" romani tarixiy-biografik roman hisoblanadi. Unda ulug'o'zbek shoiri, adibi va mashhur podshoh Zahiriddin Muhammad Boburning ziddiyatli hayoti, dolg'ali faoliyati, hayotdan o'z shaxsiyatiga munosib o'rin topish yo'lida chekkan aziyatlari, hayot-mamot kurashlarida ko'rsatgan shaxsiy qahramonliklari tasvirlangan.

429. "Yulduzli tunlar" romani sujeti qaysi voqealarni qamrab oladi ?

Roman sujeti Boburning Andijondagi yoshlik chog'larini tasvirlashdan boshlanib, uning Shayboniyxonga qarshi kurashda goh yengib, goh yengilib, nihoyat Afg'oniston va Hindistondagi tarqoq xonliklar ustidan g'alaba qozonishi, "Boburiylar sulolasi"⁶² deb nom olgan yirik feodal davlatni tuzishi, nihoyat, 1530-yilda Agra shahridagi o'zi tashkil etgan bog'da vafot etishi kabi voqealar silsilasini o'z ichiga oladi.

430. Romanda Boburning jahoniy shuhrati va hind xalqining unga bo'lgan muhabbati qanday aks ettirilgan?

P. Qodirov romanda Bobur obrazini yaratarkan, bu benazir insonning jahoniy shuhrati va buyuk ahamiyatini, hind xalqining unga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatini chuqur idrok etgan. Hind xalqining buyuk yo'l boshchisi Javoharlal Neru Bobur shaxsiga va faoliyatiga yuqori baho berib: "Bobur dilbar shaxs, uyg'onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor shaxs bo'lgan. U san'atni, adabiyotni sevgan, hayot nafosatidan lazzatlana bilgan. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq va ko'p yaxshi fazilatlariga ega bo'lgan... Boburning Hindistonga kelishi tufayli buyuk o'zgarishlar sodir bo'ldi, san'atda, hayotda va madaniyatda yangicha taraqqiyot yuz berdi"⁶³, - deb yozgan edi. "Yulduzli tunlar" romani J. Neru so'zlarining naqadar to'g'ri va asosli ekaniga jonli dalildir. Romanda hayot haqiqati, Bobur yashagan g'oyat murakkab davrning asosiy xususiyatlari, ayniqsa, Bobur obrazi butun borlig'icha yaqqol ko'rsatilgan.

431. Bobur hayotining so'nggi davrida qaysi o'g'liga vasiyat qiladi?

Romanda Boburning ona yurtga bo'lgan mehr-muhabbati, o'z vatanidan yiroqda yashashga majbur bo'lib chekkan iztiroblari, ota yurtni dil-dildan sog'inishi tasvirlangan o'rinlar ruhiyat tahlili san'atining namunasidir. Bobur o'z hayotining so'ngida suyukli o'g'li Humoyunga vasiyat qilib: "Men tug'ilgan yurt bilan aloqani uzmay, shoyad men bitgan kitoblar ikki oradagi aloqaning rishtalari bo'lsa", - deydi.

432. "Yulduzli tunlar" romaniga asos bo'lgan asarlar qaysilar?

"Yulduzli tunlar" romaniga g'oyat ishonchli manbalar – "Boburnoma" va "Humoyunnoma" asarlari asos bo'lgan. Bu manbalarda Bobur hayoti va faoliyati, Bobur yashagan makon va zamon o'sha davr nasri imkoniyatlari darajasida yaxshi yoritilgan, "Yulduzli tunlar" romani muallifi asarda ana shu ishonchli faktlarga tayanib ish ko'rgan bo'lsa-da, ularga bog'lanib qolgan emas. Roman markazida Bobur obrazi tursa-da, asarda xalq insoniyat tarixini yaratuvchi va harakatga keltiruvchi asosiy kuch sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchi xalqning kuch-qudratini, buyuk tarixiy rolini chuqur idrok etgan va to'g'ri tasvirlab bergan.

⁶² Boburiylar sulolasi 1526-yildan 1707-yilgacha Hindistonda hukm surgan. Boburiylarning olti avlodi, 189 yil davomida Hindistonda hokimiyatni boshqargan. Bu davr ichida Bobur (1526-1530), Humoyun (1530-1556), Akbar (1556-1605), Jahongir (1605-1627), Jahonshoh (1627-1658), Avrangzeb (1658-1707) podshohlik qilgan. 1707-yilda Angliya Hindistonni bosib olgan va 1947-yilgacha (ikki asr davomida) mamlakatni mustamlaka holida saqlagan. Hindiston 1947-yilda mustaqillikka erishgan.

⁶³ Неру Дж. Открытие Индии. – Москва: 1955, стр. 272.

433. “Yulduzli tunlar” asarida Boburning insoniy fazilatlari qaytarzda ochib berilgan?

Bobur asarda haqiqiy inson sifatida jonlanadi. Yozuvchi uning insoniy fazilatlarini onasi Qutlug’Nigorxonim, opasi Xonzodabegim, suyuqli xotini Mohimbegim va farzandi Humoyunga bo’lgan mehr-muhabbati misolida yaqqol ochib bergan. Bobur kitobxon ko’z o’ngida pok qalbli oqil inson sifatida gavdalanaadi. *“Humoyun, jigarim, - deydi Bobur og’ir kasal bo’lib yotgan o’g’liga qarab, - sening betoqatligingga men toqat keltiray! Sening shu og’ir dardingni sendan olib menga bersin”*.

434. “Yulduzli tunlar” romanida Bobur o’zining xotin-qizlarga bo’lgan munosabatini ajoyib me’mor Fazliddinga qanday bayon etadi?

Bobur xotin-qizlarga bo’lgan munosabatini ajoyib me’mor Fazliddinga shunday bayon etadi: *“Men... Samarqanddagi Bibixonim madrasasidek ulug’ bir madrasaning tarxini sizga chizdirmoqchi edim. Opa-singillarimizning qadrini boshimizga ko’tarsak arzigay...”*

435. “Yulduzli tunlar” romanida Boburning andijonlik navkar yigiti kim ?

Boburning andijonlik navkar yigiti Tohir bo’lib, unga doim samimiy munosabatda bo’lgan. Yozuvchi shu samimiylikni tasvirlash orqali uning ulug’ inson hamda buyuk orzularini, yirik davlat tuzishga va mamlakatni obod qilishga astoydil harakat etgan, adabiyot va san’at rivojiga katta hissa qo’shgan hukmdor ekanligini ochib bergan.

436. “Yulduzli tunlar” asar qanday yakun topgan?

Asarda fojiali voqealar, ziddiyatlar, iztiroblar, angu jadallar tasviri asosiy o’rinni egallagan va roman sujeti bosh qahramon – buyuk inson Boburning vafotini aks ettirish bilan tugagan bo’lsa-da, unda hayotbaxsh ruh balqib turadi. Romanda podshoh Bobur o’lgan bo’lsa-da, buyuk shoir Bobur o’lmagan, uning hayoti u yaratgan dilbar asarlarda mangu davom etmoqda, degan katta va muhim g’oya yorqin aks ettirilgan...

437. Pirmqul Qodirov “Avlodlar dovoni” romanida qaysi voqealarni tasvirlagan?

Yozuvchi boburiylar avlodi tarixini bu romanida davom ettirdi. Buyuk Bobur ning nabirasi Akbarshohning Hindistonda bobosi tuzgan davlatni mustahkam lash va rivojlantirish yo’lida olib brogan sa’y-harakatlari va adolatli kurashlari keng miqyosda qiziqarli tarzda tasvirlab berilgan.

438. Pirmqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” nomli romani qanday mavzu haqida?

Yozuvchining “Ona lochin vidosi” (yoki “Gavharshodbegim”) nomli romanida tarixga yangicha nazar bilan qaralib, ajdodlar hayoti va ruhiyati badiiy tadqiq etilgan. Sho’rolar davrida hayot qarama-qarshilik va ziddiyatlar asosidagina taraqqiy etadi, degan tasavvurga tayangan markscha falsafa tufayli, har bir tarixiy

shaxs qaysidir boshqa shaxsga qarshi qo'yilib tasvirlanish an'anasi shakllangan edi. Shunga ko'ra Navoiy Boyqaroga, Ulug'bek Xo'ja Ahrorga, hatto onasi Gavharshodbegimga qarshi qo'yilar edi. P. Qodirov tarixiy manbalar bergan guvohliklarga, eng muhimi, yozuvchining uchqur xayolotiga tayangan holda sulton Ulug'bek Mirzo va uning onasi Gavharshodbegim o'rtasidagi munosabatlar tamomila o'zgacha asoslarga qurilganligini ko'rsatib bergan.

439. Pirimqul Qodirovning qanday sahna asarlarini bilasiz?

Pirimqul Qodirov dramaturg sifatida "Insof" pyesasi va "Sening izlaring" nomli kinosenariylarini ham yozgan. Ular o'z vaqtida sahnalashtirilib, respublika teatrlarida ko'p marta namoyish etilganini ham yaxshi bilamiz.

Mavzu: Erkin VOHIDOV

440. O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning adabiyot maydoniga kirib kelishi qaytarzda bo'ldi?

Erkin Vohidov ma'rifatli, ziyoli xonadonda tug'ilgan. Onasi Roziyaxon, otasi Cho'yanboy Vohidov qishloq o'qituvchilari va faollaridan bo'lishgan. Ularning umri qisqa ekan, juda erta olamdan o'tishgan. Shuning uchun Erkin Vohidovga nisbatan *ikki qisqa umrning yolg'iz yodgori iborasi ishlatiladi*.

Ota-ona vafotidan so'ng Toshkentga – tog'asinikiga ketadi, tog'asi qo'lida tarbiyalanadi. She'r yozishga yoshligidan qiziqdi, shoir G'ayratiy bosh bo'lgan adabiy to'garakka qatnay boshladi. Bu to'garak bo'lajak shoir uchun badiiy ijod bobida ilk saboq dargohi xizmatini o'tadi. So'ng ToshDU (hozirgi O'zMU) filologiya fakultetida ta'lim oldi (1955-1960). Shu vaqtlarda yosh iste'dod tarbiyasiga e'tibor kuchaygan bir davr edi. Erkin Vohidov shoir Mirtemir bosh bo'lgan ijodiy seminarga qatnay boshladi. Bu voqealarni shoir shunday eslaydi: *"Mening she'riyatga oshno bo'lishimda G'ayratiy to'garagi, Mirtemir seminari, dorilfunundagi ijodiy muhit katta ta'sir qilgan"*.

441. Erkin Vohidov o'zining ustози deya e'tirof etgan shor kim?

"Men uni ustoz deyman. Meni ilk bor she'riyatning sehrli gulbog'iga g'oyibona yetaklagan, xanda urib oqqan misralari yosh qalbimga shaloladay quyilgan menga baxt va shodlikni kuylash san'atini o'rgatgan shoir shu ustozdir", – deb Erkin Vohidov baxt va shodlik kuychisi Hamid Olimjonni e'tirof etgan.

442. Erkin Vohidovning ilk kitobi qanday atalgan?

O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov hozirgi o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biridir. San'atkorimiz publitsist, dramaturg, dostonnavis, tarjimon sifatida barakali ijod qilgan bo'lsa-da, avvalo lirik shoir sifatida adabiyotga kirib kelgan, xalqimiz qalbidan ham nafis, ham dolg'ali, ham isyonkor she'rlari bilan chuqur joy olgan. Shoirning birinchi she'rlar kitobi "Tong nafasi" nomida 1961-yilda nashr etilgan.

443. Erkin Vohidovning qaysi kitobi aruzda yozilgan?

Erkin Vohidov dastlab hayot, go'zallik, yoshlik, muhabbat kuychisi sifatida maydonga chiqdi. Taqdir in'om etgan hayot, saodat, yoshlik, muhabbat sururini hamda hayotdan rizolikni to'lib-toshib kuyladi. Xalqimiz erishgan yutuqlar, uning shonli tarixi, qo'lga kiritgan g'alabalari to'g'risida faxr-iftixorga to'la satrlar bitdi. 50-yillar oxiri 60-yillarga kelib inson shaxsiga hurmat, qalbiga e'tibor oshdi, kishining xilma-xil kechinmalari, ayniqsa, an'anaviy sevgi taronalari kuylash uchun yo'l ochildi. Bu hol an'anaviy she'riy shakl – g'azalning jonlanishiga (g'azallarning aruz vaznida yozilishini yaxshi bilamiz) olib keldi. Tabiiyki, bu jarayon o'sha kezlari osonlikcha, silliq kechgani yo'q. Ba'zi munaqqidlar ishqiy kechinmalarni kuylash, ko'hna she'riy shakl – aruzga murojaat qilishni zamondan uzoqlashish deb atadilar. Erkin Vohidov “Yoshlik devoni”(1969) kitobining “Debocha”sida shunday qarashlar bilan bahsga kirishadi:

*Istadim sayr aylamoqni
Men g'azal bo'stonida.
Kulmangiz, ne bor senga deb
Mir Alisher yonida.
She'riyat dunyosi keng,
Gulzori ko'p, bo'stoni ko'p,
Har ko'ngil arzini aytur
Neki bor imkonida.
Ey, munaqqid, sen g'azalni
Ko'hna deb kamsitmagil,
Sevgi ham Odam Atodin
Qolgan inson qonida.*

Shu tariqa shoir inson qonidagi azaliy, tabiiy tuyg'u – sevgini va necha asrlar sevgini kuylagan qadimiy g'azal shaklini himoya qiladi. She'rda g'azal shunchaki she'riy shakl ma'nosida emas, muhabbat, boqiy insoniy tuyg'ular ramzi tarzida ham qo'llangan.

444. Erkin Vohidovga dostonchilikda shuhrat keltirgan asarlari qaysilar?

Erkin Vohidov “Nido”, “Orzu chashmasi”, “Palatkada yozilgan doston”, “Buyuk hayot tongi”, “Charog'bon”, “Toshkent sadsosi”, “Quyosh maskani”, “Ko'hi nur”, “Ruhlar isyoni” hamda “Istanbul fojiasi” kabi ko'plab dostonlarni yozdi. Ularning mavzu-mundariyasi, saviyasi turlicha. “Toshkent sadosi” bilan “Quyosh maskani” qasida, madhiya, faxriya ruhida bitilgan; “Buyuk hayot tongi” va “Charog'bon” mustabid tuzum davrida urfga aylangan ayrim shaxslar timsolini ulug'lashga qaratilgan...

Shoirga dostonchilikda shuhrat keltirgan asarlari “Nido”, “Ruhlar isyoni”, hamda “Istanbul fojiasi” bo'ldi.

445. Erkin Vohidovning “Nido” dostoni haqida nimalar bilasiz?

Erkin Vohidov “Nido” dostonini 1964-yilda yozgan. Doston urush mavzusiga bag’ishlangan bo’lib, bosh qahramoni yigirma yashar yigit, u hayot-mamot urushi-dan so’ng voyaga yetgan yangi avlodning umumlashma obrazidir. Asar ana shu lirik qahramonning o’tli hayqirig’i bilan boshlanadi:

*Hayqiraman,
Tog’lar bag’ridan
Gumburlagan sado keladi,
Ona-Yerning otash qa’ridan
“O’g’lim!” degan nido keladi.
“O’g’lim!”
Vujudimni chulg’ar alanga,
Bo’g’zimga tiqilar hayajon.
- Mana men, o’g’lingiz,
Dardli olamga
Sizdan tanho yodgor,
So’ylang, otajon!..*

Shoirning otasi Cho’yan Vohidov urush qurboni edi. Asarni shoir otasiga bag’ishlagan. Dostonda shaxsiy yo’nalish ijtimoiy ohang bilan tutashib ketgan, birgina shaxsning tuyg’u va o’ylari ko’pchilikning kechinmalari darajasiga borib yetadi. Doston birgina lirik qahramonning, urush tufayli otadan yetim qolgan o’g’lonning emas, urush jabrini chekkan million-million kishilar qalbining nidosi, urushga nafrati, minnatdor avlodlarning og’ir jangda halok bo’lganlar xotirasi oldidagi qasamyodi kabi jaranglaydi.

446. Erkin Vohidovning “Nido” dostonida urushning oddiy bir qishloq boshiga solgan fojialari qanday tasvirlangan?

Bola o’sgan qishloqdan qishloqdan to’p-to’p odamlar jangga o’tlanadi. Yoshgina bolakay hali urush nima ekanligini to’liq tasavvur qila olmaydi. Biroq ko’p o’tmay bolakay ko’cha changitib yurgan olis, sokin qishloqda ham urush o’z fojiali qiyofasini namoyon eta boshlaydi:

*Rustamning akasi urushdan qaytdi,
Qo’ltiqtayog’i bor,
Bir oyog’i yo’q.
Rustam aytib berdi:
Ataka payti
Tizzasidan olib ketgan emish o’q...*

Yoki urushning ana shu qishloq boshiga solgan yana bir dahshati:

*Xol aka qaytganda uyga to’satdan,
O’g’li, dadajon, deb chopib kelibdi.
Ota quchay desa qo’li yo’q ekan,
Tik turgan joyida yig’layveribdi.*

447. Erkin Vohidovning “Nido” doston orqali aytmoqchi bo’lgan asosiy maqsadi nima deb o’ylaysiz?

Dostonda tinchlik uchun kurashib jon berganlar nidosi, ularning ortida qolgan farzandlar, onalar, chol-u kampirlar nidosi umumlashib davr nidosiga – tinchlik uchun kurash nidosiga aylanib ketadi:

*Asrdosh birodar, qo’lni ber,
Kel, Yerga qilaylik qasamyod:
Bo’lurmiz gal kelsa har birimizga
Tinchlik janggohining fidosi.
Bu senga, bu menga, bu bizga
Yigirmanchi asr nidosi.*

Demak, tinchlik uchun, insoniyatning baxtli kelajagi uchun kurash nidosi XXI asrda ham, undan keyin ham, to Yer yuzida abadiy tinchlik o’rnatilgunga qadar har bir insonning qalbida jaranglab turmog’i kerak.

448. Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostoni haqida nimalar bilasiz?

“Ruhlar isyoni” dostoni 1980-yilda yozilgan bo’lib, shoirning o’sha paytga qadar bosib o’tgan ijodiy yo’lining eng baland cho’qqisi, o’ttiz yillik ijodiy izlanishlarining yakuni, dostonchilikdagi tajribalarining gultojidir. Bu qahramonlik dostonida shoir asrimiz boshlarida chaqmoqdek yaraqlab, she’riyatda o’chmas iz qoldirgan, isyonkor she’rlari bilan butun Hindiston yarimorolini larzaga solgan, hayotini el-yurt erki, baxti yo’liga fido etgan otashin Bengal shoiri Nazrul Islom jasoratini ulug’laydi.

“Otashin Bengal shoiri Nazrul Islomning qahramonona va fojiali taqdiri ko’pdan meni hayajonga solib kelar, u haqda biron narsa yozish xayolida yurardim”, – deydi muallif. Shu maqsadda Erkin Vohidov shoir hayoti va ijodini astoydil o’rgandi, shoir hayotiga oid faktlar bilan yaqindan tanishish maqsadida Hindistonga bordi, shoir yashagan joylarda bo’ldi, shoirni shaxsan tanigan, bilgan kishilar bilan suhbat qurdi.

Doston fojeiy bo’lsa-da, unda qahramonlik va falsafiylik kuchli. Muallif isyonkor shoir kurashi, jasorati qanchalar qimmatga tushganini, shoir bilan davr va xalq orasidagi murakkab, ziddiyatli munosabatlarni, shoir qalbidagi orzu, alam-iztiroblarni butun keskinligi bilan ko’rsatadi. Shoir Nazrul Islom jasorati, fojeiy qismati bahonasida shoirning, umuman, ijodkorning hayotdagi o’rni, fuqarolik burchi, qolaversa, insoniylik, fidoyilik, erkka tashnalik, ijtimoiy va ma’naviy hayotning boshqa muammolari ustida o’ylarga toladi.

449. Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonining “G’alayon” bobi nima haqda bahs yuritadi?

Erkin Vohidov dostonning “G’alayon” bobida 1926-yili Kalkuttada bo’lib o’tgan fojeiy voqea – jaholat, diniy adovat oqibati o’laroq kelib chiqqan qonli to’qnashuvlar bahonasida shoir – qahramon qalbi orqali buni yorqin va ta’sirchan ifoda etadi. Shu o’rinlarda Nazrul Islom faqat qaynoq qalbi, otashin so’zlari bilangina emas, amaliy faoliyati bilan ham faol kurashchi, jasur jangchi sifatida ko’rinadi, jaholatda qolgan elning ko’zini ochish, o’zaro nizolarga barham berish

yo'lida jonbozlik ko'rsatadi. Ming afsus, xuddi o'sha olomoni ko'r-u kar qilib qo'ygan, g'aflat bandasiga aylantirgan jaholat tufayli shoir tuhmatga, ta'qibga uchraydi. Nazrul Islomni g'alayonning aybdori deb ataydilar, el uchun jon tikkan shoir el dushmaniga aylanadi, hibsga olinadi, eng dahshatlisi, o'zi totuvlikka undagan hindu bilan musulmon ikki yonda uni ta'qib etib boradi...

450. Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostoni kulminatsiyasi sifatida qaysi bobni ko'rsatish mumkin?

“Jaholat to'g'risida rivoyat”ni dostonning kulminatsion nuqtasi deb atash mumkin. Donishmand hakimning jaholat hukm surgan zamonda nashtar bilan ko'rning ko'zini ochishga jur'at qilishi, johil olomon tomonidan bunday jur'at makruh atalishi, hakimning sazoyi etilishi, gulxanda kuydirilishi, eng yomoni – xuddi o'sha o'z qo'lida shifo topib, ko'zi ochilgan chol tomonidan ta'na-dashnom eshitishi, o'sha johil chol yoqqan olovda kuyib, kulga aylanishi kitobxon qalbini titroqqa soladi. Biz bu fojiani butun vujudimiz bilan idrok etamiz. Rivoyat shu bilan tugamaydi. Donishmand olovda yondirilish hodisasidan keyin shunday voqea ro'y beradi:

*Shu olovdan
Elning,
 ajab;
Aql ko'zi
 ochildi.
O'kindilar,
Aza tutib
Yig'ladilar,
 kuydilar.
Donishmandga
Yillar o'tib
Oltin haykal
 qo'ydilar...*

Bu asar faqat qahramonlik dostoni, fojeiy doston, o'y-mushohadalar dostoni bo'lib qolmay, tarixiy saboqlar dostoni hamdir. U Nazrul Islomdek yorqin siymo, asl xalq farzandining shonli va achchiq qismatidan saboq chiqarib olishga undaydi.

451. Gyotening “Faust” asarinin kim o'zbek tiliga tarjima qilgan?

“Faust”ning (rus tilidan) o'zbek tiliga tarjima qilinishi, kitob holida nashr etilishi madaniy hayotimizda, adabiyotimizda quvonchli voqea bo'ldi. Tanqidchilikda ta'kid-langanidek, she'riyatimizga mashhur nemis shoirining oltmish yillik ijodiy mehnati samarasi bo'lmish shoh asarini olib kirgan, har bir so'zi xalq hikmatiday quvvatga ega bo'lgan Gyote dahosini o'zbek she'riyati zaminida yuksaltirgan Erkin Vohidov katta muvaffaqiyatga erishdi. Tarjima satrlarining mag'zi to'liq va ularda jonli tomiri urib turadi. Asarda shoirning she'ri ko'tarinki romantika, falsafiy teranlik

bilan to'liqdir. Tarjimon Erkin Vohidov asarning mana shu ko'pohangli – polifonik xususiyatini ona tilimizda ro'yobga chiqara olgan, Gyote asarining ruhi, boyligini o'zbek tilida berishga asosan erishgan. Tarjimada bugungi o'zbek she'riyaining kamolotini, tilimizning go'zal va qudratli imkoniyatlarini namoyon qilgan.

452. Erkin Vohidovning qaysi asarida vatangadolik fojiasi ochib berilgan?

Erkin Vohidov ijodida “Istanbul fojiasi”(1985) she'riy dramasi muhim o'rin tutadi. Asarda poklik bilan nopoklik, to'g'rilik bilan egrilik, halollik bilan xarom-xarishlik, samimiylik bilan soxtalik o'rtasidagi keskin kurash yorqin ifoda etilgan. Asar sujeti hayotiy va qiziqarli ziddiyat asosiga qurilgan hamda g'oyat jozibali, ta'sirli qilib yaratilgan. “Istanbul fojiasi” dramasida asosan uch obraz: rais Jalol, uning xotini Saodat va ukasi Iskandar mavjud. Bu obrazlarning uchovi ham hayot haqiqatiga mos ravishda ko'rsatilgan va asar g'oyasi ana shu obrazlarning xatti-harakatlariga, dialog va monologlariga mohirlik bilan singdirib yuborilgan.

Dramada vatangadolik fojiasi ham ochib tashlangan. Iskandar chet elda akasi Jalolni uchratgach, birinchi navbatda: “*Ona yurtidan bir kaft tuproq keltirdingmi?*” – deb so'raydi. Jalol esa: “*U tuproqda bitgan mayiz bor*”, – deya unga mayiz beradi. Iskandar: “*... qani endi nasib bo'lib bag'ringda o'lsam, bu dunyodan armonsiz ketardim. Go'yo ona quchog'ida uxlagan boladek, tuprog'ingda erkalanib yotgan bo'lardim*”, – deya nola qiladi, faryod chekadi.

Dramaturg Iskandarning achchiq qismatini ko'rsatish bilan ona Vatan tuyg'u sining qanchalik muqaddas, qanchalik bebaho ekanini, buni boshqa hech narsaga qiyos qilib bo'lmasligini g'oyat ta'sirli ravishda ko'rsatgan, ona-Vatanga mehr-muhabbat g'oyalarini asar sujetiga ustalik bilan singdirgan.

453. Erkin Vohidov ijodiga adabiy tanqidchilik munosabati qanday?

Erkin Vohidov ijodi XX asr va hozirgi o'zbek adabiyotining eng katta va qimmatli yutuqlaridan biri sifatida 60-yillardan buyon adabiy tanqidchilik va adabiyotshunoslikning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda. O'zbek adabiyotshunosligida, jumladan, O. Sharafiddinov, L. Qayumov, S. Mamajonov, U. Normatov, I. G'afurov, N. Xudoyberganov, B. Nazarov, Y. Solijonov, N. Shukurov, H. Boltaboyev va boshqalarning ilmiy asarlarida Erkin Vohidov ijodining asosiy xususiyatlari ancha keng tahlil qilingan. Bu muhim ilmiy tadqiqot ishi yanada davom ettirilsa, Erkin Vohidovning ko'pqirrali va serjilo ijodi haqida yirik monografiyalar ko'p yaratilsa, ayni muddao bo'lar edi.

Mavzu: Abdulla ORIPOV

454. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov sevimli shoirimiz Abdulla Oripov haqida qanday fikr bildirgan?

O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov – tug'ma iste'dod egasi. U – juda siyrak uchraydigan noyob, nodir shoir. Uning so'z san'ati xazinasiga qo'shgan hissasi bebaho. Ana shuning uchun ham Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov: “*Biz XX asr adabiyotini Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Oybek kabi mumtoz adiblarsiz, zamonaviy adabiyotimizni Said Ahmad,*

Erkin Vohidov singari ijodkorlarsiz tasavvur eta olmaganimizdek, ma'naviy kelajagimizni, farovon va buyuk istiqbolimizni Abdulla Oripov ijodisiz ko'z oldimizga keltira olmaymiz. Hozirgi davrda uning she'rlari xalqimizni adolat tantanasi, yorug' kelajakka ishonch ruhida tarbiyalaydigan yuksak ma'naviy omil bo'lib xizmat qilmoqda"⁶⁴, - degan edi.

455. Abdulla Oripov ijodi haqida adabiy tanqidchilik va adabiyotshunoslik qanday fikrlar bildirgan?

Xalqimizning sevimli shoiri A. Oripov ijodiga Izzat Sulton, M. Qo'shjonov, O. Sharafiddinov, L. Qayumov, S. Mamajonov, U. Normatov, A. Rasulov, B. Nazarov, O. Abdullayev, I. G'afurov, N. Rahimjonov, N. Xudoyberganov, Suvon Meli, A. Hamdamov, O. Karimov, G. Ashurova kabi olimlar haqli ravishda yuqori baho berganlar. "Onajonim she'riyat" va "Abdulla Oripov she'riyatining asosiy xususiyatlari" (M. Qo'shjonov), "She'riyat-qalb yolqini" (O. Sharafiddinov), "Abdulla Oripov she'riyatining asosiy xususiyatlari" (M. Qo'shjonov, Suvon Meli), "She'riyat-kurashchanlik demak" (I. G'afurov), "Dovonlardan dovonlarga" (N. Xudoyberganov), "She'riyat-shoir yuragi" (R. Vohidov, M. Hoshimova), "Abdulla Oripov she'riyatida metaforik obrazlar"(O. Karimov) va boshqalar risola, ilmiy ocherk va xilma-xil maqola-yu taqrizlar ham fikrimiz dalilidir.

456. Abdulla Oripov qachon va qayerda tug'ilgan?

Abdulla Oripov 1941-yil 21-martda Qashqadaryo viloyati Koson tumaniga qarashli Neko'z qishlog'ida tug'ildi. Qishloq Qo'ng'irtov etagiga joylashgan bo'lib, oqar suv taqchil bo'lsa-da, seryomg'ir kelgan yillarda ko'kat-u maysalarga ko'milib qoladigan joy edi. Otasi Orifboy Ubaydulla o'g'li jamoa raisi edi. Onasi Turdixol momo ko'pchilik o'zbek ayollari singari mehnatkash, mehribon, g'oyat ta'sirchan va ezgulikka tashna ayol bo'lgan. Oilada to'rt o'g'il, to'rt qiz bo'lib, Abdulla o'g'illarning kenjasi bo'lgan. Bolaligi shu qishloqda o'tdi, o'rtoqlari kabi qo'y boqdi, suv tashidi, pichan o'rdi, somon to'pladi, kitobga haddan tashqari ko'ngil qo'ydi. O'zicha so'zlarni so'zlarga qo'shib she'rlar mashq qila boshladi.

457. Abdulla Oripovning o'qish yillari haqida nimalar bilasiz?

Bo'lajak shoir Abdulla Oripov 1958-yilda o'rta maktabni oltin medal bilan tugatadi. Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMU) "O'zbek filologiyasi" fakulteti jurnalistika bo'limiga o'qishga kirib, uni 1963-yili imtiyozli diplom bilan bitiradi.

458. Abdulla Oripov qayerlarda ishladi?

Abdulla Oripov oily maktabni tugatgach, Toshkentdagi sobiq "Yosh gvardiya" nashriyatida muharrir bo'lib ishga kirdi. To'rt yil ishlagach, 1967-1974-yillarda G'afur G'ulom nomidagi nashriyatda muharrir, katta muharrir bo'lib xizmat qildi. 1974-1976-yillarda "Sharq yulduzi" jurnalida bo'lim boshlig'i bo'ladi. O'tli she'riyati bilan muxlislarining mehrini qozongan shoir 1976-1982-yillarda

⁶⁴ "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси, 2001 йил, 23 март.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining adabiy maslahatchisi, 1982-1983-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Toshkent viloyati bo'limida mas'ul kotib bo'ladi. 1983-yilda "Gulxan" jurnalining bosh muharriri, 1985-yildan esa O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining kotibi bo'ldi. 1988-yilda O'zbekiston Respublikasi mualliflik huquqini himoya qilish qo'mitasi raisivazifasida ishladi. 1996-yilning mart oyidan 2009-yilgacha shoir O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi vazifasida mehnat qildi.

459. Abdulla Oripovning ijodiy kamolotga erishuvida kimlar muhim rol o'ynadi?

Abdulla Oripovning ijodiy kamolotida tinimsiz mehnat bilan birga, ustoz shoirlardan olgan saboqlar ham muhim rol o'ynagan. Abdulla Oripov Alisher Navoiy, Bobur, Cho'lpon, G'. G'ulom, Oybek, H. Olimjon, U. Nosir, A. Qahhor, Mirtemir, M. Shayxzoda singari buyuk ustozlar ta'sirida o'sib kamolotga yetgan. Abdulla Oripov: "*Ko'pgina adiblarni o'sha paytdan, maktab o'quvchisi paytidan g'oyibona taniganman, ilk she'rlarimni o'shalarga ergashib yozganman*", – degan. Abdulla Oripov she'riyatga hech qachon ermak deb qaramaydi. Uni doimovijdon ishi deb biladi. Shuning uchun ham shoir asarga jilo va sayqal berishdan aslo erinmaydi. Shoirning quyidagi she'rida samimiy ixlos va mamnuniyat barq urib turadi:

*Boshin egar hamisha
Ostonangda Abdullo,
Eng oliy baxtim mening,
Onajonim, she'riyat.
Topgan toj-taxtim mening,
Jonajonim, she'riyat.*

460. Abdulla Oripov qanday mukofotlar sohibi?

Abdulla Oripov 1983-yilda Hamza nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Shu yili unga "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni berildi. 1994-yilda Alisher Navoiy nomidagi respublika davlat mukofotiga loyiq ko'rildi. 1998-yilda esa shoir "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan taqdirlandi. Abdulla Oripov O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasining muallifidir.

461. Abdulla Oripovning respublika matbuotida ilk bor e'lon qilingan she'ri qanday nomlangan?

Ilk bor respublika matbuotida "Qushcha" nomli she'ri 1958-yilda e'lon qilingan. Bundan avval shoirning she'riy mashqlari tuman va viloyat gazetalarida bosilib chiqqan. She'r 8 misradan iborat bo'lgan:

*Goh butoqqa, goh gulga qo'nar,
Tinim bilmas sayroqi qushcha.
Nechun bahor seni rom etgan,
Qayda eding bahor kelguncha?*

*Kel, yashaylik hamisha birga,
Bizda bahor, gullar barchasi.
Bilsang men ham chaman o'lkamning
Sho'x va quvnoq, shod o'g'ilchasi*⁶⁵.

462. Abdulla Oripovning dastlabki to'plami haqida nimalar bilasiz?

Abdulla Oripov shoir sifatida asardan asarga o'sib, tezda ijodiy kamolotga erishdi. Natijada she'riyatimiz xazinasiga yil sayin tobora ko'proq va qimmatliroq hissa qo'shib bordi. Shoirning "Mitti yulduz"(1965), "Ko'zlarim yo'lingda"(1966), "Onajon"(1969), "Chashma", "Ruhim"(1971), "O'zbekiston" (1972) to'plamlari e'lon qilinganda 30 yoshda bo'lgan. Bu to'plamlardan joy olgan she'rlarda ayrim kamchiliklar bo'lgani tabiiy, lekin ular shoirni keng kitobxon ommasiga tanitdi.

463. Nima uchun shoirning ko'p asarlarida mungli nido, ma'yuslik kuchli?

Abdulla Oripovning qator she'rlarida va "Jannatga yo'l" dostonida mungli nido, ma'yuslik mavjud. Bular shoirning turg'unlik davridagi adolatsizlik va ko'z-bo'yamachilikka bo'lgan keskin e'tirozining in'ikosidir. Akademik Matyoqub Qo'shjonov haqli ravishda qayd etganidek: "*Vaqtlar o'tdi. Qayta qurish ishlari boshlandi. Bir vaqtlar shoirning mungli bo'lib ko'ringan she'rlari mavjud hayotning aks sadosi ekani, shoir qalamga olgan manfur hodisalar o'sha davrga xos haqiqatning o'zi ekani ma'lum bo'ldi. Uning haqiqatgo'y, hozirjavob shoir ekaniga hamma tan berdi*"⁶⁶.

464. Abdulla Oripov ijodi evolyutsiyasidagi ziddiyatlar haqida nimalar bilasiz?

Abdulla Oripov ijodi faqat muvaffaqiyatlardan tashkil topgan emas, albatta. Shoir kitoblarida ijodiy evolyutsiya ziddiyatlari sifatida baholanuvchi talay she'rlar borki, ular davr sinovidan o'tolmadi. Chunki, Abdulla Oripov yangi bosqich o'zbek she'riyatida nechog'li haqgo'y, dildagi dardinigina yozadigan, iymoni Vatan va xalq qayg'usiga esh shoir ekanidan qat'i nazar, har bir inson kabi u ham davr, siyosat, mafkuraning qonuniy tazyiqi va ta'siri ostida bo'ldi.

Shundan kelib chiqib, uning ijodidagi ayrim kamchiliklarga quyidagicha qarash o'rinli bo'ladi. Birichisi, har qaysi san'atkor ijodi faqat muvaffaqiyatlardan tashkil topmaganidek, ijodiy jarayon goh ko'tarilish, goh pasayishdan iborat bo'lganidek, Abdulla Oripovda ham tabiiy ijodiy jarayon mahsulisifatidagi ba'zi bir bo'sh va kuchsiz asarlar mavjud. Ikkinchisi, shoir umumiy oqimga qo'shilib talaygina zamonasoz va bag'ishlov she'rlar yozdi. Bunday she'rlar majburiylik, buyurtmani bajarish, mafkuraga mute'lik bois paydo bo'ldi, shuning uchun ham ular badiiy quvvati zaif, zamonasoz asarlar sifatida qolib ketdi.

465. Abdulla Oripov she'rlarining mavzu ko'lamini haqida nimalar deya olasiz?

⁶⁵ Орипов Абдулла. Танланган асарлар. 4 жилдлик. –Т.: Адабиёт ва санъат нашр., 2000. 1-жилд, 14-бет

⁶⁶ Қўшжонов М. Беназир истеъдод. – "Совет Ўзбекистони" (хоzirги "Ўзбекистон овози") газетаси, 1991 йил, 29 март.

Abdulla Oripov she'riyati haqqoniy bo'lganidek, mavzu doirasi keng, mazmuni esa boy va teran. Shoir she'riyatida ona Vatan – O'zbekiston mavzusi o'zining butun salobati va borlig'i bilan gavdalanadi. Vatanga va xalqqa muhabbat tuyg'usi shoir ijodining asosini tashkil etadi. Abdulla Oripov Vatan tuyg'usining eng muqaddas va eng bebaho qadriyat ekanini rang-barang shakllarda yurakdan kuylaydi. Shoir “Ishonch ko'priklari” kitobida Vatan va ona haqida teran badiiy umumlashma yaratgan. Har bir insonning dunyoda onasi bitta bo'lganidek, Vatani ham bittadir, degan fikrni samimiyat bilan ifodalagan:

*Bisyor bo'lsa agar bol ham beqadr,
Takror aytilganda rangsizdir kalom.
Bu yorug' olamda Vatan bittadir,
Bittadir dunyoda ona degan nom.*

466. Mustaqillik va shoir ijodidagi o'ziga xoslik haqida nimalar deya olasiz?

O'zbekiston mustaqilligi munosabati bilan Abdulla Oripov ijodida ona-yurt va Vatan mavzuining yangicha talqinlari maydonga keldi. “Adolat oftobi”, “Uyg'ornish zamoni”, “Erk haqqi”, “Oq kabutar” she'rlari ana shundaydir. Ayni vaqtda, u buyuk Amir Temurning tarixiy qudrati mehr bilan haqqoniy yoritilgan bir qancha she'rlar yaratdi. Bular uzoq yillar orzu qilingan adabiyotimizda Temur obrazini Vatan o'tmishi, buguni va istiqboli bilan bog'lab emin-erkinlikda yaratilgan dastlabki asarlar bo'ldi.

“Adolat oftobi”da shoir yurtni, elni Mustaqillik bilan muborakbod etadi, adolat oftobi porlaganini kuylaydi. Bu she'r O'zbekiston mustaqil respublika deb e'lon qilingan kunda yozilgan va shu kuniyoq Oliy Kengash minbaridan o'qib berilgan. She'r faqat quvonch va shodliklardan osmonga mushak otish, Vatanimizni shon-sharaflarga burkash ruhida yozilmagan. Shoir bu mustaqillik osonlik bilan qo'lga kiritilmaganini e'tirof etadi, uni saqlab qolish, mustahkamlash muhimligiga e'tiborni qaratadi. Oldinda hali kurashlar borligini ta'kidlab, bu yo'lda hushyor turishga chorlaydi:

*Unutmagin va lekin, oldda bor hali yotlar,
Qadamingni poylaydi ochko'z, yuho ne zotlar,
Shoh suribsan, injimag'ingshisa agar motlar,
Yelkamizga oftobning tekkanligi rost bo'lsin,
O'zbekning o'z niholin ekkanligi rost bo'lsin.*

“Erk haqqi” she'rida “Adolat oftobi”dagi fikr davom ettiriladi. Bu she'rdagi shoir o'zbek xalqi hech qachon va hech kimga badniyatlik bilan munosabatda bo'lmagani va bo'lmasligini, bu mustaqillik millionlab dildagi haq-huquqning qonuniy natijalari ekanini kuylaydi. Lekin bu hali barcha narsa hal bo'ldi, degani emas. Ertani shum qutqulardan batamom xoli deb bo'lmaydi. Shundan ogoh bo'lmog'i zarur.

Shoirning bu kabi qator she'rlarida mustaqillikni qutlash va ulug'lash, uni ko'z qorachig'iday asrash va mustahkamlashga chaqiriq bilan chambarchas holda aks ettirilgan.

467. 90 – yillarda Abdulla Oripovning qaysi to'plamlari e'lon qilindi?

90-yillarda Abdulla Oripovning “Sen bahorni sog'inmadingmi”, “Qush tili” (1991), “Munojot. Saylanma”, “Haj daftari” (1992), “Hikmat sadolari” (1993), “Dunyo” (1995), “Ibodati”, “Saylanma”, “Sohibqiron” (1996), “Savob” (1997), “Bedorlik” (1999) kabi o'ndan ortiq she'riy to'plamlari e'lon qilindi.

Bu davrga kelib shoir ijodida falsafiy ohanglar kuchaydi. 90-yillar avvalida vujudga kelgan imkoniyatlar, mustaqillik, dindagi hurfikrlilikning qaytishi shoir ilhom buloqlarining ko'zini ochdi.

468. Abdulla Oripovning “Sohibqiron” she'riy dramasida qanday mavzu qalamga olingan?

Abdulla Oripovning “Sohibqiron” she'riy dramasida sho'rolar hokimiyati davrida qatag'on etilgan shavkatli Temur obrazi katta iftixor bilan qalamga olingan. Asarda bobomiz Amir Temur obrazi yaratilib, uning mamlakat va xalq tarixida tutgan o'rni badiiy ravishda ko'rsatib berilgan. Dostonda asosiy e'tibor bosh qahramonning hayot va inson haqidagi o'y-xayollari, fikr-mushohadalari, g'azabu mehri aks ettirilgan.

Abdulla Oripov asarda Amir Temur obrazini ideallashtirmagan. Uning podshoh sifatidagi xato ishlarini, dunyoqarashidagi ziddiyatlarni, qismatidagi fojiali jihatlarini ham ochiq ko'rsatgan. Amir Temur asar oxirida umr bo'yi qilgan savobu gunohlarini kuyinib eslaydi va sarhisob etadi:

*Tinsiz jangu jadal bilan o'tdi hayotim,
Balki qancha umrlarga zomin bo'lganman.
Oxiratda etagimdan tutmasmi ular?*

469. Abdulla Oripovning “Sohibqiron” she'riy dramasida Turkistonning qaysi mashhur va aziz avliyosi obrazi yaratilgan?

“Sohibqiron” she'riy dramasida Turkistonning mashhur va aziz avliyosi va shoiri Ahmad Yassaviy obrazi ham yaratilgan. Ahmad Yassaviy buyuk mutafakkir sifatida cheksiz ixlos va hurmat bilan tasvirlangan. Amir Temur Xitoyga yurish qilishdan oldin Turkistonga borib alloma maqbarasini ziyorat qiladi, ulug' avliyodan oq fotiha olmoqchi bo'ladi. Asarda bu voqea g'oyat ta'sirli va dramaturgga boy qilib aks ettirilgan. Dramaturg bu sahnada qabrda yotgan Yassaviy hazratlari ruhini jonlantirib, uni Amir Temur bilan muloqot qildiradi. Muloqotda Ahmad Yassaviy sohibqiron savollariga javoban:

*Niyat qancha jozibali bo'lsa ham, Temur,
Qilich bilan murod hosil bo'lmog'i gumon, –*

deydi.

Mavzu: O'tkir HOSHIMOV

470. O'tkir Hoshimov adabiyotga qachondan kirib keldi?

O'zbekiston xalq yozuvchisi, Respublika Davlat mukofotining sohibi O'tkir Hoshimov XX asrning 60-yillari adabiyotga kirib kelgan avlod vakilidir. Adib ko'plab hikoyalar, qissalar, romanlar va dramalar yaratdi. Yozuvchi o'ziga xos, betakror publitsist sifatida ham tanilgan. Hayotimizning dolzarb masalalariga bag'ishlangan, hamisha yurak qa'ridan qaynab chiqqan, kitobxonni o'ylashga undaydigan maqolalari ijtimoiy-madaniy hayotimizda sezilarli voqea bo'ldi va ma'naviyatimizni boyitdi.

O'tkir Hoshimov 1941-yil 5-avgustda Toshkentning Do'mbirobd mahallasida tug'ilgan. Uning otasi Toshkent to'qimachilik kombinatida oddiy ishchi bo'lgan. 5-sinfda o'qib yurgan kezlari adabiyotga qiziqqa boshlaydi, she'rlar va hikoyalar yoza boshlaydi. 1962-yilda yozuvchining ilk kitobi – "Po'lat chavandoz" bosilib chiqadi. Bunda u talaba edi. 1963-yili "Sharq yulduzi" jurnalida ijodkorning "Cho'l havosi" degan jajjigina qissasi bosilib chiqadi va kitobxonlar orasida mashhur bo'lib ketadi.

471. O'tkir Hoshimov nomini mashhur qilgan asari qaysi?

Yozuvchi nomini mashhur qilgan asari "Cho'l havosi" qissasi bo'ldi. Qissa tanqidchilar e'tiborini ham, tajribali yozuvchilar diqqatini ham jalb etdi. Atoqli yozuvchi Abdulla Qahhor yosh muallifga shunday maktub yo'llagan: "O'tkir! "Cho'l havosi"ni o'qib suyunib ketdim. Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo'ladi, qissa juda sof, samimiy, iliq, tabiiy, rohat bilan o'qiladi. Qissaning xat shaklida bo'lishi ko'p joylarda ritmni buzadi, sizni cheklab qo'yadi. Hikoya birinchi shaxsdan olib borilsa ham shunday bo'lar edi. Buni o'ylang, hisobga oling. Shu alanga hech qachon pasaymasin, ijodingiz hech qachon tutamasin! Hurmat bilan Abdulla Qahhor"⁶⁷.

472. O'tkir Hoshimovning qaysi qissalari yoshlar hayotidan olib yozilgan?

O'tkir Hoshimovning "Gunafsha", "Shamol esaveradi", "Odamlar nima derkin?", "Qalbingga quloq sol", kabi qissalari ijodining ilk bosqichlarida yaratilgan bo'lib, yoshlar hayotiga bag'ishlangan. Ularning qahramonlari- maktab o'quvchilari, talabalar, aspirantlar, yosh domlalar. Ular endigina hayotda mustaqil qadam qo'ya boshlagan avlod vakillari. Ular sevadilar, sevgida maqsadlariga yetadilar ham, adashadilar ham. Shafqatsiz hayot ularni ilk qadamlaridanoq mashaqqatli sinovga ro'para qiladi. Ba'zilar imtihon qozonlarida qaynab, pishib chiqadilar, ba'zilar esa, boshlariga tushgan balo toshlariga bardosh berolmay, fojiaga yo'liqadilar.

473. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi haqida nimalar deya olasiz?

⁶⁷ Абдулла Қаҳҳор замондошлари хотирасида. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987, 260-бет.

Taniqli adib O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan asardir. Unda asar voqealari muallif nutqi bilan emas, balki personaj nutqi, ya'ni hikoyachi qahramon tilidan hikoya qilinadi. "Dunyoning ishlari" bir qarashda avtobiografik qissaga o'xshaydi. Unda muallif o'z onasi to'g'risida, urush yillarida kechgan bolaligi to'g'risida so'z yuritadi. Lekin yozuvchining asosiy niyati o'zi uchun eng aziz siymo – Onaning portretini chizish, uning hayot yo'lini bayon etish, sha'niga maqtoqlar aytib, xotirasini abadiylashtirish va shu yo'l bilan farzandlik burchini o'tashdangina iborat emas. Unda onaga bag'ishlangan ko'pgina asarlardan farq qilmaydigan oddiy asar bo'lib qolardi. Zero, unda ona degan buyuk zotga xos barcha sifatlar mujassam.

474. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasidagi qaysi hikoyada bolaning onaga bee'tibor ekanligi tasvirlangan?

Qissadagi "Surat" hikoyasida oddiy hayotiy voqelik, bolaning o'z onasiga bee'tiborligi tasvirlangan:

"Suratga tushaylik, dedi to'satdan. Ajablandim.- Qo'ysangiz-chi oyi. Shunday dedim-da, chiqdim-ketdim. Oradan ikki hafta o'tdi-yu..."⁶⁸. Qisqagina dialogda onaning birgina kichik istagi bayonida uning butun hayoti, orzulari aks etgan. Bu holat farzand uchun bir umrlik armon bo'lib qoldi.

475. O'tkir Hoshimovning qaysi qissasi o'z vaqtida katta shuhrat qozondi?

O'tkir Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" qissasi o'z vaqtida katta shuhrat qozondi, asar asosida yaratilgan videofilm ham tezda tilga tushdi. Bu qissa bir qarashda jo'n ko'rinadigan, turmushda tez-tez uchrab turadigan voqea asosiga qurilgan bo'lsa-da, juda muhim masalaga- har qanday inson hayotida uning taqdirini belgilovchi ahamiyat kasb etishi mumkin bo'lgan muammoga bag'ishlangan.

476. O'tkir Hoshimovning romannavislik faoliyati haqida nimalar bilasiz?

O'tkir Hoshimovning romannavislik faoliyati ham ibratlidir. Adibning "Nur borki, soya bor"(1979), "Ikki eshik orasi"(1986), Tushda kechgan umrlar (1992) kabi yirik asarlarni yaratib, romanchiligimiz rivojiga munosib hissa qo'shdi. Adib o'z romanlarida hayotdagi nurli tomonlarni aks ettirish bilan birga, soyalar (salbiy hodisa va nusxalar)ni ham ustalik bilan ko'rsatib bergan. Bu romanlar mavzuning yangiligi, hayotiy voqea-hodisalarning yangicha talqini, xarakterlarning jonli va yorqinligi, sujetning qiziqarliligi, uslubning ravonligi bilan kitobxonlarga yoqdi.

Shunisi ibratliki, O'tkir Hoshimov o'z romanlarida sotsrealizm talablariga zid holda hayotni hech qanday pardozsiz tasvirlash yo'lidan borib, jiddiy yutuqlarni qo'lga kiritganligi bilan ahamiyatlidir.

477. O'tkir Hoshimovning nasrdagi birinchi katta asari qanday nomlangan?

⁶⁸ Ўткир Ҳошимов. Сайланма. Т., 1993.27-бет (Кейинги мисоллар ҳам шу манбадан олинди, саҳифаси кавс ичида кўрсатилади).

O'tkir Hoshimov qissa va hikoyalar yozib, qalamini ancha qayrab olgach, yirik epik janr – roman janriga murojaat qildi. 1977-v yili yozuvchining birinchi romani – “Nur borki, soya bor” bosilib chiqdi. Ammo yosh yozuvchini romanga murojaat etishga undagan sabab – bu janrda kuchini sinab ko'rish ishtiyoqigina emas edi. Buning ancha chuqur ijtimoiy ildizlari bor edi – hayotning o'zida o'sha kezlarda shunday romanlarga ehtiyoj katta edi. 70-yillarning boshlaridayoq turg'unlik davrining illatlari ko'rina boshladi, ijtimoiy illatlar tobora chuqurlashib bordi.

Bu davrda jamiyatda poraxo'rlik avj oldi, odamkar o'z ishini bajarish o'rniga tamagirlik yo'lga o'ta boshladilar, savdo-sotiq xalqqa emas, ayrim shaxslarning boyishiga xizmat qila boshladi, paxta yakkahokimligining dahshati ro'yi-rost namoyon bo'la boshladi, qishloq aholisining moddiy turmushi yomonlashdi. Har xil zaharli moddalarni me'yorsiz ishlatish oqibatida ekologiya fojiali ahvolga tushdi, maktab o'quvchilari va ayollar oyoqosti qilindi, yolg'onchilik, hamma narsani pardoqlab ko'rsatish rasm bo'ldi, buning oqibatida imon susaydi, diyonatga putur yetdi, e'tiqod zaiflashdi. Jamiyatda ma'naviy chirish belgilari yaqqol ko'rina boshladi. Vijdonli yozuvchi har xil taqiqlar va to'siqlarga qaramay, xalq dilidagi dardlarni aytishga imkoniyat topdi va maqsadiga erishdi ham. To'g'ri, romanda ayrim kamchiliklar ham bor, lekin asar muvaffaqiyatli chiqdi.

478. O'tkir Hoshimovning “Nur borki, soya bor” asarining bosh qahramoni kim? Siz u haqda nimalar bilasiz?

“Nur borki, soya bor” romanining bosh qahramoni – Sherzod. Kasbi – jurnalist, shu sabab o'zining bosh vazifasini hayotda haqiqat tantanasi uchun kurashmoq deb biladi. U o'z faoliyatining boshida ancha g'o'r, sodda yigit bo'lib ko'rinadi, ba'zi balandparvoz gaplarga ishinadi, adolat o'rnatishni juda oson ko'chadigan ish deb biladi. Faqat qarama-qarshi kuchlar bilan hayot-mamot kurashiga kirgandan keyin, tuhmatlarga uchrab, juda katta qiyinchiliklar bilan haqiqatga erishgach, Sherzod hayotning nechog'lik murakkab ekaniga amin bo'ladi.

479. O'tkir Hoshimovning “Ikki eshik romani” qachon yozilgan va qanday masalalar ko'tarilgan?

O'tkir Hoshimovning ijodiy muvaffaqiyati 1986-yilda yozilgan “Ikki eshik orasi” romani bilan bog'liq. Voqea Toshkent atrofidagi qishloqlardan birida, urush yillarida bo'lib o'tadi. Yozuvchi asarda urushni qoralaydi, g'ayriinsoniy mohiyatini va jarohatlari ko'p yillar mobaynida odamlarga ozor yetkazishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, adib asarda o'rni-o'rnida qishloq kishilarining urushdan oldingi va urushdan keyingi hayotidan ham lavhalar chizadi. Asarda kolxoz qurilishi, urush va Toshkent zilzilasi bilan bog'liq bo'lgan qariyb qirq yillik hayot qamrab olingan.

480. O'tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani kompozitsiyasi qanday?

O'tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani uslubi tabiiyligi va samimiyligi bilan ajralib turadi. Uning tuzilishi- kompozitsiyasi ham o'ziga xos. Roman yetti qism, qirq yetti bobdan iborat, undagi voqealarni hikoya qilishda to'qqiz personaj qatnashadi. Bunday tasvir usuli ancha qiyin, voqealar tarqalib ketishi, ular orasida uzilish yuz berishi hech gap emas. Adib romanda ichki yaxlitlik

paydo qilgan. Bunday kompozitsion qurilishning bitta afzal ligi bor – har qaysi bob biror personajning ichki monologi tarzida berilgani uchun kitobxon ularning ichki dunyosini, ahvoli ruhiyasini to'laroq bilish imkoniga ega.

481. O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasai" romandagi to'qqiz personajlar kimlar?

Romanda mumtoz adabiyotda mavjud bo'lgan qoliplash san'atidan ijodiy foydalanilgan. Roman voqeasi Robiya, Qora amma, Kimsan Husanov, Muzaffar Shomurodov, Munavvar Aliyeva, Ra'no, Umar zakunchi, Olimjon Komilov kabi turli xarakter va turli toifadagi to'qqiz obraz tilidan hikoyalar tizmasi shaklida berilgan. Bu hikoyalar mazmunan o'zaro bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Shu tariqa ular romanning bir butun, tugal va jozibador sujetini hosil qilgan.

482. O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanidagi obrazlar haqida nimalar bilasiz?

Adib O'tkir Hoshimov kundalik hayot voqealarini, qishloq kishilarining mehnatu tashvishlarini, xatti-harakatlarini, o'zaro munosabatlarini xolis tasvirlab, turli qismat va taqdir sohiblari bo'lgan odamlarning yorqin obrazlarini yaratadi. E'tiqodi mustahkam, vijdoni pok, diyonati mahkam Orif oqsoqol, mard va dono ayol Qora amma, Husan дума, Komil tabib, Robiya kabi odamlarning insonparvarlik, halollik, fidoyilik, mehr-muhabbat singari ajoyib fazilatlarini ehtiros bilan tasvirlaydi. Romandagi qahramonlar hayotda ne-ne qiyinchilik, adolatsizlik, kulfatu zo'rlik ko'rishsa ham, to'g'ri yo'ldan toymaydilar, iymonlarini yo'qotmaydilar, adolat va aql bilan ish tutadilar. Masalan, Orif oqsoqol ba'zi rahbarlarning adolatsizligi tufayli kolxoz raisligidan nohaq bo'shatilganida, ikki azamat o'g'lining jangda halok bo'lgani haqida shum xabarni eshitganida ham dovdirab qolmaydi, tushkunlikka tushmaydi. Chin insoniyligini namoyish qiladi. Qora amma va Husan дума obrazlarida ham tantilik, odamiylik, sabr-bardosh, mehr-oqibat kuchli. Bular o'zlari qiynalsalar-da, boshqalarga faqat yaxshilikni ravo ko'radilar.

Ra'no obrazi orqali frontga ketgan eri Shomurodga vafosizlik qilib, yo'ldan adashgan suluv kelinchakning og'ir qismati, pushaymoni va fojiasi g'oyat ta'sirli qilib ochib berilgan. Umar zakunchi obrazida esa urush davrida kolxozda o'zi xon, ko'lankasi sulton bo'lgan ba'zi raislarning nopok ishlari mohirona fosh etilgan.

"Ikki eshik orasi" romani personajlarga boy. Ular orasida Orif oqsoqol, Husan Duma, Komil tabib kabilar ajralib turadi.

483. Adib O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanida qanday voqealar aks etgan?

O'tkir Hoshimovning 1992-yilda yozgan bu romanida XX asrning 80-yillaridagi hayot ustalik bilan aks ettirilgan. Asarda oshkoralik va tanqidiy ruh kuchli. Ijodkor kishilarimiz ongi va ruhiyatida tarkib topgan insoniylik, poklik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi xislatlarni ulug'laydi, adolatsizlik, mansabparastlik, nopoklik, diyonatsizlikni qattiq qoralaydi.

484. O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanidagi voqealar qayerda bo'lib o'tadi?

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani voqealari qisman Afg'onistonda va asosan, O'zbekistonda bo'lib o'tadi. Asarning bosh qahramoni Rustam – Afg'onistonda "o'z burchini" bajarib, nogiron bo'lib kelgan, vijdonli, pok yigit. U o'z yurtiga qaytgach, adolat va haqiqat uchun kurashadi, adolat topolmay, oxir-oqibatda o'z-o'zini o'ldirishga majbur bo'ladi.

Mavzu: Shukur XOLMIRZAYEV

485. Shukur Xolmirzayev kim?

Shukur Xolmirzayev XX asr o'zbek adabiyotining so'nggi bosqichida so'z san'atimizni yangi saviyaga ko'tarishga salmoqli hissa qo'shgan zabardast adiblarimizdan biridir. Yozuvchi talabalik yillaridan iste'dodini tirishqoqlik bilan parvarish etdi. O'nlab hikoyalar, "Oq otli"(1961) va "To'lqinlar" (1962) nomli qissalari shu vaqtda yozilgan. Tanqidchilik bu asarlarlarni yaxshi kutib olgan.

Mashhur yozuvchi Abdulla Qahhorning yosh adib haqida aytgan iliq fikrlari, tanqidchi Matyoqub Qo'shjonovning matbuotdagi umidbaxsh mulohazalari kitobxon e'tirofini mustahkamladi.

486. Shukur Xolmirzayev nomini mashhur qilgan asari qaysi?

Yigirma besh yoshga kirgan Shukur Xolmirzayev "O'n sakkizga kirmagan kim bor?" (1965) qissasi bilan adabiy jarayondan dadil o'z o'rnini olishga ??? chog'langanini ko'rsatdi. Qissa yoshlar, ayniqsa, talabalar orasida keng bahslarga sabab bo'ldi. Tanqidchilar adib haqida munozara qildilar.

487. Shukur Xolmirzayev qaysi janr rivojiga barakali hissa qo'shdi?

Shukur Xolmirzayev o'zbek hikoyachiligi rivojiga sezilarli hissa qo'shdi. 60-yillardan o'zbek hikoyachiligida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Hikoyada lirik ruh chuqurlashdi. Zamondoshimiz tabiatidagi ziddiyatlarni tasvirlashga ahamiyat ortdi. Shukur Xolmirzayev o'zbek hikoyachiligida Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhor an'alarini yangi bosqichga ko'tarishda alohida namuna ko'rsatdi. "Jinlar bazmi" (Abdulla Qodiriy) hikoyasidagi tabiatning yovvoyi tabiiyligi va sirliligi, shu tabiiylik va sirlilikdagi go'zallikning inson qalbiga vahima solish darajasidagi mahobati Shukur Xolmirzayevning "Zov ostida adashuv" hikoyasida yangi bosqichga ko'tarildi.

Adibning "Olis yulduzlar ostida", "Hayot abadiy", "Og'ir tosh ko'chsa...", "Bodom qishda gulladi" singari to'plamlarga kirgan qator hikoyalari o'zbek hikoyachiligini yangi bosqichga ko'tardi.

488. Shukur Xolmirzayev ijodida inson va tabiat masalasi qaytarzda ifodalangan?

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida inson va tabiat uyg'unligi masalasiga ko'proq e'tibor beradi. Biz buni "Hayot abadiy" nomli to'plamidagi tabiatga yovuzlarcha munosabatda bo'layotgan g'addor kimsa qiyofasi aks ettirilgan "Jarga

uchgan odam”; ne-ne azob-uqubatlarga qolib, eshakda qorlarga botib, tog’dagi och kakliklarga don olib boruvchi fidoyi inson, maktab o’qituvchisi Ehson bilan uning butkul teskarisi, mehmonlarga damlanajak oshga ana shu kakliklar go’shtidan bosish payida yurgan sovxoz direktori – Eshquvvatovning basharasi ochib tashlangan “Kulgan bilan kuldirgan”; tabiatdan bebahra yashash, uni his etmaslik insonning tuyg’ularini o’tmaslashtiribgina qolmay, ayni vaqtda, notavon va nojins qilib qo’yishi mumkinligi falsafasi ifodalangan “Oy yorug’ida” kabi hikoyalarida ko’rishimiz mumkin.

489. Shukur Xolmirzayevning qanday romanlarini bilasiz?

Shukur Xolmirzayev ko’plab hikoya va qissalar yozgan. Bundan tashqari, adib “So’nggi bekat” (1976), “Qil ko’prik” (1984), “Yo’lovchi” (1987), “Olabo’ji” (1991), “Dinozavr” (1996) kabi qator romanlar ham yozdi. Bu romanlar o’zbek romanchiligi taraqqiyotida o’ziga xos o’rin tutadi.

Mavzu: Rauf PARFI (O’ZTURK)

490. Rauf Parfining yangi o’zbek adabiyotidagi o’rni haqida nimalar bilasiz?

XX asrning 60-yillar o’zbek she’riyatida kechgan yangilanish jarayonini “O’zbekiston xalq shoiri” Rauf Parfi ijodisiz tasavvur etish qiyin. Ijodkor, bir tomondan, o’ziga qadar bo’lgan o’zbek she’riyati an’analarini, ayniqsa, Oybek, Mirtemir, Asqad Muxtorning she’riy izlanishlarini, ikkinchi tomondan, Nozim Hikmat, Garsiya Lorika singari xorijiy shoirlar ijodini mehr bilan o’rgandi hamda ularning hech biriga o’xshamagan, o’ziga xos shoir bo’lib yetishdi.

Rauf Parfi – O’zturk 1943-yilning 27-sentabrda Toshkent viloyatining Yangi yo’l tumaniga qarashli Sho’ralisoy qishlog’ida tug’ildi. Otasi – Parfi Muhammad Amin savodli, qalb ko’zi ochiq bo’lib, Farg’onaning Vodil qishlog’idan sho’rolar quvg’ini tufayli Sho’ralisoyga kelib qolgan. Onasi – Sakinaxonim Isabek qizi ham zavqi baland, kitob ko’rgan, mumtoz adabiyotni biladigan ayol bo’lib, u kishi ham asli Farg’onadan edi.

491. Rauf Parfining “Turkiston yodi” she’ri qanday mavzuga bag’ishlangan?

Rauf Parfi “Turkiston yodi” she’rini 1981-yilda yozgan. “Turkiston” so’zini o’sha vaqtda tilga olish, turkiy xalqlarning bir davlatga aylanishini orzu qilish va she’rning qon tomirlariga shu orzuni singdirib yuborish yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin edi. Shoir o’ta qaltis orzusini pardalash uchun Qozog’istondagi Turkiston shahrini she’r markaziga olib chiqqan. Turkistonni atoqli o’zbek shoiri Mirtemirning kindik qoni to’kilgan tuproq, ulug’ bobomiz Ahmad Yassaviyning abadiy manzili bo’lganligi unga qo’l kelgan:

*Yassaviy maqbari mung’aymish mag’rur,
Tovushga aylandi har bir g’isht rangi.
“Dunyo mening, deganlar...” Nido kelur,
“Karkas qushdek...” Qadim so’zlar jarangi...*

Yassaviyning bundan necha asr ilgari o'ziga zamondosh kimsalarga nisbatan aytgan bu so'zlari sho'ro davri va shu davrning korchalonlariga ham qaratilgandek jaranglaydi. Agar Alloma o'z davridagi chidab bo'lmas riyodan, makrdan, turli munofiqlikdan tarkidunyo qilishga majbur bo'lgan bo'lsa, Mirtemir sho'ro davrida boshiga tushgan chidab bo'lmas kulfatlardan, razolatdan, malomatdan to'yib, "men yig'lab bo'ldim", degan. Turkiston bu ikki siymoning vatani sifatida ham, turkiy xalqlarning tarixiy manzili sifatida ham ko'p adolatsizliklarga, haqsizliklarga guvoh bo'lgan – hammasiga chidagan.

492. Turkistonning majoziy obrazi Rauf Parfi ijodida qanday aks etgan?

Rauf Parfi "Turkiston yodi" she'rida Turkistonni Sabr daraxtiga mengzaydi (majoziy obraz sifatida). Turkiston obrazini yaratishdan murodi e'tiborimizni uning o'tmishdagi taqdiriga tortish emas. Uning asosiy maqsadi Sabr daraxtining porloq kelajagiga qaratilgan. U bu daraxtning kelajakda o'z atrofiga barcha farzandlarini olishini orzu qiladi. "Turkiston – umumiy uyimiz" degan shior, g'oya Rauf Parfi she'ri zamirida bor edi. She'rning lirik qahramoni yastanib yotgan kengliklarda xayol surib borar ekan, o'tmishdagi Vatan uni chorlaydi:

*Yana yiroqlarga chorlaydir moziy,
Vatan tushunchasi kelar yetaklab
Ayrilgan, xo'rlangan ulus ovozin.
Shoirning beshigi aytar ertaklar.*

Rauf Parfi sof lirik xayollar bilan sug'orilgan "Turkiston yodi" she'riga ana shu tarzda katta ijtimoiy mazmuni singdirib yuborgan.

493. Rauf Parfi qaysi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilgan?

Rauf Parfi o'zbek o'quvchilarini jahon she'riyatining eng sara namunalaridan bahramand etish maqsadida badiiy tarjima sohasida ham samarali mehnat qilgan. Jumladan, Bayronning "Manfred" dostoni, Karlo Kaladzening "Dengiz xayoli", Nozim Hikmatning "Inson manzaralari", Mahmud Hodiyning "Ozodlik lavhalari", A. Tvardovskiyning "Xotira huquqi" kabi asarlari; Pablo Neruda, Karlo Kaladze, Gevorg Emin, Voqif Samad she'rlari Rauf Parfi qalami tufayli xalqimiz adabiyot ixlosmandlariga yetib borgan.

Mavzu: Tog'ay MUROD

494. Yangi o'zbek adabiyoti takomilida To'ay Murodning tutgan o'rni nimalarda ko'rinadi?

Adabiy taxallusi Tog'ay Murod, asl ismi Tog'aymurod Mengnorov bo'lgan bu noyob iste'dod egasi XX asrning 70-yillari adabiyotimiz maydoniga kirib keldi. Dastlab kichik hikoyalar yozdi. Ularda o'ziga xos iste'dod jilolari borligini kimdir payqadi, kimdir payqamadi. 1976-yilda "Yulduzlar mangu yonadi" nomli qissasi "Sharq yulduzi" jurnalida e'lon qilinishi bilan birdaniga uning nomi el og'ziga

tushdi, muhokamalarda, maqolalarda asar yilning eng yaxshi qissasi deb e'tirof etildi. So'ng birin-ketin "Ot kishnagan oqshom"(1979), "Oydinda yurgan odamlar" (1980), "Momo yer qo'shig'i"(1985) qissalari bosilib chiqdi. Bu asarlarning har biri adabiyot osmonida go'yo momaqaldiroqdek yangradi, keng jamoatchilik e'tiborini tortdi, qizg'in bahs-munozaralarga asos bo'ldi.

495. Tog'ay Murodning o'ziga xos qirralari nimalarda ko'rinadi?

Abdulla Qodiriydan boshlangan yangi o'zbek nasri 60 – 70 yil davomida, garchi unda o'ziga xos iste'dod mo'l bo'lsa-da, til-ifoda bobida asosan Qodiriy kashfiyotlari doirasida rivojlandi. Tog'ay Murod asarlaridagi ifoda, hikoya yo'sini esa 70 yillik milliy o'zbek nasrida tamomila boshqacha, o'zgacha o'zanni tashkil etadi. Ijodkor nasri sa'j⁶⁹lar asosiga qurilganiga guvoh bo'lamiz. Bu nasriy ifoda faqat Tog'ay Murodgagina xos⁷⁰. XX asr zamonaviy o'zbek tili, yangi o'zbek nasri mahsuli bo'lmish bu xil badiiy matn adabiyotimizda tamomila yangi, noyob hodisa. Matndagi gaplarning tuzilish tarzi, ohangi, so'z va jummalarning takroriy kelishi, xalq tilining rang-barang tovlanishi, nozik lutf, qochiriqlar, goh hazin kayfiyat, goh tabassum uyg'otuvchi ifodalar, birgina jumla, birgina tashbeh orqali butun boblarga tatigulik voqea, drama, ruhiy holat – kechinmalarning jonli ifoda etilishi – bularning barchasi yetuk she'riyat, dostonchilik tajribalarini yodga soladi.

Tog'ay Murod nasri hech kimnikiga o'xshamaydigan betakror musiqiy, she'riy ritm, hissiy ohangga, balkim ko'zga ko'rinmas, andazalarga solib bo'lmas g'aroyib vaznga ega.

496. Tog'ay Murod asarlarini qaysi ijodkor qo'shiq deb ataydi?

Tog'ay Murod asarlarini atoqli adib, "O'zbekiston Qahramoni" Said Ahmad qo'shiq deb ataydi. Jumladan, yozuvchimiz "Tog'ay Murodning qo'shiqlari" nomli maqolasida: "*Tog'ay Murod qissa bitmaydi, nazarimda, bor ovoz bilan qo'shiq aytadi. Bu qo'shiqda avj pardalar bor, nolishlar bor, savt bor*" deb yozganida to'la haq. Bu xususiyat uning romaniga ham xos. Qishloq odamlarining udumlari, maishiy hayoti, kasb-kori, mehnatini butun tafsilotlari, etnik ikir-chikirlari bilan ifodalash bobida Tog'ay Murod jahon adabiyotidagi "natural maktab" vakillari bilan bimalol bellasha oladi. Shunisi muhimki, yozuvchi asarlaridagi ayni shunday o'rinlar ham shoirona, musiqiy ohang bilan yo'g'rilgan. Shu tariqa Tog'ay Murod nasri hech kimnikiga o'xshamaydigan betakror musiqiy, she'riy ritm, hissiy-ruhiy ohangga, vaznga ega.

497. Tog'ay Murodni iste'dodli yozuvchi sifatida ko'rsatgan dastlabki yirik asari qanday nomlangan?

Tog'ay Murodni iste'dodli yozuvchi sifatida ko'rsatgan dastlabki yirik asari "Yulduzlar mangu yonadi" bo'lib, qissa 1976-yilda yozilgan. Mazkur qissada yozuvchining qon-qoniga singib ketgan, ming yillar mobaynida unutilmay, elda

⁶⁹ "Sa'j" arabcha bo'lib, nasrdagi qofiya demakdir.

⁷⁰ Бу ҳақда ёзувчининг "От кишнаган оқшом". Қиссалар. –Т.: 1994, "Отамдан қолган далалар. Роман. –Т.: 1994, Бу дунёда ўлиб бўлмайди. Роман. –Т.: "Шарқ", 2001 каби китобларига қаранг.

ardoqlanib kelayotgan tarixiy qadriyat – kurash, kurashchi polvonlar, ular orasidagi muomala-munosabatlar, ziddiyatli hayotiy muammolar qalamga olingan.

498. Adib Tog'ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” qissasi qachon va qanday mavzuda yozilgan?

Tog'ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” qissasi 1979-yilda yozildi va shu yili “Yoshlik” jurnalida chop etildi. Asar xalqimiz orasida juda tez dovuq qozondi. Chunki bu asarda o'sha davr adabiyotida kamdan-kam tilga olinadigan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, butun dunyoga ibrat qilib ko'rsatiladigan “sovet kishisi” tabiatiga xos bo'lgan turfa illatlar badiiy jihatdan ta'sirchan va ishonarli tarzda ochib berilgan. Asardagi qishloq mehnatkashlarining og'ir qismati, katta-kichik rahbarlarning ularga bepisand munosabati, odamlardagi pokiza his-tuyg'ularning toptalishi, kuppa-kunduz kunda bo'layotgan adolatsizliklar tasvir va talqini haqiqatga tashna o'quvchilarning qizg'in e'tirofiga sababchi bo'ldi. Mazkur qissa sho'ro davri adabiyotidagi ko'plab boshqa asarlardan oxiri “*umidbaxsh sadolar bilan*” tugamasligi jihatidan ham ajralib turardi. Uning so'ngida odam bolalaridan cheksiz adolatsizlik, nomardlik, vahshiylik ko'rgan qissa qahramoni Ziyodulla chavandoz o'zining sevimli, vafodor va bir umrga sadoqatli otidan najot tilaydi! Aqlli va til-zabonli, kiyim-boshi ozoda va o'zicha madaniyatli kimsalar uni urib o'ldirishga chog'langan bo'lsalar, o'sha til-zaboni yo'q, ongsiz hayvon sanalmish ot o'z do'stini o'limdan asrab qoladi. Qisqasi, odamni o'zi singari odam zulmidan himoya qilish uchun odam topilmaydi, najot faqat hayvonda qoladi!..⁷¹

Qissaning bunday oshkora tanqidiy ruhi, adolatparvarlik pafosi o'z davrining ko'plab amaldorlari, mafkurachilari g'ashini keltirgani, natijada yozuvchi shaxsiga turli g'iybat gaplar ham tarqatilgani ma'lum. Yozuvchi bularga e'tibor bermadi.

499. Tog'ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” qissasi qahramoni Ziyodullaning eng yaqin do'sti, sirdoshi kim? Siz u haqda nimalar bilasiz?

Tog'ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” qissasi qahramoni Ziyodullaning eng yaqin do'sti, sirdoshi bu – Tarlon. Ziyodulla insonlardan ko'rmagan mehr-oqibatni shu otidan ko'radi. Bu otni yozuvchi Tog'ay Murod xuddi tirik odamday o'ziga xos “xarakteri”, “qismati” bilan gavdalandiradi. “O'zbekiston Qahramoni” Said Ahmad yozganiday, Tog'ay Murodning Tarloni Tolstoyning Xolstomeri, Aytmatovning Gulsarisi qatoriga kelib qo'shildi.

500. Tog'ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasi qachon va qanday mavzuda yozilgan?

Tog'ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasi 1980-yilda yozilgan. Bu asarida adib sho'ro davri adabiyotida avj olgan so'z san'atini, qahramonlarni haddan tashqari mafkuraviylashtirish, ijtimoiylashtirish tamoyiliga qarshi yo'ldan boradi, buning uchun boshqa aqidaparast tanqidchilarning qattiq qarshiligi va e'tiroziga uchraydi.

⁷¹ Bu haqda qarang: S. Ahmedov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev. Adabiyot. Umumiy ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. Toshkent, “Ma'naviyat” 2013. 124-149-betlar.

Qissa qahramonlari – Qoplonbek va Oymomo atrofda qilargaga faqat yaxshilik tilaydigan, umrini ezgulikka baxshida etgan olijanob qalb egalari. Asarda buyuk muhabbat bilan bir-biriga mangu bog'langanbu go'zal insonlarning butun hayot yo'li oydinda aytilgan qo'shiqday tarannum etiladi. Qoplonbekka cheksiz kuch-quvvat, mardlik va shijoat, Oymomoga behad go'zallik ato etgan ona tabiat, afsus, ularni farzand ne'matidan bebahra qilgandi. Ular umrbod mana shu ne'mat ilinjida yashashadi, ne-ne gap-so'zlarga, g'iybat-pichinglarga chidashadi. O'zlarini tabib-u do'xtirlarga ko'rsatishadi, najot izlab bormagan joylari qolmaydi. Farzand istagi shu qadar kuchli ediki, yoshi o'tib, keksayib qolgan Oymomo qo'shni kelinning beshikdagi bolasini ovutib o'tirganda, qup-quruq ko'ksiga birdan sut keladi. Ayol so'nggi nafasidagina onalik baxtidan bir lahza totinadi-yu, dunyodan ko'z yumadi.

Hayotning o'zidan olingan bu ikki shaxs odam bolasi emas, balki farishtani eslatadi. Qissaning tug'ilish tarixi ham sirli holatlar bilan bog'liq. *“Yurtimiz tog' etagida So'fi Olloyor qabri bor. Shu qabr qabatida tog'chorbog' bor. Men bir qishni ona-yurtim chorbog'ida o'tkazdim. So'fi Olloyor bobo bilan qabatma-qabat yotib, “Oydinda yurgan odamlar” nomli qissa bitib keldim”*, - deb eslaydi muallif.

501. Tog'ay Murodning “Momo yer qo'shig'i” asari qanday mavzuda yozilgan?

Tog'ay Murodning keng jamoatchilik e'tiborini qozongan qissalaridan yana biri “Momo yer qo'shig'i” bo'lib, asar 1985-yilda yozilgan.

“Momo yer qo'shig'i” yozuvchining avvalgi qissalaridan o'ziga xos farq qiladi. Bu asar ona zamindan uzilib qolgan ijodkor qismatidan bahs qiladi. Biroq bu qissada ham yozuvchi Tog'ay Murod ijodiga xos tabiiylik, soddalik sun'iylik balandparvozlikka qarshi qo'yiladi. Adib haqiqatni o'zi uchun ardoqli bo'lgan oddiy qishloq odamlaridan izlaydi, ularning sodda, samimiy hayot tarzini ko'klarga ko'taradi, qora mehnat kishilariga hamdardlik tuyg'ulari asarda ko'zga tashlanadi.

502. Tog'ay Murodning qaysi asari yuz yildan ortiq tarixni o'zida ifodalagan?

Tog'ay Murod 1993-yilda “Otamdan qolgan dalalar” romanini yozadi. Bu roman o'zbek xalqining Chor Rossiyasi va sho'ro bosqini ostida o'tgan hayotini – yuz yildan ortiqroq tarixni o'zida mujassam etgan. Asarda bir oilaning uch avlodi hayoti misolidabutun millatning taqdiri juda ta'sirchan bo'yoqlarda ifoda etiladi. Oqqoshshoning asl niyatini anglamay, bosqinchilarning uyatli qiliqlaridan orlanib, tug'ilib o'sgan yerini tashlab ketgan Jamoliddin ketmon – XIX asrning oxiri – XX asrning boshlaridagi xalq vakili edi. Nima qilib bo'lsa-da, yurt tuprog'ini bosqinchilardan tozalash niyatida qo'lga qurol olgan Aqrab (Chayon) XX asrning 20-yillarida milliy istiqlol yo'lida kurashgan bobolarimiz timsoli sifatida ko'rinadi. Ularning avlodi Dehqonqul esa o'sha paytdagi hukmron Moskvaning *“paxta mustaqilligini ta'minlash”* siyosati qurboni – millionlab huquqsiz kolxozchilarning umumlashma obrazidir. Tog'ay Murod “Otamdan qolgan dalalar” romani uchun Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlangan. Aynan shu roman e'lon qilingach, adibga O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoni berilgan. Bu asar asosida taniqli kinorejissor Shuhrat Abbosov ikki qismli badiiy film yaratgan.

503. Yozuvchi Tog'ay Murodning romanni yozish oldidagi holati qaytarzda bo'lgan?

Yozuvchi Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarida ijtimoiy ruh – pafos keng ko'lam kasb etadi. *"Endi qonim o'z g'animlarim uchun qaynamadi. Yo'q, o'z g'animlarim o'z yo'lida qoldi.*

Endi qonim... olamjahon g'animlarim uchun qaynadi. Endi qonim... qudratli g'animlarim uchun qaynadi...

- *Men o'zbek xalqiga haykal qo'yaman!*

Men ana shunday shahd bilan olamjahon g'animlarim sari shaylandim" – yozuvchining romanni yozish oldidagi, jarayonidagi holat-kayfiyati ana shunday bo'lgan.

Roman muallifi boshqa bir o'rinda bu asarni yozishdan ko'zlagan maqsadi ustida to'xtalib, yana ham aniqroq qilib: *"Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zosi – Ozod O'zbekiston uchun bitdim... Ko'nglimda el-yurtim yo'lida nimaiki dardim bor – barini ushbu romanimda to'kib soldim"*, - deydi. Bu lo'nda e'tirofda asarning asosiy ruhi-pafosi yorqin ifodalangan.

504. Yozuvchi Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani va uning asosiy g'oyasi nimada?

Xalqimizning sevimli yozuvchisi Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani Alloh in'om etgan eng ulug' ne'mat – mustaqilligini, erkini, ozodligini boy bergan, bosqinchilar bo'yinturug'ini bo'yniga ilgan el-yurt boshiga tushgan balo-ofatlar, mislsiz xo'rliklar, istibdod iskanjasida qolgan xalq chekkan zahmatlar tufayli adib dilidagi oh-armon, nola-fig'on, salkam bir yarim asr davom etgan imperiya zulmi, zug'umiga qarshi zo'r nafrat – tug'yon kabi yangraydi.

Roman istiqlool davrining adabiyotimizdagi ilk xayrli yutuqlaridan biridir. Imperiya siyosatini, mustabid tuzum mafkurasi mohiyatini bu qadar oshkora, keskin fosh etadigan asarning bizda chiqishi avval xom-xayol bo'lgan. Muallif roman yozishga 1986-yilda kirishgan, 1991 – istiqlool yilida yozib tugatgan va 1993-yilda kitob holida bosilib chiqqan.

505. Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanidagi voqealar qaysi qahramon taqdiri, qismati bilan bog'liq?

Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani markazida Dehqonqul taqdiri turadi. Asar voqealari hayoti, taqdir-qismati, ruhiy dunyosi, ona-yer, kindik qoni to'kilgan muqaddas tuproq bilan mustahkam bog'liq, o'zbekning ramzi degulik mehnatkash, zahmatkash inson – bosh qahramon Dehqonqul tilidan so'zlab beriladi. Dehqonqul hikoyasini o'z sarguzashtlaridan emas, balki ancha naridan – bobosi Jamoliddin, otasi Surxoni Aqrab tarixidan boshlaydi. Chunki Bobo va Ota tarixini eslamay va so'zlamay turib Dehqonqul qismati, xarakteri ma'nosini anglash va anglatish birmuncha qiyin. Dehqonqul – sho'ro davri odami. Unga otasidan faqat mehnatkashlik xislatigina o'tgan. Ota-bobolarga xos yurtsevarlik, erksevarlik, insoniy g'urur, o'zlikni anglash hissi unda barham topgan.

Foydalanilgan va mustaqil o'qish uchun tavsiya qilingan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008. 176 b.
2. Karimov I. A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor.-T.: O'zbekiston, 2009. 40 b.
3. Н. Каримов, С. Мамажонов, Б. Назаров, У. Норматов, О. Шарафиддинов. XX аср ўзбек адабиёти. Университетлар ва педагогика институтлари бакалавр ихтисосини олувчилар учун дарслик. Тошкент “Ўқитувчи” 1999.
4. Saydulla Mirzayev. XX asr o'zbek adabiyoti. O'zbek adabiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun darslik. Toshkent “Yangi asr avlodi” 2005.
5. Sanjar Sodiq. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. Toshkent “Universitet”, 2005.
6. Норматов У. Янги ўзбек адабиёти. Ўқув қўлланма. – Т. : Университет. 2007.
7. Норматов У. Тафаккур ёғдуси. -Т.: “Фикр-медиа”, 2005.
8. Б. Қосимов. Излай-излай топганим. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1983
9. Б. Қосимов, Ш. Юсупов, У. Долимов, Ш. Ризаев, С. Ахмедов. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. Тошкент “Маънавият” 2004.
10. Б. Қосимов. Миллий уйғониш. Тошкент “Маънавият” 2002.
11. Adabiyot. Majmua. Akademik litseylarning uchinchi bosqich o'quvchilari uchun. Tuzuvchilar: Boqijon To'xliyev, Tohir Shermurodov, Shoira Isayeva. Toshkent, 2007.
12. Адабиётимиз автобиографияси. Тошкент, 1973.
13. Ҳамза замондошлари хотирасида. Тошкент, 1979.
14. N. Karimov, V. Nazarov, U. Nornatov. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. 4-nashr. Toshkent “O'qituvchi”, 2004.
15. Q. Yo'ldoshev, V. Qodirov, J. Yo'ldoshbekov. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. Toshkent-2014
16. S. Ahmedov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev. Adabiyot. Umumiy ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. Toshkent, “Ma'naviyat” 2013. 124-149-betlar.
17. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 400 b.
18. Каримов Наим. Чўлпон, Т.: “Фан”, 1991, 84 бет. Каримов Н. Истиқлолни уйғотган шоир. Т.: “Маънавият”, 2000.
19. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – 536 б.
20. Мамажонов С. Бизнинг Чўлпон (Бадиий-публицистик мақолалар), Т.: “Ёзувчи”, 1997.
21. Қуроноф Д. Рухий дунё таҳлили, Т.: Ҳазина, 1995;
22. Қуроноф Д. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси, Т.; “Ўқитувчи”, 1997.
23. Шарафиддинов Озод. Чўлпон. Шоир ҳақидаги ривоятлар ва ҳақиқатлар. Т.: “Чўлпон” нашриёти, 1991, 112 бет.

24. Шарафиддинов Озод. Чўлпонни англаш.- Т.: “Ёзувчи”, 1994, 46-бет.
25. Шарафиддинов Озод. Ижодни англаш бахти.- Т.: “Шарқ”, 2004.-640 б.
26. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 3 томлик, Т., 1994
27. Саид Аҳмад. Бу кунларга етганлар бор, етмаганлар бор.- “Жаҳон адабиёти” журнали, 2001 йил, 9-сон, 5-бет.
28. Саид Аҳмад. “Шум бола”нинг давоми.- “Ўзбекистон маданияти” газетаси, 1978 йил, 9 май.
29. Ҳамид Олимжон. Танланган асарлар, 3-жилд, – Т.:1960,421-бет.
30. Ойбек. Асарлар, 14-жилд. – Т.: “Фан”, 1979, 38-бет.
31. Миртемир замондошлари хотирасида. – Т.: 1982, 138-бет.
32. Қаяумов Лазиз. Замондошлар. – Тошкент: 1985, 309-310-бетлар.
33. Қўшжонов М. Беназир истеъдод. – “Совет Ўзбекистони”(ҳозирги “Ўзбекистон овози”) газетаси, 1991 йил, 29 март.
34. Ҳабибулло Қодирий. Турмуш сабоқлари. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.
35. Зарифа Саидносирова. Ойбегим менинг. Т.: “Шарқ” нашриёти, 1994.
- Улуғбек Ҳамдам. Янги ўзбек шеърияти. Т.: Адиб. 2012
- 36.Жабборов Н. Маърифат надир. –Т.: Маънавият, 2010.
- 37.Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. (Ўқув қўлланма) –Т.: 2011.
38. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2006.
- 39.Ҳамдам У. Янгиланиш эҳтиёжи. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2007.
- 40.Қаҳрамонов Қ. Адабий танқид: янгиланиш жараёнлари. Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009.
41. Fitrat. Chin sevish. Т., Adabiyot va san'at nashriyoti. 1997.
42. Abdulla Qodiriy asarlari:
O'tgan kunlar, Mehrobdan chayon. Romanlar. Т, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1992.
Obid ketmon. Т., Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.
43. Cho'lpon. Asarlar. Uch jildlik. Т., Adabiyot va san'at nashriyoti. 1994-1995.
44. Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. Т., "Фан", 1990-1995.
45. Ғафур Ғулом. Асарлар. 12 томлик. Т., "Фан", 1970-1978.
46. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Беш жилдлик. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987-1989.
47. Ҳамид Олимжон. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Т., "Fan", 1975-1994.
48. Мақсуд Шайхзода. Асарлар. Олти томлик. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти. 1969-1974.
49. Миртемир. Асарлар. Тўрт жилдлик. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти. 1980-1983.
50. Зулфия. Асарлар. Уч жилдлик. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983-1986.
51. Асқад Мухтор. Асарлар. Тўрт томлик. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти. 1980-1983.

52. Саид Аҳмад асарлари:
Сайланма. Уч томлик. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти. 1980-1981.
Жимжитлик. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989.
53. Одил Ёқубов асарлари:
Сайланма. Уч томлик. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти. 1985-1987.
Диёнат. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти. 1979.
54. Пиримқул Қодиров асарлари:
Сайланма. Уч жилдлик. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987- 1988.
Авлодлар довони. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989.
55. Эркин Воҳидов асарлари:
Сайланма. Уч жилдлик. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти. 1986.
Изтироб. Т., "O`zbekiston", 1992.
Яхшидир аччиқ ҳақиқат. Т., 1992.
56. Абдулла Орипов. Тўрт жилдлик. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти. 2001.
57. Ўткир Ҳошимов. Сайланма. Икки томлик. Т., "Шарқ", 1993.
58. Шукур Холмирзаев. Уч жилдлик. Т., "Шарқ", 2003.
59. Рауф Парфи. Сабр дарахти. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти. 1986.
60. Тоғай Мурод асарлари:
Ot kishnagan oqshom. Qissalar. Т., "Sharq", 1994.
Otamdan qolgan dalalar. Roman. Т., "Sharq", 1994.
Bu dunyoda o`lib bo`lmaydi. Roman. Т., "Sharq", 2001.
61. Shavkat Rahmon. Saylanma. Т., "Sharq", 1997.
64. Набижон Боқий. Қатлнома. Т., 1992
65. Мирвалиев С. Ўзбек романи. Т., "Фан" 1969
68. Воҳидов Э. Шоиру шеършуур. Т., 1987.
70. Қўшжонов М., Мели Сувон. Абдулла Орипов Т., "Маънавият" нашриёти 2000
71. Рауф Парфи. Сўнгги видо. Т., 2005
72. О. Каримов. Абдулла Орипов шеърларида метафорик образлар. Монография. Тошкент, 2012, "Академнашр". 136 бет

Электрон манбалар

73. www.literature.uz
74. www.ziyonet.uz
75. www.natlib.uz
76. www.ziyouz.com

Mundarija

Muallifdan	3
Kirish. XX asr o'zbek adabiyotining asosiy taraqqiyot bosqichlari 6	
Yangi o'zbek adabiyoti namoyandalari.....	11
Mahmudxo'ja Behbudiy	11
Abdulla Avloniy	16
Hamza Hakimzoda Niyoziy	18
Muhammad Sharif So'fizoda	22
Abdurauf Fitrat	23
Abdulla Qodiriy	28
Abdulhamid Sulaymon o'gli – Cho'lpon	32
G'afur G'ulom	34
Muso Toshmuhammad o'g'li – Oybek	43
Abdulla Qahhor	51
Maqsud Shayxzoda	64
Hamid Olimjon	77
Mirtemir	90
Zulfiya	98
Asqad Muxtor	103
Said Ahmad	106
Odil Yoqubov	114
Pirimqul Qodirov	124
Erkin Vohidov	131
Abdulla Oripov	137
O'tkir Hoshimov	142
Shukur Xolmirzayev	146
Rauf Parfi	148
Tog'ay Murod	149